2. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
3. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
4. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
5. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).

6. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.
7. Baratov, Rashid, and Sadokat Uzbekova. "INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING." *World scientific research journal* 4.2 (2022): 7-11.
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.
10. Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., & Achilova, G. (2022, June). "One belt-one road" initiative-as a modern transport logistics. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030058). AIP Publishing LLC.
11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙИ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнӣезов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
13. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05), 1-6.
14. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) // *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.
15. М.Н.Хасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627>

15. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 582-586.
16. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.
17. Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1070-1078.
18. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. *World scientific research journal*, 9(2), 37-42.
19. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhokim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1453-1458.



## **TA'LIM QOZOQ TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QUV SAVODXONLIGI FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

**Tajibayeva Akmaral Raxmetulla qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi  
va teoriyasi (boshlang'ich talim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, ta'lim qozoq tilida olib boriladigan sinflarda polilingval yondashish asosida boshlang'ich ta'limni sifatini oshirish masalalari Ona tili va o'quv savodxonligi o'quv fani misolida ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich, qozoq, fonetika, yozuv, til sathi, savod, millat.

### **ABSTRACT**

*In this article, the work carried out in the field of education in our country, the issues of improving the quality of primary education based on the polylingual approach in classes conducted in the Kazakh language, are considered on the example of the subject of mother tongue and educational literacy.*

**Key words:** beginning, Kazakh, phonetics, writing, language level, literacy, nation.

### **KIRISH**

Qadim-qadimdan qo'shni yashab, orzu-havas, ertangi kundan umid va maqsadlari qorishib ketgan o'zbek-qozoq xalqlarining totuvligi, so'nggi yillarda davlatlarimizning chinakam bir-biriga yaqinlashgani o'zaro yelkadoshlikda yangi davrni boshlab berdi, desak mubolag'a emas. Hamjihatlik, jamiyatda millatlararo totuvlikni ta'minlash, har bir shaxsga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Birgina Navoiy viloyatini oladigan bo'lsak, hududda ta'lim olti tilda olib borilib, qozoq tiliga ixtisoslashgan maktablar soni 67 tani tashkil etadi.

Har qanday jamiyatda ham buyuk davlatning barpo etilishi, yoshlarning ma'naviy tafakkuri, dunyorashining qanday bo'lishiga va qanday tarbiya olishiga bog'liq. Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Ilm inson uchun – g'oyat oliy va muqaddas bir fazilat. Zero, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko'rsatur" deb yozgan edi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim o'quvchisini zamon talablari asosida tarbiyalash umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, har

qanday jamiyatni, oilani va ta'lim maskanidagi o'qituvchi va murabbiylar oldiga qo'yilgan muhim talab hisoblanadi hamda ota-ona oldidagi tarbiya mas'uliyatini oshiradi. Istiqloq mafkurasining negizida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yoshlarni milliy g'urur, milliy iftixor, milliy ong va o'z-o'zini anglash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishni taqozo etadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim o'quvchisini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligida mavjud holatni tahlil qilishda muhimdir. Boshlang'ich ta'limda oila va maktab hamkorligini ta'minlashga oid adabiyotlarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy qilish orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchisini zamonga hamnafas etib tarbiyalash, oila va maktab hamkorligini rivojlantirishga doir ma'rifiy bilim ko'nikma va malakalarni to'ldirib borish mumkin. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining emotsional barqarorligini ta'minlash maqsadida ma'naviy-ma'rifiy sohalarga doir kompetentlikni rivojlantirish ham muhimdir.

Ta'lim qozoq tilida olib boriladigan sinflarda polilingval yondashish asosida boshlang'ich ta'limni sifatini oshirish masalalari Ona tili va o'quv savodxonligi o'quv fani misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida "o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani shakllantirish; o'quvchida grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, yozuv, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish; ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat" ekanligi belgilangan. Mazkur o'quv dasturi ona tili va o'qib tushunishga oid malaka va ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Unga ko'ra Ona tili va o'qish savodxonligi faniga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. O'quvchi Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o'zlashtirishda til omilini his qiladi. Badiiy matnlar bilan ishlash davomida, o'zidagi ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, dunyoqarashi kengayadi. Muayyan soha mutaxassisiga aylanganida, maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanib o'zbek tilida ish yuritish, nutq so'zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda

fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi.

Boshlang'ich ta'lim 1-sinf o'quv dasturining tarkibi quyidagicha:

1. Tayyorgarlik davri (tayyorgarlik davrida o'qish hamda yozuv darslari).
2. Alifbe davri (o'qishga va yozishga o'rgatish).
3. Ona tili.

2-4-sinflar uchun Ona tili va o'qish savodxonligi fani dasturi o'quvchining yosh xususiyatlari va shunga muvofiq nutqiy ehtiyojlaridan kelib chiqib tuzilgan.

Ona tilidan ta'lim mazmuni tilning barcha xususiyat va qonuniyatlari parallel ravishda soddadan murakkabga tomon, amalda qo'llash ehtiyojidan kelib chiqqan holda o'rgatishga asoslangan, ya'ni malaka talablarida ko'rsatilgan ko'nikma va malakalarni egallash uchun nutqiy mavzu doirasida qaysi grammatik va til sathlari bo'yicha bilim zarur bo'lsa, shundan o'quvchining yosh xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilgan. Ketma ketlik hisobga olinmagan. Bir mavzuga qayta-qayta murojaat qilinishi va uning doimiy murakkablashib borishiga e'tibor qaratilgan. O'quv dasturida o'quvchi ehtiyoj sezadigan har qanday fan doirasida mavzular shakllantirilib, ularda til birliklaridan qanday foydalanish, nimalarga e'tibor berish kerakligi, ularning mashq va topshiriqlar orqali mustahkamlanishi fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qilgan.

Qozoq tili darslarida so'zlar va jummalarni, doimiy iboralar va matnlarni o'rganish uchun o'quvchini fikrlashga, o'z fikrlarini til orqali aniq, ravshan va ravon bayon qilishga yo'naltirish uchun o'qituvchi tomonidan juda ko'p izlanishlar talab etiladi. . Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, Kanipa Bitibayevaning "Fikrlash - o'qituvchidan, fikrlash - o'quvchidan, fikrlash - o'qituvchidan, qaror qabul qilish - talabadan" degan fikri psixologik jihatdan to'g'ri. Chunki bilish jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqasi orqali amalga oshiriladi.

Qozoq tili va adabiyotini o'qitishda o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirish bilimlarning mazmunini chuqurlashtiradi, ijtimoiy hayot va fan va ta'limni birlashtirish orqali talabaning dunyoqarashini kengaytiradi, o'z fikrlarini shakllantirishga o'rgatadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, o'quv jarayonining samaradorligi o'qituvchining o'qitish mahoratiga, darsni qiziqarli va diqqatli o'tkaza olish qobiliyatiga bog'liq, talabalar o'zlari o'rganishni o'rganadilar. Har qanday yangi usullar har bir o'quvchini o'zi o'rganishga, ijodiy ishlashga, xulosa chiqarishga, nutq madaniyatini rivojlantirishga, ta'lim sifatini oshirishga undaydi. Darsda o'quv texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim sifatini oshiribgina qolmay, balki ularning shaxs

sifatida rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shubhasiz, agar biz yangi sharoitlardan kelib chiqib, o'z sharoitlariga mos usullardan foydalanishni tanlasak, farzandlarimizga ta'lim berishdan foyda ko'rishimiz mumkin.

### **REFERENCES**

1. Abdireymova T. Qozoq tilini muammoli o'rganishning samarali usullari. Nokis. 2009 yil.
2. Abduvalitov E. Qozoq adabiyotini o'qitish metodikasi (darslik). Toshkent, 2008 yil.
3. Bitiboyeva K. O. Adabiyotni o'qitishning innovatsion texnologiyasi. UstKamenogorsk, 2002 yil.
4. Isabaev A. Qozoq tilini o'qitishning didaktik asoslari. Olmaota, Qozon universiteti nashriyoti, 1993 y.
5. Isabaev A. Qozoq tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2003 yil.
6. Beysenbaeva A. Ta'lim jarayonini fanlararo aloqa asosida tashkil etish. Olmaota -1995 yil.
7. Konyratbaev A. Adabiyotni o'qitish metodikasi. Olmaota - 1990 yil.
8. Kdyrova GG O'qitishning yangi texnologik usullaridan foydalanish sifatli ta'limning asosidir. - // Ta'lim №3. - 2017 yil.
9. Raximjonov K.A. Qozoq tilidagi innovatsion tashabbuslar. - // Ta'lim. №2.



## **ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК ИНСТИТУТЛАРИ ЎЗБЕКИСТОН ВА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА**

**Урманбаева Ферузахон Саггаровна**

ТДЮУ мустақил тадқиқотчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада васийлик ва ҳомийлик тайинлашдаги нюанслар ҳақида Россия, Украина ва Қозоғистон Республикаларининг қонунчилигидан мисоллар келтирилган. Жумладан, Украина қонунчилиги асосида васийлик ва ҳомийлик институтини таҳлил қилар экан И.Яницкаянинг айрим эътиборга молик фикрларни келтирилган. Шунингдек васийлик ва ҳомийлик тайинлашда Ўзбекистон ва Қозоғистон қонунчилигидаги ўхшашлик, Россия ва Украина қонунчилигидаги ўхшашликлар қиёсий таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** Ҳуқуқ нормалари, фуқаролик ҳуқуқи, оила ҳуқуқи, фуқаролик-ҳуқуқий институт, васийлик, ҳомийлик, васийлик ва ҳомийлик институтлари, Фуқаролик кодекси, Оила Кодекси.*

## **ОРГАНЫ ОПЕКИ И ПОПЕЧИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье приведены примеры из законодательства республик России, Украины и Казахстана о нюансах при назначении опеки и попечительства. В частности, при анализе института опеки и попечительства на основе законодательства Украины представлены некоторые заслуживающие внимания положения И.Яницкой. Также были сопоставлены сходства в законодательстве Узбекистана и Казахстана, сходства в законодательстве России и Украины в вопросах назначения опеки и попечительства.*

***Ключевые слова:** Правовые нормы, гражданское право, семейное право, гражданско-правовой институт, опека, попечительство, органы опеки и попечительства, Гражданский кодекс, Семейный кодекс, опекунство, попечительство*

## **GUARDIANSHIP AUTHORITIES IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES**

### **ABSTRACT**

*This article provides examples from the legislation of the republics of Russia, Ukraine and Kazakhstan on the nuances in the appointment of guardianship and*

*guardianship. In particular, when analyzing the institution of guardianship and guardianship on the basis of the legislation of Ukraine, some noteworthy provisions of I. Yanitskaya are presented. Similarities were also compared in the legislation of Uzbekistan and Kazakhstan, similarities in the legislation of Russia and Ukraine in matters of appointment of guardianship and guardianship.*

**Keywords:** *Legal norms, civil law, family law, civil law institution, guardianship, guardianship, body of guardianship and guardianship, Civil Code, Family Code, guardianship*

## **КИРИШ**

Таъкидлаш лозимки, васийлик ва ҳомийлик институтини фақат фуқаролик-ҳуқуқий институт сифатида талқин этиш мумкин эмас. Чунки, ушбу институт нормаларининг катта қисми васийлик ва ҳомийликка муҳтож шахсларни аниқлаш, васийлик ва ҳомийликни белгилаш, васий ва ҳомий фаолияти устидан назорат қилиш ташкил этади. Давлат бошқарув органларининг ушбу масалалар бўйича вазифалари васийлик ва ҳомийлик фаолиятини ташкил этишга боғлиқ бўлади. Ташкилий вазифаларни васийлик ва ҳомийлик органларининг фаолияти орқали таъминловчи маъмурий-ҳуқуқий тусдаги нормаларнинг мавжудлиги васийлик ва ҳомийлик институтининг тўлиғича фуқаролик-ҳуқуқий институт бўлиш имконияти бермайди.

Васийлик ва ҳомийлик институтига оид қоидалар мавжуд бўлган маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисидаги қонунчиликнинг алоҳида нормалари мазкур институтни маҳаллий давлат ҳокимияти ҳуқуқига ҳам “мансублигини” англатмайди, чунки бу нормаларнинг аксарияти васийлик ва ҳомийлик институтини тайинлаш билан боғлиқ, холос. Шу боис маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисидаги қонунчилик нормалари фақат васийлик ва ҳомийлик органларини ташкил этиш тартибини, маҳаллий давлат ҳокимиятининг турли органлари ўртасида васийлик ва ҳомийлик органларининг ваколатларини тақимлаш тартибини назарда тутди. Аксинча, ушбу нормалар васийлик ва ҳомийлик органининг васийликдаги ва ҳомийликдаги шахсларга нисбатан ваколатлари ҳажми масаласига таалуқли бўлиши, васийлик ва ҳомийликни белгилаш ва бекор қилиш тартибини, васий ва ҳомий фаолияти устидан назорат шакллари белгилаши мумкин эмас. Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари тўғрисидаги қонунчиликнинг васийлик ва ҳомийликни ҳуқуқий тартибга солишидаги аралашувини бундай чеклаш ушбу институтнинг вазифалари ва тартибга солиш предмети билан боғлиқ.

Гап шундаки, васийлик ва ҳомийликни белгилаш, амалга ошириш ва бекор қилиш билан боғлиқликда юзага келадиган муносабатларнинг кўпчилиги

жисмоний шахслар иштироки кузатилади ва ушбу муносабатларни тартибга солувчи нормаларнинг мазмуни сезиларли даражада васийликдаги ва ҳомийликдаги шахсларнинг ҳуқуқий ҳолатига таъмир кўрсатади. Хусусан, васий томонидан васийликдаги шахснинг мол-мулкани сотиш бўйича ваколатини амалга ошириш тартиби, шунингдек васийлик ва ҳомийлик органининг васийликдаги шахс мол-мулкани бундай бегоналаштиришга рухсат бериш тўғрисидаги қоида фақат таомилий масала ҳисобланмайди. У ёки бу таомилнинг қандай амалга оширилишидан васийликдаги шахснинг мулк ҳуқуқига риоя этилиши, унинг ушбу бегоналаштиришдан оладиган даромадлари ва тушумларига бўлган ҳуқуқи ва бошқа мулкый ҳуқуқлари ўзаро боғлиқ бўлади<sup>27</sup>.

Мазкур ҳолат васийлик ва ҳомийликни қонунчиликнинг оммавий институтлари жумласига киритиш имкониятини рад этади, бинобарин васийлик давлат ҳокимияти органлари учун эмас, аксинча, мазкур органлар давлатда васийликни ташкил этиш учун таъсис этилади. Қолаверса, бир жисмоний шахснинг субъектив фуқаролик ҳуқуқларини бошқа жисмоний шахснинг фаолияти воситасида муҳофаза қилишга йўналтирилган муносабатларни маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиш мумкин эмас.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Васийлик ва ҳомийлик институтини оммавий соҳаларда жойлаштиришнинг мақсадга мувофиқ эмаслиги яна бир муҳим ҳолат билан боғлиқ. Васийлик ва ҳомийлик фақатгина васий ёки ҳомийнинг ихтиёрий розилига мавжуд бўлганда юзага келади. Бошқа ҳолларда, хусусан, васийлик ёки ҳомийликнинг мажбурий тартибда тайинланиши васийликка муҳтож бўлган шахсларга фойдадан кўра, зарар келтириши мумкин. Васийлик ва ҳомийликнинг айнан ихтиёрий тартибда вужудга келиши мазкур ҳуқуқий институни табиати бўйича фақат маъмурий-ҳуқуқий институт сифатида эътироф этиб бўлмаслигини кўрсатади.

Украина қонунчилиги асосида васийлик ва ҳомийлик институтини таҳлил қилар экан И.Яницкая айрим эътиборга молик фикрларни билдириб ўтади. Унинг фикрича, бугунги кунда ҳуқуқий адабиётларда васий (ҳомий)нинг ҳаракатларини васийликдаги (ҳомийликдаги) шахс фойдасига муайян хизматлар кўрсатиш сифатида баҳолаш нуқтаи назари кенг тарқалганки, бу ҳолат васийлик институтини фуқаролик-ҳуқуқий соҳага тааллуқлигини англатади. Хизмат кўрсатиш билан боғлиқ муносабатлар шартномавий тус касб

<sup>27</sup> Мицкевич А.В. Система права и система законодательства: развитие научных представлений и законотворчества // Проблемы современного гражданского права. М., 2000. - С. 26, 27.

этиши муносабати билан васийлик (ҳомийлик) бўйича хизматаларни кўрсатишни амалга ошириш асоси ҳам фуқаролик-ҳуқуқий шартнома бўлиши лозим. Бундай шартномани ноанъанавий шартномалар турига киритиш мумкин ва у ҳақ бараварига ҳам, текинга ҳам тузилиши мумкин. Кўпинча васий ва ҳомий қариндошлар орасидан тайинланганда уларнинг васийлик ёки ҳомийлик мажбуриятлари текинга амалга оширилади. Бу қоида Украина Республикаси Васийлик ва ҳомийлик қоидаларининг 4.12-банди талабларига ҳам мос келади<sup>28</sup>.

Бироқ қайд этиш лозимки, васийликни тайинлаш кўпчилик мамлакатларда давлат органларининг қарори билан амалга оширилади ва шартнома асосида васийлик ёки ҳомийлик тайинланишига йўл қўйилмайди. Масалан, Ўзбекистон ва Қозоғистон қонунчилигида васийликни тайинлаш суд ёки маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан амалга оширилиши белгиланган. Россия Федерация ва Украинада ҳам васийлик ва ҳомийлик шартномага кўра тайинланганда ҳам суд ёки давлат ҳокимияти органи томонидан тасдиқланиши ҳамда мазкур шартнома рўйхатга олинishi лозим. Шу боис васийлик ва ҳомийликни фуқаролик-ҳуқуқий институт сифатида талқин этиш масалага фақат бир ёқлама ёндашувга айланиб қолади. Шу сабабли Украиналик мутахассис И.Яницкаянинг фикрлари баҳслилигини таъкидлаган ҳолда, васийлик ва ҳомийликнинг мақсади фақат муайян бир ҳуқуқ соҳаси доираси ва қобиғида ҳамда фақат шу ҳуқуқ соҳасининг усул ва методларидан фойдаланиш жисмоний шахсларнинг муомала лаёқатини амалга оширишнинг етишмаган қисмини тўлдириш эмас, балки ҳар томонлама, тўлиқ ва комплекс ҳолда суд томонидан муомалага лаёқатсиз деб топилган ёки муомала лаёқати чекланганлар ҳамда ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш, уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларга ижтимоий ғамхўрликнинг барча чоралари кўрсатиш ҳисобланади. Бунда васийлик ҳуқуқнинг қайси соҳаси ёки тармоғининг усул ва методларидан фойдаланиш, у билан боғлиқ муносабатлар қонунчиликнинг қайси соҳасига жойлаштирилганлиги алоҳида ёки муҳим аҳамият касб этмайди. Ҳуқуқ соҳалари ва тармоғлари, институтлари ва субинститутларининг бугунги ўзаро яқинлашуви ва глобаллашуви шароитида ҳуқуқ соҳаларининг ҳаракатланиш доирасини чеклаш ёки улар элементларини ўзаро ҳуқуқий тартибга солишда фойдаланишни инкор этиш кутилган натижани бермаслиги мумкин. Шу сабабли васийлик ва ҳомийлик комплекс ҳуқуқ институти ва алоҳида мустақил қонунчилик институти, деган хулосага келиш мақсадга мувофиқдир.

<sup>28</sup>Яницкая И. Правовая природа института опеки // Martie, 2014. – С. 243-244.

Хулоса қилиб айтиш лозимки, васийлик ва ҳомийлик тўғрисидаги нормаларининг миллий қонунчилик тизимидаги ўринни белгилашда, васийлик ва ҳомийликнинг қонунчилик институти эканлигини қайд этиш лозим. Ушбу таъкид васийлик ва ҳомийликнинг ижтимоий ғамхўрлик шакли сифатидаги моҳиятига оид ғояларга тўлиқ мос келади, шунингдек бундай ғамхўрлик умумдават аҳамиятидаги вазифаларни бажариш ҳисобланади ва давлат ҳокимияти органларининг фаолияти билан таъминланиши ҳамда комплекс ҳуқуқий тартибга солиниши зарур. Шунга қарамадан васийлик ва ҳомийлик тўғрисидаги нормалар тизимининг комплекслилик туси ушбу институтнинг аҳамияти юқори эканлигини кўрсатади ва васийлик ва ҳомийликни қонунчилик соҳаси даражасида эътироф этилиши учун асос бўлади.

### **REFERENCES**

1. Мицкевич А.В. Система права и система законодательства: развитие научных представлений и законотворчества // Проблемы современного гражданского права. М., 2000. - С. 26, 27.
2. Яницкая И. Правовая природа института опеки // Martie, 2014. – С. 243-244. Гражданское право: Учебник. Ч. III / Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. М., 1998. С. 414.
3. Гражданское право: В 2 т. Т. I: Учебник / Отв. ред. Е.А. Суханов. 2-е изд., перераб. и доп. М., 1998. С. 144.
4. Гражданский кодекс Квебека. Серия: Современное зарубежное и международное частное право. М., 1999. С. 62–77.
5. Вагацума С., Ариидзуми Т. Гражданское право Японии (в двух книгах). Кн. 1. М., 1983.
6. Гражданское и торговое право капиталистических государств. Ч. II: Учебник / Под ред. Р.Л. Нарышкиной. М., 1984. С. 274.
7. Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского права (по изданию 1907 г.). М., 1995. – С. 456, 457.
8. Ершова Н.М. Проблемы гражданско-правового регулирования личных и имущественных отношений в сфере семьи: Дисс. ... докт. юрид. наук. М., 1979. С. 97.
9. Скловский К.И. Представительство в гражданском праве и процессе (вопросы теории: сущность, содержание, структура): Дисс. ... канд. юрид. наук. Ростов-на-Дону, 1981. С. 65.
10. Сеитниязов К.П. Фуқаролик ҳуқуқида вакиллик ва уни амалга ошириш муаммолари: Ҳуқуқ магистри академик даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент :2014.– Б. 31-32.



## **ЁШЛАР АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР РИВОЖИ**

**Ҳотам Сирожидинов**

Алишер Навоий номидаги ўзбек тили ва  
адабиёти университети Ижтимоий-гуманитар  
фанлар кафедраси катта ўқитувчиси,

**E-mail: [hotamsir@mail.ru](mailto:hotamsir@mail.ru)**

### **АННОТАЦИЯ**

*“Ахлоқий маданият” инсоният маданият оламининг муҳим ва ажралмас қисми сифатида эстетик, бадиий, сиёсий, диний, экологик, педагогик маданияти билан мустаҳкам алоқада ривожланиб келди. Ахлоқни ёшлар хулқ-атворининг маънавий шарт сифатида тушуниш ўтмиш ва ҳозирги даврдаги барча мутафаккирларга хосдир. Файласуф-олимлар ахлоқий маданиятнинг ёшлар муносабатларини яхшилашни алоҳида таъкидлайдилар. Мазкур мақола бугунги кунда муҳим ва қизиқарли бўлган муаммо – ахлоқий маданиятнинг моҳияти, ўзига хос хусусиятлари ҳамда уни ривожлантиришнинг тарихий-фалсафий қарашлар ривожига бағишланган.*

**Калит сўзлар:** *Ахлоқий маданият, одоб-ахлоқ, ахлоқ, этикет, тарбия.*

### **АННОТАЦИЯ**

*“Нравственная культура” как важная и неотъемлемая часть культурного мира человечества развивалась в тесной связи с эстетической, художественной, политической, религиозной, экологической, педагогической культурой. Понимание морали как духовного условия поведения молодежи характерно для всех мыслителей прошлого и настоящего. Ученые-философы особо подчеркивают, что нравственная культура улучшает межличностные отношения молодежи. Данная статья посвящена актуальной и интересной на сегодняшний день проблеме – сущности, особенностям нравственной культуры и развитию историко-философских взглядов на ее развитие.*

**Ключевые слова.** *Этическая культура, манеры, нравственность, этикет, воспитание.*

### **КИРИШ**

“Ахлоқий маданият” инсоният маданият оламининг муҳим ва ажралмас қисми сифатида эстетик, бадиий, сиёсий, диний, экологик, педагогик маданияти билан мустаҳкам алоқада ривожланиб келди. Аммо постиндустриал жамиятда шахс индивидуаллигининг ошиб бориши ва натижада, анъанавий урф-одатларнинг ижтимоий ҳаётдаги аҳамиятининг пасайиб бориши ёшлар ахлоқий

маданиятига алоҳида эътибор қаратилишини ҳамда бу борада илмий, мақсадли тадқиқотлар олиб бориш заруратини янада кучайтиради. Бунда ёшлар хулқ-атворидаги деградация ҳолатларни аниқлашни, хатти-ҳаракатларига сабаб бўлувчи анъанавий ва замонавий идеалларни таҳлил қилишни ва ўз навбатида Янги Ўзбекистонда ёшларни ахлоқий тарбиялаш самарадорлигини оширишни тақозо этади.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Ёшлар ахлоқий маданиятини ўрганиш зарурати ушбу концепциялар моҳияти, ўзига хослиги ва мазмунини чуқурроқ англашни келтириб чиқаради. Бу соҳада икки йўналишни ажратиб кўрсатиш мумкин. Баъзи тадқиқотчилар ахлоқий маданиятни – маданиятнинг бир тури сифатида кўрсатиб, кўпроқ ахлоқ моҳиятига эътибор қаратишни таъкидлайдилар. Ушбу ёндашув тадқиқотчилари маданиятни бутун ҳолда, ахлоқий маданиятни унинг бир қисми деб изоҳлайдилар. “Ахлоқий маданият – деб ёзади Н.К. Эйнгорн, - бу маданиятнинг ўзига хос тури бўлиб, асосий хусусиятларини ифодалайди”[6]. Шу билан бирга ахлоқий маданиятни – маданиятнинг муҳим таркибий қисми (Л.М.Архангелский), маънавий маданиятнинг элементи (Н.П.Соколова), жамият маданиятининг энг муҳим жиҳати (А.И.Титаренко) деб ҳам изоҳлайдилар.

Маданиятшунослик бўйича баъзи етакчи мутахассислар ахлоқий маданиятни табиатдан алоҳида, ривожланиш хусусиятига эга, ижтимоий аҳамияти юқори бўлган маънавий кадрлар тизими деб таърифладилар. Ахлоқий маданият шахс фаолиятининг маҳсули бўлиб, инсоният жамиятининг сақлаб қолиш, кўпайиш ва тараққиётида муҳим омил ҳисобланади. Шунингдек, ижтимоий гуруҳлар ва инсонларнинг ўзини-ўзи англашга олиб келади. “Маданият” шахслараро мулоқотни барқарорлаштириш вазифасини бажариб, ахлоқий маданият моҳиятини ташкил қилади. Литвалик тадқиқодчи В.Стоикуснинг фикрича, ахлоқий маданият инсон эмпирик қиёфасини кўришга ёрдам беради [5].

Мазкур йўналиш тарафдорлари ахлоқий маданиятнинг ўзига хос хусусиятларини, маданиятнинг бошқа (бадий, сиёсий, ҳуқуқий, педагогик, экологик) турларидан фарқли томонларини кўрсатишга ҳаракат қилдилар. Шунингдек, ёшлар ахлоқий онгини ривожлантиришдаги функциялари: йўналтирувчи, тартибга солувчи, тарбиявий (Л.М.Архангелский, Ю.В.Согомонов, А.И.Титаренко), ёшлар аксиологик дунёқарашини шакллантириш (В.Ж.Ямаитис), ёшлар фаолиятини тартиблаштириш (М.С.Каган)ни таъкидлаб ўтдилар.

Иккинчи ёндашувда ёшлар ахлоқий маданиятини шакллантиришнинг социологик томонига эътибор қаратади. Унга кўра ёшлар хулқ-атворида ахлоқ, маданият билан бирга ижтимоий таъсирлар ва имитация ҳам муҳим ўрин тутаяди. Ушбу икки ёндашувлар бир-бирини инкор қилмайди, балки уни тўлдиради. Иккинчи ёндашувга кўра ахлоқий маданият “ёшларнинг ҳар томонлама ривожланишига кўпроқ ҳисса қўшадиган фаолият турларини тартибга солиб,”[4] ахлоқий муносабатга киришувчи “субъект (бола, шахс, гуруҳ, жамоа)ларнинг ўзаро таъсирларини тартибга солиди.”[5] Бундан ташқари ёшлар ахлоқий маданиятини ривожлантиришда “ижтимоий гуруҳлар ва шахсларнинг анъанавий жиҳатдан шаклланган муносабатларини ворисийлик асосида ўрганиш,”[7] “ўзини-ўзи тарбиялаш,”[8] “халқнинг кундалик ахлоқий фаолиятини кузатиш,”[9] “маънавий фаолият ва ахлоқий амалиётдаги ёндашувларни амалга ошириш кўникмаларини эгаллаш”[10] муҳим.

Ёшлар ахлоқий маданиятини ривожлантириш доимо жамият ва бошқарув идоралари диққат марказида бўлиб келган. Ҳар бир давр олимлари ҳам бунга алоҳида эътибор қаратганлар. Сўнгги йилларда маданият феноменига, маданий ривожланиш, маданий ўзгаришларга фан ва мутахассисларнинг қизиқишлари ортиб бормоқда. Жаҳонда ушбу феноменни ўрганишга бўлган ёндашувларнинг хилма-хиллигига қарамай инсоният тафаккурида яхлит бир тушунча шакллангани йўқ. Унинг кўпдан-кўп таърифларини (500 га яқин!) ўрганиб чиқиб, таққослаш натижасида биз тадқиқотимизга энг муносиби маданиятнинг “инсоннинг асосий мослашиш механизми”[11] деганига тўхталдик.

Ёшларнинг ижтимоий меъёрларга мувофиқ ахлоқий маданиятини ривожлантиришнинг ретроспектив жиҳатдан тазар ташласак, ушбу масала бутун инсоният тарихига хосдир. Мазкур концепциянинг бир қатор хусусиятларини жаҳон фалсафасига маълум бошқа тушунчалар моҳиятида кузатиш мумкин. Ёшлар хулқ-атвори ва ахлоқий маданиятини ривожлантириш борасидаги фикрлар дастлаб жаҳон фалсафасининг “дхарма”, “чжен” каби илк мактабларида ўз аксини топган бўлиб, инсоннинг бошқаларни ва табиатни ҳимоя қилиш фаолиятиги боғлиқ. Қадимги Ҳинд фалсафасидаги “дхарма” концептини (“Упанишад”, айниқса “Ману қонунлари”да тўлиқ таърифланган) В.Г.Иванов “индивидуал ахлоқий қонун”[12] деб изоҳлайди.

Хитой фалсафасига мансуб “чжен” концептига эътибор қаратадиган бўлсак, унда нафақат инсоннинг маънавий-ахлоқий олами тасвирланади, балки бошқа одамлар билан ахлоқий алоқаларини конкретлаштиради. “Чжен” таълимотининг ахлоқий нормаларига берган таърифида Ф.С.Биков – мазкур таълимотда инсониятнинг бурч ҳисси, маълум хулқ-атвор нормаларини

бажариш ҳисси, ота ва ўғил, адолатли ҳукмдор ва фуқаролар, эр билан хотин, катталар ва кичиклар, дўсту-биродарлар, меҳмон ва мезбон ўртасидаги ўзаро муносабатлар ўз аксини топган.[13] Бу ахлоқий муносабатларда шундайлари борки, қойил қолмай илож йўқ. Масалан, ўғил ота-онаси олдида турган бешта вазифани бажариши шарт эди:

- ҳар доим ота-онани тўла ҳурмат қилиш;
- уларга энг суюкли таомни келтириш;
- улар бетоб бўлиб қолганларида чуқур қайғуриш;
- улар вафот этганларида юрак-юракдан ачиниш;
- улар хотирасига тантанали равишда қурбонликлар қилиш.

Марказий Осиё қадимги халқларида ҳам ёшлар ахлоқий тарбияси ва оилавий муносабатларига алоҳида эътибор қаратилган. Аجدодларимиз эътиқод қилган зардуштийлик динининг муқаддас китоби Авестода оила мустаҳкамлиги, соғлом турмуш тарзига доимо риоя қилиш, ҳалол, покиза, нуқсонсиз фарзандларни дунёга келтириб, уларни маънавий, жисмоний, эстетик, рухий, ҳуқуқий, экологик, ахлоқий томондан баркамол қилиб тарбиялаш, улғайтиришни биринчи ўринга қўйишган. Ҳар бир эркак ва аёл никоҳдан ўтиб, оила қуриши лозим ҳисобланган. Инсоннинг ахлоқий бурчи оиласида тинчлик, саодатли ва хушчақчақ муҳитни яратиш, нафси ҳалол, меҳнатқаш, билимли, ақлли, ахлоқли, ўқимишли, тақводор зурриёд ато қилишни илтижо қилиб Яздондан сўрашдир.

Зардуштийлик таълимотига кўра, ушбу динга эътиқод қилувчи ҳар бир инсон умри давомида “эзгу ўй, эзгу сўз, эзгу иш” каби ахлоқий меъёрларга риоя қилиши ва бу меъёрларни фарзандларининг эътиқодига айлантirmoғи лозим. Шундаги унинг руҳи ва қалби мунавварлашади. Авестошунос олимлардан бири А.О.Маковельскийнинг ёзишича, “эзгу фикр” - ниятнинг яхшилиги, илоҳий қонун руҳидаги ўз яқинларига нисбатан яхшилик қилиш, зарур бўлганида уларга мадад беришга тайёр туриш, кишилар бахт-саодати учун ёвузликка қарши курашга ҳозирлик кўриш руҳидаги ўй-фикрлар, барча билан тинч ва тотув яшашга интилиш ва шу кабилардир. Инсон бошқаларга нисбатан бахиллик қилмаслиги лозим. Эзгу фикрлар эгаси жаҳолатга тушмайди, чунки жаҳолатда киши эзгу ниятларини йўқотади, бурч ва адолатни унутади, ўйламай иш қилади...”[14].

Ҳар бир инсоннинг вафотидан сўнг унинг қилган яхши ва ёмон амоллари, эзгулик ва ёвузлик томонида бўлиб, ўйлаган фикрлари ҳақиқат илоҳи Рошну томонидан адолат тарозисида ўлчаб кўрилади. Агарки, инсон умри давомида эзгулик томонида бўлиб, қилган яхшиликлари кўп бўлса унинг руҳи юқорига,

жаннатга боради, агар, бунинг тескариси бўлиб мархумнинг ёвуз қилмишлари кўп бўлса жаҳаннамга тушиб, абадий йўқликка айланади. Эътибор қаратадиган бўлсак, Авесто китоби “Яшт” бўлимининг учинчи бобида ёлғончилик қораланади ва фарзандлар тарбиясида ота-оналарнинг бунга аҳамиятли бўлишлари диний-фалсафий жиҳатдан тарғиб қилинади. “Тангри Митрани биз улуғлаймиз. Унга ҳеч ким ёлғон гариролмайди: на уйда – оила бошлиғи, на уруғ оқсоқоли, на қабила йўлбошчиси ва на мамлакат сардори. Агар уй эгаси, уруғ оқсоқоли, қабила бошлиғи ва мамлакат сардори ёлғончи бўлса, ғазабланган Митра оилани, уруғни, қабилани, мамлакатни ва уларнинг бошлиқларини батамом йўқ қилади.”

Зардуштийлик дини ахлоқий қоидалари халқимиз қон-қонига сингиб, ўзбек халқи менталитетида муҳим ўрин тутди. Ахлоқий маданиятнинг таркибий қисми бўлган муомала одобини ёшлар маънавий дунёқарашига сингдириш бугунги кунда ҳар қачонгидан ҳам муҳимроқ аҳамият касб этмоқда. Авестода инсонларнинг муомала одоби, ўзаро ҳурмат, берилган ваъданинг бажарилиши, айтилган сўзнинг устидан чиқиш, эркакнинг лафзидан қайтиши, унинг ўлимдан ҳам оғирроқ эканлиги, омонатга хиёнат қилмаслик, муносабатга киришганда камтарлик сингари эзгу-ахлоқий фазилатлар улуғланади. Инсоннинг ичган қасамини бузиб, омонатга хиёнат қилиши гуноҳ ҳисобланиб, жазога тортилиши Зардуштийлик таълимотининг ахлоқий асоси ҳисобланади. “Кимда-ким қарзни ўз эгасига қайтармаса, унинг бу амали ўша омонатни ўғирлаган билан баробар бўлади. Қарз олган киши омонатни уйда сақласа, ҳар кун ва ҳар тун унга қўл урса ва ўзиники, деб гумон қилса, унинг бу амали омонатни иккинчи марта ўғирлаган билан баробардир.”

Зардушт бойлар учун ҳам, камбағаллар учун ҳам баробар бўлган ахлоқий тамойил ва ақидаларни яратиб, ўз олдига тинчликпарвар ва адолатли қонунлар, тартиб-қоидалар қарор топган, барчага бирдай муносиб бўлган фаровон ҳаёт беришни олий мақсад қилиб қўяди. У зардуштийлик динига эътиқод қилган ўз издошларига дунё ҳаловатларидан, лаззат ва кайфу сафоларидан воз кечишни, риёзат чекиб яшашни тавсия этмайди, аксинча, шоду-хуррамлик билан, ўйнаб-кулиб, кўнгил очиб яшаш лозимлигини уқтиради.

Зардуштийликнинг ахлоқий қоидаларида кишиларнинг фардий (индивидуал) ва ижтимоий ҳуқуқлари, шунингдек, одамларнинг жамиятдаги бир-бирларига нисбатан тутган ўринлари, хулқ ва одоб, жинойт ва жазо, баданни ва руҳни чиниқтириш, кишининг ўзини ҳар хил нопокликлардан асраши, ёлғон ваъда берган одамни жазолаш, соч ва тирноқларни қачон олиш ва уларни тоза сақлаш, сувнинг шифобахшлиги, чақалоқни парваришлаш,



Ахурамазданинг одамларни турли бало-қазолардан асраши ва шунга ўхшаш кўп масалалар муфассал баён этилади.

“Авесто”да юкорида келтирилган далиллар шуни кўрсатадики, қадимги аждодларимиз болаларнинг фақат бенуқсон туғилишига ва чақалоқлигидан жисмоний тарбиясига жиддий эътибор берибгина қолмасдан шунингдек, уларнинг ақлан етук бўлишига, яъни илмли бўлишига, хикмат ўрганишига, маънавий соф бўлишига, яхшилик ва эзгулик хислатларини эгаллашларига ҳам бевосита ғамхўрлик қилишган. Қисқаси, болаларда ахлокий, ақлий, жисмоний, жинсий хислатларни, меҳнатсеварлик, ишбилармонлик, ватанпарварлик, ростгуйлик, сахийлик фазилатларини тарбиялашга жиддий эътибор берилган [15].

Зардуштийлик таълимотидаги касб этикасига мувофиқ ҳар бир табиб, жумладан, жарроҳ ўз малакасини уч бор аниқ синовдан ўтказмай туриб, касални даволаш ҳуқуқига эга бўлмаганидек, муаллимлар ҳам шогирдларни назарий ва амалий жиҳатдан тайёрлашда ҳамиша ана шу тартибга риоя қилганлар. Бундан ташқари, Гиппократнинг табиблар қасамёди ҳақидаги фикрдан бир неча аср бурун “Авесто”да табибларнинг махсус қасамномаси келтирилган. Ҳатто табобат рамзи - илон заҳар сочаётган идиш-жом тасвири ҳам илк бор “Авесто ”да тасвирланган [16].

“Авесто”да меҳнатнинг моддий ва маънавий томонларига катта эътибор берилибгина қолмасдан, шунингдек, меҳнат, асосан, шахсни ахлокий жиҳатдан баркамол қилиб тарбиялаш негизи сифатида эътиборга олинган. Шунга кўра, зардуштийлик динида, ахлоқан саховатли бўлиши учун инсоннинг биринчи галда меҳнат қилиши, ўз қўли кучи билан неъмат яратиши зарурлиги талқин этилади. Бинобарин, ишёкмаслик - жамики иллат ва нуқсонларнинг маконидир, деган қораловчи ибора тасодифий эмас”[17].

Демак, зардуштийлик таълимотига кўра, фақирларга меҳрибонлик, инсонпарварлик, кишига иснод келтирадиган ишлардан - бировга ҳасад қилишдан, ўғрилик, талончилик, ўзгалар молини ўзлаштиришдан, зинога берилишдан, бировнинг дилини оғритишдан, берган сўзининг устидан чиқиш, лафзига содиқ қолиш, савдо-сотик ва битимларга қатъий амал қилиш, қарзни ўз вақтида тўлаш, алдамчилик ва хиёнатдан холи бўлиш ва хоказо иллатлардан сақланиш лозимлиги уқтирилган. Шунингдек, “Авесто”да иймонли ва диёнатли бўлиш, бунинг учун доимо тоза, пок юриш, ёвузликни қоралаётган пайтда тананинг тоза бўлиши, шайтон-иблисларга қарши ҳаракат қилиш, гуноҳ қилмаслик ҳақида гапирилади.

Зардуштийлик ахлоқий таълимотда қайд қилинишича, оламдаги ёвузлик ва ёмонликлар одамларнинг имонсиз ва диёнатсизлигидан келиб чиқади, уларни бартараф этиш - одамзоднинг истиқболдаги вазифаси бўлиб, имонли ва диёнатли кишилар буларни бартараф этишда фаоллик кўрсатадилар.

“Авесто”да ёшлар ахлоқий маданиятини ривожлантиришда, уларнинг соғлом, бардам ўсишида атроф-муҳитнинг покизалиги, жамоат жойлари ва эрхотин ҳамда болаларнинг шахсий гигиенаси махсус қайд қилинган. Жумладан, кишиларнинг руҳан пок бўлиши билан бир қаторда тана озодалигига эътибор беришлари, айниқса, юз-қўлларни ва бошни кунда бир неча марта ювиб туришлари, сочни тараш ва тишни тоза тутиш, тирноқларни тез-тез олиб туришлари, доим бадан тарбияси билан шуғулланишларининг амалий моҳиятига дахлдор мулоҳазалар юритилган ва фойдали маслаҳатлар берилган. “Хар бир зардуштий, - деб ёзади Фозила Сулаймонова, - кунига беш марта ювиниб, покланиб, Қуёшни олқишлаб унга сиғиниши шарт бўлган”. “Авесто”даги Қуёшга эътиқод, ўз навбатида, муқаддас оловга эҳтиромни туғдирган. Шу боис, Қуёш - покизалик, тириклик, олов эса тозалик, озодалик эканлиги ҳақидаги зардуштийлик фалсафасида теран мазмун, бетакрор ўхшатиш, тенги йўқ ҳақиқат мавжуд. “Авесто”да экоэтик тарбия масалаларига, яъни табиатни, ер, сув, дарахт, ўсимлик, жониворларни эъзозлашга, ерни ишлатиб, суғориб, боғ-роғ, экинзор қилишга, чорвани, айниқса, йилқичиликни ривожлантиришга, сувни муқаддас тутишга алоҳида эътибор берилган [18].

Демак, ёшлар ахлоқий маданиятини ривожлантиришда “яхши инсон бўлиши нафақат адолатсизликка йўл қўймаслик, балки уни хоҳламасликдир”[19] тамойили асосида амалга ошириш лозим. Ахлоқий маданият ижтимоий ҳаётда мажбурий муносабатлар ва таъбулар асосида яшашга олиб келади.

Ахлоқни ёшлар хулқ-атворининг маънавий шарти сифатида тушуниш ўтмиш ва ҳозирги даврдаги барча мутафаккирларга хосдир. Файласуф-олимлар ахлоқий маданиятнинг ёшлар муносабатларини яхшилашни таъкидлайдилар. “Хар бир миллат ва элатнинг, деб ёзади П.А.Кропоткин, улар қай ҳолатда ривожланиш босқичида бўлмасин, ўзига хос, мураккаб, қатъий ахлоқ меъёрларига эга”[20] Демак, ижтимоий ҳаётда инсонларнинг хулқ-атвор ва ахлоқий муносабатларини тартибга соладиган махсус “кодекс”лар шаклланди. Қадимдан “биз” ва “бегоналар” ўртасидаги ҳар қандай муносабатлар илк ахлоқий одат – талион<sup>29</sup>да ўз аксини топган. Бунда инсонлар ўртасидаги ўзаро

<sup>29</sup> Талион – ибтидоий даврнинг типик ижтимоий тартибга солиш механизми. Талион (лот. Talio, talionis, talis сўзидан олинган “бир хил”, - жиноятга тенг кучга эга жазо) – ахлоқ тарихининг ижтимоий онг ва адабиётда тенг жазо номи билан кўпроқ маълум бўлган категория; Талионнинг асоси қасос олишни рағбатлантириш эмас, балки уни ушлаб туришдир. У чекловчи, тақиқловчи тамойил сифатида юзага келган. Талион тартибга солишнинг

ижтимоий адолатни йўлга қўйиш ва кўрсатилган ҳар бир яхшилик ва ёмонликка муносиб жавоб қайтариш. Талионнинг асосий моҳияти шундаки, “ҳар қандай дўстона ҳаракат жавобсиз қолмайди” [20].

Демак, ижтимоий тараққиёт эволюциясида ахлоқнинг олтин қоидалари шаклланди. Унда жамият қабул қилган меъёрлар асосида яшаш, ахлоқий оғишлар ва иллатлардан ҳоли турмуш тарзи тарғиб қилинади. Шундай қилиб, “ахлоқий маданият ёшларнинг ҳаракатлари учун оқилона, қатъий чораларни белгилашга ёрдам берди.”[21]

Бугунги кунда ўзбек халқи маданий мероси ва санъати ёшлар хулқ-атворидаги фазилатларни ривожлантириш учун маънавий асос бўлиб келмоқда. Миллий кадриятлар асосида ёшлар мавзуси, унинг ахлоқий тарбияси, тақдири, ахлоқий маданияти муҳим ўрин эгаллайди. Бу тарбия натижасида ёшлар объектив воқеъликни ўз тақдири деб билади ҳамда жўмардлик<sup>30</sup>, нафси ва эҳтиёжларини чеклаш маданияти, сабр-тоқат, раҳм-шафқат, сахийлик асосий хусусиятлари бўлиб шаклланади.

## REFERENCES

1. Авесто: Яшт китоби./М. Исоқов таржимаси. — Т.: «Шарк», 2001 — 128 б.
2. Еремеев А. Ф. Первобытная культура: происхождение, особенности, структура: Курс лекций. В 2 ч. Ч. 2. Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1997.
3. Кропоткин П.А. Этика. М.: Политиздат, 1991.— 496 с.
4. Согомонов К.В. Введение в анализ понятия нравственной культуры // Нравственная культура ... С. 19
5. Стойкус В. Специфика и типы нравственной культуры // Нравственная культура... С. 43-52
6. Эйнгорн Н.К. Исходные основания понятия «нравственная культура» // Вопросы нравственной культуры. С. 80.
7. Фрадлина Е. М Категория «нравственная культура общества» // Там же. С. 114.
8. Иванов В. Г. Нравственная культура: человечность и гражданственность // Там же. С. 72.
9. Кузмицкас Б. Содержание нравственной культуры общества// Там же. С. 117.
10. Гринберг Л. Г. Нравственная культура личности и социальные нормы // Там же. С. 167-168.

---

тарихан биринчи синкретик турини ўзида мужассам этган. Талион ахлоқ тарихига кирди ва маданиятда чуқур из қолдирди. У адолатни тенглаштиришнинг тимсолидир, жамоалар ўртасидаги муносабатларга адолатни тенглаштиришнинг принципини ташкил қилади.

<sup>30</sup> Жўмард, жувонмард - Олийжаноб, мард, ботир, довьюрак. Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 117-б.

11. Козлова Х. Н. Социально-историческая антропология. С. 15.
12. Иванов В. Г. История этики древнего мира. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1980. С. 31.
13. Быков Ф. С. Зарождение общественно-политической и философской мысли в Китае. М.: Наука, 1966. С. 149.
14. А.О.Маковельский. Авесто. Издательство АН Азербайджанской ССР. Баку, И960, с. 100.
15. Антология педагогической мысли Азербайджанской ССР. М., “Педагогика”, 1989, с.44.
16. Хамиджон Хомидов. “Шохнома”нинг шуҳрати. Т., “Ўзбекистон”, 1991, 94 б.
17. Й.Жумабоев. Ўрта Осиё этикаси тарихи очерклари. Т., “Ўзбекистон”, 1980, 30 б.
18. Ф Сулаймонова. Шарк ва гарб. Т., “Ўзбекистон” 1997, 26-бет.
19. Материалисты Древней Греции. М.: Госполитиздат., 1955. С. 157.
20. Кропоткин П. А. Этика. С. 74.
21. Еремеев А. Ф. Первобытная культура: происхождение, особенности, структура: Курс лекций. В 2 ч. Ч. 2. Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1997. С. 102.

## **БУГУНГИ КУНДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ БИЛИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ**

**Сайдивалиева Барно Саидбахромовна**

Тошкент давлат транспорт университети

“Чет тиллари” кафедраси ўқитувчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада бугунги кунда мамлакатимизда хорижий тилларни ўрганишнинг долзарблиги ва зарурлигининг аҳамияти ҳақида сўз юритилади. Чет тилларини ўрганишнинг асосий сабаблари ва бу кундалик ва профессионал соҳаларда берадиган афзалликлари ҳақида сўз юритилган.*

**Калим сўзлар:** *Хорижий тиллар, инглиз тили, алоқа воситалари, таълим-тарбия, мантиқий фикрлаш, фаолият, касбий фаолият, интеграцияси, қизиқиш.*

### **ABSTRACT**

*This article talks about the relevance and necessity of learning foreign languages in our country today. The main reasons for learning foreign languages and the benefits it gives in everyday and professional fields are discussed.*

**Key words:** *Foreign languages, English language, means of communication, education, logical thinking, activity, professional activity, integration, interest.*

### **КИРИШ**

Бугун жаҳонда хорижий тилини ўрганиш замонавий инсон ҳаётининг муҳим таркибий қисмларидан биридир. Чет тилини билиш бугунги кунда нафақат орзу, балки зарур. Бугунги кунда чет тилини билиш истагида бўлганлар кўпайиб бормоқда, чунки бу билим уларга янги имкониятлар беради, маънавий дунёсини бойитмоқда. Идеал ҳолда, билимли, шуҳратпараст одам бир нечта хорижий тилларни билиши, уларни доимий равишда сайқаллаши ва яхшилаши керак, чунки чет тилларини ўрганиш умуман зерикарли жараён эмас.

Бу дунёқарашни ривожлантирадиган, мантиқий фикрлашни, фикрларингизни қисқа ва аниқ ифода этиш қобилиятини яхшилашга имкон берадиган ижодий, ҳаяжонли фаолият ҳисобланади. Кейинги йилларда хорижий тилларни ўрганишга яна қизиқиш ортди. Шу билан бирга, одамлар онги ва фаолиятига таъсир қилишда чет тилларининг роли ортиб бормоқда. Шунини ҳам ҳисобга олиш керакки, тилларни билиш шахсий ва профессионал мулоқотда муҳим рол ўйнаши ва баъзи афзалликларни бериши мумкин.

Жаҳон глобаллашуви ва интеграцияси натижасида ҳаётимизнинг барча жабҳаларида маданиятлараро алоқалар жадал суръатлар билан ўсиб



борди: маданиятлараро мулоқотнинг турли хил вазиятлари пайдо бўлди, масалан, мактаб ва университетда алмашиш учун ўқиш, олимлар учун амалиёт, халқаро конференциялар, қўшма корхоналар, сайёҳлик саёҳатлари, кўргазмалар ва ҳоказо. Шундай қилиб, хорижий тилларни билиш ижтимоий маконда муваффақиятли мослашиш шартларидан биридир.

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Хорижий тилларни билиш муваффақиятли одамларни тарбиялашнинг ажралмас қисмидир. Ушбу элементни энди деярли ҳар доим давлат ва тижорат ташкилотларининг кадрлар бўлимининг сўровномаларида топиш мумкин. Ўз она тилидан ташқари камида биттасини биладиганлар иш берувчиларда янада қулай таассурот қолдирадilar. Замонавий инсоннинг шахсий ва касбий ривожланиши хорижий тилларни билмасдан амалга оширилмайди. Турли маданият вакиллари билан мулоқот қилиш қобилияти уфқларни ривожлантиришга ёрдам беради ва мартаба зинапоясига кўтарилиш, фойдали алоқалар ўрнатиш имконини беради. Бугунги кунда иш берувчилар хорижий тилларни билишни мамнуният билан қабул қилишади. Ҳозирда инглиз тили энг оммабоп ва катта аҳамиятга эга бўлган тиллардан биридир. Инглиз тили халқаро мулоқот тилидир. Бу навигация, авиация, адабиёт, таълим, замонавий мусиқа, халқаро спорт, туризм ва дастурлаш тили. Дунёдаги ёзишмаларнинг 80 % инглиз тилида мулоқат олиб борилади, радиостанцияларнинг 65 % инглиз тилида эшиттиришлар ва мусиқалар тақдим этади, жаҳон даврий нашрларининг ярмидан кўпи инглиз тилида чоп этилади, 80% маълумот шу тилда сақланади. Инглиз тили бугунги кунда дунёдаги энг кенг тарқалган тил бўлиб, 400 миллиондан ортиқ киши бу тилда биринчи тил сифатида гапиради, лекин бу тилда чет тили сифатида гапирадиганлар уч баробар кўп Бироқ, инглиз тилидан ташқари, баъзи компаниялар иккинчи хорижий тилини билишни талаб қилади, масалан, немис ёки франтсуз. Энг машҳур тиллар рейтинги бойича немис тили инглиз тилидан кейин иккинчи ўринда туради , чунки Германия бугунги кунда иқтисодий жиҳатдан энг барқарор мамлакатлардан биридир. Бироқ, маълум бир тил фойдасига танлов қилиш, инсон унга ҳақиқатан ҳам керакми ёки ёқлигини таҳлил қилиши керак. Бугунги кунда кўплаб юқори малакали мутахассислар нафақат ўз касбий фаолиятида билим ва тажрибани, балки ҳам билишни талаб қилади. Мисол учун, инглиз тилини билмасдан маркетинг ва жамоатчилик билан алоқалар соҳасида амалга ошириш қийин.

Хорижий тилларни билишнинг аҳамиятини ортиқча баҳолаб бўлмайди. Замонавий алоқа ва мулоқат воситаларининг аксарияти маълум даражада тилда гапирадиган одамларга қаратилган. Масалан, кундалик ҳаётда биз тез-тез

инглиз тилига дуч келамиз - Интернет, музика, хорижий товарларнинг изоҳлари, ўзбек тилида тавсифи кўпинча зикна ва ҳар доим ҳам истеъмолчи талабларига жавоб бермайди ва ҳоказо, иш муҳотида ахборот технологиялари жуда катта, бу эрда чет тилларини билиш тўлиқ ва малакали иш яратишга ёрдам беради .

XX-асрдан бошлаб инглиз тилининг роли инсон муваффақияти ва билим олиш кўрсаткичларидан бири сифатида ортиб бормоқда, бу эса уни мамлакатимизнинг аксарият таълим муассасаларида, ўрта ва олий мактабларда янада жадал ва чуқурроқ ўқитишни бевосита тақозо этади. Ўз карерасини куришда инглиз тилини юқори даражада биладиган талабалар ўзларининг касбий фаолияти соҳасида энг сўнгги сифат стандартларини амалга ошириш имкониятига эга бўлишлари мумкин.

tanlangan (soyabonli deb nomlangan tashkilotlar va uyushmalar). Bunday tashkilotlar turkumiga KONKOR (CONCORD) va Yevropa Ekologik Byurosi (European Environmental Bureau) kiradi, dastlab 100% Yevrokomissiya tomonidan homiylik qilinardi [11]. Moliyalashtirish hajmi hamda tartibi maqsad va NTTga jalb qilinganligiga qarab o'zgarib turadi. Shu tariqa, uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan (5-6 yil) ma'muriy xarajatlarni o'z ichiga oladigan qo'llab-quvvatlash tizimi bo'lib, Yevropa yoshlar forumi (Youth European Forum) va Yevropa ayollar lobbisi (qonuni) (European Women'sLobby) kabi tashkilotlar ochiq, ular YEI barcha a'zo-mamlakatlar tashkilotlarini ifodalaydi.

Yevropa Ittifoqi tajribasini anglagan holda demokratiya nazariyasi-ning plyuralistik pozitsiyasidan turib, Robert Dal, G'arbiy Yevropa mamlakatlari fuqarolari muammo (dilemma) bilan to'qnashdi, deb ta'kidlaydi. Bir tomondan, fuqarolarga hisobot beradigan milliy hukumat har doim ham samarali bo'la olmaydi, saylovdan so'ng populizmga beriluvchan va siyosiy yo'nalishni o'zgartirishga moyil. Ikkinchi tomondan, Yevropa Ittifoqining professional qog'ozbozligi (byurokratiya) samarali boshqaruvga qodir, jamoatchilikka yetarlicha hisobot bermaydi. Ushbu dilemma nafaqat Yevropa Ittifoqi uchun dolzarb, balki barcha zamonaviy siyosiy tizimlarga ham tegishli, bunda nazorat qilish murakkab bo'lgan, jamiyat va iqtisod mavjud tashqi ta'sirlarga bo'ysunadi, ya'ni global iqtisod va dunyo siyosati kabilarga [12].

Qanday qilib fuqarolarning nodemokratik milliy institutlarda ishtirokini ta'minlash mumkin, degan masala bo'yicha bahs «deliberativ demokratiya» (deliberative democracy) va «ishtirok etish demokratiyasi» (participatory democracy) nazariyalari doirasida jamoatchilik ishtiroki konseptiga nisbatan qiziqishni oshirdi, bu nazariyalarda fuqarolik jamiyatiga alohida rol ajratilgan. Ushbu demokratiyaning integral konsepsiyalari (integrative conceptions) iqtisod va jamiyatning davlatdan avtonomligi muhimligini ta'kidlagan J.Lokkdan farqli o'laroq, go'yoki, G.Gegel va SH.Monteskyelarning yuqori darajada fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlari bilan muvofiqlashtiriladi. Demokratiyaning deliberativ konsepsiyasi qaror qabul qilishning siyosiy jarayoni va ommaviy sohada sodir bo'ladigan munozaralar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rib chiqadi [13]. Ma'lumki, ommaviy soha individlar nisbatan siyosiy va ijtimoiy hayot muhokamasiga jalb qilingan joyda mavjud [14]. Bu soha hukumat va qaror qabul qilishga talablar kabi masalalar bo'yicha debatlar o'tkazish uchun joy, maydon tayyorlaydi. Jamoaviy muhokamalar muhim savollarni qaror qabul qiladigan shaxslarga yetkazishga yordam beradi, ular o'zlarini «umumiy manfaatlar» uchun degan isbot bilan oqlagan holda harakat qiladilar.



Zamonaviy davrlarga kelib davlat ijtimoiy institutlaridan ko'ra nodavlat ta'minlashda ularning ta'siri yanada kuchaymoqda.

Demokratik boshqaruv ishonchli ijtimoiy aloqalar va fuqarolar o'zaro ta'siridan yuzaga kelgan ijobiy tajribadan boshlanadi. Ijtimoiy ishonch hodisasi fuqarolarning jamoada o'zaro munosabatlarining barqaror bo'lishi bilan chambarchas bog'liq. Mahalliy jamoaning madaniy gomogenligi (bir xilligi) va birdamligi ishonch hamda jamoaviy harakatlanishga qobiliyatni stimullash va yo'naltirishning zaruriy imkoniyati hisoblanadi.

### **XULOSA**

Shuni aytish lozimki, nokorporativizm manfaatdor guruhlar va davlat o'rtasidagi maxsus turdagi o'zaro munosabatlarni tushuntiradi, mavjud ijtimoiy nizolarni hal qilish va barqarorlashtirish qobiliyatiga ega ekanligini namoyon qiladi. Bunday o'zaro munosabatlar doirasida siyosiy yo'nalishni shakllantirishda davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi, bunda u manfaatdor guruhlar ta'sirini faqat tan olingan va ahamiyatli birlashmalar bilan chegaralaydi. Ma'lum sharoitda, davlat aralashuvisiz kelishuvga erishish mumkin bo'lmagan paytlarda bu keyingisi manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Shunday qilib, nokor-porativizm shuni ko'rsatadiki, jamiyatda asosiy manfaatdor guruhlarini qiziqishlarini, manfaatlarini hisobga oladigan siyosiy kun tartibini shakllantirish uchun ba'zi jamoalar uchun davlatning yetakchi va tartibga soluvchi roli zarur.

### **REFERENCES**

1. Foley M., Edwards B. The Paradox of Civil Society // Journal of Democracy.- USA, 1996. Vol.7, Issue 3. -pp. 38–45.
2. Roßteuscher S. Democracy and the Role of Associations: Political, Organizational and Social Contexts.- New York: Routledge, 2005. -p.39.
3. Foley M., Edwards B. The Paradox of Civil Society // Journal of Democracy.- USA,1996.Vol.7, Issue 3.- pp.38–45.
4. Armony A. The Dubious Link: Civic Engagement and Democratization. - Stanford: Stanford University Press, 2004. -pp. 33-37
5. Alapuro R. Introduction: Comparative Approaches to Associations and Civil Society in Nordic Countries, in: Alapuro R., Stenius H. (eds.), Nordic Associational Life in a European and an Inter-Nordic Perspective. -Baden-Baden: Nomos Publishers, 2010. -p.14.; Kubik J. How to Study Civil Society: the State of the Art and What to do Next? // East European Politics and Societies, 2005. -№1. -pp. 105–117.

6. Matkarimova J. Models of social partnership // Philosophy and law. Uzbekistan. 2022. -pp.139-142
7. Offe C. Attribution of Public Status to Interest Groups, in: Berger S.(ed.), Organizing Interests in Western Europe. -New York: Cambridge University Press, 1981. -pp. 83–85.
8. Offe C. Attribution of Public Status to Interest Groups, in: Berger S.(ed.), Organizing Interests in Western Europe. -New York: Cambridge University Press, 1981. -pp. 83–136.
9. Bermeo N. Ordinary People in Extraordinary Times: The Citizenry and the Breakdown of Democracy. -Princeton: Princeton University Press, 2003. -p.9.
10. Lewis J. The state and the third sector in modern welfare states:independence, instrumentality, partnership, in: Evers A., Laville J.-L. (eds.), The third sector in Europe. -Cheltenham: Edward Elgar Publishing Limited, 2004. -p.179.
11. Alhadeff G. and Wilson S. European Civil Society Coming of Age. 2002. [https:// www.global policy. org/component/content/article/177/31558.html](https://www.globalpolicy.org/component/content/article/177/31558.html)
12. Dahl Robert A. A Democratic Dilemma: System Effectivenessversus Citizen Participation // Political Science Quarterly, 1994. -№1. -pp.23–34.
13. Matkarimova J. Interpretation of the concept of nongovernmental organization in international legal documents // German International Journal of Modern Science. German, 2021. -№11. vol.2. -pp. 40-42. [https://doi.org/ 10.5281/zenodo.6654051](https://doi.org/10.5281/zenodo.6654051).
14. Matkarimova J. The role of social partnership in ensuring social welfare // Znanstvena misel journal. Slovenia, 2022.-№68.-pp.24-27. [https://doi.org/ 10.5281/zenodo. 6901890](https://doi.org/10.5281/zenodo.6901890).

## **MIGRATSIYA MUAMMOLARI VA UNING SOTSIOLOGIK TALQINI**

**Nosirova M.**

AnDU katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada migratsiya turlari va muammolari ilmiy doiradagi tahlili bilan o'rganilgan. Migratsiyaning ichki va tashqi sabablari, iqtisodiy-huquqiy omillar asosida tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** Migratsiya, intrakontinental, xalqaro migratsiya, remigratsiya, "teskari aloqa" nazariyasi, ichki va tashqi migratsiya.*

### **ABSTRACT**

*In this article, the types and problems of migration are studied with a scientific analysis. Internal and external causes of migration, economic and legal factors were analyzed.*

***Key words:** Migration, intracontinental, international migration, remigration, "feedback" theory, internal and external migration.*

### **KIRISH**

Migratsiya odamlarning doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o'zgartirish maqsadida bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tishini anglatuvchi tushuncha sifatida ko'p ishlatiladi. Migratsiya tasnifi mutaxassislarning doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa XXI asrda bu global muammo sifatida ko'p e'tirof etilmoqda. Sotsiologiya, demografiya, iqtisod va psixologiya kabi soha vakillari tomonidan tadqiq etilmoqda. So'nggi paytlarda u global miqyosga ega bo'lib, unga aloqador mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Mamlakat yoki boshqa hududiy birlik (tuman, viloyat) ichidagi migratsiya ichki deyiladi. Aholi qishloqlardan shaharlarga, bir viloyatdan ikkinchisiga ko'chib o'tadi. Migratsiya jarayonlari faqat bir xil aholi punktiga odamlarni ko'chirishni o'z ichiga olmaydi. Tashqi migratsiya davlat chegarasini kesib o'tish bilan bog'liq bo'lib, emigratsiya - aholining chiqib ketishi va immigratsiya - chet elliklarning mamlakatga kirib kelishiga bo'linadi. O'z navbatida, u intrakontinental va qit'alararo bo'lishi mumkin. Kiruvchi va chiquvchi aholi o'rtasidagi farq migratsiya balansi deb ataladi, u ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Salbiy migratsiya - ketayotganlar soni yangi kelganlar sonidan oshib ketgan hodisaga nisbatan ishlatiladi.

Migratsiyaning barcha turlari uchun to'g'ri keladigan ma'lum tendensiyalar mavjudligini olimlar ta'kidlab o'tishadi. Ko'pincha harakat iqtisodiy sabablarga ega

degan fikrlar ko'pchilik tomonidan bildiriladi. Xalqaro mehnat bozori tahlillarini kuzatsak, migratsiyaning quyidagi asosiy yo'nalishlariga duch kelamiz:

- malakasiz ishchilar Osiyo va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan gullab-yashnagan mamlakatlarga ko'chib o'tadi;
- rivojlanish darajasi taxminan bir xil bo'lgan, oilaviy yoki ijtimoiy-madaniy sabablarga ko'ra migratsiyaga uchragan davlatlar o'rtasida;
- oddiy ishchilar ham, o'qimishli mutaxassislar ham MDH va Sharqiy Yevropadan G'arbiy Yevropa va Amerikaga sayohat qiladilar;
- Malakali mutaxassislar (shifokorlar, muhandislar, o'qituvchilar) rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga sayohat qilishadi va ularni ham qattiq daromad, ham yashash joyini o'zgartirish (tabiat, turmush tarzi, madaniy xususiyatlar) jalb qiladi.

Milliy miqyosda tashrif buyuruvchilar yirik aholi punktlariga jalb qilinadi. Shahar qanchalik boy bo'lsa, uning imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi, mos ravishda uning aholisi muhojirlar hisobiga shunchalik tez o'sadi. Ikki diqqatga sazovor joyni tanlashda migrant eng yaqinini afzal ko'radi, deb ishoniladi. Garchi transport rivojlanishi bilan masofa endi yangi yashash joyini tanlashda muhim rol o'ynamaydi. Zamonaviy migratsiya jarayonining xarakterli xususiyati migratsiya tarkibining o'zgaruvchan-ligidir. So'nggi bir necha o'n yilliklarda mutaxassis-larning ommaviy migratsiyasi kuzatilmoqda: ko'pincha o'z sohasi bo'yicha yuqori malakali, hatto ilmiy darajaga ega bo'lgan bilimli odamlar o'z boyliklarini izlash uchun chet elga ketishadi. Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan tuzilgan hisobotlarga ko'ra, xalqaro migrantlar soni dunyo aholisining uch foizdan ortig'ini tashkil qiladi va u o'sishda davom etmoqda. Global migratsiya dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab oldi. Migratsiya qonunlarining keng miqyosda qat'iy lashtirilishi va chegara nazorati kuchaytirilganiga qaramay, noqonuniy migrantlar salmog'i ortib boromoqda, ayniqsa, J.Afrikadan Yevropaga, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Rossiyaga ishlash va yashash uchun ko'chib borayotganlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Mamlakatlarni tark etganlar haqida aniq statistik ma'lumotlar yo'q. Umuman olganda, jarayonga ta'sir etuvchi omillarni o'ziga jalb qilish va itarib yuborishga bo'lish mumkin. Ular yaxshi narsaga yoki yomon narsadan uzoqlashadilar. Unga qurolli mojarolar, urushlar, ekologik ofatlar kiradi. Bunday hollarda odamlarning boshqa iloji yo'q - majburiy emigrantlar o'z hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishadi.

Asosiy omillar iqtisodiy muammolar bilan bog'liqdir. Aksariyat muhojirlar yaxshi maoshli ish topish maqsadida boshqa mintaqa yoki davlatga ketishadi. Ammo bu odamlarni sayohatga chiqishga undaydigan yagona sabab emas. Ularning

ko'pchiligi nafaqat pul ishlashni, balki yangi mamlakatda abadiy qolishni xohlaydi. Qaytarib bo'lmaydigan migratsiya turli imtiyozlar va afzalliklar bilan rag'batlantiriladi.

Yumshoq iqlim, yuqori turmush darajasi, ishonchli ijtimoiy himoya, siyosiy erkinliklar va yaxshi ta'lim olish imkoniyati boshqa mintaqalar yoki mamlakatlarda diqqatni jalb qilishi mumkin. Bunday murakkab hodisaga turli nuqtai nazardan qarash mumkin. Shunga ko'ra, aholining migratsiya turlari turli mezonlarga ko'ra tasniflanadi: hududiy; vaqtinchalik; amalga oshirish yo'li bilan; sabab.

Bundan tashqari, jarayon qonun buzilishi bilan va usiz o'tishi mumkin. Qonuniy migratsiya aysbergning faqat uchi: ekspertlarning fikricha, umumiy migratsiya oqimining katta qismini noqonuniy muhojirlar tashkil qiladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish darajasi pasayib bormoqda, bu esa aholining qarishi va umumiy demografik inqirozga olib keladi. O'rnini bosuvchi migratsiya aholini bir xil darajada ushlab turishi mumkin, bunda tabiiy pasayish chet elliklar oqimi bilan qoplanadi.

Migratsiyaning vaqt bo'yicha tahlilida, o'tkazgan vaqtiga ko'ra vaqtinchalik va doimiy migratsiyaga ajratiladi. Vaqtinchalik migratsiya - bu ma'lum vaqtdan keyin muhojir o'z vataniga qaytishi kerak bo'lgan shartlar bilan bog'liq. Vaqtinchalik migrantlarning maqsadi yangi yashash joyi topish emas, balki yaxshi maosh oladigan ish topishdir. Mavsumiy migratsiya - bu chet el fuqarosining mamlakatda bo'lishi mavsumiy ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan va bir necha oydan ortiq davom etmaydigan hodisa. Odatda bunday ishchilar qishloq xo'jaligida ishlaydi va bir yildan so'ng ular shartnomani uzaytirish ehtimoli borligiga qaramay, mavsum tugaganidan keyin vataniga qaytishadi.

Qisqa muddatli migratsiya uzoqroq davom etadi - bir yilgacha, ish beruvchi bilan tuzilgan shartnoma amal qiladi. Uzoq muddatli migratsiya mutaxassisning chet elda bir yildan bir necha yilgacha ishlashini nazarda tutadi. O'z vataniga qaytish yoki remigratsiya - bu teskari jarayon bo'lib, migrantlar chet elda biroz vaqt o'tkazgandan so'ng vataniga qaytadilar. Teskari migratsiya repatriatsiya paytida, odamlar o'z otabobolarining vataniga qaytganda ham sodir bo'ladi. Vaqtinchalikdan farqli o'laroq, doimiy migratsiya migrantning yangi joyga doimiy joylashish istagi va qobiliyati bilan belgilanadi. Migratsiyaning har xil turlarining ahamiyati haqida gapirganda shuni ta'kidlash mumkinki, vaqtinchalik migratsiya mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatsa, statsionar (doimiy) migratsiya mamlakatning demografik ko'rinishini ham o'zgartiradi.

Aytish joizki, aholining chiqib ketishi kuzatilgan joylarda rivojlanish sur'ati sekinlashib boradi, shuningdek, ishsizlik darajasi pasayib ketadi. Doimiy migratsiya



demografik rasmni o'zgartirishi mumkin - yangi kelganlar mehnatga layoqatli aholi qatoriga qo'shiladi. Bir millatga mansub ko'p sonli muhojirlar mintaqaning madaniy muhitini - tilini, dinini, urf-odatlarini o'zgartirishi mumkin, agar assimilyatsiya bo'lmasa - mahalliy aholi o'rtasida butunlay tarqab ketishi ham mumkin.

Migratsiyaning foydalari (yoki xarajatlari) individual darajadagi sof daromadlar bo'yicha o'lchanadi. Bu nazariyaning asoschisi D.M. Keynes nomi bilan bog'liq, keynschilik mehnat migratsiyasiga ham katta e'tibor bergan. Klassik va neoklassik yo'nalishlardan asosiy farqlaridan biri "bozor iqtisodiyotini o'z-o'zini tartibga solishni inkor etish"da bo'lgan bu nazariya ishsizlikni "olib kelish"ga urinar ekan, "mehnatning nomukammal harakatchanligiga" alohida e'tibor qaratdi. Jahon iqtisodiyotini to'liq bandlikni ta'minlash uchun kurashayotgan davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jaliklarning majmui sifatida qaragan keynschilik jahon bozori, birinchi navbatda, xalqaro mehnat migratsiyasi natijasida shakllanadigan jahon mehnat bozori ziddiyatli milliy mehnat bozori ekanligini aniq tan oladi. Shuningdek, "teskari aloqa" nazariyasi xalqaro mehnat migratsiyasini makro darajada ko'rib chiqdi. Bu yo'nalishda ishlagan mualliflardan B.Tomas shu nazariya vakili hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, ishchi kuchining mamlakatdan mamlakatga migratsiya yo'nalishi iqtisodiy taraqqiyotning siklik fazalarining teskari almashinishi bilan belgilanadi.

Migratsiyaga o'tish mobil o'tishning alohida holatidir. Migratsiyaga o'tish konsepsiyasi xalqaro qaytarib bo'lmaydigan migratsiya, unda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan birga sodir bo'ladigan o'zgarishlar, agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tishning turli bosqichlarida uning demografik rivojlanishdagi roliga e'tiborni qaratadi. Ushbu kontsepsiyaning bir varianti xalqaro mehnat migratsiyasidagi o'zgarishlarni tushuntirishga urinish bo'lib, "mamlakat tezlashtirilgan iqtisodiy o'sish uchun qayta qurish paytida vaqtincha kengayish tendensiyasiga ega" va shu ma'noda uni iqtisodiy yondashuv doirasida ko'rib chiqish mumkin.

### **XULOSA**

Shuni xulosa qilib aytish joizki, migratsiya shaxs yoki guruhning muayyan ehtiyojlarini qondirish usuli, qaror qabul qilish mexanizmi asosiy o'rinni egallagan xulq-atvor harakati sifatida qaraladigan nuqtai nazar tobora kuchayib bormoqda.

### **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 05.07.2018 йилдаги ПҚ-3839-сон.
2. Атутаев Р.М. Проблемы латентной преступности. Махачкала, 2002.

3. Антонян Ю.М. Психологическое отчуждение личности и преступное поведение: (Генезис и профилактика дезадагггавных преступлений). Ереван, 2007.
4. Криминология: Учебник/Под ред. А.И. Долговой. М., 2006.
5. Ломброзо Ч. Преступление. М., 2004.
6. Миграция и преступность: сравнительно-правовой анализ: монография / [И.С. Власов, Н.А. Голованова, В.Ю. Артемов и др.]. – М.: Юридическая фирма «Контракт», 2012. – 496 с.
7. <https://zaochnik.com/spravochnik/pravo/kriminologija/harakteristika-zhenskaja-prestupnost/>
8. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
9. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
10. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
11. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
12. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).
13. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.
14. Абдурашидова, Н. А., & Хасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗARO МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 1226-1235.
15. Ramatov, J.S., Valiev, L.A., Xasanov, M.N. XIX ASRDA HINDISTONDAGI IZHTIMOIY - FALSAFIY JARAYONLAR // *ORIENSS*. 2022. №6. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/hih-asrda-indistondagi-izhtimoiy-falsafiy-zharayonlar>  
(kirish 12/11/2022).

16. Кушаков, Ф. А., Ҳасанов, М. Н., Баратов, Р. Ў., Раматов, Ж. С., & Султанов, С. Ҳ. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 803-810.
17. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
18. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.

## **YANGI O'ZBEKISTONDA KASB-HUNAR TA'LIMI: TARAQQIYOT VA ISTIQBOL**

**Uzbekova Sadoqat Primovna**

Toshkent temir yo'l texnikumi bosh o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida kasb-hunar ta'limi doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda ta'limga doir adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda yoritib berildi. Maqolada ta'limning kasb-hunar bosqichi asosiy ob'ekt qilib olingan.*

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, islohot, kasb-hunar, dual ta'lim, ta'lim sifati, o'quv dasturlari, ochiqlik, shaffoflik, ochiqlik.

### **ANNOTATION**

*This article, using legal documents and educational literature and scientific research, highlights the comprehensive reforms carried out within the framework of vocational education in the conditions of Uzbekistan. The main object of the article is the professional stage of education.*

**Key words:** education, reform, profession, dual education, education quality, educational programs, openness, transparency, openness.

*Zamona har kuni yangilashur,  
yangi ilm va yangi fikrlik va fununi  
zamoniyani durbar qilgan  
odamlarni talab qilur.*

**Mahmudxo'ja Behbudiy**

### **KIRISH**

O'zbekiston deb atalmish diyorning har bir a'zosi tinch va farovon hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar sabab vatanimiz o'zgarishlar diyoridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Jonajon O'zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo'yimoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ta'lim va tarbiyada ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda.

2020 yil 25 dekabr kuni yurtimizda birinchi marta "O'zbekiston yoshlari forumi" tashkil etildi. Forumda yurtboshimizning shaxsan qatnashishi, so'zlagan nutqlarida yoshlarni Vatanimizning eng katta boyligi va bebaho xazinasiga qiyoslagani, pandemiyani o'z boshidan o'tkazayotgan og'ir sinovli kunlarda ko'rsatgan mardlikni, jasoratni yuksak e'tirof etganidan dalolatdir. Yoshlarga bu kabi

e'tibor berilishi sababi shuki- aynan yoshlarimiz ikki davr-bugun va ertamiz, kelajagimiz vakillari, kelajagimiz yaratuvchilari hisoblanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimiz, millatimiz davomchilari bo'lish bilan birga Vatanimizning eng katta boyligi va tayanchi, ustunlari ekanini barchamiz yodda tutishimiz lozimdir.

### **ASOSIY QISM**

Yurtimiz aholisining 60 foizdan ziyodini tashkil qilayotgan yosh avlodning hayotiy manfaatlarini, ehtiyojlarini ta'minlash, ularning ezgu orzu-umidlari, intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidneti Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra davlatimizda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;

ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Yuqoridagi qonunning 10-moddasida professional ta'lim tizimi ham yortilgan bo'lib, unga ko'ra yurtimizda quyidagi shakllardagi professional ta'lim turlari mavjuddir. Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

boshlang'ich professional ta'lim;



oʻrta professional taʼlim;  
oʻrta maxsus professional taʼlim.

Boshlangʻich professional taʼlim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi taʼlim shakli boʻyicha umumtaʼlim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Oʻrta professional taʼlim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki toʻlov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha umumiy oʻrta, oʻrta maxsus taʼlim hamda boshlangʻich professional taʼlim negizida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus professional taʼlim texnikumlarda umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, boshlangʻich professional va oʻrta professional taʼlim negizida davlat buyurtmasi yoki toʻlov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi (toʻqqiz yillik umumiy oʻrta va uch yillik oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi) olgan fuqarolar ham oʻrta professional va oʻrta maxsus professional taʼlim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar taʼlim oluvchilarning oʻzi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega boʻlishini taʼminlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional taʼlimni olish huquqiga ega.

2020/2021 oʻquv yilidan boshlab Oʻzbekistonda boshlangʻich, oʻrta va oʻrta maxsus professional taʼlim tizimida tegishli taʼlim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional taʼlim muassasalari tarmogʻi tashkil etildi. Oʻzbekiston prezidentining 6 sentyabrdagi professional taʼlim tizimini yanada takomillashtirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisidagi farmonida bu haqida soʻz boradi. Bundan tashqari, jami 388 ta kasb-hunar kollejlari binolari tegishli roʻyxatga asosan maktab sifatida foydalanilishi belgilandi. Kasb-hunar maktablarida maktablarning 9-sinf bitiruvchilariga 2 yillik kunduzgi taʼlim beriladi. Taʼlim olayotgan oʻquvchilar Davlat byudjeti hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida (202730 soʻm) oylik stipendiya hamda uch mahal ovqat bilan taʼminlanadi.

Kollejlarda kamida umumiy oʻrta maʼlumotga ega boʻlgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda

kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida ta'lim beriladi.

Texnikumlarda esa umumiy o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo'lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to'lov-kontrakt asosida ta'lim beriladi.

Kasb-hunar maktablari, kollej hamda texnikumlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan boshqariladi.

"O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" Hukumat qarori (466-son, 07.08.2020 y.) qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra, professional ta'lim mehnat bozoridagi kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida ta'lim olishga mo'ljallangan.

Ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli bitirganlarga davlat namunasidagi diplom beriladi. Diplom olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mehnat faoliyatida qo'llash huquqini beradi.

Mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi asosida ta'lim olishga bo'lgan talablarini qondirish professional ta'limning maqsadi etib belgilandi.

Professional ta'limning bir qator vazifalari ham belgilab qo'yildi, jumladan:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj asosida malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash;
- mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlarini hamda o'qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- ta'lim olish bilan birgalikda o'quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o'z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo'llab-quvvatlash va boshqa vazifalar belgilandi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 466-son qarori bilan kasb-hunar maktablarining, kollejlarning hamda texnikumlarning namunaviy ustavlari ham tasdiqlandi.

Professional ta'lim tizimidagi yangiliklardan biri dual ta'limdir. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. [1]

Ma'lumdurki, dunyoda har kim umid va omol ila yashaydur. Kecha-kunduz mehnat va mashaqqat tortmoq oyanda uchundur. Har kim o'z oyandasini yaxshilikka harakat etar va kelar zamonda o'z orzusi va havasg'a yetmoq uchun hech dam olmasdan hol qadarincha harakatdadur. Tiriklik kulfati va mehnati asnosinda har kim o'z oyandasi va istiqbolig'a bir nav yaxshi umid ila qarab va o'zig'a bir muddao qaror berib va o'shal muddao va, yoyinki, murodin hosil qilmoq uchun ko'shish etib, har kun chekaturgan kulfatini o'shal muddaosini hosil qildirmoq uchun o'zig'a yana ziyodaroq intiladur. Va ba'zan o'shal murodu muddaosini, go'yo hosil bo'ldi, deb rohatlanib o'zig'a tasalli beradur. Va hech ahadi ushbu muddaou murodini orqasidin yugurmoqdan xoli emas. Ana shul muddao va murodlarni ilmi istiloh ila omol derlar.[3. 2018. –B. 412]

Aziz birodarlar! Hazrati Ali afandimiz karamallohu vajhahu janoblari buyuradurlarki: "... Ey musulmonlar! Bolalaringizg'a kelar zamon ilmini o'rgatingiz! Zeroki, alarni Xudo taolo xalq etdi, sizni zamonangizdan boshqa, ya'ni kelar zamon uchun". Yuqoridagi so'z shunday bir qaiymatbaho va purma'no va keraklik so'zdurki, yolg'iz aning ila biz, musulmonlar, omil bo'lmasa eduk, butun dunyo va oxiratimiz obod bo'lur edi. [4. 2018. –B. 55]

Shu o'rinda Yurtboshimiz 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va xalqimizga qilgan Murojaatida "Ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, bu – yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelayotgani hammamizni o'ylantirishi kerak. Shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarur.

Shu maqsadda 2023 yildan boshlab yangi dastur amalga oshiriladi. Har bir viloyatda 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi"[2] -deya ta'kidlab, kasb-hunar ta'limiga ham jiddiy e'tibor qaratilishiga urg'u berib o'tdilar.

Xulosa o'rnida mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizdan ko'prog'ini yoshlar tashkil etayotganini hisobga olsak, kasb-hunar ta'limiga alohida e'tibor qilinishi zarurligi oydinlashadi. Zero, tobora sanoat industriyasi rivojlanib borayotgan mamlakatimizda zamonaviy kasblarni puxta egallagan yosh kadrlarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Prezidentimizning 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlashida o'ziga xoz ma'no mujassam.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020 yil, 23 sentyabr
2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022 yil, 20 dekabr.
3. Behbudiy. Tanlangan asarlar, I jild., Toshkent: "Akademnashr", 2018, -B. 412.
4. Behbudiy. Tanlangan asarlar, II jild. Toshkent: "Akademnashr", 2018, -B. 55.
5. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
6. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
7. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.
10. Baratov, Rashid, and Sadokat Uzbekova. "INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING." *World scientific research journal* 4.2 (2022): 7-11.
11. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН

ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.

12. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.

13. Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

14. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, Issue 6, 2021. -P.406-410.

15. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов (2022) ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИДА КОММУНИКАЦИЯ ВА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 403-407.

16. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. Academic research in educational sciences, 3 (10), 582-586.

17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 969-976.

18. Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1070-1078.

19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. World scientific research journal, 9(2), 37-42.

20. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1453-1458.



## **MAMLAKATLARNING IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDAGI ISHTIROKINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI**

**Akbarova Laylo Upashevna**

Toshkent davlat transport universiteti  
katta o'qituvchisi akbarova1965@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada, O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning istiqbollari, iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari siyosatini, iqtisodiyot sohasini tarkibiy qisimlari, hozirgi kunda bu sohani naqadar kerakligi, undagi turli xildagi muammolar va ularni yechish yo'llari va keyinchalik kutilayotgan natijalar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Iqtisodiyot, raqamli market, integratsiya, iqtisodiyot, tovar, tendentsiya, zamonaviy marketing texnologiyalari, intellektual faoliyat, ichki bozor.*

### **ANNOTATION**

*In this article, the prospects for digitalization of the economy of Uzbekistan, the policy of effective use of digital marketing technologies in the development of participation in economic integration processes, the structural parts of the economic sector, the need for this sector today, various problems in it and ways to solve them, and analyzes future expected results.*

**Key words:** *economy, digital market, integration, economy, product, trend, modern marketing technologies, intellectual activity, domestic market.*

### **KIRISH**

Dunyoda faollashib borayotgan iqtisodiy integratsiyaviy jarayonlar ularni baholashda yangicha yondashuvlardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ushbu holatda dunyo miqiyosida faoliyat yuritib kelayotgan turli integratsiyaviy tuzilmalar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan turli integratsiyaviy tashkilotlar o'z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, integratsiya jarayonlarini baholash bo'yicha turli indikatorlar tizimini shakllantirishgan. Xususan, Yevropa Ittifoqida integratsiya jarayonlari samaradorligi va natijaviyligini baholash quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi. Dunyo bozoridagi tovar va xizmatlariga talab tashqi iqtisodiy aloqalar mexanizmi orqali alohida mamlakatlarning ichki bozoriga ko'chadi. Bu esa ishlab

chiqarish kuchlarini rivojlantirish ehtiyojini yuzaga keltirib, o'z navbatida sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, xizmatlar sohasi va moliyaviy muassasalarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Keyinchalik mamlakat ichki bozorining rivojlanishi davlat ichida taklif hajmining talab hajmidan ortishiga olib keladi va natijada tashqi iqtisodiy operatsiyalarning kengayishi, kapital qiymatining arzonlashuvi va ishlab chiqarish, muomala xarajatlarining qisqarishi ro'y berayotkanini ko'rishimiz mumkin.


Raqamli marketing (digital marketing) – bu tovarlar va xizmatlar marketingining umumiy atamasi sifatida iste'molchilarni jalb qilish va ushlab turish uchun turli raqamli kanallardan foydalanadigan marketingdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, xalqaro iqtisodiyotda shakllangan tajribalar va innovatsion marketingning nazariy va amaliy masalalari turli yo'nalishda yetakchi xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan. Jumladan, F.Kotler, Z.Armstrong, I. V.Uspenskiy, X. Matasheva<sup>109</sup> kabi bir qator xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. F.Kotler, Z.Armstronglarning asarlarida korxonalarining ichki va tashqi bozorda samarali marketing strategiyasini amalga oshirish, globallasuv sharoitida korxonalarda marketing faoliyatini rivojlantirish va tashqi bozorga chiqish bilan bog'liq muammolar o'rganilgan.

M.Qosimova, SH.Ergashxodjayev va boshqalarning ilmiy ishlarida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda marketingdan foydalanishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan. Dunyo bo'ylab eksportchilar va savdo kompaniyalari an'anaviy marketing usullaridan voz kechmoqdalar. Milliardlab odamlar ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalardan faol foydalanamoqdalar va zamonaviy biznes dunyosi raqamli marketing konsepsiyasini qabul qildi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, marketing texnologiyalarining samarali shakllanishiga o'z navbatida, an'anaviy hamda eskirgan marketing texnologiyalarining borgan sari amaliyotdan siqib chiqarilishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda Internetdan foydalanuvchilar umumjahon o'rgimchak to'riga nafaqat axborot olish uchun, balki o'zlariga zarur bo'lgan tovarlarni xarid qilish uchun ham ulanmoqdalar. Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Osiyo mintaqasida Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni jami foydalanuvchilarning 53.4 %ni, yoki dunyo aholisining 54.9 %ni, Yevropa mintaqasida esa 14.3 %ni yoki dunyo aholisining 10.6 %ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlarni jami dunyo aholisi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2021 yilning birinchi choragda aholi soni 7 875 765 587 nafarni, shundan internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 5 168 780 607 nafarni yoki 65.6 %ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Internetdan

foydalanishning ommaviylashuvi va foydalanuvchilar soni kundan – kunga ortib borishi insoniyat tarixida yangi davr – elektron tijorat davri boshlanganidan dalolat beradi. Marketingning innovatsion ko‘rinishi sifatida – raqamli marketing, axborotlar uzatish tannarxining pastligi, xaridorlarning xulq-atvorini o‘rganish, iste’molchilarning tovarlar borasidagi fikr va mulohazalarini tezkor tahlil qilish, on-line rejimda to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing (direct marketing) yuritish, interaktiv reklama, PR, E-mail marketing, internet-branding, biznes modellari (V2V, V2S, S2S, S2V), internet do‘konlardan foydalanish va boshqa imkoniyatlarni bergani tufayli, korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatida tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamli marketingning eng keng tarqalgan turlarini bor.

Zamonaviy marketing texnologiyalari, neyromarketing, kognitiv marketing, sensorli marketing, mobil marketing, internet marketing va kraudcorsing uslublaridan eksportga tovarlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida foydalanish ularning samarali faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta‘minlash imkonini beradi. Raqamli texnologiya yangi g‘oyaga ega tadbirkorlarni sohaga kirishiga imkoniyat yaratib, xaridorlarga tovarlarni qulay topish, baholash va sotib olishni osonlashtirdi. Ushbu modellar uzoq muddatga mo‘jallangan iste’mol mahsulotlari bozorlaridaga inqilobiy o‘zgarishlarga mos bo‘lib, natijada ushbu holat, bozor hukmi ishlab chiqaruvchidan sotuvchiga samarali tarzda o‘tishini ta‘minlaydi. Bunday o‘zgarishlarga javob tarzida, ishlab chiqaruvchilar an’anaviy sotish kanallarining nuqsonlarini bartaraf etib, marketingning innovatsiyalarga asoslangan raqamli texnologiyalaridan foydalana boshladilar.



1-rasm. Raqamli marketingning keng tarqalgan turlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish quyidagi afzalliklarga ega bo'lishga olib keladi:

-keng miqyosdagi maqsadli auditoriya bilan o'zaro samarali aloqalarni o'rnatish;

-qisqa vaqt ichida ko'p miqdordagi potensial mijozlarga ma'lumot yetkazib berish;

-iste'molchilarga yanada kuchli va davomli ta'sir o'tkazish;

-tovar va xizmatlar haqidagi ma'lumotlar bilan mijozlarning xabardorligini oshirish va kompaniyaga (tovarga) sodiqligini ta'minlash;

-marketing strategiyasi natijalarini shaffof tarzda o'lchash va real vaqtda ichida tuzatishlar kiritib borish imkoniyati;

-an'anaviy reklama, PR va marketing xarajatlari bilan taqqoslaganda nisbatan arzonroq xarajatlar bilan ko'zlangan natijalarga erishish.

Raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan birgalikda tashqi iqtisodiy faoliyat tizimida yuz bergan asosiy o'zgarishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- "ko'pga bir" an'anaviy modelidan internetda amalga oshirilayotgan "ko'pga-ko'p" yo'nalishli kommunikatsiya modeliga o'tish, ya'ni kompaniya axborotlarini iste'molchilarga bir tomonlama uzatishdan real vaqt rejimida iste'molchilar bilan ikki tomonlama o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishi;

- to'g'ridan-to'g'ri sotuvni amalga oshirish yo'li bilan innovatsiyalarni taqsimlashning uzun va ko'p pog'onali kanallarini almashtirish va ularning funksiyalari vositachilarning biron-bir mahsulotga egalik huquqini olmasdan turib tarmoqda oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda har tomonlama axborot bilan qo'llab-quvvatlashga borib taqaladigan yangi axborot vositachilari paydo bo'lishi;

- ommaviy iste'molchiga yo'nalganlikdan innovatsion sohada yakka tartibdagi taklif shakllantirishga o'tilishi, shuningdek, ulardan bir qismi ham raqamli, ham jismoniy shaklda bo'lishi mumkin bo'lgan yangi elektron tovarlar paydo bo'lishi;

- moslashuvchan narx strategiyalaridan foydalanish, shuningdek, narx shakllanishiga yakka tartibdagi yondashuvni amalga oshirish ustuvorligi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi quyidagi omillar bilan asoslanadi: mablag'larning sezilarli darajada tejalishi; real vaqt rejimida ishlash; interaktivlik; global ishtirok; maqsadli doiraga qaratilganlik;

internet orqali faol sotuvni amalga oshirish; mehnat xarajatlari kamayishi; bir vaqtning o'zida ko'p sonli mijozlarga xizmat ko'rsatish; raqobat muhitini tahlil qilishning soddalashuvi.

Tashqi bozorga chiqish juda qattiq raqobat kurashiga kirishish demakdir. Raqobat kurashida sinib ketmaslik uchun bu kurashda o'ziga kerak bo'lgan natijani qo'lga kiritish maqsadida har bir korxonada bozor talabini, raqobatchilarni, o'zi va ular tomonidan ishlab chiqarayotgan tovarlar sifatini, xususiyatlarini, narxini muntazam ravishda nazorat qilib turmog'i lozim.

Tashqi bozorlarga chiqishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu jarayonlarni ma'lum ma'noda osonlashtiradi, lekin tashqi bozorlarga chiqish bilan bog'liq quyidagi qiyinchiliklar ham mavjudligini ta'kidlash joiz:

-xorijiy mamlakatlar tadbirkorlik muhitining geografik, demografik, siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarini o'rganishga qo'shimcha xarajatlar;

-firmani boshqarishning murakkablashuvi, bu tegishli mamlakatlar bozorlarining xususiyatlari, chet ellik iste'molchilarning talablari va istaklari, muzokara olib borishning o'ziga xos tomonlari bilan tanish bo'lgan chet tillarni egallagan malakali kadrlarni tayyorlash zaruratini nazarda tutadi;

-tovarlarni o'zgartirish va chet el bozorlarining talablariga moslashtirish.

Xulosa va takliflar

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarga asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishidan olinadigan samara quyidagi sohalarda namoyon bo'ladi:

a) byudjet – tovarlar va xizmatlar eksporti (importi)dan bojxona to'lovlarining kirimi; eksportga yo'naltirilgan va xorijiy kapital bilan qo'shma korxonalaringsoliq to'lovlarining oshishi hisobiga;

b) investitsiya – chet el investitsiyalarining kirib kelishi va mahalliy investitsiyalarning (eksportdan olinadigan) ko'payishi hisobiga;

v) ishlab chiqarish – texnologik va ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish (asbob-uskunalarini import qilishda, litsenziyalar savdosida, qo'shma korxonalarini tashkil qilishda, xalqaro moliyaviy lizingda) hisobiga;

g) ijtimoiy – eksport ishlab chiqarishini kengaytirish, qo'shma korxonalar ochish natijasida bandlikni oshirish hisobiga.

Natijada ishlab chiqarishning unumdorligi va raqobatbardoshligi oshadi, iqtisodiy o'sish kuzatiladi, aholining ehtiyojlari to'laroq qondiriladi.

## **REFERENCES**

1. [https://uz.vvikipedla.com/wiki/Digital\\_economy](https://uz.vvikipedla.com/wiki/Digital_economy).



2. Muhammadjon Butaboev, Akmaljon O'rinov, Farhod mulaydinov, Isroiljon Tojimatov "Raqqamli iqtisodiyot" darslik, 7-39 betlar.
3. Akbarova, L. U. (2022). APPLICATION OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRACTICAL CLASSES IN THE DISCIPLINE "ECONOMIC THEORY". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
4. Akbarova, L. U. (2022). THE SIGNIFICANCE OF ECONOMIC THEORY IN KNOWING AND SOLVING PROBLEMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
5. Akbarova, L. U. (2022). SOME PROBLEMS OF LIFELONG EDUCATION IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF A MARKET ECONOMY. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132
6. Saidahrolovich, K. S., Upashevna, A. L., & Abduxamitovna, F. M. (2022). Factors Affecting Supply and Demand in The Automobile Industry of The Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 1-6.
7. Upashovna, A. L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 245-248.
8. Upashovna, A. L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 245-248.
9. Акбарова, Л. У., Бексултонов, А. Б., & Иляшов, Б. А. (2021). БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).
10. Акбарова, Л. У. (2020). ОСОБЕННОСТИ РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. В номере, 9.
11. Акбарова, Л. У. (2019). ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МАРКЕТИНГА И РЕКЛАМНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ СЕРВИСА. Экономика и социум, (1-1), 170-171
12. Bakhtiyarovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muysinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3302-3305.

“Ихлос” сураси эса: “Меҳрибон ва раҳмли Аллоҳ номи билан (бошлайман).

1. (Эй Муҳаммад), айтинг: У – Аллоҳ бирдир (яъни Унинг ҳеч қандай шериги йўқдир. У яккаю ягонадир.) 2. Аллоҳ (барча хожатлар билан) кўзлангучидир (яъни, барча хожатлар) Ундан сўралади, аммо У ҳеч кимга мухтож эмасдир.

3. У туғмаган ва туғулмагандир (яъни Аллоҳнинг ўғил-кизи ҳам, онаси ҳам йўқдир. У азалий абадий Зотдир). 4. Ва ҳеч ким У Зотга тенг эмасдир”[5]. Ўз-ўзидан очиқ кўриниб турганидек, юқоридаги сура, оятларда борлиқ ҳақидаги диний илоҳиётчилик руҳидаги теодеистик таълимот мазмун-моҳияти берилган.

Қуръон ва тафсирлардаги бу сатрлар барча исломий диний-фалсафий таълимот ва қарашлар –мўътазила, муржиъа, калом, тасаввуф, исломий бидъат мазҳаблар, шийа-исмоилийлар, хурфийлар, ишроқийлар ва шу каби таълимотлар учун асос бўлган. Шунингдек, мусулмон фалсафасининг барча оқим ва мазҳаблари вакиллари ҳам ўзларининг борлиқ ҳақидаги таълимотларида (баъзи истисноларни инобатга олмаганда) асосан ана шу креационистик ақидани асос қилиб олганлар ёки уни ҳисобга олишга мажбур бўлганлар. Мусулмон фалсафасидаги креационистик таълимотлар асосан қуйидагилар: машшоийун (шарқ арастучилари); табиийун; вахдат-ул-вужудчилар; ишроқийлар ва ҳоказо.

Методологик, концептуал жиҳатдан бундай креацион таълимотлар қуйидагилардан иборат: 1. Йўқдан бор қилувчи Аллоҳ таоло томонидан яратиш йўли билан пайдо қилинадиган борлиқ ҳақидаги таълимот; 2. Аллоҳ таоло борлигидан “Файзи илоҳий”, “Ас-судури-илоҳий” йўли билан келиб чиқадиган, пайдо бўладиган борлиқ ҳақидаги тасаввуфий таълимот.

Албатта, мусулмон жамиятида “Зиммийлар” деган умумий тоифа номини олган яҳудий, христиан, зардўштийлик, манихейчилик каби оқим, таълимотлар

ҳамда борлиқ ҳақидаги туркий, ҳинд, хитой, юнон, собий, холдейларга мансуб монотеистик, дуалистик ва шу каби таълимотлар ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлмасалар-да, рудимент ҳолда мавжуд эдилар. Улар жуда озчиликни ташкил этсалар-да, мавжуд гуллаб яшнаётган мусулмон жамияти илм – фани, диний-ирфоний тафаккури доирасида мавжуд бўлиб, ўзларининг маслақдош, издошларига эга эдилар.

Шуни айтиш керакки, фалсафа тарихи бўйича Ўзбекистонда, минтақада олиб борилган илмий изланишлар орасида ўрта аср - мусулмон халқлари фалсафасида борлиқ муаммосининг қўйилиши, баъзи талқинлари ҳақида академик И.М. Мўминов, М.М.Хайруллаев, А.В.Сагадеев, Э.Аҳмедов, М.Диноршоев, А.Шарипов, М.А.Усмонов, Р. Носиров, А.Зоҳидий, Ф.Сирочов, Б.Исматов, М.Ҳазратқулов ва бошқа тадқиқотчилар бир мунча тўхталиб ўтишган бўлсаларда, уларда мазкур масала қандай назария, концепция, таълимотлар шаклида ўртага қўйилганлиги, уларнинг тўла таснифи, ҳар бир оқимнинг борлиқ ҳақидаги таълимоти бир бутун тизим сифатида, мантикий изчил тарзда баён қилинмаган, фалсафа тарихи нуқтаи-назаридан умумлаштирувчи хулосалар берилмаган. Бу муаллифлар тадқиқотларида борлиқ муаммоси махсус ўрганиш объекти бўлмагани учун, унинг у ёки бу мутафаккир меросида қандай қўйилганлигини аниқлашга уриниш қабилидаги баъзи кузатиш, айрим ҳолларда эса - чалқаш таъриф, талқинлар кўзга ташланади. Хусусан, совет давридаги ҳукмрон мафкура таъсирида уларнинг баъзиларида борлиқ муаммоси бўйича кўпчилик ўрта аср Шарқ мутафаккирлари, масалан: Розий, Беруний, Улуғбек кабилар мероси, дунёқарашидан нима қилиб бўлса-да материалистик, атеистик концептуал йўналишни қидириб топишга уриниш борлиги сезилади.

Шунга қарамай, Ўзбекистонда, минтақада фалсафа тарихи тадқиқотчилари орасида борлиқ муаммоси бўйича қуйидаги учта концептуал ёндашиш мавжудлигини эътироф этиш ва ҳимоя қилиш кўзга ташланади:

1. Борлиқ ҳақидаги исломий, тасаввуфий таълимотларни объектив ёки субъектив идеализмнинг у ёки бу кўриниши деб талқин этиш.

2. Табиатшунослар - Хоразмий, Фарғоний, Беруний, Улуғбек ва бошқаларнинг борлиқ ҳақидаги қарашларини деистик нуқтаи назардан талқин этиш (А.Баҳоуддинов, А.Сагадеев, Э.Аҳмедов, А.Шарипов ва бошқалар)

3. Шарқ мутафаккирлари – файласуфлари Форобий, Ибн Мискавайх, Ибн Сино, уларнинг маслақдошларини, издошларини эса пантеист деб эълон қилиш. Хусусан, академик М.М. Хайруллаев, бутун ўрта аср мумтоз араб –

мусулмон фалсафаси вакиллари у ёки бу даражада пантеистик позицияда турганлар, деган хулосани илгари сурган[6].

Албатта, XX асрнинг 50-70 йилларида мусулмон халқлари фалсафаси фундаментал оқимларининг хато номланиши, калом, машшоиййун, табииййун, ишроқиййун, тасаввуф концепциялари ҳали жиддий тадқиқ этилмаган, кўп ҳақиқатлар номаълумлигича қолаётган вазиятда бундай бўлиши тамомила табиий эди. Бу даврда мазкур оқимларнинг борлиқ тўғрисидаги концепциялари деярли ўрганилмаган, ўзига хослиги аниқланмаган эди. У пайтда фақат Шарқ арастучилиги – Шарқ перипатетизми нисбатан яхши ўрганилган эди, холос.

Хорижий Шарқ ва Ғарб тадқиқотчилари мусулмон халқлари фалсафасида борлиқ муаммосининг кўйилиши, талқинлари жуда бой ва хилма-хил бўлганлиги тўғрисида анча-мунча юқори савиядаги фикр-мулоҳазалар билдирган бўлсалар-да, уларда муаммонинг манбашунослик ва методологик асослари чуқур тадқиқ этилмаганлигини бу ўринда таъкидлаб ўтиш мақсадга мувофиқ. Унинг сабаби, бизнингча, қуйидагилардир:

1. Мавжуд ҳукмрон вульгар методология ақидаларининг қатъий ва эътироз билдирилишига йўл қўймайдиган мавқега эга бўлганлиги.

2. Янги хорижий Шарқ, Ғарбда эълон қилинган тадқиқотлардан узилиб қолганлиги, улардан беҳабарлик.

3. Ўрта аср мусулмон халқлари фалсафасида борлиқ муаммосининг адабиётларда, масалан, ўз пайтида жиддий тадқиқот деб ҳисобланган Г.Лейнинг “Очерки истории средневекового материализма” (М: ИИЛ, 1962) асарида улардаги концептуал ёндашиш ўша ўзимизга маълум “материализм ва идеализм” қарама – қаршилиги шаклида, вульгар методология ақидалари руҳида талқин этиб берилганлиги ёмон панд берган эди[7]. Г.Лейнинг бундай талқини унинг кейин нашр этилган тадқиқотида[8] бир мунча юмшатирилган бўлса-да, бари – бир ўзининг асосий ва етакчи вульгар методология ақидалари руҳидаги талқини, мазмунини сақлаб қолган бўлиб, бу ҳамон айниқса ёт, жиддий фалсафий – тарихий тадқиқот методларини эгаллаб улгурмаган, тажрибасиз ёки тадқиқотчиларни чалғитувчи рол ўйнашни давом эттирмоқда.

Ўрта аср мусулмон халқлари фалсафасидаги барча диний – фалсафий оқимлар орасида машшоиййун-перипатетиклар, академик М.М. Хайруллаев иборасига кўра эса-“Шарқ арастучилари”[9] ва табииййун-демокритчи оқими етакчи бўлганлиги тарихчилар Ибн ан-Надим, Ашарий, Мотуридий, Шахрастоний, Байҳақий, Шахризурий ва бошқалар томонидан, шунингдек ҳозирги замон хорижий Шарқ ва Ғарбдаги тадқиқотчилар асарларида таъкидланади. Мавжуд Ўрта аср Шарқ фалсафаси тадқиқотчилари

изланишларида юқоридаги икки оқим нафақат етакчи йўналишлар сифатида, балки қадимги юнон илм-фани, фалсафасининг мусулмон жамиятида маълум ва машҳур бўлган асосий оқим, фалсафий мактаблари сифатида кўрсатилади.

Шунинг учун ҳам эндиликда фалсафа, хусусан ўрта аср мусулмон халқлари фалсафаси тарихи тадқиқотчилари бу жаҳон фалсафасининг мислсиз, нодир “Олтин даври”ни фақат арастучилик перипатетикчилик нуқтаи-назаридангина эмас, балки ундаги бошқа етакчи оқимлар, Гераклит, Демокрит, Ксенофант, Анаксагор, Эмпедокл, Парменид, Зенон ва, умуман, элейликлар, стоиклар, скептиклар нуқтаи-назаридан ҳам ўрганиш, таҳлил этиш, хулосалар чиқариш пайти келди, деб ўйлаймиз. Бу айниқса, борлиқ муаммосининг қандай ўртага қўйилганлиги, бу муаммо юзасидан умуман жаҳон илм – фани, фалсафаси тараққиёти нуқтаи – назаридан ҳам диққатга сазовор ўта жиддий, салмоқли ва юксак савиядаги баҳс – мунозаралар бўлиб ўтганлигини, талқинлар илгари сурилганлигини таъкидлаш лозим. Бироқ, бизнингча, айнан арастучилик анъанасига бўлган устувор қизиқиш, диққат қилиш бошқа қадимги юнон фалсафаси мактаблари, оқимларига оид манбаларни қидириб топиш, таржима қилиш ва тадқиқ этишнинг ўлда-жўлда бўлиб қолишига олиб келган. Бундай манбаларнинг мутлақ кўпчилиги номаълумлигича қолмоқда, уларни фалсафий тадқиқ этиш борасида изланишлар бизда энди амалга оширила бошланганини таассуфлар билан қайд қилишга тўғри келади.

Кейинги пайтда фалсафий меросимизга янгича ёндашув асосида олиб борилган тадқиқотларда Яқин ва Ўрта Шарқда натурфалсафа тўғрисидаги қарашлар ҳақида гапирилганда, уларга антик фалсафадаги атомистик назариянинг таъсирини кўрсатиш зарурлиги таъкидланади[10]. Бу хулосани тўғри деб ҳисоблаймиз. Унинг тўғрилигини Ўрта аср Шарқидаги жуда кўп таълимотлар, оқимлар, шу жумладан, диний-фалсафий назариялар тасдиқлайди. Лекин, биз учун энг муҳим, фалсафий тафаккур тараққиёти нуқтаи назаридан фавқулудда аҳамиятга эга ҳолат шундаки, Шарқ мутафаккирлари, хусусан ўрта аср мусулмон халқлари илм-фани, фалсафасининг буюк вакиллари Жобир, Эроншаҳрий, Розий, Беруний, Бағдодийлар натурфалсафа муаммоси бўйича субстанционал концепцияни, Киндий, Форобий, Ибн Мискавайх, Ибн Сино, Умар Хайём каби Ватанимиз – Туркистондан, етишиб чиққан буюк мутафаккирларимиз реляцион концепцияни ўз даври фани, фалсафаси тараққиёти даражасида хулосалаб беришда фавқулудда ўрин тутганлар, хизмат кўрсатганлар. Айниқса, ўрта асрлар илм-фани, фалсафаси асосчилари, қурувчилари бўлишган реляцион концепция вакили Ибн Сино билан субстанционал концепция вакили Берунийнинг ёзишма-мақтублари воситасида

3 босқичда, мунтазам ва узоқ давом этган қизғин илмий-фалсафий баҳс-мунозаралари бутун ўрта аср илм-фани, фалсафасида натурфалсафа борлиқ, унинг моҳияти, тараққиёти, мавжудлик усули ва шакллари борасидаги баҳс-мунозараларнинг энг юксак чўққиси – тожи бўлган эди. Бунинг маъносини фақат XX аср бошига келгандагина жаҳон илм-фани, фалсафаси, маданияти тадқиқотчилари, тарихчилари, хусусан, К.Брокельманн, Ж.Сартон ва бошқалар тушуниб етдилар ва Шарқ мутафаккирларининг илм-фан, фалсафа тараққиётидаги ютуқларига юксак баҳо бердилар, уларни эътироф этдилар[11].

Ана шу нуқтаи назардан Шарқ мутафаккирларининг, шу жумладан, Абу Райҳон Берунийнинг натурфалсафасида борлиқ, унинг моҳияти, мавжудлиги, тараққиёти, ҳақидаги субстанционал қарашларининг келиб чиқиши, эволюцияси, ўзига хослиги, бу таълимотга қўшган ҳиссаларини қайта англаш, бунда улар қўллаган усул ва услубларини тадқиқ қилиш, умумлаштирувчи хулосаларга келиш фалсафий тафаккур тараққиёти нуқтаи-назаридан муҳим илмий назарий аҳамият касб этади.

## REFERENCES

1. Умарова, Р. Ш. Бытие и философские взгляды абу Райхана Беруни. Достижения науки и образования, (3), 32-33.
2. Тўраев Б.О. Ҳозирги замон табиатшунослиги концепциялари фани бўйича асосий тушунчаларга изоҳли луғат. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – Б. 7.
3. Петрушевский И.П. Ислам в Иране. Курс лекций. -СПб. 1996. –С. 62-73; Усмонов М.А. Ислом ақидалари ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975.- 120 б.
4. Қуръони Карим. Таржима ва илмий-тарихий изоҳлар. 1-китоб. Усмонов М.А, Ирисов А., Абдуллаев И., Уватов У. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 67-68. Ал-Фотиҳа сураси.
5. Қурони Карим. – Тошкент: Ёзувчи, 1992. – Б.112. Ихлос сураси. 1-4 оятлар.
6. М.М. Хайруллаев. Мировоззрение Фараби и его значение в истории философии. – Тошкент: Фан, 1967. – С. 179.; Шу муаллиф: Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – Б. 118-119.
7. Лей, Герман. Очерки истории средневекового материализма. – М.: ИИЛ, 1962. - 588 с.
8. Ley Hermann. Geschichte der Aufklärung und des Atheismus.-Berlin: 1966. - P. 1-2.
9. Хайруллаев М.М.. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. - 310 б.



10. Классическая наука в Средней Азии и современная цивилизация. - Ташкент: 2000. - 416 с.; Носиров Р.Н., Сирожиддинов Ш.С., Зияутдинова Х.А. Ўрта Осиёлик алломаларнинг фалсафий қарашлари. - Тошкент: 2007; Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ халқлари фалсафий тафаккури. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009.
11. Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. Bd. I-II. -Weimar-Berlin. 1898-1902; Sarton G. Introduction to the History of science.vol. I-III. Baltimore. 1927-1948.
12. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1453-1458.

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR SALTANATIDAGI IJTIMOIY TARKIB**

**Ramatov J.S.**

Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., professor

**Nazarova N.J.**

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

**Hasanov M.N.**

Ijtimoiy fanlar kafedrası tayanch doktoranti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada Amir Temur saltanatidagi ijtimoiy toifa va ijtimoiy tarkibning o'ziga xosliklari, vazifalari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** insoniy kamolot, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy soha, tabaqa va toifa, quyi qatlam, davlat ishi, ijtimoiy tarkib, saroy ma'muriyati.*

### **ABSTRACT**

*In this article, social stratum and social structure and its peculiarities of Amir Temur's emperor are illustrated.*

***Key words:** human development, social activity, social sphere, caste and class, lower stratum, state work, social composition, palace administration.*

### **KIRISH**

O'z o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan, binobarin, kelajakka komil ishonch bilan qaraydigan avlodni voyaga yetkazishdek muqaddas vazifa qo'yilgan hozirgi kunda tariximizni chuqur o'rganish g'oyat muhimdir. Xalqimiz o'tmishida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan nom qozongan zotlar benihoya ko'p. Ammo ular orasida bir zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o'rin tutadi. Sohibqiron Amir Temur xalqimiz dahosining ana shunday yuksak o'rin tutgan, yorqin timsolidir.

Amir Temurning faoliyatida ijtimoiy soha masalalari keng qamrovligi bilan ajralib turib, uning jamiyatida ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ijtimoiy-kasbiy faoliyat olib boruvchi tarkib alohida o'rin tutadi. Davlatni boshqarish ishlariga Amir Temur alohida e'tibor qaratgan. O'zining "Temur tuzuklari"da "... o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatni zabt etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim"[1.63], deb yozadi. Hatto, jamiyatdagi eng quyi qatlam vakillaridan ham maslahatlar olganini bayon etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur o'ta sahovatpesha va bag'rikeng inson bo'lgan. "Darvish, faqir va miskinlarni o'zinga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim[1.64], shuningdek, u "... davlat ishlarini

saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi[1.63]", deb ta'kidlaydi.

Amir Temur jamiyatni toifalarga bo'lishda bizning nazarimizda, ikki qatlamni ajratadi. Birinchisi – davlat ishlarida ishtirok etadigan va davlat asosini tashkil qiladigan, yuqorida aytilgan 12 toifa. Ikkinchi qatlam – xalq, ulus, ra'iyat, ya'ni davlatning moddiy asosini yaratuvchi dehqon, hunarmandlar, kosiblar va umuman hunar ahli. Shuning uchun ham Amir Temur asosiy yaratuvchi va eziluvchi omma bo'lgan dehqon va hunarmandlar haqida hech narsa demagan va e'tibor qilmagan, deyish noto'g'ri.

Amir Temur va Temuriylar saltanatidagi ijtimoiy tarkib, ma'murlarni turlicha atamalar bilan ifodalangan. Masalan, hokim, dorug'a, navkar, chuhra, bakovul, bovruchi, oftobachi, chig'ovul, hojib, eshikog'a, sayislar, rikobdor, nog'orachi, qushbegi va shunga o'xshashlar. Har bir shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Biz ana shu ijtimoiy tarkib – ma'murlar to'g'risida imkon qadar batafsilroq so'z yuritmoqchimiz. Yuqoridagi ma'murlarning ko'pchiligi "Temur tuzuklari"da ham tilga olinadi. Biz ularni ixchamgina jamlashga jazm etdik.

Temur qurmoqchi bo'lgan mukammal jamiyatni shoh eng ishonarli vazirlar yordamida amalga oshirilishi mumkin va shuning uchun ham u o'z ishonchli va e'tiborli kishilari bo'lgan vazirlarga katta e'tibor berishni ta'kidlagan. Temur fikricha, podshoh vazirlarni tanlashda adashmasligi kerak. Shoh asosan to'rt sifatga ega bo'lgan kishilarni o'ziga vazir etib tayinlashi mumkin: birinchisi – asllik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomila bo'lishlik, to'rtinchisi – sabr chidamlilik va tinchliksevarlilik. Temurning maslahat berishicha bunday sifatga ega bo'lgan kishilarni faqatgina vazir etib tayinlash emas, balki, davlatning u yoki bu tarmoq ishlari uchun maslahat etib tayinlash mumkin.

Saltanatdagi har bir shahar yoki o'lkaning ishlari hokim va dorug'aga yuklatilgan bo'lib, aslida bu unvonlar ma'no jihatidan bir xil, ya'ni ma'nodosh, sinonim so'zlar bo'lib, ular, odatda bitta ma'muriyatni boshqargan kishiga nisbatan ishlatilgan.

Dorug'atlar, asosan huquqiy, mahkama ishlarini yuritishgan, zarur hollarda mamlakatning askari bilan urushga borgan, favqulotda holatlarda soliq yig'ishga ham yuborilgan.

Hokimlar va dorug'alarni vazifasiga tayinlanishi va undan ozod qilinishi moliya devonida hal qilingan.

Shohrux davrida Hirot poytaxt bo'lganligidan dorug'a, asosan shahar osoyishtaligi bilan shug'ullangan. Hirot hokimi (dorug'asi) avval Shohruxning qarindoshi amir

Muhammad Darvesh bo‘lgan, u o‘lgandan so‘ng, 1433 yili uning o‘rniga amir Sulton Abusaid tayinlangan. Shu o‘rinda amir Alisher Navoiyning ham keyinchalik Astrobod hokimi lavozimida faoliyat ko‘rsatganligini aytib o‘tish lozim.

Ko‘proq harbiy ahamiyatga molik yirik shaharlarda dorug‘adan tashqari qal‘a qo‘mondoni sanalgan qutvollar ham bo‘lgan. Saroydagi ma‘muriyat ijtimoiy tarkibini sanab o‘tamiz: hukmdorning arizalar va ulug‘ beklarning o‘z navkarlari va chuhralari bo‘lgan. Ular hukmdor, mirza yohud beklar xizmatiga kirib saroyda va harbiy ishlarda qatnashishgan, davlat tizimida katta lavozimlarga ko‘tarilishi mumkin bo‘lgan.

Saroyda oziq-ovqat bilan bog‘liq ishlarni quyidagi ma‘murlar bajarishgan: bakovul – oziq-ovqatni nazorat qilgan. Bakovuldan keyin bo‘vurchi kelgan bo‘lib, u asosan oshpazlik qilgan (hozirgi bosh oshpaz). Bo‘vurchidan pastroq ma‘mur oftobachi bo‘lgan, u hukmdor qo‘liga suv qo‘yib turgan.

Hukmdorning yotog‘iga qaraydigan, saflarda chodirini, to‘shagini va boshqa narsalarini ko‘tarib yuradigan, hukmdorlarning yotish-turishiga ko‘z-quloq bo‘lib turadigan farroshlar; keldi-ketdilarni kutib oladigan va kuzatib qo‘yadigan hamda ular bilan bog‘liq ishlarni bajarib yuradigan chig‘ovul, hojib, eshikog‘aga; ot va oxurlarga qaraydigan sayislarga; yem-xashak, to‘rva va boshqa ishlarni boshqaradigan rikobdorlarga; tabexona deb atalgan va unga qaraydigan nog‘orachiga bo‘lingan.

Davr harbiylarining yuksak ma‘rifatli vakili bo‘lgan Amir Temur musiqa san‘atini ahamiyatini ma‘naviy omil sifatida chuqur idrok etgan, harbiy musiqa turlari qo‘shinlarning jangovar ruhiyatini oliy darajada saqlab turuvchi kuch deb bilgan va uning rivojiga katta e‘tibor bergan. U tarixda birinchi bo‘lib, askarlarni jangovar bayroqlar va cholg‘u asboblari bilan taqdirlash odatini harbiy udumga kiritadi: “Amr qildimki, - deb yozadi “Tuzuklari”da, - qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g‘anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan mumtoz qilsinlar – faxrli xitob, tug‘ va nog‘ora berib, uni bahodir deb atasinlar”[1.97].

Shunisi e‘tiborliki, Amir Temur lashkarida musiqa cholg‘ulari faqatgina ma‘naviy ramziyot hisoblanmasdan, balki ko‘proq harbiy matonat, shijoat nishoni, jangchilarning tabaqa va martabalarini ko‘rsatuvchi harbiy daraja belgisini anglatgan. Amir Temurning musiqa san‘atini yuqori darajada baholashi, cholg‘ulardan harbiy nishon, jasorat ramzi sifatida foydalanishi – jahon muhoraba san‘ati tarixida mislsiz voqeadir. Bu xusuda professorlar J.Yaxshilikov va SH.Ahadov o‘zlarining “Temuriylar ma‘naviyati” asarida “Amir Temur armiyasining harbiy orkestri – puflama va zarbli cholg‘ularining xilma-xil turlaridan tashkil topadi. Ularning ko‘pchiligi turk hoqonligi, somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrlarida mashhur bo‘lgan. Bunda azaldan Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo‘lgan nog‘ora zarbli urma asboblari guruhining markazini tashkil qiladi. Ulardan juft naqqora, katta, qozon shaklidagi “ko‘s naqqora” juda keng qo‘llanilgan.

O‘rta asrlar miniatyuralaridagi tasvirlarga qaraganda, qo‘sh naqqoralar sipohiy sozandalar tomonidan o‘tning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko‘rs naqqora esa aksariyat miniatyuralarda tuyaning o‘rkachiga o‘rnatilgan holda tasvirlangan”[3.90-91] deb yozadilar.

Hukmdorning ovini tashkil qiladigan va ov qushlarini yetishtirib beradigan qushbegi ham bo‘lgan. Bundan tashqari saltanatning turli buxaklarida yashovchi xalqdan xabardor bo‘lib turishi uchun maxsus choparlar saqlash va u choparlar eng farosatli va bilimdon kishilar bo‘lishi kerakligi ham har bir odil shohning mukammal jamiyatining asosiy mezonlaridan biri bo‘lishi kerak. Temurning o‘zi ham bunga to‘la amal qilgan. “Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqinchi, ming nafar tez yurar piyodani (chopar) tayinlasinlarkim, turli mamlakatlar sarhatlarining xabarlarini qo‘shni hukmdorlarining maqsadlarini va niyatlarini bilib, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biron voqea kor-hol yuz bermasdan burun choralar ilojini qilaylik”[1.117] degan edi Temur.

## **XULOSA**

Amir Temurning faoliyatining mazmunini inson, millat va Vatan taqdiri tashkil etganligi sababli, milliy davlatchilik masalasi bosh mavzu sifatida alohida o‘rin egallagan. Bu ko‘rsatkichlar, uning faoliyati asosini - ma‘naviy va moddiy yaratuvchanlik tashkil etishini ko‘rsatadiki, bu fenomenal xususiyat asosan buyuk siymolarda mujassamlashgan bo‘ladi. Xullas, Amir Temur va Temuriylar saltanatida boshqaruvni amalga oshiradigan ijtimoiy tarkibni chuqurroq va maxsus o‘rganish talab etiladi.

## **REFERENCES**

1. Темур тузуклари. – Т.: “Фан ва технология”, 2014. 196 б.
2. Каримов С.К. Амир Темур ижтимоий-сиёсий таълимотининг асосий тамойиллари. Ўрта Осиё социологик фикрлари тарихидан (Ўқув кўлланма). – Самарқанд: СамДУ, 261-262-б.
3. Яхшиликков Ж., Аҳадов Ш. Темурийлар маънавияти (Илгариги манбалар ва янги тадқиқотлар асосида). – Т.: “Фан”, 1999.
4. Раматов, Ж. С., & Эрниеъзов, Ў. (2022). ИСЛОМ ДИНИДАГИ ҚАДРИЯТЛАР ВОСИТАСИ АСОСИДА ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АХАМИЯТИ. *World scientific research journal*, 4(2), 81-90.
5. Харатова, Ш. Х., Назарова, Н. Ж., Абдукаримова, Г. Б., Рахимова, М. И., & Темирова, С. В. (2022). ВОЯГА ЕТМАГАН ЎСМИРЛАР БИЛАН ИШЛАШДА ОИЛА, МАҲАЛЛА, МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ МАСАЛАЛАРИ. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 102-110.



6. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Валиев, Л. А. (2022). IX-X АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИ (АЛ-ФОРОБИЙ АСАРЛАРИ МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, 3(6), 660-669.
7. Jo‘rayevna, N. N. (2022). KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O‘RNI. *PEDAGOG*, 1(4), 109-111.
8. Sheralievna, U. R., Juraevna, N. N., Baratovna, A. G., Vladimirovna, T. S., & Inamjanovna, R. M. (2022). EFFICIENT USE OF EDUCATIONAL OPPORTUNITIES TO ENSURE THE COMPETITIVENESS OF YOUTH. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 97-101.
9. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Валиев, Л. А. (2022). IX-X АСРЛАРДА ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ АҲЛОҚИЙ ТАРБИЯ ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАРИ (АЛ-ФОРОБИЙ АСАРЛАРИ МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, 3(6), 660-669.
10. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., & Тухтабоев, Э. (2022). ЎЗБЕК ЭТНОМАДАНИЯТИНИНГ ЖАҲОН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУТГАН ЎРНИ. *World scientific research journal*, 9(2), 3-8.
11. Nazarova, N. (2020). YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *O‘zMU Xabarлари*.
12. Temirova, S. V., & Nazarova, N. J. R. (2022). SIYOSIY DEMOKRATIK DAVLAT BARPO ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 2), 357-360.
13. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.
14. Abdusalamovna, A. S., & Juraevna, N. N. (2022). A Strong Family as a Determining Development of Society. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(6), 31-36.
15. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627>
16. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 582-586.

17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.
18. Раматов, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1070-1078.
19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. *World scientific research journal*, 9(2), 37-42.
20. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1453-1458.

## **ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪМИНОТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ.**

**Рафиқжон Холбеков,**

мустақил изланувчи

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

### **АННОТАЦИЯ**

*Мақолада Таъминот корхоналари ва унинг тарихи дастлабки босқичларда ривожланиш даражаси, Ўзбекистон иқтисодиёти асосан хомашё тайёрлашга йўналтирилгани, бирёқлама ривожланиш ҳисобидан мўрт ва ночор ҳолга тушиб қолганлиги ва бугунги кунда Янги энергетика, машинасозлик ва бошқа саноат тармоқларининг вужудга келиши, кўплаб йирик иншоотлар, корхоналар, завод ва фабрикалар қурилганлиги, ёнилғи ва галла мустақиллигига эришилганлиги иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, модернизациялаш, янгилаш, диверсификациялаш, изчил ўсиш суръатлари миллий мустақил иқтисодиётни мустаҳкамлаш сари ҳаракат натижалари муаммолар ва эришилган натижалар таҳлил қилинган.*

***Калим сўзлар:** Таъминот корхона, иқтисодиёт, модернизациялаш, янгилаш, диверсификациялаш, корхоналар, завод ва фабрикалар.*

### **ABSTRACT**

*In the article, the level of development of supply enterprises and its history in the early stages, the fact that the economy of Uzbekistan is mainly focused on the preparation of raw materials, has become fragile and vulnerable due to unilateral development, and today the emergence of new energy, mechanical engineering and other industries, many large structures, enterprises, factories and factories construction, achieving fuel and grain independence, structural changes in the economy, modernization, renewal, diversification, consistent growth rates, the results of efforts to strengthen the national independent economy, problems and achieved results were analyzed.*

***Key words:** Supply enterprise, economy, modernization, renewal, diversification, enterprises, plants and factories.*

### **КИРИШ**

Юртимизда иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларни самарали ташкиллаштириш ва бунда таъминот корхоналарининг ўрнини алоҳида касб этишидан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига

Мурожаатномасида “...сўнги олти йилда аҳолимиз 13 фоизга, саноат корхоналари эса 2 баробар ортиб, 45 мингдан 100 мингтага кўпайган”[1] лигини таъкидлаб ўтди.

Шуни таъкидлаш керакки, тарихга назар ташласак, Ўзбекистон иқтисодиёти асосан хомашё тайёрлашга йўналтирилгани, бирёклама ривожланиш ҳисобидан мўрт ва ночор ҳолга тушиб қолган бўлиб, иқтисодиётга, экология ва аҳоли генофондига ҳалокатли таъсир ўтказадиган пахта яккахокимлиги юртимиздаги вазиятни жар ёқасига олиб келиб қўйган эди. Бунинг оқибатида улкан табиий, минерал-хомашё, меҳнат ва инсон салоҳиятига эга бўлишига қарамай, республикамиз собиқ СССРда аҳоли турмуш даражаси, ижтимоий ва гуманитар соҳалар ривожини бўйича охириги ўринлардан бирида турар эди. 1991 йил сентябридан буён ўтган қисқа давр мобайнида иқтисодий мустақилликни қўлга киритиб, мамлакатимиз ҳудудидаги барча табиий, минерал хомашё бойликлардан, бутун иқтисодий ресурслар ва қувватлардан ўз халқимиз ва унинг келажаги манфаатлари йўлида фойдаланиш имкониятига эга бўлдик. Янги энергетика, машинасозлик ва бошқа саноат тармоқларининг вужудга келиши, кўплаб йирик иншоотлар, корхоналар, завод ва фабрикалар қурилганлиги, ёнилғи ва ғалла мустақиллигига эришилганлиги иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, модернизациялаш, янгилаш, диверсификациялаш, изчил ўсиш суръатлари миллий мустақил иқтисодиётни мустаҳкамлаш сари ҳаракат натижаларидир. Янги энергетика, машинасозлик ва бошқа саноат тармоқларининг вужудга келиши, кўплаб йирик иншоотлар, корхоналар, завод ва фабрикалар қурилганлиги, ёнилғи ва ғалла мустақиллигига эришилганлиги иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришлар, модернизациялаш, янгилаш, диверсификациялаш, изчил ўсиш суръатлари миллий мустақил иқтисодиётни мустаҳкамлаш сари ҳаракат натижаларидир. Мамлакатимизда мустақил амал қиладиган бозор иқтисодиётининг қатор инфратузилмалари: савдо, бозор, биржа, молия, банк, кредит, солиқ, суғурта, божхона тизимлари ва бошқа қатор функционал иқтисодиёт тармоқлари барпо этилди. Бутун миллий иқтисодиётнинг ҳолатини тавсифловчи муҳим макроиқтисодий кўрсаткичлар – ялпи ички маҳсулот (ЯИМ), соф миллий маҳсулот (СММ), миллий даромад (МД), аҳоли даромадлари (АД), ишчи кучи бандлиги, ишсизлик, инфляция ва бошқа шу кабилар ҳисобланади. Бу кўрсаткичлар моддий ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларидаги барча хўжаликлар иқтисодий фаолиятининг умумий ва пировард натижаларини қамраб олади. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти 2017 йилнинг 7 февralида “Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”

ПФ-4947 сонли фармон қабул қилинган вақтдан ўз ривожланиш босқичини тубдан ислоҳ қилди. Фармонда 2017–2021 йилларда асосан кейинги йиллардаги давлат дастурида таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, миллий иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини модернизация ва диверсификация қилиш ҳисобига унинг рақобатбардошлигини ошириш йўналишида корхоналарнинг маблағлари, ЎзТТЖ, тижорат банклари кредити, хорижий инвестиция ва кредитлар ҳисобига 2017–2021 йилларда умумий қиймати 40 миллиард АҚШ доллари миқдоридаги 649 та инвестиция лойиҳасини назарда тутувчи тармоқ дастурлари амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасининг биринчи қисмида 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йилида амалга ошириш давлат дастури доирасида амалга оширилган ишлар, умуман, 2017 йил давомида турли соҳаларда эришилган натижалар атрофлича таҳлил қилиниб, 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини 13 ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини, жумладан миллий иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишларини амалга оширишдаги саноат тармоқларининг ўрни ва ролини очиқ беради. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги олий Мажлисга Мурожаатномасида инвестицияларга алоҳида тўхталиб, «Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, қайси давлат фаол инвестиция сиёсатини юритган бўлса, ўз иқтисодиётининг барқарор ўсишига эришишини айтиб ўтди<sup>7</sup>. Шу сабабли ҳам инвестиция – бу иқтисодиёт драйвери, яъни, иқтисодиётнинг юраги, десак, муболаға бўлмайди. Ўзбекистон саноати ҳам ўз тараққиёти жараёнида қатор босқичларни босиб ўтган. Энг аввало, уй саноати ("Она қорнидаги саноат"), сўнгра, ҳунармандчилик, яъни хонаки саноат, кооперация, мануфактура, фабрика каби шакллари юзага келган. Бу ерда: ҳунармандчиликнинг жуда кўп турлари, яъни кулолчилик, дурадгорчилик, тоштарошлик, бинокорлик, ўймакорлик, каштадўзлик, кўнчилик, тўқувчилик ва тикувчилик, темирчилик, мисгарлик ва заргарлик, дегрезлик, рихтагарлик, зардўзлик, бўёқчилик, тунукасозлик ва бошқалар кенг тарқалган. Ҳунармандчилик ("хонаки саноат") бронза асрида деҳқончиликдан ажралиб чиққан. Милоднинг дастлабки асрларида ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида анчагина ҳунармандчилик марказлари ташкил топган. IX—X асрларда ип, мато, гилам бўйича Хива ва Шош, мис ва темирдан аслаҳа,



пичоқ тайёрлаш бўйича Фарғона, шойи матолар, шиша маҳсулотлар тайёрлаш бўйича Бухоро дунёга танилган. XII—XIII асрларда ривожланиш пасайиб, Темурийлар давлатининг вужудга келиши билан хунармандчилик яна ривож топган. Бухоро, Самарқанд, Хива, Тошкент, Шахрисабз каби шаҳарларнинг ишлаб чиқариш муносабатларида хунармандчилик алоҳида аҳамият касб этган. XVIII асрнинг 60-70-йилларда Англияда рўй берган саноат тўнтарилишидан кейин Ўзбекистонда аста-секин мануфактурадан машиналашган индустрияга ўтиш бошланди. Хом ашёга бирламчи ишлов берадиган саноат соҳалари (пахта тозалаш, ипак тортиш, вино, консерва, мой заводлари) вужудга келди. XIX аср охирига келиб, Ўзбекистонда хунармандчиликнинг 30 га яқин тури ривожланган. XX аср бошларида эса хунармандчиликнинг асосий қисми артелларга, кейинчалик завод ва фабрикаларга, бадий буюмлар корхоналарига айлантирилган. XX асрда Ўзбекистон саноатида жуда катта ўзгаришлар рўй берди. Агар аср бошларида саноат маҳсулотининг энг муҳим турларидан 5-10 хили (пахта толаси, хом ипак, ўсимлик мойи, узум виноси, ғишт, ганч ва бошқалар) ишлаб чиқарилган бўлса, аср охирига келиб юзлаб-минглаб турлари тайёрланган. Саноат моддий ишлаб чиқаришнинг асосий ва етакчи тармоғидир. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 15 декабрдаги «2011 — 2015 йилларда Ўзбекистон Республикаси саноатини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида»ги ПҚ-1442- сон қарорида 2011 — 2015 йилларда республика саноатини ривожлантиришнинг асосий вазифалари ва устувор йўналишлари келтириб ўтилди. Бунда: о саноатни ривожлантиришнинг аниқ, чуқур ва ҳар томонлама пухта ўйланган узоқ муддатли истиқболларини ишлаб чиқиш, шу асосда иқтисодиётнинг асосий тармоқларини диверсификация қилишга йўналтирилган таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш; о саноат маҳсулотининг рақобатбардошлигини ошириш, республика саноатини ривожлантиришнинг жаҳон конъюнктурасидаги ўзгаришларга боғлиқлигини камайтириш мақсадида норматив кўрсаткичлар ва тарифларнинг барқарорлигини таъминлаш; о Ўзбекистон Республикасининг жаҳон меҳнат тақсимотидаги роли ва ўрни юксалиб боришини таъминлайдиган энергетика, нефть-газ-кимё, кимё, тўқимачилик ва енгил саноат, рангли металлургия, машинасозлик ва автомобилсозлик, фармацевтика каби устувор тармоқларни илдам ривожлантиришга қаратилган саноатдаги таркибий ўзгартиришларни янада чуқурлаштириш, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сифатли ва чуқур қайта ишлаш, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, жаҳон бозорида доимий харидоргир бўлган, кўшилган қиймат улуши юқори рақобатдош маҳсулот ишлаб чиқариш; о саноат корхоналарини кенг миқёсда

модернизация қилиш, техник ва технологик янгилаш, уларни энг замонавий юқори технологик ускуналар билан жиҳозлаш, саноат тармоқларида замонавий илмий ютуқлар ва илғор инновация технологияларини жадал татбиқ этиш, саноат учун юқори малакали кадрлар тайёрлашни кенгайтириш; о ишлаб чиқаришни диверсификация қилиш, маҳаллий хом ашёни чуқур ва сифатли қайта ишлаш негизда экспорт салоҳиятининг барқарор ўсиб боришини, экспортга мўлжалланган рақобатдош саноат маҳсулоти ишлаб чиқаришни кўпайтиришни, уларни сотиш бозорлари кенгайтирилишини таъминлаш; ички саноат кооперацияси ва ишлаб чиқариш маҳаллийлаштирилишини янада ривожлантириш, саноат тармоқларида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни жадал ривожлантириш учун шартшароитлар яратиш, саноат корхоналарини мамлакатнинг барча минтақаларида жойлаштириш ва шу асосда импорт ўрнини босадиган маҳсулот ишлаб чиқарилишини, янги иш жойлари яратилиши ҳамда аҳолининг иш билан бандлиги ўсишини, одамларнинг даромадлари ва турмуш даражаси янада ошиб боришини таъминлаш; о меҳнат унумдорлигини ўстириш, ишлаб чиқариш харажатлари ва маҳсулот таннархини изчил пасайтириш, энергия ва ресурсларни тежайдиган замонавий технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқаришни ташкил қилишни такомиллаштириш, нобудгарчиликлар ва унумсиз сарфхаражатларни бартараф этиш ҳисобига саноат ишлаб чиқариши самарадорлигини муттасил ошириб бориш; о саноат маҳсулотини ишлаб чиқаришда унинг ташқи бозордаги рақобатдошлигини таъминлайдиган халқаро сифат стандартлари ва техник регламентларни тизимли тарзда татбиқ этишга эътиборни қаратди. Саноатнинг вужудга келиши ва ривожланиши ишчилар сонининг ошиши ва унинг жамиятдаги мавқеининг кўтарилишига олиб келади. Мустақиллик даврида жамиятни тарихий жиҳатдан янгилашда ишчиларнинг авангардлик роли тўғрисида сўз юритилар экан, фақат ишчилар синфигина меҳнаткашлар оммасининг бирлашуви, жипслашуви ва истиқлолни химоя қилиш, мустаҳкамлаш ва уни узил-кесил таъминлашга ёрдам бера олади, дейиш мумкин. Ана шу фикрни Ўзбекистон воқеалиги кун сайин тасдиқламоқда. Ўзбекистон ишчиси республика ялпи ижтимоий маҳсулоти, миллий даромаднинг асосий қисмини бунёд этмоқда, мамлакат ижтимоий-иқтисодий салоҳиятини юқори даражага кўтаришда фаол иштирок этмоқда. Мустақилликнинг афзалликлари ва давлатнинг иқтисодий сиёсати саноатнинг етакчи ўрнини янада оширмоқда. Ислохотларнинг асосий йўналишлари ва уларнинг ечимини топиш даставвал саноат соҳасида амалга оширилмоқда ва яхши самара бермоқда. Иқтисодиётдаги модернизация ва таркибий ўзгаришлар

жараёнини жадаллаштириш, унинг муҳим тармоқларига хорижий ва ички инвестицияларни кенг жалб этган ҳолда, техник ва технологик жиҳатдан янгилаш орқали эришилади. 2017-2018 йиллар давомида Ўзбекистон Республикаси бўйича жами асосий капиталга инвестициялар қарийб 1,6 баробар ортган. Унинг ҳажми 2017 йилда 68423,9 миллиард сўмни ташкил этган бўлса, 2018 йилда 107333,0 сўмгача (доллар эквивалентида 13,3 млрд. АҚШ долл.) ёки 2017 йилга нисбатан 118,1 % ортиб борган<sup>8</sup>. Асосий капиталга инвестициялар йиллар бўйича динамикасини кузатадиган бўлсак, 2005 йилда – 2,0 трлн. сўм ёки 12,0 % ўсишни, 2010 йилда – 10,8 трлн. сўм ёки 9,0 % ўсишни, 2015 йилда – 28,5 трлн. сўм ёки 8,1 % ўсишни ташкил этган бўлиб, жорий йилда энг юқори кўрсаткич 18,1 % қайд этилганини таъкидлаш лозим. Иқтисодий фаолият турлари бўйича асосий капиталга инвестицияларнинг ўзлаштирилиши: тоғ – кон саноатида 12253,9 млрд. сўм (жами инвестициялар ҳажмидаги улуши 11,4 %), шу жумладан хом нефт ва табиий газ қазиб чиқариш фаолият турида 8871,7 млрд. сўм (8,3 %), ишлаб чиқариш саноатида 23661,6 млрд. сўм (22,0 %), шу жумладан озиқ – овқат, ичимлик ва тамаки маҳсулотлари ишлаб чиқариш 3041,5 млрд.сумм (2,8 %), текстиль маҳсулотларни ишлаб чиқариш 4636,6 млрд.сумм (4,4%), кимё маҳсулотлари ишлаб чиқариш фаолияти турида 4097,2 млрд. сўм (3,8 %), бошқа нометал номинерал маҳсулотлар ишлаб чиқариш фаолият турида 2776,8 млрд. сўм (2,6 %), металлургия саноатида 4299,8 млрд. сўм (4,0 %), электр, газ, буғ билан таъминлаш ва ҳавони кондициялаш фаолият турида 15241,1 млрд. сўм, (14,2 %), сув билан таъминлаш; канализация тизими, чиқиндиларни йиғиш ва утилизация қилиш фаолият турида 2587,8 млрд. сўм, (2,4 %), қурилиш фаолияти турида 2436,2 млрд. сўм (2,3 %), ташиш ва сақлаш фаолият турида 7969,5 млрд. сўм (7,4%), улгуржи ва чакана савдо, моторли транспорт воситалари ва мотоциклларни таъмирлаш фаолият турида 4042,2 млрд. сўм (3,8 %), ахборот ва алоқа фаолият турида 920,1 млрд. сўм (0,9 %), профессионал, илмий ва техник фаолият турида 1354,1 млрд. сўм (1,3 %), таълим соҳасида 2772,1 млрд. сўм (2,6 %), жами фаолият турларидан ташқари турар жой қурилишида 17695,8 млрд. сўм (16,5 %) инвестициялар ўзлаштирилди[2].

Хулоса сифатида: Бугунги кунда таъминот корхоналарида, озиқ-овқат саноатида кейинги ўн йилда айниқса гўшт ва гўшт маҳсулотлари, сут ва сут маҳсулотлари, нон ва нон маҳсулотлари, минерал суви, қандолат маҳсулотлари ишлаб чиқариш юқори сураътлар билан ривожланди. Бундай иқтисодий ўсишга ана шундай маҳсулотларни ишлаб чиқарадиган корхоналарни модернизация қилиш, техник ва технологик жиҳатдан қайта жиҳозлаш бўйича дастурий

топширикларни сўзсиз амалга ошириш юзасидан кўрилган изчил чора – тадбирлар туфайли эришилди. 2018 йилнинг охирига келиб республика озиқ – овқат саноати корхоналари уюшмаси тизимидаги 180 дан ортиқ корхонада аҳоли эҳтиёжлари учун мингдан ортиқ турдаги озиқ–овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўлга кўйилди.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил парламентга қилган Мурожаатномаси. <https://www.xabar.uz/jamiyat/shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlis-va-ozbekiston-xalqi>
2. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида тайёрланган
3. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-Т.:”Sano-standart”, 2014.-304 б. 20. Махмудов Э. “Корхона иқтисодиёти” (ўқув қўлланма) – Т.: ТДИУ. 2004 йил, 208 - бет.
4. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 582-586.
5. Ramatov, J., & Umarova, R. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1974-1980.
6. Умарова, Р. Ш. (2019). Бытие и философские взгляды Абу Райхана Беруни. *Достижения науки и образования*, (3 (44)), 32-33.
7. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-xii Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
8. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
9. Saidahrolovich, K. S., Upashevna, A. L., & Abduxamitovna, F. M. (2022). Factors Affecting Supply and Demand in The Automobile Industry of The Republic of Uzbekistan. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 1-6.
10. Upashovna, A. L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security.

EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(1), 245-248.

11. Акбарова, Л. У., Бексултонов, А. Б., & Иляшов, Б. А. (2021). БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).
12. Акбарова, Л. У., Нормаматов, Э. Н., & Носиров, Ж. М. (2021). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).
13. Акбарова, Л. У. (2020). ОСОБЕННОСТИ РЫНОЧНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ. В номере, 9.
14. Акбарова, Л. У. (2019). ОСОБЕННОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО МАРКЕТИНГА И РЕКЛАМНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ СЕРВИСА. Экономика и социум, (1-1), 170-17
15. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
16. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
17. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
18. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.



## **ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОПИСАНИЯ НАУЧНОЙ ЛЕКСИКИ**

**Калинина Ольга Николаевна**

ст.преподаватель

Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека

### **АННОТАЦИЯ**

*Рассматриваемая статья посвящена описанию научной лексики. Лексический состав научной речи представляет собой особую систему общенаучных слов и терминов. Способы объяснения значения специальной научной лексики рассматриваются в работе в соответствии с классификацией слов, в основу которой положено деление их на группы, терминологизированные слова и собственно термины.*

**Ключевые слова:** научная лексика, термины, терминосистема, система, контекст, языковая единица, словосочетание, научный стиль.

### **ABSTRACT**

*The article under consideration is devoted to the description of scientific vocabulary. The lexical composition of scientific speech is a special system of general scientific words and terms. Ways of explaining the meaning of special scientific vocabulary are considered in the work in accordance with the classification of words, which is based on their division into groups, terminological words and terms proper.*

**Key words:** scientific vocabulary, terms, term system, system, context, language unit, phrase, scientific style.

### **ВВЕДЕНИЕ**

Эффективность усвоения языкового материала во многом определяется его характерными лингвистическими особенностями. В этой связи возникает необходимость учета особенностей формы, значения и употребления языкового материала [1]. Эти характеристики важны особенно при определении путей работы над научной лексикой.

Бесспорно, лексический состав научной речи представляет собой особую систему, в которую входят, с одной стороны, лексика, являющаяся принадлежностью вообще книжно-письменной речи и отражающей общелогические категории и понятия, с другой — термины, т.е. анализу должны подвергаться, во-первых, общеупотребительные слова, без изменения употребляющиеся в научной речи: внедрение, модель, путь, процесс, система, функция и др., и интернациональные слова-термины: Интернет, лингвистика;

во-вторых, общенаучные слова, используемые в большинстве научных дисциплин, например: сигнал, уровень, слуховое восприятие, составные компоненты, установление связи; в-третьих, среди терминологической лексики и терминологических словосочетаний есть лексические единицы других терминосистем, лексическое значение которых переосмыслено с учетом научно-технической специфики, что в свою очередь говорит еще об одной особенности научной лексики; в-четвертых, для студентов иноязычных групп вузов важной является, прежде всего, профессиональная и специальная лексика, закрепленная за определенной специальностью: трактовка, коммуникативность, модерн, классицизм.

Способы объяснения значения специальной лексики рассматриваются в работе в соответствии с классификацией слов, в основу которой положено деление их на группы, терминологизированные слова и собственно термины.

### **ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ**

Проблема термина и терминологии в языкознании многоаспектна. Ею занимались Д.С.Лотте [4], В.В. Виноградов [2], Г.О.Винокур [3], А.А.

Реформатский [5] и др.

Анализ лингвистической литературы показывает, что особенности термина как лексической единицы определяются: 1) особенностями выражаемых терминами понятий; 2) спецификой области знания, в которой термины употребляются, т.е. особенностями их функционирования [7, 6].

В научной литературе имеется много определений понятия термина. Приведем некоторые из них. «Термин - это слово или словосочетание специальной сферы употребления, являющееся наименованием научного или производственно-технологического понятия и имеющее дефиницию» [8:15]. Под термином Винокур Г.О. понимает «не особые слова, а только слова в особой функции» [3:3].

В ряде исследований термин и его значение рассматриваются как имплицитный информационный потенциал, эксплицируемый в той или иной мере в зависимости от условий его функционирования [9, 10].

Мера эксплицитной реализации упомянутого потенциала - это информативность термина. Она зависит от условий его функционирования. Возможности отдельно взятого термина (даже сложного, многосоставного) выразить большое число компонентов ограничены. Однако они значительно расширяются, если термин функционирует в высказывании или группе высказываний, в тексте или группе текстов. В контексте термин взаимодействует с другими языковыми единицами, эксплицирующими те или

иные аспекты обозначаемого термином понятия. Один и тот же термин, взятый отдельно и выступающий как определяемое слово в дефиниции, рассматривается также как обладающий соответственно знаковой, дефиниционной, классификационной и текстовой информативностью [11, 12]. Существуют термины с более широким объемом понятия - экстенциональные; и термины с более узким объемом понятия – интенциональные [8].

Термины, как и понятия, в любой области науки и техники существуют не изолированно, они связаны между собой. Они образуют определенную систему [7]. Система понятий, связи между понятиями выражают сущность предмета исследования каждой конкретной науки. Вследствие своей системной зависимости каждый термин имеет вполне определенное место в терминологической системе понятий [4].

Несомненно, общеупотребительное слово отличается от термина. Термины являются одним из средств языкового воплощения стилевых черт научного функционального стиля. Они отражают такие стилевые черты, как:

а) абстрактность; б) логичность; в) точность; г) объективность; д) ясность; е) сжатость.

Специфической особенностью терминов является, большей частью, тесная однозначная связь с обозначаемым понятием, связь, которая определена самим положением технического понятия в системе этих понятий.

21. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.

## **TA'LIM JARAYONIGA TAALLUQLI NOADABIY SO'ZLARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI**

**Axmedova Muyassar Xadimatovna**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Umumiy psixologiya kafedrasida dotsenti, psixol.f.d.

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

Tel: 94-659-27-81

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada milliy til xususiyatlariga e'tibor qaratilib, u ilmiy tadqiq etilgan. Unda o'zbek tilidagi o'quv jarayoniga taalluqli bo'lgan noadabiy so'zlarning psixolingvistik xususiyatlari o'rganilgan. Maqolada jamiyatning asosiy qatlami hisoblangan yosh avlod vakillarining noadabiy so'z hisoblangan jargon so'zlari keltirib o'tilgan. Bunda asosan ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan jargon so'zlarining o'ziga xos bo'lgan psixolingvistik xususiyatlari ilmiy jixatdan tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** til, jargon, psixolingvistika, nutq, lug'at, ijtimoiy, muloqot, nutqiy faoliyat, leksika, tizim, milliy.*

## **PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF NON-LITERARY WORDS RELATED TO THE PROCESS OF EDUCATION**

**Ahmedova Muyassar Hadimatovna**

Associate Professor Department of Psychology of the Tashkent State

Pedagogical University named after Nizami

E-mail: muyassaraxmedova1968gmail.com

Тел: 94-659-27-81

### **ABSTRACT**

*Nowadays it is important to study the features of speech, language, which are considered a means of communication. At present, attention is paid to the research of national language features from scientific point of view. This article explores the jargons used in in the daily process of communication in the Uzbek language. It is cited the words of the jargon of the younger generation, who are the main strata of society, and explains the importance and necessity of learning their jargon. The peculiar psycholinguistic features of jargon words have been scientifically analyzed.*

***Keywords:** language, jargon, slang, linguistics, speech, society, study, communication, vocabulary, system, young people, research, layer, national, dictionary.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda haqiqiy aloqa doirasida til birliklarining ishlashini o'rganish ahamiyatlidir. Ayni paytda jamiyatining tili va madaniyatining ajralmas qismi noadabiy hisoblangan jargon so'zlari so'zlashuv nutqida mavjud. U hozirgi vaqtda tez rivojlanmoqda va kundan kunga uning lug'at boyligi oshib bormoqda. Chunki insoniyat bir joyda turmagan. Yangi texnologiya va moslamalar yaratilgani sari jargonizmlar bizning leksikondan mustahkam joy olmoqda. Agarda zamonaviy tendensiyalarni hisobga oladigan bo'lsak, u holda bir necha yuz yildan so'ng milliy tilni tanib bo'lmaslik ehtimoli inkor etilmaydi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ijtimoiy jihatdan rivojlangan odamlar jamoasiga xizmat qiluvchi har bir til lingvistik va psixolingvistik jixatdan tahlil qilinishicha, turli xil ko'rinishlar shaklida taqdim etiladi. Bunda asosiy til adabiy til bo'lib, unda nutq, umumiy nutq va hududiy dialektlar mavjud; ikkinchi darajali til esa, ijtimoiy dialektlar (argo, jargon, sleng), professional til hisoblanadi. Jargon nutqning mo'tadilligini buzadi, uni yashiradi va jamiyatning til ongiga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, jargon milliy tildan farqli o'laroq unga bog'liq bo'lgan boshqa bir tilni shakillantirmasligi lozim. Milliy tilning lingvistik lug'ati "jargon"da asosan barqaror ijtimoiy guruh tomonidan og'zaki muloqotda ishlatiladigan nutqning bir turini ko'rsatadi. Jargon (fr. jargon ma'lum bir guruhga oid so'z). Biror bir ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularni o'zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so'z va iboralar, deb ta'rif beriladi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da[11.74].

Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qarab, jargon ham o'zgarib boradi. Yangi kasblar paydo bo'lishi, yangi ro'zg'or predmetlari yaratilishi, odamlar turlicha xordiq chiqarishlari va shunga yarasha turli xilda guruhlarga birlashishlari kabilar muloqot jarayonining o'ziga xos jixatlarini yaratadi. Bu jarayon jargonlarning yangilanishiga, ko'payishiga sabab bo'ladi.

Mazkur joyda, ilmiy tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgan milliy tildagi o'quv jarayonini ifodalovchi jargon so'zlariga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Bunga ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchilarning jargonlari va ularning ta'riflari misol qilib keltirildi. Ya'ni kundalik hayotdagi ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan jargon so'zlar quyidagilardan iborat.

Akno - darslar orasidagi bo'sh vaqt. Bu jargon rus tilidagi "okno" so'zidan olingan. "Okno" so'zining rus tilidan o'zbektiliga tarjimasini "deraza, darcha, oyna" ma'nosini anglatadi[9.478]. Mazkur jargon ham pedagogik faoliyatga aloqador bo'lganligi sababli, asosan oliy talim jarayonga aloqador bo'lgan barcha odamlarning o'zaro muloqoti davomida qo'llanilishi kuzatiladi. Bu jargon emotsional

bo‘yoqdorlikka ega emas, u neytral ma‘nodagi so‘z. Masalan: Aknom bor kuniga chaqirsam bo‘ladi. Menda ikkita akno bo‘lib qoldi.

Maxraj xafta - juft xaftalar. Bu jargon “maxraj” va “hafta” so‘zlaridan tuzilgan ibora. “Maxraj” matematika faniga oid so‘z. Oddiy kasrda butunning nechaga bo‘linganligini ko‘rsatuvchi, kasr chizig‘i ostiga yoziladigan raqam, deb ko‘rsatadi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da [11.M xarfi.561]. “Hafta” yetti kun, yetti kecha-kunduz. Dushanbadan yakshanbagacha bo‘lgan yetti kecha-kunduzni o‘z ichiga olgan vaqt o‘lchov birligi, deb ta‘rif keltiradi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da [11.H xarfi.516]. U oliy ta‘lim jarayoniga taalluqli jargon bo‘lib, dars jadvalida birinchi xaftada bir fan qo‘yilsa, ikkinchi haftada boshqa fan qo‘yiladi. Ya‘ni fanlar almashtirib o‘tiladi. Ushbu jargon ham emotsional bo‘yoqdorlikka ega emas, neytral ma‘nodagi so‘z hisoblanadi. Masalan: Bu xafta maxraj xafta darsim yo‘q. Maxrajdagilar bayramga to‘g‘ri keldi, shuning uchun darslarni ulgurmadik.

Surat hafta - toq haftalar. Ushbu jargon ham yuqorida keltirilgan maxraj xafta – jargoni singari “surat” va “hafta” so‘zlaridan tuzilgan ibora. “Surat” so‘zi matematika faniga oid termin. Unga “oddiy kasirda chiziq ustidagi son”, deb ta‘rif beriladi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da [11.S xarfi.590]. Bu so‘z ham oliy ta‘lim jarayoniga taalluqli jargon. Lekin u mahraj haftaning aksi bo‘ladi. Ya‘ni dars jadvalida surat xaftasi bo‘lganda biror bir fan qo‘yilsa, ikkinchi hafta maxraj hafta hisoblanib, unga boshqa fan qo‘yiladi. Ya‘ni fanlar almashtirib turadi. Ushbu jargon ham emotsional bo‘yoqdorlikka ega emas va u neytral ma‘nodagi so‘z hisoblanadi. Masalan: Surat haftadagi o‘qituvchi bilan gaplashishimiz kerak, soatlari to‘g‘ri keladimi? Bu surat hafta, sen adashibsan.

Nolavoy, nolyovka - o‘quv jadvalidagi dars vaqti (nolevoy para, dars). Nolavoy, nolyovka so‘zi rus tilidagi nol, nulevoy, nolevoy so‘zlaridan olingan. “Nol” matematikada har qanday sonlarni nolga qo‘shish yoki ayirishda shu sonni o‘zi o‘zgarmay qoladi, deb izohlaydi rus tilining izohli lug‘atida[8.1044]. “Nulevoy” - nolga barobar bo‘lgan[9.447]. Hisobda bir raqamidan oldingi son “0”, ya‘ni yo‘q, ahamiyatsiz, bo‘sh joy, bo‘sh hajim kabi ma‘nolarni anglatadi. Odatdagi tartib bilan belgilangan darslardan oldin qo‘yiladigan dars soatlari nolevoy para yoki nolyovka deb aytiladi. Bu jargon Oliy ta‘lim jarayoniga taalluqli so‘z hisoblanib, udan oliygoh xodimlari, pedagog va talabalar ko‘p foydalanadi. Mazkur jargon ham yuqorida keltirilgan o‘quv jarayoniga taalluqli bo‘lgan jargon so‘zlariga o‘xshab emotsional bo‘yoqdorlikka ega emas va u neytral ma‘nodagi so‘z hisoblanadi. Masalan: Darsingizni faqat nolevoy paragagina qo‘yish mumkin. Nolevoy para borligi butunlay esimda yo‘q.

Yiqilmoq - imtixonidan o'ta olmaslik. F'elidan yasalgan jargon so'zi bo'lib, "tik holatini yo'qotib, yer tomon tushmoq"; "qulamoq" ma'nolarini beradi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [11.Y xarfi.271]. Bu jargon salbiy ma'noni anglatuvchi so'z hisoblanadi, lekin unda emotsional bo'yoqdorlik yo'q. Bu so'z keng omma tomonidan qo'llaniladi. Lekin udan ko'proq talaba va maktab o'quvchilari foydalanadi. Masalan: Nargiza meditsinaga topshirgan ekan, yiqilibdi. Dushanbada topshirganlarni hammasi yiqilibdi.

Yaxladi - imtihondan qaytmoq; imtihondan o'ta olmaslik. Bu jargon ham yaxlamoq f'elidan yasalgan. Yaxlamoq so'zi "muzga aylanmoq, muzlamoq" ma'nosini bildiradi, deb ko'rsatadi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da [11.Ya xarfi.123]. Mazkur jargon so'zini o'quvchi yoki talabalar muloqot jarayonida qo'llaganida emotsional bo'yoqdorlik xususiyati kuzatilmaydi. Lekin neytral so'z hisoblanmaydi. Chunki imtihondan qaytish yoki imtihondan o'ta olmaslik ijobiy natijani ko'rsatmaydi aksincha, salbiy ma'noni anglatadi. Masalan: Feruza bugun o'qishga borib yaxlab keldi. Spes bugun hammani yaxlatdi.

Xullas, yuqorida keltirib o'tilgan hozirgi vaqtdagi ta'lim jarayoniga taalluqli bo'lgan jargon so'zlarning psixolingvistik tahlili natijalari bir qator ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Dastlab jargon va adabiy so'zlarning ma'nosi aniqlanadi. Ulardagi o'ziga xoslik, qiyosiylik, ko'chma ma'noda qo'llanishning mohiyati anglanadi. Shuningdek, jargon so'zi qanday yasalganligi: qanday tildan olinganligi, qisqartma so'zligi kabilar ma'lum bo'ladi. Kimlar tomonidan qo'llanilishi: yoshi, jinsi, guruhi, ijtimoiy holati, salohiyati, faoliyati kabilar namoyon bo'ladi. Jargon so'zning emotsional bo'yoqdorlikka xosligi anglanadi. Bundan tashqari jargonlar davrga, millatga, elatga bog'liq xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi mumkin.

Demak, jargonlar so'zlashuv davomida eng keng tarqalgan va tashqi dunyo bilan zaif aloqaga ega bo'lgan muayyan me'yorlar va xulq-atvor bilan ajralib turadigan bir ta'limdir. Ijtimoiy ma'noda jargonlar inson uchun tabiiy bo'lgan madaniy (sivilizatsiya) muhitni yaratish, nutqda tez-tez uchraydigan tushunchalar va ramzlar doirasi tomonidan belgilanadigan maqom, yo'nalish va talablar tizimini shakllantirishdir.

## **XULOSA**

Ijtimoiy muhit tilga, kundalik nutqqa ta'sir qilishi inkor etilmaydi va bular o'z navbatida kishining saviyasini pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Biroq yuqori saviyali, sof, toza, ma'naviyatli til ham, o'z navbatida, muhitga uning shakllanishi, yaxshilanishi, ma'naviy boyishi va o'zgarishiga ta'sir qilishi mumkin va zarur.



Shuning uchun milliy til xususiyatlarini imkon qadar chuqurroq tadqiq etib, adabiy tilni to'g'ri va aniqroq shakllantirish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. Hozirgi zamon yoshlar nutqidagi jargonlar. O'zMU xabarlar. 2022. 1/9. B. 255-259.
2. Axmedova M.X. Psixolingvistik xarakteristiki jargonizm v natsionalnom yazike. Vestnik integrativnoy psixologii. Buxara – Yaroslavl. 2022. Vipusk 26. S. 22-25.
3. Vejbitskaya A. Yazik. Kultura. Poznaniye. / Per. s angl. / Otv. red. M.A.Krongauz. – M.: Russkiye slovari, 1996.
4. Leontev A. N. Deyatel'nost. Soznaniye. Lichnost. – M.: Politizdat, 1977. –304 s. S. 140.
5. Mirtojdiyev M.M. O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi (O'quv qo'llanma). Toshkent, 2000.
6. Morkovkin V. V. Opit ideograficheskogo opisaniya leksiki (analiz slov so znacheniyem vremeni v russkom yazike). — M.: Izd. Mosk. unta, 1977. –168 s. S.78.
7. Nebolsina P.A. Yazikovaya kartina mira: opredeleniye ponyatiya. – M.: Izd-vo PSTGU, 2005. – 438 s.
8. Ojigov S.I., Shvedova N.Ya. Tolkoviy slovar russkogo yazika. M. 2012.
9. Ruscha-o'zbekcha slovar. R.Abduraxmonov taxririda. Chet til va milliy tillar lug'atlari davlat nashryoti. M. 1954.
10. To'raxo'jayeva A. Hozirgi o'zbek adabi tili (Leksikologiya, frazeologiya, lug'atshunoslik)dan o'quv uslubiy qo'llanma) Qo'qon. 2006.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Elektrn kutubxona.
12. Akhmedova Muyassar Khadimatovna. Psycholinguistic Features Of Slang Vocabulary In The National Language. Eurasian Scientific Herald. Apr 23, 2022 №7. P. 205-208.
13. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.
14. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
15. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In

- ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 51-54).
16. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.
17. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗARO МУТАНОСИБЛИГИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 1226-1235.
18. Ramatov, J. S., Valiev, L. A., & Xasanov, M. N. (2022). XIX ASRDA HINDISTONDAGI IZHTIMOIY-FALSAFIY JARAYONLAR.
19. Кушаков, Ф. А., Ҳасанов, М. Н., Баратов, Р. Ў., Рамагов, Ж. С., & Султанов, С. Ҳ. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 803-810.
20. Рамагов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
21. Рамагов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.

## **LONDON TOPONIMIKASINING SEMANTIK VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Xudoyqulova Nargiza Sadullayevna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

nargizalimrayhon@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada “Toponim” va “Etimologiya” tushunchalari, Yevropaning eng qadimiy va go‘zal shahri London toponimi, u yerdagi hudud nomlarining tarixiy, etnografik, lingvistik va madaniy ma’lumotlari, London ko‘chalarining paydo bo‘lish tarixi, toponimlarining shakllanishi va tasniflanishi, til nuqtai nazaridan semantik xususiyatlari va geografik muhitning o‘ziga xosligi haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar keltirildi.*

***Kalit so‘zlar:** Toponim, etimologiya, poytaxt, London, semantika, geografiya, tarix.*

## **СЕМАНТИКА И ТОПОНИМИКА ЛОНДОНА ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА**

**Худойкулова Наргиза Садуллаевна**

Магистр узбекского государственного университета

мировых языков

nargizalimrayhon@gmail.com

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматриваются научно-теоретические понятия «Топоним» и «Этимология», топоним самого древнего и красивого города Европы Лондона, историко-этнографические, лингвокультурологические сведения о названиях местности, история возникновения улиц Лондона, формирование топонимов и научно-теоретические сведения о его классификации, семантических особенностях с точки зрения языка, уникальности географической среды.*

***Ключевые слова:** топоним, этимология, столица, Лондон, семантика, география, история.*

## **SEMANTICS AND TOPONYMY OF LONDON ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS**

**Khudoykulova Nargiza Sadullayevna**

Master of Uzbekistan State World Languages University

nargizalimrayhon@gmail.com

### **ABSTRACT**

*This article discusses the concepts of “Toponym” and “Etymology”, the toponym of the most ancient and beautiful city in Europe London, historical, ethnographic, linguoculturological information about the names of the area, the history of the emergence of the streets of London, the formation of toponyms and scientific and theoretical information about its classification, semantic features in terms of language, the uniqueness of the geographical environment.*

**Key words:** *toponym, etymology, capital, London, semantics, geography, history.*

### **KIRISH**

Zamonaviy jamiyatni geografiasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Toponimlar jamiyat taraqqiyotining ajralmas elementi hisoblanadi. Ularning ma‘lum bir hududdagi yig‘indisi ko‘p asrlilik xalq ijodiyoti samarasidir. Geografik nomlar – bu mamlakat yoki shahar bilan tanishishni boshlaydigan tashrif qog‘ozi hisoblanadi.

Har qanday zamonaviy odamlarning hayoti doimiy ravishda o‘ziga xos geografik nomlarga ega bo‘lgan turli joylar bilan bog‘liq. Tilshunoslikda 6y “toponim” atamasi bilan belgilanadi. O‘z navbatida, geografik nomlarni, ularning tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan *toponimika* deyiladi. Toponim so‘zi (yunoncha topos – joy, makon, onima – nom, ism) – har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, urbanonim, agroonim va boshqalardan iborat bo‘ladi [1]. Hozirda esa geografik obyektlarning nomlarini o‘rganadigan fan bu – toponomika hisoblanadi. Toponimlarni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda katta qiziqish uyg‘otadi, chunki shahar nomlari o‘z shakllarini o‘zgartirishda davom etmoqda va bunga turli omillar ta’sir etmoqda.

Ushbu maqolada boy tarixga ega bo‘lgan, Yevropaning eng qadimiy ba go‘zal shaharlaridan biri, Buyuk Britaniyaning poytaxti Londonning toponimlarini ko‘rib chiqamiz. Londonning har bir ko‘chalari, bino va maydonlari o‘tgan yillar tarixi va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi.

Londondagi shahar nomlari tarixiy, etnografik, lingvistik va madaniy ma‘lumotlarni taqdim etadi. Londonning deyarli har bir ko‘chasi butun dunyoga

mashhur ba diqqatga sazovor joylari bilan taniqli. Shahardagi har bir ko‘chalarning, bino va maydonlarning nomlari muhim o‘rin tutadi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy ingliz tilining tuzilishini tushunish, Buyuk Britaniya tarixi va madaniyati bilan tanishish orqali shaharning haqidagi dunyoqarashni kengaytirish mumkin. Ushbu izlanishning maqsadi London toponimlarini o‘rganishdir. Ularning kelib chiqish pozitsiyasi, bu esa, o‘z navbatida, batafsil ma‘lumotni anglatadi ularning shakllanishi va rivojlanishi tarixini o‘rganish mumkin.

London nafaqat Yevropaning eng go‘zal shaharlaridan biri, balki eng qadimgi davlat asos solingan joylardan biri hisoblanadi. Shahar Buyuk Britaniyada kelt qabilalarining joylashishi davrida tashkil etilgan deb hisoblanishiga qaramay, Rim istilolari London tarixiga ko‘proq hissa qo‘shgan, eramizning I asrida Temza qirg‘og‘idagi Londonium aholi punkti paydo bo‘ldi. Shimoliy Yevropadagi muhim savdo markazi hisoblangan [2]. London ko‘chalarining paydo bo‘lishi tarixi, shahar nomining kelib chiqishi va vaqt o‘tishi bilan uning o‘zgarishini e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. “London” nomining o‘zi olimlar orasida juda ziddiyatli munozaralarga olib kelmoqda. Bir nechta taxminlar mavjud:

1. Nom lotin tilidan kelib chiqqan va rimliklar tilidan “zo‘ravon” ma‘nosini anglatuvchi shaxs ismi.

2. Nom lotinchadan Lond so‘zdan kelib chiqqan, ya’ni “yovvoyi (o‘rmon bilan qoplangan) joy” ma‘nosini anglatgan [3].

3. Nom kelt tilidan kelib chiqqan va ikki so‘zdan iborat: Llyn (ko‘l) va Dun (istehkom): Keltlar davrida, shahar Llyndid deb nomlangan; “dun” qo‘shimchasi boshqa ko‘plab kelt toponimlarida ham uchraydi [4].

4. Bu nom Plowonida so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “toshib oqadigan daryo” degan ma‘noni anglatadi [5].

Bugungi kunda ham Londonga asos solgan – keltlar yoki rimliklar deb mutlaq ishonch bilan aytib bo‘lmaydi.

London toponimlarini olimlar taklif qilgan tasnifga ko‘ra, quyidagilarga ajratish mumkin: 1. Shaharlararo tuzilmalardan tuzilgan toponimlar. 2. Rim yo‘llari. 3. Keltlar toponimlari [6].

Har kuni biz nutq oqimida minglab so‘zlardan foydalanamiz va qoida tariqasida biz ularning kelib chiqish tarixi haqida o‘ylamaymiz. Biroq, tilshunoslar so‘zlarning asl ma‘nosini tushunishga va ularning rivojlanish yo‘lini tiklashga ko‘p vaqt sarflashadi. Tilshunoslikning ushbu masalalarga bag‘ishlangan maxsus bo‘limi *etimologiya* deb ataladi. Shu o‘rinda etimologiya tushunchasiga to‘xtalamiz.



“Etimologiya” atamasi yunoncha ildizlarga ega va “haqiqat”, “ta’limot” degan ma’nolarni anglatadi. Bitta soʻzning etimologiyasi haqida gapirganda, ular odatda uning tarixiy ildizlarini oʻrganishni anglatadi. Koʻpincha bu atama tilshunoslikning kelib chiqishini oʻrganish bilan shugʻullanadigan boʻlimiga murojaat qilish uchun ishlatiladi.

Birinchi marta bu atama qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida uchragan. Ushbu soʻzning tarkibiy qismlari “sodiq va haqiqat” hamda “ma’no va ta’lim berish” ma’nolariga ega boʻlgan [6]. Boshqacha qilib aytganda, etimologiyaning asosiy vazifasi soʻzlarning haqiqiy ma’nosini topishdir, shuningdek, soʻzga kiritilgan ma’noni izlash dastlab uning boshlangʻich qismidagi oʻzgarishlar dinamikasini kuzatish ma’nosini anglatadi.

Vaqt oʻtishi bilan soʻzlar nafaqat ma’noni, balki tashqi shaklini ham oʻzgartiradi. Shuningdek, ovoz ifodasi va fonetik koʻrinishi ham oʻzgaradi.

**Soʻzlar.** Olimlar kelib chiqishi masalasiga oydinlik kiritish uchun soʻzning asl qiyofasini tiklashga koʻp urinishlar qilmoqdalar. Ma’lum boʻlishicha, qadimgi tovush zamonaviy ona tilida soʻzlashuvchilar uchun mutlaqo boshqacha ma’noni bildirishi mumkin. Tilning lugʻat boyligini yaratish jarayoni va soʻz yasaliş manbalarini oʻrganish etimologiyaning predmeti hisoblanadi. Etimologiya bilan shugʻullanuvchi tilshunoslar eng qadimgi davrlardan, yozuvning tugʻilishidan boshlab, til tarkibini iloji boricha aniqroq tiklashni maqsad qilishgan.

Etimologik tahlil ma’lum bir soʻz paydo boʻlgan soʻz yasaliş modelini aniqlashga qaratilgan. Usullar orasida etimologiyalar genetik tahlil va qiyosiy tarixiy yondashuvni farqlashga moyil boʻlib, ular koʻpincha birgalikda qoʻllaniladi.

Etimologiya tilshunoslikning bir tarmogʻi sifatida boshqa fanlar bilan ham bogʻliq. Буларга: leksikologiya, morfologiya, semantika, dialektologiya va hk fanalarni kiritish mumkin. Etimologiya ma’lumotlarni taqdim etadi, ularsiz nutqning tarixiy-semantik rivojlanishi davrida yuzaga kelgan oʻzgarishlarni aniqlash qiyin. Etimologiya usullari yozma tarix hali mavjud boʻlmagan xronologik darajalargach tadqiq qilishga imkon beradi [7]. Ushbu fan oʻz ma’lumotlari bilan insoniyat tarixi va arxeologiyasidan olgan ma’lumotlarni toʻldiradi.

Aksariyat toponimlar koʻp asrlar oldin paydo boʻlgan. Shuning uchun geografik nomlarni quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

1. Ma’lum bir xalq yoki ma’lum bir hududga xos boʻlgan nom.
2. Ma’lum bir xalq tilidan kelgan ism; lekin bilan vaqt oʻtishi bilan oʻzgartirilgan yoki qayta koʻrib chiqilgan.
3. Boshqa tildan kirib kelgan va ushbu hududda mavjud tilning fonetik xususiyatlari va meʼyorlariga moslashgan nomlar.

4. Xorijiy nomlar.

5. Gibrid nomlar [8].

Semantik xususiyatga ko'ra tasniflashda geografik obyektlarning nomlari ularni hosil qilgan so'zlarning ma'nosiga ko'ra, toponimlar keyinchalik shakllangan xususiyatlariga ko'ra ajratiladi.

Toponimlarni leksik-semantik tamoyilga ko'ra ajratishda ularning semantik ma'nosi va nomlarning ma'lum sinfiga mansubligi hisobga olinadi.

Etimologik printsipga ko'ra toponimlar quyidagilarga bo'linadi.

1. Aniq semantik ma'noga ega toponimlar.

2. Ochish uchun etimologik tahlilni talab qiladigan toponimlar ma'nosi.

3. Ma'nosini tushunib bo'lmaydigan toponimlar.

Bundan tashqari V. Jukevich toponimlarni leksik tarkibiga ko'ra quyidagicha tasniflaydi [8]:

1. Relyef bilan bog'liq toponimlar.

2. Hayvon, o'simlik va hokazo nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar. Nomlarning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi omillarga to'xtalib o'tsak. Ingliz tilidagi geografik obyektlarning nomlari tahlili lingvistik masala sifatida tadqiqqa tortilgan. Ingliz tilidagi geografik nomlarda tasniflash tamoyili manba tilini aniqlash (bu ingliz tilidan oldingi keltlar, iber va hk), britton, lotin, qadimgi ingliz, Qadimgi Nors, Daniya, Franko-Norman va boshqa tillar ta'sirida joy nomlari ko'p ucharydi.

Bu tillarning barchasini ingliz ko'chalari va boshqa geografik obyektlar nomlarida kuzatish mumkin. Bundan tashqari, ular allaqachon mavjud nomlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ya'ni, ular fonetik va transliteratsiya qoidalariga asoslanib moslashgan. Ingliz joy nomlarining etimologiyasini o'rganishda bir nechta asosiy muammolarga duch kelish mumkin, xususan: Toponimning zamonaviy shakli bilan ma'noviy mos kelmasligi:

1. Tovush va ma'nodagi farq.

2. Keyingi bahsli masala o'xshash tovushga ega bo'lgan toponimlar mazmuni.

3. Zamonaviy ingliz tilida o'xshash so'zlarning mavjudligi.

Funksional nuqtai nazardan, ingliz geografik shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi. 1. Muayyan hududda yashovchi xalqlarning nomlari. 2. Turar-joyning xususiyatlari (ham oddiy, ham kompozitsion). 3. Hudud relyefi xususiyatlari.

Londonda joy nomlarining shakllanishida eng muhim omillardan biri tarixiy omil bo'lgan. London toponimlarining shakllanishiga turli tarixiy voqealar va istilolarning ta'sirini aytish mumkin: 1. Keltlargacha bo'lgan toponimlar guruhi. 2. Toponimlarning britonik guruhi. 3. Lotin toponimlari. 4. Daniya va Norveg tillariga xos joy nomlari. 5. Franko-normand toponimlari.

Ingliz ko‘chalari nomlarida ikkinchi elementni ifodalovchi alohida so‘zlar guruhi e‘tiborga loyiqdir. Masalan, so‘zlar ko‘cha, yo‘l, xiyobon, ayvon, yo‘lak kabi ma‘nolardagi farqlar hozirda nomlarning ikkinchi elementlari ma‘lum darajada o‘chiriladi, lekin dastlab, har bir bunday elementning o‘ziga xos ma‘nosi bor edi, bu esa ruxsat bermadi uni boshqa narsa bilan aralashtirib yuboring. Eng qadimgi atamalardan biri ko‘cha Rimliklar tilidan olingan qatlam – “asfaltlangan yo‘l” [9]. Rim bosqinchilari ketganlarida, ularning yo‘llarni asfaltlash usullari unutilgan, garchi ko‘cha so‘zining o‘zi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, lekin u yangi ma‘no – uylar orasidagi yo‘lak mazmuniga ega bo‘lgan. Aynan yo‘l so‘zi *toride* - minmoq fe‘li bilan bog‘langan. Chavandozlar o‘tadigan yo‘llar shu tarzda atalgan. Ikkinchi element yo‘l bo‘lgan ko‘cha nomlari Londonning markaziy hududlarida, masalan, Siti va Vestminster hududida deyarli yo‘q. Londondagi ko‘plab joy nomlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq geografik muhitning xususiyatlari: toponimlar ko‘pincha atrofdagi hududning tabiatini aks ettiradi.

Geografik atamalarning o‘z geografik nomlarini shakllantirishdagi alohida ahamiyati hammaga ma‘lum. Buni geografik atamashunoslikning taniqli tadqiqotchisi V. Neroznak [9] ta‘kidicha, Londonning geografik joy nomlari ko‘p va xilma-xildir. Buni mamlakatning bepoyon hududi bilan ham, boyligi bilan ham izohlash mumkin, tabiiy sharoitlar, turli xil relyef turlarining mavjudligi ham bundan mustasno emas: 1. Urbanonimlar. 2. Gidronimlar. 3. Fitotoponimlar.

Бундан ташқари atoqli ismlar Londondagi ko‘plab toponimlarda o‘z aksini topgan. Mashhur shoirlar, olimlar, rassomlar yashash joylari, shon-shuhrat joylari qo‘mondonlar, monarxlarning sevimli yurish yo‘llari va ularga yaqin bo‘lganlar, odamlar – bu nomlarning barchasi London nomlarining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan.

Шунингдек, London aholisining mehnat faoliyati, ularning bo‘sh vaqtlari va hayoti Londonning ko‘plab toponimlarida o‘z aksini topgan. Bunday nomlar juda ko‘p va A.V.Superanskaya [6] tasnifiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘lingan: 1. Rezidentlarning kasb-hunarlariga ko‘ra nomlar. 2. Belgilardan ko‘cha nomlari. 3. Ijobiy ma‘noli otlar.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, etimologiya bugungi kunda tilshunoslikning bir bo‘limi hisoblanadi, uning doirasida ma‘lum bir so‘z shaklini yaratish motivlari uning semantik ma‘nosi hisoblanadi. Etimologik tahlil so‘z yasash modelini aniqlash uchun amalga oshiriladi. Tadqiqotchilar toponimlarning vazifa va maqsadlariga ko‘ra har xil turlarini ajratadilar. Toponimlarning vazifalari orasida quyidagilar qayd etilgan: *nominativ, tavsiflovchi va ramziy*.

Toponimlar o'rganish obyekti sifatida fanlararo xususiyatga ega bo'lib, tilshunoslik bilan bir qatorda tarix, sotsiologiya, geografiya fanlarida o'rganiladi. An'anaga ko'ra, etimologik nuqtai nazardan toponimlar quyidagi guruhlar bo'linadi: ma'lum bir xalq yoki biror kishiga xos bo'lgan ism; ma'lum bir xalq tilidan kelgan nom; boshqa tildan kirib, fonetikaga moslashgan nomlar ushbu hududda mavjud bo'lgan tilning xususiyat va me'yorlariga moslashishi; chet el nomlari; gibrid nomlar. Angliyada toponimlarning etimologik tahlili zamonaviy ingliz tilida o'xshash tovushga ega toponimlarning mavjudligi bilan murakkablashadi. Funktsional nuqtai nazardan ingliz geografik nomlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan quyidagi omillar ajratiladi: muayyan hududda yashagan xalqlarning nomlari; turar-joy xususiyatlari; hududning relyefi. Londonda ko'plab joy nomlarining kelib chiqishi uning geografik muhitining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqligi va aynan toponimlarda ko'pincha tevarak-atrof tabiati va tarix o'z aksini topishi tadqiqotimiz davomida kuzatildi.

#### **REFERENCES**

1. Ахмадалиев Ю.И. Топонимика ва географик терминшунослик.– Фарғона: 2018 – 10 б.
2. Artemova A.F., Leonovich O.A. Buyuk Britaniyaning geografik nomlari. – M., 2010. – № 10. – 67 b.
3. Belenkaya V. Ingliz toponimiyasi bo'yicha insholar. – M., 2009. – 335 b.
4. Basik S. N. Umumiy toponimika. Geografiya fakulteti talabalari uchun darslik. – M.: BGU, 2011. – 200 b.
5. Bragilevskiy D.Y. Ko'cha nomlarining tarkibiy-semantik tahlili. London. - Leningrad, 2008. – 233 b.
6. Superanskaya A.V. To'g'ri nomning umumiy nazariyasi. – M., 2012. – 370 b.
7. Rosenthal D.E. Lug'at – lingvistik atamalar ma'lumotnomasi. 2-nashr. – M., 2013. – 399 b.
8. Jukevich V.A. Umumiy toponimika. – M., 2008. – 432 б.
9. Neroznak V.P. Toponimiya. Lingvistik entsiklopedik lug'at. – M., 2008. – 516 b.

## **JAHON BOLALAR ADABIYOTIDA MODDIYLIKNING MADANIY VA KOGNITIV JIHATLARI**

**Botirova Nigora**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti

[Botirova010793@mail.ru](mailto:Botirova010793@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Bolalar adabiyotida, ko'pincha, murakkab moddiy jihatlar mavjud. Shunga qaramay, bolalar adabiyotida muhim masalalar bo'yicha juda kam tadqiqot olib borilgan. Maqolaning maqsadi jahon bolalar adabiyotining ahamiyatini ko'rsatishdir. Maqolada muallifning pedagogik fikrlari, shuningdek, jahon bolalar adabiyoti romanlari dizaynini tahlil qilish orqali bolalar adabiyotining ahamiyatiga oid turli yondashuvlari umumlashtiriladi. Tarixiy rivojlanish va bolalar o'z kitoblarining moddiylikni qanday o'zgartirishi haqidagi umumiy tadqiqotga asoslanib, maqola kitobni obyekt sifatida ko'proq o'rganadi va bolaning nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashadi. Ma'lum bo'lishicha, bolalar uchun yozilgan kitoblarni qabul qilishning o'ziga xos shakllari mavjud, chunki kitobning moddiylik va uning tadqiqi yangi tajribani taqdim etadi.*

**Kalit so'zlar:** *Bolalar adabiyoti, bolalar madaniyati, rasmlar kitoblar, mutolaa madaniyati, moddiylik, o'zida mujassamlash, kognitiv jarayon.*

### **ANNOTATION**

*Children's literature contains several unique material aspects. Despite this, very little research has been conducted on important issues in children's literature. The purpose of the article is to show the importance of world children's literature. The article summarizes the pedagogical ideas of the author, as well as different approaches to the importance of children's literature by analyzing the design of world children's literature novels. based on research on how to change the materiality of children's books, the article explores the book more as an object and approaches it from the child's perspective. It turns out that there are special forms of reception of books written for children, because the materiality of the book and its study offer a new experience.*

**Key words:** *Children's literature, children's culture, picture books, reading culture, materiality, embodiment, cognitive process.*

### **KIRISH**

Bolalar adabiy madaniyati va uni qabul qilish nomoddiy va o'ta moddiy qutblar o'rtasida sodir bo'ladi. Bir tomondan, og'zaki nutq va amaliyot bolalarning



savodxonlik, yozish va tilni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq: ertaklar, hikoyalar o‘qish, qo‘shiqlar aytish, qofiyalarni sanash, hazil, so‘z o‘yini o‘ynash va ovozi o‘yinlar. Adabiyotni faqat eshitish orqali qabul qilish, asosan, bolalarga tegishli va bolalar uchun kattalar tomonidan amalga oshiriladi. Bu asarlar ko‘pincha dabdabali illyustratsiya va turli teksturalar, yordamchi materiallar va ilovalardan foydalanish ko‘rinishidagi murakkab materialni o‘z ichiga oladi. Ulardan ba‘zilari kitob haqidagi fikrlarimizni odatdagi shaklda shubha ostiga qo‘yadi. Aksariyat bolalar adabiyotining vizual jozibasi, muqova dizaynidan tashqari, cheklangan. Matn bilan solishtirganda yosh kitobxonlar uchun shakl va muhimlik ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Bolter matbaa haqidagi mulohazalarida, asosan, bolalar auditoriyasi uchun klassik vositani “o‘quvchining ongli mulohazasidan yo‘qolishi kerak bo‘lgan vosita” deb ta’riflaydi [5.1.22]. Og‘zaki bo‘lmagan, ya’ni yozma shakldagi bolalar adabiyoti, ko‘pincha, kattalar adabiyotiga qaraganda moddiy, intensiv bo‘lishi turli darajadagi materiallar bolalar kitoblari uchun boshqacha va muhimroq ma’noga ega ekanligini anglatadi. Bolalar adabiyotining moddiylik haqidagi tadqiqotlar juda cheklangan. Bu gumanitar fanlarda bir-biriga mos kelmaydigan turli xil moddiylik tushunchalarining mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bolalar adabiyoti esa o‘z tabiatiga ko‘ra, ko‘pincha, fanlararo kirishni talab qiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Darhaqiqat, moddiylikka ko‘proq e’tibor berishda, birinchi navbatda, fanlararo yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, avvalo, biz bolalar adabiyoti va kitoblari bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy fanlarda moddiylik ta’riflarini ko‘rib chiqamiz.

**Moddiylik tushunchalari:** San’at tarixining bolalar adabiyotiga bo‘lgan yondashuvlari, asosan, rasm yoki illyustratsiyadan iborat bo‘lgan yozma/og‘zaki badiiy komponentlarga e’tibor qaratadi. Shu nuqtayi nazardan, asosiy tasviriy san’atning ishlab chiqarilishi va tabiati haqidagi savollar muhim ahamiyatga ega [9.176]. Moddiylik kitobshunoslik, kitob tarixi, adabiyot tarixi va adabiyot sotsiologiyasida ham muhim o‘rin tutadi. Ommaviy axborot vositalarining tabiati, masalan, tegishli jamiyatning madaniyat va san’at sohalarini mexanizatsiyalash va innovatsiya darajasini ochib beradi. Materiallardan foydalanish “muayyan vaqt va joyda bolalikning ustun ta’riflari” haqida tushuncha berishi mumkin. Bundan tashqari, kitob tadqiqotchilari material qanday kommunikativ madaniyatga mansubligimiz haqida ma’lumot beradigan matnni (yakka holda yoki guruhlarda, chiziqli va ketma-ket yoki vaziyatli va dialogik) o‘qishimizga ta’sir qilishini aniqladilar. Bundan tashqari, amaliy kontekstda adabiyot tasvirlarini o‘rganayotgan tadqiqotchilar,

masalan, adabiyot ko'rgazmalarini tashkil qilish, kitob yoki kitoblarning obyektivligini moddiy artefakt sifatida ko'rib chiqdilar.

Tilshunoslar va filologlar, o'z navbatida, adabiyot kontekstidagi materialni ko'pincha faqat intellektual material sifatida, ya'ni fonema kabi lingvistik birliklar yoki semantik birliklar (masalan, harf, bo'g'in, so'z) yoki motivlar va belgilar kabi she'riy elementlar sifatida ko'rib chiqadilar. Jerom Makgann "germenevtik material"ni "lingvistik va bibliografik kodlarning bog'langan tarmog'i" deb atagan [10.98-100]. Shunga qaramay, ba'zi adabiyotshunos olimlar, tanqidchilar va yozuvchilarning o'zlari kitobning jismoniy aniqligini va matn va tashuvchi o'rtasidagi munosabatni e'tiborsiz qoldirolmaydilar. G'oya va obyekt o'rtasidagi munosabatga qarash matnni uning tashuvchisi bilan birgalikda lingvistik va filologik jihatlar doirasidan tashqariga chiqadigan savollarni qo'yish mumkin bo'lgan artefakt sifatida tushunishni anglatadi. Shu bilan birga, bu filologlar matn qanday ko'p o'lchovli va hissiy ittifoqdosh moddiy obyekt orqali uzatilishini to'liq idrok etishlari kerakligini anglatadi. Xuddi shunday, material va illyustratsiyalar birgalikda o'ziga xos ma'noni yaratadi.

Kitobning moddiy jihatlari o'quvchining asarga bo'lgan umidlari va munosabatini tartibga soluvchi muhit yaratadi. Montanaro Staples ham xuddi shunday yo'nalishga intiladi, u chiroyli rasmlar va jo'shqin mexanikalar bilan o'quvchini asarga jalb qiladi. Bolalar adabiyoti tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, yosh kitobxonlar ushbu sinestetik o'qish tajribasiga yaxshi munosabatda bo'lishadi. Bunda ideal tarzda bir nechta funktsiyalar bajariladi: o'quvchi o'qish faoliyatidan zavqlanishi kerak, u bolaning faqat matnni tashkil etuvchi harflarni tasavvur qilishdan iborat bo'lmagan qabul qilish ufqlariga javob berishi kerak. Bundan tashqari, turli fanlarning moddiyligi haqidagi tushunchalarni birlashtirish va kengaytirish kerak, chunki bu bolalar adabiyotini yetarli darajada o'rganishning yagona yo'li. Biz ushbu maqolada bolalar adabiyoti tadqiqotlari moddiylik tushunchalarini qabul qilish jihatlari bilan kengaytirilishi kerakligini tavsiya qilamiz. Adabiyot, kitoblar va moddiylik konsepsiyasi bolalar adabiyotining kengayuvchi va chegaralovchi tendensiyalariga o'xshash bo'lib, u qisman qiziqarli material ishlab chiqarish orqali qabul qilishni ham o'zgartiradi. Ulla Redinning ta'kidlashicha, hozirgi bolalar uchun yaratilayotgan kitoblar shunchaki tasvir mazmuni yuqori bo'lgan kitoblar emas, ularning eng katta qiziqishi mashhur madaniy rasmlar kitoblarni talab qiladi.

**Rasmlar kitoblar** teginish orqali harakatga keltiriladigan, ovozli yoki shunga o'xshash ajoyib kitoblar bo'lishi shart emas. Rasmlar kitoblar, ko'pincha, g'ayrioddiy, katta formati bilan ajralib turadi. Hatto rasmlar kitoblar ham juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu xilma-xil ishlab chiqarish imkoniyatlari adabiy va tasviriy bayonni

qo‘llab-quvvatlashi yoki buzishi va shu tariqa moddiy darajada ma’no kasb etishi mumkin. Moddiylikning adabiyotshunoslikda integratsiyalashuviga misol qilib, Messerlining *Yorg Myuller* va Yorg Shtaynerning “*Die Menschen im Meer*” (*Dengizdagi odamlar*) nomli rasmi kitoblari haqidagi tadqiqotlarni keltirish mumkin. Bolalar kitoblarining ko‘p turlari o‘zlarining muhimligi bilan ajralib turish, asosan, kattalar tomonidan ishlab chiqarish va qabul qilish amaliyoti bilan shakllanadigan an’anaviy retseptiv xatti-harakatlarni yengish imkoniyatiga ega.

**Bolalar kitoblarida moddiylik va qabul estetikasi.** Bizning fikrimizcha, kitobning moddiylikka ta’sir etuvchi qabul shakllarini bolalar adabiyotiga xos xususiyat sifatida ko‘rish kerak. Bundan tashqari, biz bolalar kitoblari bo‘yicha tadqiqotlar bolalar adabiyotini tashkil etuvchi, qabul qilish amaliyotlarini o‘z ichiga olgan kengaytirilgan moddiylik tushunchasini nazarda tutishi kerak deb hisoblaymiz. Illyustratsiyalar sodda bo‘lib, bolalar rasmlarga beixtiyor yaqinlashadi. Shu bilan birga, kitob san’at asari sifatida taqdim etiladi, bu bolalarning moddiylikka aralashuvini o‘z ichiga olmaydi.

Roland Bart ishlab chiqarish va moddiylikni o‘zaro bog‘lash uchun asos yaratgan edi. Quyida biz buni bolalar adabiyoti uchun maxsus deb hisoblagan qabul qilish va moddiylik o‘rtasidagi bog‘liqlikka kengaytiramiz. Bart yozuvni yoki matnlashtirishning jismoniy o‘lchovini adabiyotning paydo bo‘lishidagi asosiy harakat deb biladi [4.113-117]. Bart buni o‘z faoliyati davomida bir necha bor qayta ta’riflagan.

## **XULOSA**

Tarixiy bolalar va o‘smirlar adabiyoti to‘plamidan keltirilgan misollar bolaning o‘ziga xosligi, kitobning moddiylik va uning o‘zgarishi, ayniqsa, kitoblarni bolalarcha qabul qilishda qanchalik chambarchas bog‘liqligini aniq ko‘rsatib turibdi. Bu kuzatuv so‘nggi yillarda ilmiy-tadqiqotlar diqqat markazida bo‘lgan bir sohaga ishora qiladi, ammo bu sohaga, ayniqsa, adabiyotshunoslikda hali ham unchalik e’tibor berilmayapti: mujassamlashgan bilish nazariyasi. “Mujassamlash” atamasi kognitiv jarayonlar nafaqat neyronlarning faoliyati bilan bog‘liq, balki butun tanani o‘z ichiga oladi degan asosiy taxmindan boshlab, turli fanlarning ko‘plab savollari va yondashuvlarini umumlashtiradi.

## **REFERENCES**

1. Ф.Жуманова, С.Авазова, Г.Жобборова, У.Хуснетдинов. Умумий педагогика асослари. Т.: “Ishonchli hamkor”, 2020.
2. Jobborova Gulnoza, O‘quvchi va talabalarga ekologik ta’lim berish imkoniyati “Uzluksiz ta’lim” 2019. № 3 son. 82-84

3. Jobborova Gulnoza Kadamovna. (2022). Formation of Ecological Culture of Primary School Students. *Eurasian Scientific Herald*, 7, 240–242.
4. Berner, R. S. (2007). *Das Winter-Wimmel-Leporello*. Hildesheim: Gerstenberg
5. Bolter, D. J. (2001). *Writing space. Computers, hypertext, and the remediation of print* (2nd ed.). Mahwah: Erlbaum.
6. Lakoff, G., & Johnson, M. (1999). *Philosophy in the flesh. The embodied mind and its challenge to western thought*. New York: Basic Books
7. Messerli, S. (2005). Die Knickkante im Bilderbuch. Die Menschen im Meer als dialektisches Material. In C. Lötscher & I. Tomkowiak (Eds.), *Stofflichkeiten. Aspekte der Materialität in populären Literaturen und Medien* (pp. 9–19). Zürich: Universität Zürich – ISEK.
8. Montanaro Staples, A. (2018). Pop-up and movable books. In B. Kümmerling-Meibauer (Ed.), *The Routledge companion to picturebooks* (pp. 180–190). New York: Routledge.
9. Oetken, M. (2008). *Bilderbücher der 1990er Jahre*.
10. McGann, J. (1991). *The textual condition*. Princeton: Princeton University Press.
11. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
12. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
13. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
14. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
15. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).

16. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. World scientific research journal, 4(2), 7-11.
- 17.
18. Абдурашидова, Нилуфар Абдурашидовна, & Ҳасанов, М. (2022). ЁШЛАР ДУНЁҚАРАШИДА ДИН ВА АХЛОҚНИНГ ЎЗАРО МУТАНОСИБЛИГИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 1226-1235.
19. Ramatov, J.S., Valiev, L.A., Xasanov, M.N. XIX ASRDA HINDISTONDAGI IZHTIMOIY - FALSAFIY JARAYONLAR // ORIENSS. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hih-asrda-indistondagi-izhtimoiy-falsafiy-zharayonlar> (kirish 12/11/2022).
20. Ф. А. Кушаков, М. Н. Ҳасанов, Р. Ў. Баратов, Ж. С. Рамагов, & С. Ҳ. Султанов (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 803-810.
21. Рамагов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.
22. Рамагов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.



## **KASB-HUNAR TA'LIMIDA PSIXOLOGIYANI O'QITISHDA INTERFAOL O'QITISH USULLARI**

**Karimov Farxod Toshtemirovich**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası o'qituvchisi

karimov.f8208@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada kasb-hunar ta'limi psixologiyasini o'rganishda interfaol o'qitish usullaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ob'ekti “Kasb-hunar ta'limi psixologiyasi” fanini o'qitish jarayoni, uning predmeti esa ushbu fanni interfaol o'qitish metodikasi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish usuli, umumlashirish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash usullaridan foydalanildi. Muallif o'qitishning interfaol usullarining mohiyatini, ularning zamonaviy o'qitish usullari tizimidagi o'rnini atroflicha ko'rib chiqadi.*

*Har bir darsni interfaol o'qitish usullari bilan o'tkazish mumkinligiga alohida e'tibor qaratilib, uni tanlash o'qituvchining ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga intilishiga bog'liq. Tadqiqotning ilmiy yangiligi ushbu o'quv kursi doirasida o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdadir. Interfaol ta'limning eng samarali usullari evristik suhbat, psixologik diagnostika usuli, loyihalar usuli, rolli o'yin usuli, muammoli o'qitish usuli ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalaridan kasb-hunar ta'limi psixologiyasi va psixologik-pedagogik siklning boshqa fanlarini o'qitish jarayonini tashkil etishda foydalanish mumkin. Psixologik-pedagogik fanlarni o'qitish va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'qitishning interfaol usullaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega, chunki o'qituvchi ular yordamida o'quvchilarga namuna ko'rsatadi va ularni keyingi pedagogik faoliyatda ushbu usullarni qo'llashga tayyorlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *kasb-hunar ta'limi psixologiyasi, o'qitish usullari, interfaol o'qitish usullari, evristik suhbat, psixologik diagnostika usuli, loyiha usuli, rolli o'yin usuli, muammoli o'qitish usuli, metodologiya.*

## **INTERACTIVE TEACHING METHODS IN TEACHING PSYCHOLOGY IN VOCATIONAL EDUCATION**

### **ABSTRACT**

*The article considers the possibilities of using interactive teaching methods in the study of the psychology of vocational education. The object of research is the process of teaching the subject "Psychology of Vocational Education", and its subject is the method of interactive teaching of this subject. The method of theoretical analysis of scientific and methodological literature, generalization, synthesis, comparison, and classification methods were used in the research process. The author thoroughly examines the essence of interactive teaching methods, their place in the system of modern teaching methods.*

*Special attention is paid to the fact that each lesson can be conducted using interactive teaching methods, and its choice depends on the teacher's desire to increase the effectiveness of the educational process and to develop the professional competencies of students. The scientific novelty of the research is in determining the specific features of the use of interactive teaching methods within the framework of this educational course. It was determined that the most effective methods of interactive education are heuristic conversation, psychological diagnostic method, project method, role-playing method, and problem-based teaching method. The results of the research can be used to organize the teaching process of psychology of vocational education and other subjects of the psychological-pedagogical cycle. The use of interactive methods of teaching in the teaching of psychological and pedagogical subjects and the training of future teachers is also important, because the teacher uses them to show students an example and prepare them to use these methods in further pedagogical activities. .*

**Key words:** *psychology of vocational education, teaching methods, interactive teaching methods, heuristic conversation, psychological diagnostic method, project method, role-playing method, problem-based teaching method, methodology.*

### **KIRISH**

Interaktivlik zamonaviy ta'lim jarayonining eng muhim xususiyati hisoblanadi. Interfaol ta'lim tadqiqotchilar tomonidan "har bir o'quvchi o'quv jarayoniga kiritilganda, bilish faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli; ta'lim o'zaro ta'sir, dialog shaklida amalga oshiriladi - o'qituvchi va talabalar o'rtasida va o'zaro talabalar" [1]. Interfaol ta'lim usullari passiv ta'limning tushuntirish va illyustrativ usullariga, o'quv jarayonini jonlantiradigan faol o'qitishning istiqbolli usullariga qarama-qarshidir. Shu bilan birga, har qanday shakldagi har qanday dars interfaol

usullardan foydalangan holda o‘tkazilishi mumkin: ma’ruza, amaliy va laboratoriya darsi, test. Muhimi, metodning o‘zi emas (u o‘z- o‘zidan qimmatli bo‘lishni to‘xtatadi), balki interaktiv yondashuv, o‘quv jarayonida sub’ektlarning o‘zaro ta’siri tizimi.

Interfaol usullar zamonaviy ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirish bilan ayniqsa dolzarb bo‘lib qoldi. Kompetensiyalarni shakllantirish bilimlarni uzatish, ko‘nikmalarni shakllantirishdan tubdan farq qiladi va interfaol o‘qitish usullari zamonaviy ta’lim sharoitida yangi chaqiriqlarga munosib javob bo‘ldi.

Olimlar, metodistlar va amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan doimiy ravishda yangilari bilan yangilanib turadigan interfaol usullarning butun majmuasi shakllangan. Jumladan, “aqliy hujum” usuli, keys-stadi usuli, trening va ishbilarmonlik o‘yinlari usullari, loyiha usuli, master-klass usuli va boshqalar [1].

Tadqiqotchilar universitet talabalari kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol o‘qitish usullarining katta ahamiyati, turli shakl va turdagi darslarda interfaol o‘qitish usullaridan foydalanishning ahamiyati, ular yordamida o‘quv jarayonini faollashtirish imkoniyati va boshqalarni qayd etadilar.

Zamonaviy universitet o‘qituvchilari uchun psixologik fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol o‘qitish usullarini qo‘llash kerakligi shubhasizdir. Ularning salomatlik psixologiyasi, klinik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, biznes psixologiyasi va boshqa o‘quv kurslarini o‘qitishdagi samaradorligi qayd etilgan.

чиқиши ўринлидир. Ўзбекистон мисолида оладиган бўлсак, “Давлат тили ҳақида”ги<sup>69</sup> Қонунида давлат тили ўзбек тили эканлиги қайд этилган (1-модда). Бироқ бу қоида Интернет сайтларида давлат тили билан бирга бошқа тиллардаги маъмулотларни жойлаштиришни инкор қилмайди, албатта. Шу сабабли ҳозирда истеъмочилар ва мижозлар аудиториясини кенгайтириш мақсадида Интернет сайтларида бир нечта тилдаги маълумотлар, товарнинг тавсифига оид хабарлар ҳамда ахборот жойлаштирилади. Бу ҳар бир истеъмолчининг ўзи истаган тилни танлаб товар ва хизматга оид маълумот олишга бўлган ҳуқуқи амалга ошишини таъминлайди.

Халқаро савдо амалиётида Интернетнинг кўлами ортиб бориши билан истеъмолчининг ҳуқуқларини таъминлашда сервер жойлашган мамлакатни аниқлаш ва сотувчи ва хизмат кўрсатувчининг мажбуриятларини таъминлашнинг ҳуқуқи воситаларини белгилаш муҳимдир. Чунки, Интернет орқали истеъмолчиларга товарлар сотувчи ёки хизмат кўрсатувчилар аксарият ҳолларда профессионаллар ҳисобланади.

Онлайн-савдо оммавий оферта асосида шартнома тузишга асосланади ва шу сабабли ушбу савдода сотувчи борасидаги тўлиқ маълумотлар сайтда жойлаштирилиши, товарлар тўғрисидаги барча маълумот билан истеъмолчи танишиш имконига эга бўлиши зарур. Бу талаб Интернет орқали истеъмолчи билан шартномавий муносабатларга киришишнинг асосий қоидаси саналади. Шу сабабли профессионал фаолият асосида истеъмолчига товар сотилиши ёки хизмат кўрсатилиши оқибатида етказилган зарарларни қоплаш бевосита истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид қонунчиликка бўйсундирилган.

Таъкидлаш зарурки, Интернет орқали савдо ёки хизмат кўрсатиш фаолиятини амалга ошираётган шахс бошқа мамлакатда истеъмолчи эса бошқа давлатда жойлашган бўлса, улар ўртасидаги муносабатлар қайси мамлакат қонунчилигига бўйсундирилиши масаласини аниқлаш лозим бўлади. Юқорида таъкидланганидек, бу ҳолатда истеъмолчи жойлашган мамлакат қонуни амал қилади. Лекин бу қоида ҳам истеъмолчи Интернет орқали маҳсулотини ўзи яшайдиган мамлакатда эмас, бошқа мамлакатга борганида сотиб олган ҳолларда қандай амал қилиши ҳолати эътиборга моликдир<sup>70</sup>. Мазкур ҳолатда сотувчи ёки хизмат кўрсатувчи истеъмолчи қайси домен номи<sup>71</sup> ёки сайт орқали онлайн-дўкондан товар сотиб олгани ёки хизматдан фойдаланганлигини аниқлашга оид очиқ маълумотлардан фойдаланишига йўл қўйилади. Бу

<sup>69</sup> <https://www.lex.uz/acts/121051>

<sup>70</sup> Gillies L.E. Addressing the “Cyberspace Fallacy”: Targeting the Jurisdiction of an Electronic Consumer Contract // International Journal of Law and Information Technology. 2008. Vol. 16.– №3. P.268.

<sup>71</sup> Рустамбеков И.Р. Ўзбекистонда домен номларига оид муносабатларнинг фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: 2011. – Б. 30.



вазиятда истеъмолчилар томонидан ўзлари жойлашган мамлакатни эълон қилишлари ҳам мумкин. Масалан, Интернет орқали китобнинг электрон вариантыни буюртма асосида олишда истеъмолчи ўзи жойлашган мамлакат, ўзининг электрон почтасининг номини ҳам кўрсатиши лозим бўлади. Агар китобнинг электрон вариантыни бепул олаётган бўлса, кўпчилик сайтлар томонидан шахсининг иш жойи ва ишхонасининг расмий электрон почтасини кўрсатиш талаби ҳам белгиланади. Бундай вазиятларда истеъмочининг шахсига оид маълумотларнинг муҳофазаси билан боғлиқ муаммо юзага келиши мумкин.

2019 йил 2 июлдаги “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги <sup>72</sup> ЎРҚ–547-сон Қонуннинг 12-моддаси иккинчи қисмида белгиланишича, “шахсга доир маълумотлардан фойдаланиш оператор томонидан бу зарур ҳимоя таъминланиши асосида бу маълумотларни тўплаш юзасидан аввалдан белгиланган мақсадлар йўлида амал қилиши зарур”. Бундан ўзга ҳолатларда фойдаланиш эса тегишли жавобгарликни юзага келтиради.

Интернет тармоғида сотувчи ёки хизмат кўрсатувчининг фаолиятини қайси мамлакатда амалга ошираётганлигига эмас, балки қайси давлатларда фаолият йўналиши белгиламаганлигига эътибор қаратиш лозим. Агар бу ҳолатда бирон-бир низо тўғридан-тўғри Интернетдаги истеъмолчига товар сотишдан келиб чиқса, истеъмолчи яшаш жойига эга бўлган давлат судига мурожаат қилиши мумкин. Бунда сотувчи ушбу давлатдаги истеъмолчилар билан олди-сотди муносабатларига киришишнинг олдини олиш учун тегишли чораларни кўрган ҳолатлар бундан мустасно <sup>73</sup>. Бундай чораларга, хусусан, веб-сайтдаги рўйхатдан ўтиш пайтида истеъмолчидан яшаш жойини кўрсатиши ёки истеъмолчининг жойлашган жойини аниқлайдиган техник воситалардан (Интернетга уланган компьютер) фойдаланишни талаб қиладиган махсус баёноتلарни айтиш мумкин. Бироқ бундай механизмларнинг мақбуллиги турличадир.

Бутунжаҳон савдо ташкилоти (БСТ) доирасида Глобал электрон савдо тўғрисидаги Декларация (Declaration on global electronic commerce, 20.05.1998, WT/MIN(98)/DEC/2) тасдиқланган. 2016 йилдан бошлаб Бутунжаҳон почта уюшмаси (Universal Postal Union, UPU), БМТ Савдо ва ривожланиш бўйича конференцияси (ЮНКТАД, United Nations Conference for Trading and Development, UNCTAD), Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти (ОЭСР, Organisation for Economic Cooperation and Development, OECD) ва БСТ

<sup>72</sup> <https://lex.uz/docs/4396419>

<sup>73</sup> Svantensson D. What Should Article 7 — Consumer Contracts, of the Proposed Hague Convention, Aim to Accomplish in Relation to E-Commerce? // Computer Law & Security Report. 2001. Vol. 17. – №5. P.323.

трансгегаравий электрон савдони тартибга солишга оид қоидаларни жорий этиш бўйича ишлар олиб борилмоқда<sup>74</sup>.

Трансгегаравий савдоларда сотувчи истеъмолчи жойлашган жойидан хабардор бўлганда, у қайси мамлакатларда унга даъво берилиши мумкинлигини олдиндан тахмин қилиш имкониятига эга бўлади. Бироқ, бунда ноинсоф истеъмолчилар томонидан сотувчи ёки хизмат кўрсатувчини чалғитиш ҳолати юзага келиши мумкин. Бу ҳолатда истеъмолчи томонидан ўзининг жойлашган мамлакати тўғрисида нотўғри маълумот киритилган бўлса, сотувчи ёки хизмат кўрсатувчини жавобгарликка тортиш ёки мижозга истеъмолчи мақомини бериш рад этилишига сабаб бўлади<sup>75</sup>.

Бироқ айрим тадқиқотчилар бу борада бошқача муносабат билдирадилар. Уларнинг ёзишларича, “сайтда бошқа мамлакатларнинг (ёки алоҳида мамлакатларнинг) истеъмолчилари билан тижорат олиб бориш учун мўлжалланмагани тўғрисида махсус банднинг мавжудлиги, у билан келишилган тақдирда, истеъмолчининг яшаш жойида суд юрисдикциясини ўрнатиш имконини истисно этиши мумкин эмас”<sup>76</sup>.

Европа халқаро-хусусий ҳуқуқида истеъмолчи иштирокидаги шартнома муносабатларида даъволарни қайси давлат судига тақдим этиш борасида шаклланган амалиётга кўра, истеъмолчи сотувчи ёки хизмат кўрсатувчи жойлашган мамлакат ва, аксинча сотувчи ёки хизмат кўрсатувчи истеъмолчи жойлашган мамлакат қонуни амал қилади<sup>77</sup>.

Фикримизча, бу ҳолатда истеъмолчи ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг бундай механизми самарали бўлиб, турли давлатларда жойлашган профессионал иштирокчиларни аниқлашда муҳим ўрин тутди.

Таъкидлаш лозимки, сунъий интеллект орқали савдо ва хизмат кўрсатиш кенг қўлланилмоқда. Айнан сунъий интеллект орқали товарларни сотиш ва етказиб бериш фаолиятини юритадиган Alibaba, Uber, Yandex taxi ва бошқа йирик ва майда онлайн савдо ва хизматларни амалга оширувчилар ундан фойдаланмоқда. Жумладан, компьютер инсон омилисиз стандарт ҳолатларда буюртмаларни қабул қилиш, товарлар (хизматлар) билан таъминлаш, шунингдек, шикоятларни қабул қилиш ва таҳлил қилиш, зарарни тўлаб бериш ва унинг оқибатларини бартараф этиш каби функцияларни амалга оширмоқда.

<sup>74</sup> Королева А.Н. Защита прав потребителей в условиях формирования цифрового товарного рынка // Юридический вестник Самарского университета. 2017. – №3. – С. 51 // <https://cyberleninka.ru/article>

<sup>75</sup> Ören J.S.T. International Jurisdiction Over Consumer Contracts in E-Europe // The International and Comparative Law Quarterly. 2003. – №52. P.675.

<sup>76</sup> Савельев А.И. Электронная коммерция в России и за рубежом: правовое регулирование. – М., 2014.

<sup>77</sup> Резник Р.С. Договоры с участием потребителя в международном частном праве: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2017. – С. 11.

Виртуал маконда онлайн савдога ўз товар ва хизматларининг офертасини жойлаётганларни саралаб истеъмолчилар ҳуқуқларини доимий бузаётган, зарар келтираётган сотувчи ва ижрочиларни виртуал савдо майдончасидан чиқариб юбориш ва блоклаш амалиётини йўлга қўйиш лозим. Шунингдек, тажовузкор истеъмолчиларни ҳам буюртмачиларнинг қора рўйхатига қўшиб қўйиш каби ўзига хос “фильтр” (тозаловчи)ни жорий этиш мақсадга мувофиқдир.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодексига шарҳ: Илмий шарҳлар. Т 3. /Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Тошкент: Vaktria press, 2013. – 769 б.
2. Lubitz M. Jurisdiction and Choice of Law for Electronic Contracts: an English Perspective // *Computer und Recht*. 2001. – №39. P.41.
3. Stone P. Internet Consumer Contracts and European Private International Law // *Information & Communication Technology Law*. 2000. – №6. P.8.
4. Powell M.D., Turner-Kerr P.M. Issues in e-commerce – European Union: Putting the e- in Brussels and Rome // *Computer Law & Security Report*. 2000. – №23. P.24.
5. Jacquemyns L.R., Verbiest T.L'offre de services et produits financiers sur internet // *RDAI*. 2000. – №1. P.27.
6. Debussere F. International Jurisdiction over E-Consumer Contracts in the European Union: Quid Novi Sub Sole? // *International Journal of Law and Information Technology*. 2002. Vol. 10. – №3. P.358.
7. Gillies L.E. Addressing the “Cyberspace Fallacy”: Targeting the Jurisdiction of an Electronic Consumer Contract // *International Journal of Law and Information Technology*. 2008. Vol. 16. – №3. P.268.
8. Рустамбеков И.Р. Ўзбекистонда домен номларига оид муносабатларнинг фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент: 2011. – Б. 30.
9. Svantensson D. What Should Article 7 — Consumer Contracts, of the Proposed Hague Convention, Aim to Accomplish in Relation to E-Commerce? // *Computer Law & Security Report*. 2001. Vol. 17. – №5. P.323.
10. Королева А.Н. Защита прав потребителей в условиях формирования цифрового товарного рынка // *Юридический вестник Самарского университета*. 2017. – №3. – С. 51 // <https://cyberleninka.ru/article>
11. Øren J.S.T. International Jurisdiction Over Consumer Contracts in E-Europe // *The International and Comparative Law Quarterly*. 2003. – №52. P.675.
12. Савельев А.И. Электронная коммерция в России и за рубежом: правовое регулирование. – М., 2014.

## **KUCHLI IJTIMOYIY ADOLAT – FUQAROLIK JAMIYAT QURISHNING BOSH BUG’INIDIR**

**Qo’yliyev To’lqin**

(ToshDAU “Gumanitar fanlari” kafedrası dotsenti)

**Raxmonberdiyeva Nodira**

(TIQXMMI-MTU “Gumanitar fanlari” kafedrası katta o’qituvchisi)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurish jarayonida kuchli ijtimoiy adolatni o’rnatish sohasida amalga oshirilayotgan tub o’zgarishlar keng ko’lamli islohatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligiga e’tibor qaratilgan. Ushbu masalalar qadimgi G’arb va Sharq allomalarning asarlarida ilgari surilgan ilg’or g’oyalar asosida tahlil etilgan va yangi tarixiy sharoitda ulardan unumli foydalanish haqidagi xulosalar tavsiya etilgan.*

**Kalit so’zlar:** davlat va jamiyat, demokratik tamoyillar, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, mehnatdan baxt topish, insonparvar qadriyatlar, adolat va tenglik.

### **ANNOTATION**

This article focuses on the fact that fundamental changes in the field of establishing strong social justice in the process of building a civil society in our country are the main driving force behind large-scale reforms. These issues are analyzed on the basis of advanced ideas put forward in the writings of ancient Western and Eastern scholars, and conclusions are recommended on their effective use in the new historical conditions.

**Keywords:** state and society, democratic principles, social justice, civil society, finding happiness in work, humanitarian values, justice and equality.

### **KIRISH**

Avvalo shuni alohida ta’kidlash lozimki, adolatli jamiyat qurish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida erkinlik, qonunchilik va demokratiyani qaror toptirish sharoitida kompleks tarzda olib borilsagina o’z natijalaridan keng xalq ommasini bahramand bo’lishi uchun imkoniyatlar eshigini yanada kengroq ochadi. Chunki u davlat va jamiyat erkinlashtirilishining muhim omili, zero, biz shunchaki demokratik jamiyat emas, balki odil demokratik jamiyat qurmoqdamiz. “Yangi O’zbekistonni o’z mehnatidan baxt topib yashaydigan insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish keng ko’lamli islohatlarimizning asosiy maqsadidir”[1] - degan edi mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning qaysi jabhasida adolat o'rnatilgan bo'lsa, davlat va jamiyat ishlarini boshqarish shu tamoyilga muvofiq amalga oshirilsa, o'sha joyda ma'naviy-axloqiy me'yorlar yaqqol namoyon bo'ladi, shunga mos qadriyatlar tizimi shakllanadi. O'z navbatida, bunday qadriyatlar tizimi umuminsoniy demokratik tamoyillar va yuksak ma'naviy qadriyat sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, davlat va jamiyatni boshqarish ishlariga gumanistik an'analar, qarashlar va me'yorlarni olib kirishga xizmat qiladi. Shu tarzda ma'naviyat arkonlari ijtimoiy-siyosiy sohani insonparvarlik qadriyatlari bilan boyitadi va milliy o'zlikni anglashning muhim tuzilmasi vazifasini bajaradi.

Yurtimizda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, ijtimoiy adolat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida erkinlik, qonunchilik va demokratiyani qaror toptirish sharoitida kechmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy adolat g'oyasi bugungi kunda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarini to'la qamrab olmoqda. "Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash O'zbekistondagi islohatlarda g'oyatda muhim o'rinda turadi. Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo'lib yashash davlatning bosh maqsadiga aylanib bormoqda"<sup>78</sup>. Tarix sahifalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyo xalqlari bu maqsadni ruyobga chiqarish yo'lida nihoyatda uzoq yo'l, mashaqqatli g'oyalari kurash davonlaridan o'tganligini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy adolat tushunchasi me'yorlariga rioya qilish, teng huquqlilik va jamiyatda yashash uchun barcha ne'matlardan teng foydalanish shaklida ifodalanadi hamda umumiy mulk va ijtimoiy tenglikka asoslanadi. Hatto "Avesto" kitobida ham inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g'oyalari muhim o'rin tutadi, zo'ravonlik va adolatsizlik rad etiladi.

Ma'lumki, ijtimoiy adolatning nazariy asoslarini izlash ijtimoiy-falsafa va axloqning an'anaviy mavzusi bo'lib kelgan. Adolat asosida tashkil etilgan ijtimoiy tuzum masalasi klassik (mumtoz) va zamonaviy davr ijtimoiy falsafasi uchun, shuningdek, zamonaviy siyosiy nazariya uchun ham doimiy diqqat markazidagi mavzu sanalgan. Ta'kidlash joizki, qadimgi yunonlar siyosiy tafakkurining tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan eng muhim xususiyati naturalizm edi. Uning mazmuni shundaki, bu dunyodagi barcha narsalar har bir narsaning tabiiy o'lchovi sifatida harakat qiladigan ba'zi tabiiy "namunalari"ga mos keladi[2]. Antik davrning

<sup>78</sup> Sh. Mirziyoev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022, 60-61-betlar.



eng buyuk faylasuflari Platon va Aristotelning adolatli va yaxshi fuqarolar jamoasining nazariy asoslarini izlashlariga turtki bo'ldi. Siyosiy ma'noda ushbu masalalar Platon va keyin Aristotel' [3] tomonidan taklif qilingan yechimlarning o'ziga xos xususiyati ifodalab berilgan.

Mashhur faylasuf olim Aflotun ham aynan shu savollarni o'z oldiga qo'ygan va "Qonunlar" kitobida ularga javob berishga harakat qilgan. Albatta, 25 asr naridagi dunyoqarash bilan XXI asrdagi dunyoqarash o'rtasida katta tafovut bor va Aflotunning ko'p mulohazalari bugun eskirganligi tabiiy. Lekin yaxlit olganda uning asarida shunday teran mulohazalar borki, ular bugun emas, ertaga ham dolzarb bo'lib qolaveradilar. Negaki, insoniyat bir tomondan adolatli qonunlarga bo'ysunishi va ikkinchi tomondan aynan o'sha adolatli qonunlar uni o'z himoyasiga olmog'i lozim. Bu dunyoda mutlaq adolat bo'lishi oson emas va amalda buning iloji ham yo'q. Aflotunning kitobida esa odamzot qanday qilsa adolatli qonun himoyasida yashaydi, degan asriy savollarga berilgan shunday javoblar borki, ular bugungi kun qonunchiligiga ham bemalol xizmat qilishi mumkin. Aflotun bir o'rinda shunday deydi. "Qayerdagi qonunlar hokimlar ustidan hukmron bo'lsa, hokimlar esa qonunga qul bo'lsa, o'sha davlatga xudolar ne'matlar yog'diradi". Tag'in bir o'rinda olim, agar davlat qonunlar ustidan yaroqsiz hokimiyatni o'rnatib qo'yadigan bo'lsa, u holda qonun hech qanday foyda bermaydi; aksincha davlat uchun juda katta zarar keltiradi, deb ta'kidlaydi. Bu mulohazalar yaqin bir asr davomida oddiy fuqaroni qonun nomi bilan nuqul qo'rqitib kelgan mustabid sho'ro tuzumining aynan o'ziga berilgan bahodek jaranglaydi. Aflotunning «Qonunlar» kitobda qonunlarning asosiy tamoyillari qanday bo'lishi lozimligidan tortib bola tarbiyasigacha, nizolarni qanday hal etishdan tortib nikoh va oila masalasigacha, musiqaviy tarbiyadan tortib, turli aniq fanlarni qay yo'sinda o'rganishgacha – batafsil bayon etilgan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, bu kitob to'raligicha bugungi kun talablarini ifoda etmaydi, ifoda etishi mumkin ham emas. Biroq undagi bosh yo'nalish – qonunlarning adolatli bo'lishi, qonun himoyachilari – huquqshunoslar zimmasidagi vijdonli bo'lishni taqozo etadigan og'ir yumushlar benihoya qiziqarli va sodda misollar bilan tasvirlangan.

Perikldan keyin demokratik Afinaning siyosiy amaliyotini yaxshi bilgan har ikkala faylasuf (muhim voqea- Suqrotning qatl etilishi) demokratiyaning qattiq tanqidchilariga aylanadilar. Bir vaqtning o'zida ikkala mutafakkir ko'plab yunon shahar-davlatlarida mavjud bo'lgan oligarxik boshqaruvga (boylar hokimiyati) qarshi chiqdilar. Platon va Aristotel' kambag'al ko'pchilik manfaatlarini o'zida mujassam ettirgan demokratiya va ko'pchilikka mos kelmaydigan, boylar-oligarxlar boshqaruviga asoslangan siyosiy tizimning nazariy asoslarini tahlil qildilar. Platon kosmologiyasining asosiy qoidalariga ko'ra, koinot - bu tushunarli g'oyalarning oliy

olamidir yoki prototiplar; dunyoning ruhi, aqlli narsalar dunyosini qamrab olgan; aql-idrokning jismoniy dunyosi kabi uch tomonlama tuzilishga ega. Bu uchta dunyo iyerarxik tartibda joylashtirilgan, tushunarli mavjudotlar yuqorida va tana (shaxsiy) – pastda, ruh oraliq pozitsiyani egallaydi hamda o‘z tabiatiga ko‘ra, aqlga yaqinroqdir.

Qadimgi yunonlar insonning bu hayotda ulug‘vorligi, insonning zavq-shavq uchun emas, balki komil holatga, fazilatga erishish uchun yashashini maqsad deb ishonishgan. Ammo “fazilatli va oqilona bo‘ling” deb Suqrot ham bir xil ishongan. Yaxshi hayot nima ekanligini bilmaslik mumkin emas, ya‘ni inson ongi eng oliy tamoyil bo‘lib, unga rioya qilish kerak. Platon aynan shu narsani ta‘kidlaydi. Uyg‘unlik, inson qalbining uchta tamoyilining muvozanati, unda sabab so‘zsiz hukmronlik qiladi. Bunda Platon adolatni chaqiradi. Ushbu uch tamoyilni to‘g‘ri muvozanatga keltirgan kishini adolatli deb ataydi. “Aksincha, adolatsizlik – bu ruhning turli qismlarining chalkashliklari va sargardonligi, ularning nopokligi, qo‘rqoqlik va qo‘shimcha ravishda, jaholat - bir so‘z bilan aytganda, har xil turdagi yovuzlik hisoblanadi”. Shunday qilib, inson qalbining adolati - bu hukmronlikning to‘g‘ri tartibi, lekin adolatsizlik ushbu tartibni buzish bilan izohlanadi.

Axloqiy adolat va davlat tuzilishi haqidagi tushuncha Platon tomonidan tahlil qilingan. “Davlat” risolasida tasvirlangan ideal siyosiy jamoa iyerarxik jamiyat bo‘lib, u uchtadan iborat. Demak, hukmdorlarning vazifasi bilim bilan davlatni tartibga solishdir, soqchilarning vazifasi mavjud tartibni himoya qilish, quyi qatlamlar - davlat manfaati uchun iqtisodiy faoliyat shug‘ullanishdan iborat. Axloqiy adolat (shaxsning adolati) kabi siyosiy adolat, Platonning fikricha, - bu to‘g‘ri hukmronlik munosabatlarini o‘rnatishdir. Buni odamlar tabiatan va tug‘ilishdan bir xil emasligi, turli xil tabiiy moyilliklarga ega ekanligi bilan asoslash mumkin. Ba‘zilar tug‘ilishdan boshlab, asosan oqilona prinsipga ega, boshqalari esa, shahvoniy zavqlarga ko‘proq moyil. Ammo jamiyat, xuddi ruh kabi, oqilona bo‘lingan bo‘lsa va asossiz qismi bo‘lsa, uni xuddi shunday tarzda iyerarxiya prinsipiga muvofiqlashtirish kerak, bu esa ratsional tamoyilning ustunligidir. Platonning loyihasi, nazariy uyg‘unligiga qaramay utopiyadir, chunki u aristokratiyani eng xavfsiz va eng qulay sifatida kafolatlashga intiladi. Bundan tashqari, ma‘lum bir tarzda kafolat berish - faylasuflarning podshohlari hukmronligi zarurligini ta‘kidlaydi.

Platonning shogirdi Aristotel, nazariy sa‘y-harakatlarini, birinchi navbatda, adolatli shahar-davlatning “ishlaydigan”, amaliy jihatdan samarali nazariyasini yaratishga yo‘naltirish orqali xuddi shu vazifani boshqargan. Bu har ikki mutafakkirning turlicha yondashuvlarida yaqqol ko‘rinadi. Platon yondoshuvida ideal tashqi (ilohiy) aralashuvni tasvirlaydi. Aristotelning ideali esa, narsalarning o‘zida mavjudligini tasvirlaydi. Hamma narsa, Aristotelning fikricha, unga xos bo‘lgan

tabiatning kuchini anglashga, ya'ni ideal narsaga aylanishga (mashhur Aristotelning entelexiya tushunchasi) intiladi. Ya'ni, dunyodagi hamma narsa ba'zi bir ichki impul'slar bilan harakat qiladi va bu harakatning yakuniy maqsadi yaxshidir. Siyosatda ham xuddi shunday bo'ladi. Eng yaxshi siyosat bir qator bosqichlardan o'tib, asta-sekin paydo bo'ladigan siyosatdir, uning rivojlanishi mukammal va o'zini o'zi ta'minlaydigan davlat bilan yakunlanadi. Platonning adolat masalasi abadiy va o'zgarmas modelga murojaat qilish asosida yagona va yakuniy qarorni qabul qilsa, u holda Stagiritda adolatli deb hisoblangan narsa aniq, bir marta va umuman berilgan javobga ega emas.

Aristotelning fikrlash mantig'i siyosiy, Aflotundagi kabi mavhum chayqovchilikdan ko'ra, amaliy ehtiyotkorlik bilan boshqariladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, fikrlar tizimini tahlil qilish lozim. Turli toifadagi fuqarolarning hokimiyatga da'volarini tahlil qilish faylasuf uchun eng katta qiyinchilik hisoblanib, bu savol: kim hukmronlik qilishi kerak? Erkin tug'ilganlarning asosiy qismimi yoki davlatda ozchilikni tashkil qilgan faqat eng fazilatli fuqarolarmi? Agar birinchisining hokimiyatga bo'lgan huquqi ularning irsiy qadr-qimmatini bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisining huquqi shubhasizdir. Asosan, gap nima afzalligi haqida bormoqda. Uzoq an'anaga asoslangan fuqarolik tengligimi yoki xizmatga asoslangan tengsizlikmi (meritokratiya)? Bir tomondan tanlov aniq ko'rinadi: "Odobli odamlar hukmronlik qilishi va hamma narsaning boshida turishi nimani anglatadi? Ammo bu holda, qolganlar muqarrar ravishda davlat lavozimini egallash sharafidan mahrum bo'ladi, siyosiy huquqlarni yo'qotadi. Erkin fuqaroning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish fuqarolik tengligi prinsipi bizni qat'iy rioya qilishga majbur qiladi",- deb ta'kidlaydi Aristotel'.

Shunday qilib, antik yunon davri siyosatni manfaatlar ustuvorligi sifatida fikr yuritadi (aniqrog'i, bu bog'liqlikni fuqaro va uni tarbiyalagan jamiyat tabiiy, ajralmas qilib talqin qilingan). Bu bilan bosh siyosiy muammoning yechimi har bir insonning farovonligini bilan bog'liq degan tushuncha paydo bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniyati va tarixi adolat va ijtimoiy adolatning targ'ibotchisi bo'lib kelganlar. Yusuf Xos Hojib, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-G'azzoliy va Nasriddin Tusiy asarlarida ham ijtimoiy adolat to'g'risida turli xil fikrlar yuritganlar.

Bu jihatdan, buyuk allomalarimizdan biri, Sharqda Arastudan keyingi "Ikkinchi muallim" nomi bilan shuhrat qozongan mutafakkir, qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning mashhur "Fozil odamlar shahri" asari ana shu ma'naviy meroslar majmuining yaqqol misolidir. Ushbu asarda odil va fozil jamiyatga xos yuksak ma'naviyatning tarkibiy qismini tashkil etadigan adolatlilik, insonparvarlik,

donishmandlik, odillik, bag'rikenglik kabi fazilatlar fozil insonning eng asosiy xislatlari sifatida tavsiflangan. Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, "Barkamol inson salohiyatidagi aqliy fikrlash quvvati bilan amaliy aqlga, shundan so'ng amaliy aqlni faol aqlga yaqinlashtiradi. Faol aql sohibi esa zakovatli, mukofotga yaqin barkamol insonlar aqli bo'lib, u moddiylikka bog'lanmagan, ruhiy, ma'naviy olami yuksak, mukammal aql egasidir" [4].

Abu Nasr Forobiy "Madaniy jamiyat yoki madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod hamma teng bo'ladi, kishilar o'rtasida ijtimoiy farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar... Ammo ba'zi shahar (yoki mamlakat)lar bo'ladiki, ularda butun xalqning fikri-zikri, aql-idroki boylik to'plash, mol-dunyo orttirishga qaratilgan bo'ladi. Ulardan chiqqan rahbarlar ham rahbarlikni mol dunyoni ko'paytirishda deb biladilar. Shuning uchun ham ular erta-kech mol dunyo to'plash harakatida bo'ladilar. Bunday rahbarlarning qo'l ostida ishlagan shahar xalqlarida turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, hasad, bir-birlarini talash, dushmanlik, nizo-janjallari paydo bo'ladi. Ana shunday shahar xalqlaridan xislatlari, mayllari turlicha bo'lgan avlod tug'iladi" deb ta'kidlaydi[5].

Alisher Navoiy jamiyatni sinflardan emas, turli tabaqalardan iboratligini e'tirof etadi. Davlat esa ana shu tabaqalarning o'rtasida turuvchi, ularni murosaga keltiruvchi, ularning tinchligini, farovonligini, zolimlardan, o'g'rilardan, dushmanlardan qo'riqlovchi kuch deb biladi. Shuning uchun ham u xalq podsho uchun emas, podsho va uning mulozimlari xalq uchun xizmat qilishi kerakligini uqtiradi. Adolatsiz podsho emas, adolatli podsho, adolatli bo'lganda ham butun dunyoda yagona bo'lishini orzu qiladi.

### **XULOSA**

Demak, aytilganlardan shunarsa ma'lum bo'lmoqdaki, Sharqda ham G'arbda ham ijtimoiy adolat tushunchasi azaldan va hozirgi hayotimizda yuqori baholanib kelinmoqda. Mustaqil va barqaror taraqqiyot yo'liga kirgan bizning yurtimiz uchun ham juda qadrlidir. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy - iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlarni olib borish va ular asosida rivojlangan fuqarolik jamiyati va qonun ustuvorligi shaklidagi barqaror institutlarning shakllanishi ijtimoiy adolat tamoyillarini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish zarurati bilan bevosita bog'liq. Prezident Sh.Mirziyoyevning ish uslublari va mamlakatimizda olib borayotgan siyosatlari "Davlat – inson uchun" tamoyillarini real real hayotimizga joriy etilishidir" [6]. Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish

lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilganining e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda.

Buni biz din va so'z erkinligi, gender tenglik, barchaning ta'lim va tibbiy xizmatlarni olishida tenglik, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiya, bolalar, yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlarning huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlardan ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytganda ijtimoiy adolat mamlakatimizning tadrijiy rivojlanishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tushunchadir. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy adolat deganda jamiyatning har bir a'zosi teng huquqli, bir xil himoya va burch hamda majburiyatlarga ega bo'lgan sharoitlar hamda jamiyatda yashovchi har bir insonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va erkinliklarining tengligi va xavfsizligini ta'minlash tushuniladi. Hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy adolat ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning pirovard natijasidir. "Ijtimoiy adolat" bu mamlakatda inson qadrini ulug'lashning asosiy ko'rsatkichidir.

## REFERENCES

1. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022, 202-bet.
2. Shtraus L. O klassicheskoy politicheskoy filosofii //Shtraus L. Vvedeniye v politicheskuyu filosofiyu / per. s angl. M. Fetisova. M.: Logos, Praksis, 2000. S. 57–58; Yana qarang, Fedorova M. M. Klassicheskaya politicheskaya filosofiya. S. 10–11.
3. Shtraus L. Klassicheskoye yestestvennoye pravo // Shtraus L. yestestvennoye pravo i istoriya. M.: Vodoley Publishers, 2007. S. 128–129; 134–136.
4. Beneton F. Vvedeniye v politicheskuyu nauku: per. s fr. M.: Izdatel'stvo «Ves' mir», 2002. S. 19–38.
5. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri»-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1993, 190-191-betlar.
6. Sh. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".– Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2022, 60-61betlar.
7. Baratov, Rashid, and Sadokat Uzbekova. "INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING." *World scientific research journal* 4.2 (2022): 7-11.
8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and



- prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.
9. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.
10. Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., & Achilova, G. (2022, June). "One belt-one road" initiative-as a modern transport logistics. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030058). AIP Publishing LLC.
11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
13. Джуманийёз Раматов, Розигуль Умарова, Рашид Баратов, Миршод Хасанов, Сиродж Султонов, Файзулла Кушаков ПРОБЛЕМЫ ВЛИЯНИЯ ИСЛАМА НА ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ // Академические исследования в области педагогических наук. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-influence-of-islam-on-coding-transformation> (дата обращения: 31.01.2023).
14. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2(05), 1-6.
15. Ҳасанов, М. Н., Ҳафизов, Д. А., Тоиров, Р. Х., & Болтабоев, Х. Қ. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ.
16. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 582-586.
17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.

18. Раматов, Ж. С., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ–ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1070-1078.
19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. *World scientific research journal*, 9(2), 37-42.
20. Ruzigul, U., Nasirjan, J., Dilmurodkhakim, A., Mirshod, H., & Urozboy, E. (2020). Rationale and history of human reflections in the muslim philosophy. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1453-1458.

## **МАМЛАКАТИМИЗДАГИ ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР ВА КОНСТИТУЦИЯ**

**Қўйлиев Тўлқин**

ТошДАУ “Гуманитар фанлари” кафедрасининг доценти

**Неъматов Нурсултон**

Ўрмон хўжалиги ва ландшафт дизайн факултети “Юриспруденция”

йўналиши 22- 171-гуруҳ талабаси

### **АННОТАЦИЯ**

*Ушбу мақолада “табиат-жамият-инсон” муносабатларидаги асосий масала табиат бойликларини кейинги авлодларга соғлом қолдириш мақсадида мамлакатимиз Конституцияси ва бошқа ҳужжатларда белгилаб берилган асосий қоидалар ва унга онгли итоаткорлик асосида амалга оширилаётган ишлар устидаги фикрлар ва қонун ости ҳужжатлари асосида амалга оширилаётган ишлар таҳлил этилади.*

**Калим сўзлар:** Конституция, демократик жамият, глобаллашув, қонун, қонун ости ҳужжатлари, табиий ресурслар, экологик ҳуқуқ.

### **ANNOTATION**

*This article analyzes the main issue in the relationship "nature-society-man" on the basis of the basic norms of the Constitution of our country and other documents, as well as on the basis of conscious obedience to them, in order to get out of natural resources, healthy for the next generations.*

**Keywords:** Constitution, democratic society, globalization, law, legal documents, natural resources, environmental law.

Бугунги глобаллашув даврида мамлакатимизда демократик ислохатларни янада чуқурлаштириш бўйича олдимизда улкан, муҳим вазифалар билан бир қаторда сайёрамиз келажаги, инсоният тақдири ҳозирги даврда кўп жиҳатдан табиатни муҳофаза қилиш билан боғлиқ бўлган масалаларга ҳам боғлиқ бўлиб қолмоқда. Бошқача қилиб айтганда, табиат ресурсларини муҳофаза қилиш, инсон ва табиатнинг ўзаро муносабатларида мувозанатга эришиш асримизнинг долзарб муаммоларига айланганига анча йиллар бўлди. Тўғрироғи XX асрнинг иккинчи ярмидан бошланган бу муаммо ҳам вертикал, ҳам горизантал тарзда ривожланиб инсониятни боши берк кўча сари судраб бормоқда.

Мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёев тўғри таъкидлаганидек, ”бундан ярим аср илгари Орол денгизи дунёдаги тўртинчи ёпиқ денгиз эди. Бир аалод

хаёти давомидаунинг қуриши натижасида нафақат ҳайвонот, балки ўсимлик оламининг кўплаб ноёб турлари ҳам бой берилди. Орол денгизининг қуриган тубидан ҳар йили ҳавога 100 миллион тоннагача туз ва чанг кўтарилади. Энг ёмони, дунёнинг кенг ҳудудларига тарқалаётган бу тўзон бўронлари аҳоли саломатлиги, минтақа табиати ва иқтисодиётига мислсиз зарар етказмоқда.

Ўзбекистон БМТнинг юқорри минбарларидан дунё ҳамжамиятини Орол денгизи қуриши натижасида келиб чиқаётган оқибатларни юмшатиш учун халқаро саъй-ҳаракатларини бирлаштиришга фаол чақириб келмоқда. Натижада БМТ шафелигида Орол бўйи минтақаси учун Инсон хавфсизлиги бўйича кўп томонлама шериклик асосида Траст фонди ташкил этилди. Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди, деб эълон қилиш тўғрисидаги махсус резолюция қабул қилинди.

Бугунги глобал иқлим ўзгаришлари жараёнида кўплаб ривожланган давлатлар ўз Конституцияларига экологияга оид махсус боблар киритмоқда. Бинобарин Ўзбекистон Конституциясида ҳам экологик ҳуқуқлар ҳамда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалаларига доир илғор нормалар уствор ўрин эгаллаши зарур<sup>79</sup>.

Албатта, мамлакатимизда бу соҳада олиб борилаётган кенг кўламли вазифалар қанчалик чуқур ва улғувор бўлмасин ҳар қандай шароитда у ҳам энг аввало конституциявий тамойил ва қоидаларга мувофиқ тарзда амалга оширилиши, қонун устворлиги бош мезон бўлиши ўта зарурдир. Шу маънода Конституциямизда мамлакатимиздаги барча табиий ресурсларнинг муҳофаза қилиниши, ундан оқилона фойдаланиш лозимлиги ҳам алоҳида эътироф этилган.

Асосий Қонунимизда табиат объектлари муҳофаза этилишининг ҳуқуқий қоида сифатида ўз аксини топиши, давлатимизда яшаётган барча фуқаролар ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар учун умуммажбурий бўлган қоида сифатида белгиланганлигини англатади. Конституцияга мувофиқ табиий ресурслар яъни ер, ер ости бойликлари сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси шунингдек, бошқа табиий ресурслар умуммиллий бойликдир, уларни давлат муҳофаза этади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 55- моддасида жамиятнинг иқтисодий негизлари ҳисобланган “Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий бойликлари, улардан оқилона фойдаланиш зарур ва улар давлат муҳофазасидадир”<sup>80</sup>-деб таъкидланган. Ушбу моддада ўз ифодасини топган табиий ресурсларнинг ҳуқуқий ҳолати ҳақида

<sup>79</sup> Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O`zbekiston”. 2022, 123-124-бетлар.

<sup>80</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. 19-бет.

тўхталиб ўтишда, аввало “умуммиллий бойлик” деган юридик терминнинг конституцияда нима учун ишлатилганлигини ва унинг маъно, мазмуни билиб олмоқ зарурдир. “Умуммиллий бойлик” юридик категория сифатида биринчи навбатда ер, ер ости бойликлари, сувлар, ўсимликлар ва ҳайвонот олами, шунингдек табиий ресурсларнинг кимга тегишлиги эмас, балки ундан кимнинг манфаати йўлида фойдаланиш лозимлигини билдиради. “Табиий ресурсларнинг “умуммиллий бойлик” мақомини ҳисобга олганда табиий ресурсларнинг мулкдори сифатида одатдаги хўжалик муомаласи иштирокчиси бўлган давлат эмас, балки сиёсий ҳокимят, суверенитет соҳиби бўлган давлат назарда тутилади деб айтиш мумкин. Миллий бойлик халққа тегишли бўлган бойликдир”<sup>81</sup>. Зеро, Конституциямизнинг 7-моддасида “Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаидир”,- дейилса, 2-моддада “Давлат халқ иродасини ифодалайди, унинг манфаатларига хизмат қилади”<sup>82</sup>-дейилади.

Табиий ресурслардан фойдаланиш ва уни муҳофаза қилишда Ўзбекистон Республикаси Конституциясига асосан Олий Мажлис томонидан кўплаб қонунлар қабул қилинди. Шунингдек, Конституция асосида президент фармонлари ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва йўриқномалар, Вазирликлар ва давлат қумиталари, маҳаллий ҳокимиятлар ҳамда давлатнинг табиий ресурсларни ҳимоя қилиш вазифаси юклатилган махсус бошқарув органлари томонидан юздан ошиқ норматив ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Улар мазмун-моҳиятига кўра асосий, тўғридан тўғри ва бевосита қисимларга ажратилиб мутахассислар томонидан ўрганилиб келинмоқда. Шартли тарзда уларни қуйидаги тарзда кўрсатиш мумкин:

1) Табиий ресурсларни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш умуммиллий бойлик сифатида эътироф этган Конституциямиз асосий қафолат ҳисобланади.

2) Тўғридан тўғри табиий ресурсларни муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланишга қаратилган қонун ҳужжатлари ҳисобланади.

3) Бевосита табиий ресурсларни ҳимоя қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланишга қаратилган қонунчилик ҳужжатларидир.

Конституциямизнинг 55- моддасида қуйидаги хусусиятлар уни ҳар томонлама кенгроқ тушунилишига ва таҳлил қилишга ёрдам беради: А) Ер, ер ости бойликлари, сув, ўсимлик, ҳайвонот дунёси ҳамда бошқа табиий захираларнинг биринчи марта умумбашарий бойлик деб эълон қилиниши, Б) Юқорида кўрсатилган барча табиий бойликлардан оқилона фойдаланиш

<sup>81</sup> Қишлоқ хўжалиги ҳуқуқи. Т.: 2000. 154-бет.

<sup>82</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. 4-5-бетлар.



зарурлиги, В) Барча табиий бойликлар ва атроф-муҳит муҳофаза қилиниши. Г) Мавжуд табиий бойликларнинг давлат томонидан муҳофаза қилиниши зарурлиги шулар жумласидандир. Айниқса Ўрта Осиё шароитида сувга бўлган эҳтиёжнинг йилдан йилга ортиб бориши бу соҳада ўзига хос сиёсат юритилишини талаб этмоқда. Шунини ҳисобга олган ҳолда мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёевнинг Қозоғистон, Тожикистон, Қирғизистон ва Туркменистон Республикалари президентлари билан ўтказиладиган расмий ва норасмий учрашувларнинг диққат марказида кўпинча халқларимизнинг табиатга унинг бойликларини асраб-авайлаган ҳолда муносабатда бўлиш ва умумий сув ресурсларидан биргаликда фойдаланиш борасидаги кўп асрлик анъаналарига суянган ҳолда ҳақиқатдан ҳам салмоқли натижаларга эришиш ғояси устворлик қилиб келмоқда.

Зеро, табиат объектларини муҳофаза қилишга бағишланган қонунларини яратиш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан бирига айланиб қолди. Чунки ҳозирги экологик таназул шароитида табиий ресурсларни ҳимоя қилиш буйича муносабатларини аниқ, қатъий ҳуқуқий тартибга солиш Конституцияда белгиланган атроф табиий муҳитни ягона муҳим кафолати бўлиши мумкин. Шу сабабдан, табиатни муҳофаза қилиш тўғрисидаги қонунчиликни тараққий эттириш ва такомиллаштириш хусусида ўйлаб кўриш, уларни яратиш концепциялари тўғрисида бош қотириш масаласини орқага ташлаш, кечиктириш экологик тангликни кескинлигига сабаб бўлиши, уни янада чуқурлашига сабаб бўлиши мумкин.

## **REFERENCES**

1. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O`zbekiston”. 2022, 123-124-бетлар.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019. 19-бет.
3. Қишлоқ хўжалиги ҳуқуқи. Т,: 2000. 154-бет.
4. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
5. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).
6. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World*

scientific research journal, 4(2), 7-11.

7. Baratov, Rashid, and Sadokat Uzbekova. "INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING." World scientific research journal 4.2 (2022): 7-11.

8. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.

9. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 591-597.

10. Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., & Achilova, G. (2022, June). "One belt-one road" initiative-as a modern transport logistics. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030058). AIP Publishing LLC.

11. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.

12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҶИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.

13. Джуманиёз Раматов, Розигуль Умарова, Рашид Баратов, Миршод Хасанов, Сиродж Султонов, Файзулла Кушаков ПРОБЛЕМЫ ВЛИЯНИЯ ИСЛАМА НА ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЗНАНИЯ // Академические исследования в области педагогических наук. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problems-of-influence-of-islam-on-coding-transformation> (дата обращения: 31.01.2023).

14. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1-6.

15. М.Н.Хасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627>

16. Jumaniyoz Ramatov, Rozigul Umarova, Rashid Baratov, Mirshod Khasanov, Siroj Sultonov, & Fayzulla Kushakov (2022). MODERN REQUIREMENTS FOR THE SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE AND ITS MANIFESTATION IN PRACTICE. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 582-586.
17. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 969-976.
18. Ramatov, Ж.С., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). XIX АСРДА ҲИНДИСТОНДАГИ ИЖТИМОИЙ – ФАЛСАФИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1070-1078.
19. Жўрабоев, Н. Ю., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Ҳ., & Хасанов, М. Н. (2022). КОНФУЦИЙЛИК ХУСУСИЯТЛАРИДАН ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ КЕНГАЙИШИ. *World scientific research journal*, 9(2), 37-42.

## ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОННИНГ СИЁСИЙ ТАҲДИДЛАРГА БАРДОШЛИЛИК ДАРАЖАСИ

Баратов Рашид Ўсарович

Тошкент давлат транспорт университети доценти

### АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада XXI асрга келиб мамлакатлар тараққиёти ташиқи сиёсатда ўзаро манфаатли ҳамкорликни изчиллик билан амалга ошириш энг муҳим масалалардан бир бўлиб қолмоқда. Ўзгараётган дунё иқтисодиёти, ижтимоий, сиёсий аҳволи айнан чуқур ўйланган ташиқи иқтисодий алоқаларга боғлиқ эканлиги очиб берилган.*

**Калим сўзлар:** *Сиёсат, таҳдид, таҳдидбардошлик, интеграция, ташиқи сиёсат, тамойил, ислоҳот, дипломатия.*

### ANNOTATION

*In this article, the development of countries by the 21st century is one of the most important issues for the consistent implementation of mutually beneficial cooperation in foreign policy. It was revealed that the changing economic, social and political situation in the world depends on carefully thought-out foreign economic relations.*

**Key words:** *Politics, threat, threat resistance, integration, foreign policy, principle, reform, diplomacy.*

2022 йил 28 январь куни “Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари” тамойили асосида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги **ПФ-60** сонли Фармони қабул қилинди. Тараққиёт стратегияси Ҳаракатлар стратегиясидан фарқли ўлароқ **7 та** (Ҳаракатлар стратегиясида **5 та** устувор йўналиш бор эди) устувор йўналиш ва **100 та** мақсадни ўз ичига олган вазифалар мавжуд. Йўналишларнинг мазмун-моҳиятига эътибор берилса, инсон ва унинг кадр-қиммати бирламчилиги яққол намоён бўлади. Биринчи устувор йўналиш “Инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш” деб номланган бўлиб, бу йўналиш **12 та** мақсадни ўз ичига олган. Иккинчи устувор йўналиш “Мамлакатимизда адолат ва қонун устуворлиги тамойилларини тараққиётнинг энг асосий ва зарур шартига айлантириш” бўлиб, бу йўналиш **8 та** мақсаддан иборат, **3.** Учинчи устувор йўналиш “Миллий

иктисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш” дейилади ва у 16 та мақсад асосида амалга оширилади. Тўртинчи устувор йўналиш “Адолатли ижтимоий сиёсат юритиш, инсон капиталини ривожлантириш” айнан инсонларни фаровон яшашига бағишлангани эътиборга олиниб, 34 та мақсадни ўз ичига олган. Бешинчи устувор йўналиш эса “Маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш” деб номланган ва 8 та мақсадни қамраб олган. Олтинчи устувор йўналиш “Миллий манфаатлардан келиб келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш” дейилади ва 10 та мақсаддан иборат вазифалар кўйилган. Ва ниҳоят мавзуимизнинг марказида бўлган еттинчи устувор йўналиш “Мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб бориш” деб номланган ҳамда ушбу йўналишни амалга ошириш учун 12 та мақсад илгари сурилган.

Мазкур 12 та мақсадларни таҳлил этадиган бўлсак, мамлакатимиз мудофаа қобилиятини кучайтириш, мамлакатни халқаро муносабатлардаги тенг ҳуқуқли субъект сифатидаги ролини ошириш, Марказий осий давлатлари билан яқин қўшничилик алоқаларини юқори даражага олиб чиқиш, жаҳон ҳамжамиятида мамлакат имиджини юксалтириш, ташқи сиёсий ва иқтисодий алоқаларда халқаро ҳамкорликнинг шартномавий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш каби устувор вазифаларни кузатиш мумкин. Мамлакатимизни истиқболда тараққий этишида ташқи ва ички таҳдидлар мавжудки, бундай мақсадлар белгилаб қўйилган.

Кейинги йилларда эътибор берилса, юртимизда инсон ва унинг фаровон турмушига қаратилган ислохотлар кенгаётганига гувоҳ бўламиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2023 йилни — **«Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»** деб ном берилди. Зеро, халқ бой бўлса, мамлакат барқарор ва қудратли бўлади. Афсуски, мамлакатимиз турли таҳдидлардан холи эмас. Айниқса, кейинги пайтда дунёда содир бўлаётган воқеалар кўпчиликти ўйлантираётгани турган гап.

“Таҳдид” феномени, унинг сиёсий жиҳатлари сайёрамизнинг турли мамлакатларида ижод қилаётган замондош таҳлилчилар ҳамда сиёсий ва жамоат арбобларининг эътиборини ҳам ўзига тортиб келмоқда. Шу жумладан, Рейшауер, Нибур, Хантингтон, Киссинжер (АҚШ), Тойнби (Англия), Турен (Франсия), Моисеев (Россия), қолаверса “Рим клуби” ва Пагуош тинчлик ҳаракати каби илмий-амалий муассасалар раҳбарлари ва фидоийлари фаолиятини мисол тариқасида келтириш мумкин. “Таҳдид” тушунчаси тўла



маънода сиёсий лексиконга Президент И.Каримов томонидан 1994-йил 22-сентябрда сўзлаган нутқида биринчи бор киритилди.

12. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
13. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
14. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131.
15. Баратов, Р. Ў. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 90-95.
16. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In

ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 51-54).

17. Baratov, R., & Uzbekova, S. (2022). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING. *World scientific research journal*, 4(2), 7-11.

18. Baratov, Rashid, and Sadokat Uzbekova. "INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRODUCTION IN THE PROCESS OF TRAINING." *World scientific research journal* 4.2 (2022): 7-11.

19. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.

20. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sulstonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 591-597.

21. Baratov, R., Nuriddinov, S., Tokhtaboev, E., & Achilova, G. (2022, June). "One belt-one road" initiative-as a modern transport logistics. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030058). AIP Publishing LLC.

## “BADOE’ UL-BIDOYA” DEBOCHASIDAGI IJODIY TAMOYILLARNING “XAZOYIN-UL MAONIY” DAGI AMALIY IFODASI

**Quysinova Shahnoza Mustafiqul qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

2-kurs magistranti

Quysinovashahnoza@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, davlat va jamoat arbobi Mir Alisher Navoiy bir nechta devonga tartib berganlar. Shundan shoirning o‘zi tartib bergan devonlaridan biri bo‘lgan “Badoe’ ul-bidoya” devoni debochasida devon tartib berish mezonlarini sanab o‘tganlar. Devon tartib berish jarayoni ham bir necha bosqichlarni qamrab olib, ijodkorning salohiyatini belgilab bergan. Bunda bevosita aruz ilmi, arab alifbosi asosiy rolni bajargan. Ushbu maqolada devon tartib berishning birinchi qoidasi ya’ni, devon g‘azallar bilan boshlanmog‘i, arab alifbosidagi yigirma sakkizta harf va fors-tojik tilidagi yana to‘rtta harfni qo‘shgan holda o‘ttiz ikki harf bilan tugallanmog‘i lozim. Ushbu qoidaning to‘rt devondan iborat bo‘lgan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchisi “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida qanchalik amal qilinganligini ko‘rib o‘tamiz.*

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Badoe’ ul-bidoya”, “Xazoyin ul-maoniy”, arab alifbosi, g‘azal, devon.

### АННОТАЦИЯ

*Мир Алишер Навои, видный деятель узбекской литературы, государственный и общественный деятель, заказал несколько диванов. В предисловии к дивану «Бадое’ уль-Бидая», являющемуся одним из диванов, заказанных самим поэтом, перечислены критерии заказа дивана. Процесс наведения порядка охватывает несколько этапов и определяет потенциал художника. В этом главную роль сыграла наука об арузе и арабском алфавите. В этой статье первое правило расположения дивана состоит в том, что диван должен начинаться газелями и заканчиваться тридцатью двумя буквами, в том числе двадцатью семью буквами арабского алфавита и еще четырьмя буквами персидско-таджикского языка. Насколько далеко применяется это правило, мы увидим в первом сборнике «Хазайн ул-Маани», состоящем из четырех диванов, «Гараиб ус-сигар».*

**Ключевые слова:** Алишер Навои, «Бадое’ ул-Бидая», «Хазайн ул-Маани», арабский алфавит, газель, диван.

## ANNOTATION

*Mir Alisher Navoi, a prominent leader of Uzbek literature, a statesman and public figure, ordered several sofas. The preface to the sofa « Badoe 'Ul-Bidaya », which is one of the sofas ordered by the poet himself, lists the criteria for ordering a devan. The process of putting things in order covers several stages and determines the potential of the artist. The science of the aruz and the Arabic alphabet played a major role in this. In this article, the first rule of the sofa is that the sofa should start with gazelles and end in thirty-two letters, including the twenty-eight letters of the Arabic alphabet and four more letters of the Persian-Tajik language. How far this rule is applied, we will see in the first collection « Khazayn St. Maani », consisting of four sofas, « Garayb usz-sigars ».*

**Keywords:** *Alisher Navoi, « Badoe St. Bidaya », « Khazayn St. Maoni », Arabic alphabet, gazelle, sofa.*

## KIRISH

Mumtoz adabiyotimizdagi o‘lmas, durdona asarlar muallifi Alisher Navoiy buyuk tarixchi Sharafidin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan va Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan ijodkordir. Navoiy qalamiga mansub asarlar ikki (turkiy va fors-tojik) tilning bitmas-tuganmas xazinasidir. Turkiy tilda ko‘p va xo‘p aytgan [2], merosi nazm va nasrda yaratildi. Boy merosini to‘plab bir nechta devon tartib berganlar. Devon tartib berish shoirdan ulkan mashaqqatni talab etgan. Asosan, devon mudariyasi vazifasini debocha bajargan. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda barcha asarlar an’anaviy muqaddima bilan boshlanib, ular maxsus istiloh- “debocha” atamasi bilan yuritilgan. Debocha istilohi keng ma’noda umuman muqaddimani, tor ma’noda esa devonlarga yoziladigan kirish so‘zlarini anglatgan. O‘zbek adabiyotida Navoiy debochalari va ularga qo‘yilgan masalalar to‘g‘risida birinchi marta fikr bildirgan adabiyotshunos olim A.Hayitmetovdir. Olim o‘z tadqiqotida Alisher Navoiy adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganishda shoir debochalarining o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ulug‘ shoir har bir ishda katta mas’uliyat bilan yondashganlar. Devon tartib berishning bir necha qoidalari bo‘lib, o‘zining “Badoe’ ul-bidoya” devoni debochasida keltirib o‘tganlar. Shoir debochada devonni tartib berish jarayonidagi o‘ziga xos jihatlarni, ya’ni devon tuzish tamoyillarini bayon etishga alohida to‘xtaladi. Navoiy yozadi: “Bu devon, inshoolloh, bu zobita bilakim mazkur bo‘lur, murattab bo‘lg‘ay, ihyo topgay. Necha nav’ ishkim, munda mar’iy bo‘lubturur, o‘zga

davovinda ko‘rulmaydurur” {3}. Faqat Navoiy devoni uchun xos bo‘lgan va boshqa devonlarda uchramaydigan xususiyatlar shoirning devon tuzish tamoyillarini belgilab beradi. Birinchi tamoyil, Navoiyning yozishicha, “Avval budurkim, har kishikim, devon tartib qilibdurur, o‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqe‘durur va ulus kitobatida shoyi’ to‘rt harfg‘a taarruz qilmaydururlar. Chun so‘z arusi nazm haririning matbu’ kisvatin va mavzun xil’atin kiyib, jilva og‘oz qilsa, huqqai yoquti dag‘i o‘ttuz ikkita gavhardin qachonkim to‘rtig‘a nuqson voqi’ bo‘lsa, muqarrardurkim, jamolig‘a andin qusur va kalomig‘a andin futur voqi’ bo‘lg‘usidurur. Bul jihatdin ul to‘rt xarf javohirlarin dag‘i o‘zga huruf javohiri silkig‘a tortib, g‘azaliyotni o‘ttuz ikki harf tartibi bila murattab qilindi” {3}. Bu o‘rinda Navoiy devon tartib bergan shoirlar arab-fors alifbosidagi 32 harfning to‘rttasi bilan tugallanuvchi g‘azal bitmasliklarini ta’kidlaydi va o‘z devonidagi g‘azaliyot qismining “o‘ttiz ikki harf tartibi” bilan tasnif qilinganligini bayon etadi. Adabiyotshunos olim Yoqubjon Is‘hoqov Navoiy tilga olgan 4 ta harf forsiy va turkiyga xos ( چ – chim, ج – je, گ – gof va ل – lom-alif) harflar ekanligi, bu harflarga Navoiy qator g‘azallar bag‘ishlaganligini ta’kidlaydi {6}. Shu munosabat bilan “Badoe’ ul-bidoya” devonini ko‘zdan kechirganimizda, ( چ chim) harfida 5 ta, ( ج je) harfida 1 ta, ( گ gof) harfida 21 ta g‘azal borligi ma’lum bo‘ldi. ( ل lomalif) harfida bitilgan g‘azallar esa “Navodir un-nihoya” va “Xazoyin ul-maoniy” devonlariga kiritilgan {5}. Olima F. Karimovanning taxminicha, Navoiy ta’kidlagan to‘rtinchi harf forsiy va turkiyga xos (pe) harfi bo‘lishi kerak. “Badoe’ ul-bidoya” da bu harfda 1 ta g‘azal mavjud {5}. Umuman olganda, Alisher Navoiy o‘zidan avvalgi o‘tgan shoirlarning devonlaridagi kamchilikni tuzatgan, ya’ni alifbodagi 32 ta harfning barchasida go‘zal g‘azallar bitib, o‘z devonining bu jihatdan mukammal bo‘lishiga erishgan. Adabiyot tarixidagi dastlabki devonlar, jumladan, fors-tojik shoirlari Unsuriy, Farruhiy, Manuchehriylar, shuningdek turkiy shoirlar Sakkokiy, Hofiz Xorazmiylarning devonlari g‘azal bilan emas, balki qasida bilan boshlangan. Bu davrdagi qasidalarda shoirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy mazmundagi qarashlari ham aks etdi. Shuningdek, forsiy adabiyotda qasidalar shoirning badiiy mahoratini belgilashda muhim omillardan sanalgan va shu tufayli ko‘pchilik shoirlar qasida janrida ijod qilganlar. O‘sha davr adabiy muhitida qasida janrining rivojlanganligi sababli ularning devon boshida berilishi an’anaviy holatga aylandi. Shuningdek, shoir devonidagi g‘azallarni joylashtirishda ham ma’lum bir tamoyilni qo‘llaydi. Bu tamoyilni Navoiy debochada shunday ta’riflaydi: “Yana bukim, har harf g‘azaliyotining avval bitilgan g‘azal bila o‘zga g‘azallar orasida uslub xaysiyatidin tafovut rioyat qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq subhonahu va taolo hamdidin yo Rasul alayhissalom na’tidin, yo bu ikki ishga dalolat



qilurdek bir amrdin gʻofil boʻlmogʻliq avlodurur. Bu navʻ xayole xotirgʻa kelgan uchun har harf gʻazaliyotining avvalgʻi gʻazalini yo Tangri taolo hamdi bila muvashshah, yo rasul alayhissalom naʻti bila mufattah, yo bir mavʻiza bilakim, bu ikki ishdin biriga dol boʻlgʻay, muvazzah qilindi” (21-bet). Koʻrinadiki, Navoiy devon tuzishda uning umumiy kompozitsiyasiga katta eʻtibor beradi, shu bilan birga, har bir harf gʻazaliyoti kompozitsiyasining ham mukammal boʻlishini taʻminlaydi. Yaʻni birinchidan. devonning, ikkinchidan, har bir harf gʻazaliyotining dastlabki gʻazallari yo Tangri taolo madhiyasi bilan, yo Muhammad paygʻambar maqtovi bilan boshlanadi yoxud orifona ruhdagi gʻazallardan tarkib topadi. Har bir shoir oʻz gʻoya va qarashlarini kitobxonga yetkazish maqsadida eng tez tarqaladigan, eng mashhur janrga murojaat qiladi. Navoiy uchun keng xalq ommasiga maʻqul va manzur janr gʻazal edi. Shoir oʻzining odam, olam haqidagi falsafiy qarashlarini ham shu janrda berishga intildi. Bunday xarakterdagi gʻazallarini oʻz dunyoqarashidan kelib chiqqan holda devon boshida va har bir harf gʻazaliyotining avvalida joylashtiradi {5}. Alisher Navoiy qasida devon tarkibida emas balki, alohida muqova, jild boʻlmogʻini aytib oʻtgan. Yaʻni masnaviy bilan qasidalar boshqakim, ular alohida tom boʻlgʻay. Devonda turli navdagi sheʻrlar masalan, barcha jon bagʻishlovchi muxammaslar besh ziynatli va jon kabi musaddaslar olti ziynatli; barcha nafli ruboiylar latofatli va nafli qitʻalar manfaatlidir. Va barcha yoqimli mustazodlar vasfi ziyoda; tengsiz fardlar lutfdan tanho va barcha nomiy muammolar nom yashirmoqda usta; va aziz lugʻzlar barchaning maftunligi oshkor; va bir-biriga zanjir kabi ulangan tarjibandlar bari sevimli; va moʻtadil tuyuqlar barchasi turkiy uslub ila adabiyotda faraz va sheʻrda voqeʻ boʻldi. Maqsad shuki, yoqimli, chiroyli bitmoq. Debocha shuning uchun yozildikim: kishi saltanatda bino qurar ekan, uning peshtoqida ismini yozadi. Qachonki binoga qalbini bagʻishlasa, shunda uning ismi boqiy boʻladi [1]. Yuqorida sanab oʻtilgan mezonlardan birinchi qoida yaʻni arab alibosiga oid tartibni toʻrt devonni oʻzida jamlagan “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining birinchi devoni “Gʻaroyib us-sigʻar” devoni misolida koʻrib oʻtamiz.

Bilamizki, “Gʻaroyib us-sigʻar” devonida eng koʻp qoʻllanilgan janr gʻazal janri boʻlib, 650 tadan joylashtirilgan. Qolgan janrlar tartibi quyidagicha: ruboiy 133ta, qitʻalar-50ta, masnaviy-1ta, tarjiband-1ta, musaddas-1ta, muxammaslar-1ta, mustazod-1ta. Devon,

*Ashraquat min aksi shamsil-kaʻsi anvorul hudo,*

*“Yor aksin mayda koʻr” deb, jomdin chiqdi sado - gʻazali bilan boshlanib;*

*Til soʻz bila to qizitti hangomani,*

*Bir ham tiya olmadim bu xudkomamni.*

*Har necha itikrak ayladim xomamni,*

*Ul xoma qaroroq ayladi nomamni-* ruboiysi bilan yakun topadi. Devon kulliyotning birinchi devoni bo'lgani uchun debocha yozilgan, lekin xotima berilmagan. Ya'niki keyingi devonlar mantiqiy davomidir. To'rtala devon yaxlitlikda bitta yirik asarni tashkil etadi. Debocha birinchi devonda berilgan bo'lsa, xotima so'nggi devonda keltirilgan. Endi g'azallarning joylashtirilishi haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagicha:

Alif harfining ofatlarining ibtidosi 1-39 -gacha;

Be harfining balolarining bidoyati 40-66- gacha;

Pe harfining parivashlarining parvozi 67-68- gacha;

Te harfining torojgarlarining tomoshosi 69-88-gacha;

Se harfining samin gavharlarining samasarasi 89-91-gacha;

Jim harfining jamilalarining jilvasi 92-95-gacha;

Chim harfining chobuklarining chehragushoylig'i 96-100-gacha;

He (hoye ho'tte) harfining haromiylari husnoroylig'i 101-106-gacha;

Xe harfining xo'blarining xiromi 107-113-gacha;

Dol harfining diloromlarining davroni 114-128-gacha;

Zol harfining zavuyu-hayotlarining zufununlug'i 129-131-gacha;

Re harfining ra'nolarining rustoxezi 132-198-gacha;

Ze harfining zebolarining ziynati 199-222-gacha;

Sin harfining siymbarlarining savdosi 223- 241-gacha;

Shin harfining sho'xlarining shamoyili 242-270-gacha;

Sod harfining sanamlarining siyti 271- 275-gacha;

Zod harfining zamyuronbo'ylarining ziyosi 276-279-gacha;

Te harfining tanozlarining tarovati 280-283-gacha;

Ze harfining zariflarining zuhuri 284- 287-gacha;

Ayn harfining iyorlarining alomati 288-294-gacha;

G'ayn harfining g'izolalarining g'avg'osi 295-302-gacha;

Fe harfining fitnalarining fusuni 303-308-gacha;

Qof harfining qiyomatlarining qironi 309-321-gacha;

Kof harfining kofirlarining kamoli 322-363-gacha;

Lom harfining lu'batlarining latoyifi 364-392-gacha;

Mim harfining mahbublarining malohati 393-437-gacha;

Nun harfining nozaninlarining nozi 438-505-gacha;

Vov harfining vallohiyyat afzolarining vaqoyii 506-520-gacha;

He (hoye havvaz) harfining humoyunvashlarining halokangizlig'lari 521-572-gacha;

Lomalifning lolaruxlarining lobasi 573-574-gacha;

Yo harfining yag‘molarining yuz ko‘rguzmaklari 575-650-gacha bo‘lgan tartibda joylashtirilgan. Yuqorida sanab o‘tganlarimizdan ko‘rinib turibdiki, harflar soni 31ta va har bir harf o‘z sarlavhasiga ega. Ammo bir Gof harfi sarlavhaga ega emas. Lekin ushbu harf bilan tugaydigan g‘azal kof tarkibida berilgan. ”G‘aroyib us-sig‘ar” devonini xulosalaymiz:

- 1- Arab alifbosidagi 28ta hamda چ-chim , je-ژ, گ-gof, va ل-lom-alif harflari bilan 32 harfda tugaydigan g‘azallar berilgan;
- 2- Devon g‘azal janri bilan boshlangan;
- 3- G‘azallar birinchi hamd, so‘ng na‘t ma‘viza ... tarkibdadir;
- 4- Mavzulari jihatidan g‘azallar rango-rang;
- 5- Janrlar hajm jihatidan ketma-ketlikda joylashtirilgan;
- 6- Devon tarkibida qasida uchramaydi.

### **XULOSA**

Navoiyning yuqoridagi qaydlarini chuqur o‘rganish, tadqiq qilish shoirning ilmiy va badiiy ijod sohasidagi san‘atkorligining muhim qirralarini ochib beradi. Shoir devonidagi she‘rlarni chuqur o‘rganishda esa zarur ko‘rsatmalar vazifasini bajaradi. {5} Navoiy bobomiz “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida insoniylikning eng oliy mezoni bu – porsolik (taqvodorlik), pokdomonlik va haqiqatsevarlikdir, deya e‘tirof etgan. “Komil inson” g‘oyasi ham hamma zamonlarda birdek targ‘ib etilgan. Alisher Navoiyning asrlar oshgan asarlari bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega.

### **REFERENCES**

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami, uchinchi tom, Xazoyin ul-maoniy, G‘aroyib us-sig‘ar, Toshkent- 1988
2. Z.M. Bobur Boburnoma. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti T-1960.
3. Alisher Navoiy “Badoe’ ul-bidoya” MAT. 20 jildlik-T.: Fan, 1987. T.1.
4. Navoiyshunoslik (1-kitob) Darslik, “Tamaddun” Toshkent-2018.
5. Qurbonova Saodat Navoiy debochalari poetikasi (“Badoe’ ul-bidoya” va “Xazoyin ul-maoniy” debochalari misolida) Bitiruv malakaviy ishi, Toshkent-2018
6. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
7. <http://Library.navoiy-uni.uz>

## **DEVIANT XULQLI YOSHLAR BILAN ISHLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Axrarova Nigora Sobirovna**

assistent, “O‘zbek (rus) tili” kafedrası  
Toshkent davlat transport universiteti

**Abdukadirova Shaxnoza Gafarovna**

assistent, “O‘zbek (rus) tili” kafedrası  
Toshkent davlat transport universiteti

**Nazarova Nilufar Jo‘rayevna**

katta o‘qituvchi, “Ijtimoiy fanlar” kafedrası  
Toshkent davlat transport universiteti

**Abdurahmonova Saxibaxon Abdusalamovna**

assistent, “O‘zbek (rus) tili” kafedrası  
Toshkent davlat transport universiteti

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada yoshlar ijtimoiy guruhi ekanligi, murakkab ko‘rinishga ega tabaqa va qatlam sifatida o‘zini namoyon etayotganligi yoritilgan. Shu boisdan ham bugungi kundagi deviant (og‘ish) yoshlar, ularning muammolari va ularni hal etish masalalari tahlili keltiriladi.*

***Kalit so‘zlar:** yoshlar, ijtimoiy guruh, huquq va erkinliklar, xulqiy og‘ish, ijtimoiy-psixologik omil, kognitiv va affektiv, patologik klinik xususiyat, yosh va jins.*

### **ABSTRACT**

*The article highlights the fact that youth is a social group, manifesting itself as a class and stratum with a complex appearance. Therefore, the analysis of today's deviant youth, their problems and their solutions is presented.*

***Key words:** youth, social group, rights and freedoms, behavioral deviation, socio-psychological factor, cognitive and affective, pathological clinical feature, age and gender.*

### **KIRISH**

Yangi O‘zbekistonning kelajagini ta‘minlash uchun teran fikrli, bilimli, har jihatdan yetuk barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish jamiyatimiz hayotidagi ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Shu bois sabab mamlakatimizda yoshlar masalasiga alohida e‘tibor qaratib kelinayotganligini bu borada qabul qilingan yuzdan ortiq qonun hujjatlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yosh avlodning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga oid

qirqa yaqin xalqaro hujjatlarning ishtirokchisi ekani<sup>83</sup>, hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan uzluksiz ta'lim tizimi, bunyod etilgan zamonaviy o'quv maskanlari (maktab, akademik litsey va kasb-hunar maktablari), san'at va ijodiyot markazlari, madaniyat saroylari va uylari, jismoniy tarbiya va sport majmualari, madaniyat maskanlari yoshlarning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari va qolaversa, o'z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan keng imkoniyatlar sifatida baholash mumkin.

Biroq, xalqimizda “guruch ko'rmaksiz bo'lmaydi” deganlaridek, yoshlarga yaratilayotgan shuncha shart-sharoitlarga qaramasdan ular orasida tez-tez kuzatilayotgan noxo'sh voqea va hodisalar keng jamoatchilikni katta xavotirga solmoqda. Xususan, jinoyatga oida statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, jumladan, “2020 yil 10 oylik natijalari bo'yicha respublikada 45 mingga yaqin jinoyat sodir etilgan bo'lsa, uning 37-38 foizi yoshlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. O'tgan yili esa bu natija 35 foizni tashkil qilgan”<sup>84</sup>. Bu ham katta ko'rsatkich.

Bu xususida Prezident SH.M.Mirziyoyev: “Bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak”<sup>85</sup> – deya ta'kidlagan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisi tarkibida 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar, ya'ni voyaga yetmaganlar aholining 40%dan ortig'ini tashkil etmoqda. Bu esa voyaga yetmaganlar orasida mavjud bo'lgan muammolarga alohida e'tibor qaratish, ularning yechimini topishni talab qiladi<sup>86</sup>. Demak, davlatimiz siyosatining asosiy maqsadi yoshlarimizning hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishi, munosib hayot tarziga ega bo'lishlari, jamiyatimizning kelajakda yanada gullab yashnashi uchun munosib farzand bo'lib, unib-ulg'ayishlari uchun zamin yaratishdan iborat.

Yoshlar ijtimoiy guruhi hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy hayotida murakkab ko'rinishga ega tabaqa va qatlam sifatida o'zini namoyon etmoqda. Shu boisdan ham bugungi kunda yoshlar va ularning mamlakatimiz hayotida tutgan o'rni, yoshlar muammolari va ularni hal etish masalalari davlat siyosati

<sup>83</sup> Яхшиев А. Ўзбекистонда ёшлар тарбияси ва вояга етмаганлар ҳуқуқларининг кафолатлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Маънавият”, 2013. –Б. 135-136.

<sup>84</sup> Ўзбекистонда ёшлар жиноятчилиги кўлами ортыпти. Сабаблар ҳақида таҳлилий суҳбат.

<https://kun.uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yoshlar-jinoyatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>

<sup>85</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 27 июль куни жиноятчиликнинг олдини олиш, давлат идоралари ва жамиятнинг бу борадаги масъулиятини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши 27.07.2018.

<sup>86</sup> Сатторов Ч., Маҳкамов Ф. Вояга етмаганлар орасида жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича қонун нормаларини такомиллаштириш масалалари. “Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Маънавият”, 2013. –Б. -124.



darajasida ahamiyat kasb etmoqdaki, buni quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

**Birinchi**dan, bu masala mamlakatimizning demografik holati bilan bogʻliqdir. Oʻzbekiston - yoshlar mamlakati. Oʻzbekiston aholisining oʻrtacha yoshi 24 yoshga teng. Bu XXI asr boʻsagʻasida mehnat zahiralari yuksak mehnat faolligi va kasb tayyorgarligi bilan ajralib turadigan odamlar koʻpchilikni tashkil etishga imkon beradi. Oʻzbekiston aholisi hozirgi davrda har yili oʻrta hisobda 500-600 ming kishiga koʻpaymoqda.

**Ikkinchi**dan, mustaqillikni mustahkamlash yoʻlida amalga oshiriladigan ishlar, sogʻlom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish, bugungi demokratik oʻzgarishlarning borishi, boshlangan islohotlarning taqdiri voyaga yetmagan yoshlarning maʼnaviy-mafkuraviy dunyoqarashi va salohiyati, madaniy-texnik darajasiga bogʻliq boʻladi.

**Uchinchi**dan, davlat va nodavlat tashkilotlari, boshqa siyosiy institutlar, oila, mahalla va umuman har bir shaxs oldiga millatning maʼnaviy tiklanishi, ulugʻ ajdodlarimizga munosib boʻlgan sogʻlom va barkamol avlodni, mustaqillik gʻoyalariga sodiq boʻlgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazishdek masʼuliyatli vazifalar qoʻyilmoqda.

**Toʻrtinchi**dan, hozirgi paytda roʻy berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojoʻya xatti-harakatlar va turli jinoyatchilik ishlari, avvalo ayrim yoshlarning aniq maqsadli faoliyat bilan band emasliklari yoxud atrofda sodir boʻlayotgan voqea va hodisalarga befarqlik, loqaydlik singari illatlar bilan bogʻliqdir. Bu esa muammoni ijtimoiy jihatdan tahlil etish va bu borada amaliy sotsiologik tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi [6,7,8,9,10,11,12,13,14,15].

Taʼkidlanishicha<sup>87</sup>, yoshlar oʻrtasida kuzatiladigan xulqiy ogʻish sabablarini oʻrganishda quyidagi vazifalar strukturasi eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Oilaviy tarbiyaning dezintegratsiya tizimi, ijtimoiy dezintegratsiyaning nomaqbul ijtimoiy-psixologik omillari, oʻsmirlik davriga xos xulq buzilishlari muammosining jahon sotsiolog va psixologlari tomonidan oʻrganilganini umumlashtirish.

2. Xulqiy ogʻishlarning kognitiv, kognitiv va affektiv jihatlarini, oilaviy tarbiya usullarini diagnostika qilish bilan bogʻliq metodikalar paketini yaratish va uni tatbiq etish.

3. Xulqiy ogʻishlarning patologik klinik xususiyatlari mexanizmlarini oʻrganish, ularning tipologiyasini tuzish, shuningdek xulq buzilishlarining turlarini tavsiflash.

<sup>87</sup> Тўлаганова Г.Қ. Девиант хулқ психологияси. –Тошкент “Университет”, 2014. –Б. 80-81.

4. Xulqiy og‘ishlar etiopatogenezida yosh va jins xususiyatlari shakllanishga mikroijtimoiy muhit ta‘sirini aniqlash.

5. Oilaviy tarbiya usullarining xulqiy og‘ishlar vujudga kelishidagi o‘rnini o‘rganish.

6. Xulqiy og‘ishlarning nazariy, metodologik, tashkiliy, metodik asoslariga tayangan holda korreksion chora-tadbirlar majmuasini yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, yoshlar o‘ziga xos ijtimoiy demografik guruh sifatida doimo bahs talab masala sifatida dolzarb mavzu bo‘lib qolaveradi, ikkinchidan, voyaga yetmagan yoshlar o‘rtasida kuzatiladigan deviant xulqni psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etish orqali amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishni nazarda tutish, uchinchidan voyaga yetmagan yoshlarga yo‘naltirilgan ijtimoiy xizmatlar tizimini joriy etish orqali ular o‘rtasida sodir bo‘lishi va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan deviant xulq-atvor muammolarining kelib chiqish sabablarini aniqlab, samarali bartaraf etish chora-tadbirlari amaliyotga qo‘llash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda qo‘yidagi taklifni berish mumkin:

1. Respublikamiz aholisini asosiy qismini yoshlar tashkil etishini e‘tiborga olgan holda, barcha maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari negizida “Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari”ni joriy etish orqali “Ijtimoiy ish xodim” shtatlarini joriy qilish.

2. O‘zbekiston milliy universiteti, Farg‘ona va Samarqand davlat universitetlarida “Ijtimoiy ish” bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida mutaxassis kadrlar tayyorlovchi yo‘nalish mavjud. Biroq bu mutaxassislarning aynan nima ish bilan shug‘ullanishi xususida keng jamoatchilikda tasavvur va tushunchalarni kengaytirish maqsadida, barcha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida “Ijtimoiy ish” degan maxsus kurslarni o‘quv rejaga kiritish maqsadga muvofiq.

3. Ma‘lumki, bugun joylarda ijtimoiy xizmat bilan bevosita shug‘ullanayotgan mutaxassis bo‘lmagan kadrlar mavjud. Ular uchun maxsus malaka oshirish markazlarini tashkil etgan holda joylardagi ijtimoiy muammo va masalalarni o‘rganish hamda samarali bartaraf etish yo‘llari, mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

## **REFERENCES**

1. Яхшиев А. Ўзбекистонда ёшлар тарбияси ва вояга етмаганлар ҳуқуқларининг кафолатлари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Маънавият”, 2013. –Б. 135-136.

2. Ўзбекистонда ёшлар жиноятчилиги кўлами ортяпти. Сабаблар ҳақида таҳлилий суҳбат. <https://kun.uz/news/2021/11/03/ozbekistonda-yoshlar-jinoatchiligi-kolami-ortyapti-sabablar-haqida-tahliliy-suhbat>
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 27 июль куни жиноятчиликнинг олдини олиш, давлат идоралари ва жамиятнинг бу борадаги масъулиятини ошириш масалаларига бағишланган видеоселектор йиғилиши 27.07.2018.
4. Сатторов Ч., Маҳкамов Ф. Вояга етмаганлар орасида жиноятчиликнинг олдини олиш бўйича қонун нормаларини такомиллаштириш масалалари. “Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Тошкент: “Маънавият”, 2013. –Б. -124.
5. Тўлаганова Г.Қ. Девиант хулқ психологияси. –Тошкент “Университет”, 2014. –Б. 80-81.
6. Ismoil o‘g‘li, A. A., Abdumannapovna, M. D., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH SAMARADORLIGI. PEDAGOG, 1(5), 610-614.
7. Shomansur o‘g‘li, S. S., Abdumannapovna, M. D., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). TARAQQIYOTNI TA‘MINLASHDA TA‘LIMNING O‘RNI. PEDAGOG, 1(5), 619-622.
8. Manapovna, G. Z., Abdumannapovna, M. D., & Jo‘rayevna, N. N. (2023). TRANSPORT SOHASIDA KADRLAR KASBIY KOMPETENSIYASINING ANAMIYATI. PEDAGOG, 1(5), 615-618.
9. Jo‘rayevna, N. N., & Abdumannapovna, M. D. (2023). MUTAXASSISLIK FANLAR MODULINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. PEDAGOG, 1(5), 605-609.
10. Дадашева, А. А. (2022). ПРАВО СВОБОДНО ПОЛУЧАТЬ И РАСПРОСТРАНЯТЬ ИНФОРМАЦИЮ–ВАЖНЫЙ ФАКТОР НЕПОСРЕДСТВЕННОГО ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ НАД ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ И УПРАВЛЕНИЯ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 14-19.
11. Saminjon o‘g‘li, M. S., & Jo‘rayevna, N. N. (2022). PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. PEDAGOG, 1(4), 105-108.

12. Jurakulov, N. S. O. G. L., Qurbonov, U. M. O. G. L., & Dadasheva, A. A. (2022). YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 312-315.
13. Инагамова, М. М. (2022). КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОХОТЛАРДА ИНСОН-ЖАМИЯТ-ДАВЛАТ МАСАЛАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 59-64.
14. Инагамова М. (2018). Реформы в системе органов внутренних дел и результаты взаимодействия семья - соседство - образовательное учреждение. Обзор законодательства Узбекистана, (2), 69–71. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/uzbek\\_law\\_review/article/view/12794](https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/12794)
15. Inagamova, M. M., & Rahmatullayev, R. I. O. (2022). KONSTITUTSIYA KELAJAGIMIZNING HUQUQIY KAFOLATIDIR. Academic research in educational sciences, 3(TSTU Conference 2), 336-341.

## **ZAMONAVIY PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODLARI**

**Amanlikova Nafisa Raxmatullayevna**

Toshkent davlat transport universiteti

v. b. dotsent

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada zamonaviy pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlardan unumli foydalanish hamda sifatli ta'lim berish va o'z navbatida pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liqligi haqida to'xtalib o'tilgan. Maqolada ta'lim-tarbiya jarayoni alohida o'ringa ega ekanligi hamda hozirgi zamonaviy pedagogning egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentlik, pedagogning mahorati haqida to'xtalib ilmiy jihatdan yoritilib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Kompetentlik, o'zini o'zi tahlil qilish, autokompetentlik, ekstremal kasbiy kompetentlik, dars berish mahorati, nazariya, pedagogika, o'zini o'zi baholash, metodika.*

### **ANNOTATION**

*In this article, the development of the professional competence of a modern pedagogue is focused on the effective use of methods and quality education and, in turn, the dependence of the professional skills of the pedagogue. In the article, the educational process has a special place, and the professional competence and skills of the modern pedagogue are highlighted scientifically.*

**Key words:** *Competence, self-analysis, auto-competence, extreme professional competence, teaching skills, theory, pedagogy, self-assessment, methodology.*

### **KIRISH**

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy sog'lom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish



qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Ta'lim tarbiya tizimining umumiy maqsadi jamiyatimizga teng huquqli demokratik davlat talablariga javob bera oladigan mas'uliyatli barkamol jamiyat a'zolarini tabiiy berishdan iboratdir.

#### **PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI.**

Pedagogning kasbiy kompetentligi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o'ziga xos jihatlari o'zgarib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni bugungi kunda pedagoglarning ta'lim berish samaradorligini oshirish va amalga oshirishi kerak bo'lgan bir qator talablar qoydi. Ular quyidagilarni tashkil etishi lozim:

- 1.Dars berish mahorati
- 2.Tarbiyalash mahorati
- 3.O'quv-tarbiyaviy jarayonlardainsonparvarlik tamoyillariga yondashuvni ta'minlaydigan shaxsiy sifatlar
- 4.Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolis nazorat qilish va baholash mahorati

Kasbiy faoliyat jarayonida zamonaviy o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs hayotiga hamda uning ijtimoiy rivojlanishiga ma'lum bir darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning bosh go'yasi – shaxsning turli hil sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy- ma'naviy rivojlanishidir. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan avval ushbu tushunchaning asl mohiyatini, shundan so'ng esa uni takomillashtirish yo'llarini bilish lozim.

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

Kompetensiya (lotincha Competentio dan Competo-ga erishaman, uchrashaman, mos kelaman) - bu mutaxassisning ma'lum darajadagi kasbiy muammolarni hal

qilishdagi shaxsiy bilish qobiliyatidir. Shuningdek, kompetensiya deganda ma'lum bir tashkilot, kompaniya xodimlarining (yoki ayrim xodimlar guruhining) shaxsiy, kasbiy va hokazo fazilatlariga rasmiy ravishda tavsiflangan talablar tushuniladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni oshirish uchun kerak bo'lgan bilimlarning, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni o'z faoliyati davomida munosib qo'llay olishidir. O'qituvchi albatta, alohida bilim ko'nikmalarni egallashi bilan birga, ma'lum bir mustaqil yo'nalish bo'yicha bilimlar va harakatlarni o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Demak, kasbiy kompetentlik pedagogdan mutaxassislik bilimlarini boyitib borish, yangi axborotlarni kuzatib ularni qo'llay bilish, izlanuvchanlik va yangi bilimlarni qayta ishlab o'z faoliyatiga qo'llay olish mahoratini ham talab etadi.

K. Angelovski o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tuzilishini pedagogik mahorat orqali aniqlaydi.

Pedagogik mahorat bu yerda to'rt guruhga ajratiladi:

1. Ta'limning obyektiv jarayoni mazmunini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati: shaxs va jamoani o'rganish, shu asosda yangi bilim va dizaynni faol o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash, jamoani rivojlantirish va alohida talabalar; ta'lim, tarbiya va rivojlantirish vazifalari kompleksini aniqlash, ularni konkretlashtirish va ustun vazifani belgilash.

2. Mantiqan tugallangan pedagogik tizimni qurish va yo'lga qo'yish qobiliyati: o'quv vazifalarini kompleks rejalashtirish; uni tashkil etish shakllari, usullari va vositalarini asosli tanlash.

3. Ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish, ularni amalda qo'llash qobiliyati: zarur sharoitlarni yaratish (moddiy, axloqiy, psixologik, tashkiliy va boshqalar); talaba shaxsini faollashtirish, uning faoliyatini rivojlantirish;

4. Pedagogik faoliyat natijalarini qayd etish va baholash qobiliyati: o'quv jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini introspeksiya qilish va tahlil qilish; dominant va bo'ysunuvchi vazifalarning yangi to'plamini belgilash. O'zbekistonda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va uning o'ziga xos jihatlari tog'risida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. B. Nazarova olib brogan tadqiqotlarga ko'ra kasbiy kompetentlik quyidagi tarkibiy asoslardan tashkil topadi:

- Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish).

- Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik).

- Autokompetentlik (o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish).

• Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish). Yuqoridagi tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytganda mutaxassis ta'limni tashkil etish jarayonida yuqori darajada bilimga ega bo'lishi, o'zini ustida ishlab rivojlantira olishi va har qanday kutilmagan holatlarda ulardan chiqish yo'lini bilishi zarur ekan.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o.,quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o.,quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi:

Ta'limda umummaqsadning qo'yilishi;

tuzilgan umummaqsaddan aniq maqsadga o'tish; o'quvchilarning bilim darajasini dastlabki (tashxisli) baholash;

Ta'limga texnologik yondoshuv. Tarbiyalash texnologiyasi - nisbatan yangi atama bo'lishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Tarbiyalash texnologiyasi yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarning g'oyasi, mazmuni, tarkibini emas, balki bu sohadagi hukumat ishlab chiqqan maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Tarbiyalash texnologiyasi mo'ljallangan tarbiyaviy maqsadga samarali erishuvni ta'minlovchi vositalar majmuasini ko'rib chiqadi. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama rivojlangan yuqori intellektual va ma'naviy barkamol fuqaro shaxsini shakllantirishga qaratilgan talabalarni hukumat siyosatiga muvofiq tarbiyalash texnologiyalarini egallashi dolzarbdir.

Zamonaviy tarbiyalash texnologiyasi - har tomonlama yondoshuvni amalga oshiradi va quyidagi majburiy talablarga rioya qiladi; Tarbiyalanuvchilarga 3 yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi - tafakkuriga, sezgilariga va xulqiga.

Shaxsning ma'lum sifatlari amaldagi tarbiyaviy ishlar majmui orqali hosil qilinadi. Bu ishlar yaqqol ko'rinishdagi ko'p yoqlik bo'lishi, bir vaqtning o'zida aqliy, jismoniy, xulqiy, estetik va mehnat tarbiyasini uzviyligi asosida olib borishi zarur. Har yoqlama yaxlit tarbiyaviy yondashuv tarbiyachining tizimli munosabatini va boshqaruvini taqoza qiladi. Boshqaruv tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi tashqi va ichki omillarni va ularning o'zaro ta'sirini inobatga olingandagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Shu bois, u omillar haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda talabalarni axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan amaliy mashg'ulotlarda foydalanishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish bo'yicha rejalarini aniq belgilashiga erishishni ularning ichki ehtiyojiga aylantirish talab etilganligini ko'ramiz.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har tomonlama yetuk intellektual rivojlangan, ijtimoiy sifatlar bilan tarbiyalangan, milliy va ma'naviy qadriyatlarga sadoqatli, yangicha fikrlaydigan, o'z shaxsiy va fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy mafkuraning barcha sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. O'RQ-637 23.09.2020
2. Abdurahmonova Z.A "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammolari" (Konferensiya materiallari to'plami)- 2016
3. Baltaeva, A., Amanlikova, N., & Ataxanova, N. (2022, June). Computer interaction with students in language teaching. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060025). AIP Publishing LLC.
4. Аманликова, Н. Р. (2022). ЎЗБЕК ТИЛИДА СИФАТГА ОИД ЛЕКСЕМАЛАРНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАДҚИҚИ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(2), 233-236.
5. Abdazimov, S., Amanlikova, N. R., & Adylhodzhaev, I. (2020). KEY ACTIONS TO IMPROVE SUSTAINABILITY OBJECTS OF RAILWAY TRANSPORT. *Theoretical & Applied Science*, (2), 728-732.
6. Amanlikova, N. R. (2022, December). MAQSUD SHAYXZODA VA ODIL YOQUBOVNING TARIXIY ASARLARIDA MIRZO ULUG 'BEK OBRAZI TALQINI. In *Conference Zone* (pp. 263-265).

7. Rakhimboevna, I. O., Rakhmatullaev, A. N., & Rakhmatovich, Y. S. (2022). Technology Of Teaching Text Editing In Language Teaching. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 4323-4327.
8. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
9. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyar Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." *European Journal of Molecular and Clinical Medicine* 8.1 (2021): 1388-1396.
10. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
11. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 86-88.
12. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 203-205.
13. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
14. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
15. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). *International Journal on Orange Technologies*, 3(3), 128-131



## **BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNOLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH**

**Umbarova Nasiba Xolboy qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi ”  
kafedrasida stajyor o’qituvchisi  
[umbarovanasiba96@gmail.com](mailto:umbarovanasiba96@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Boshlang’ich sinif texnologiya darslarining asosiy shakli bu – amaliy mashg’ulot hisoblanadi. Mashg’ulot davomida texnologiya ta’limiga oid atamalardan ham foydalanildi, atamalar o’quvchilarga tushunarli bo’lishi uchun darsliklarda har bir atamaning izohi keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:** Texnologiya, amaliy mashg’ulot, robototexnika, konstruktor, lego, shablon, trafaret, panno, eskiz, model, maket, badiiy qurish-yasash, loyihalash va modellashtirish.*

### **ABSTRACT**

*The main form of elementary school technology lessons is practical training. Terminology related to technology education was also used during the training, and the explanation of each term is given in the textbooks so that the terms are understandable to the students.*

***Keywords:** Technology, practical training, robotics, constructor, lego, template, stencil, panel, sketch, model, layout, artistic construction, design and modeling.*

### **KIRISH**

Texnologiya fani mashg’ulotlari o’quvchilar ijodkorliklarining rivojlanish omillaridan biridir, ya’ni texnologiya darslari o’quvchilarda ijodkorlik, yaratuvchanlik kabi fazilatlarni shakllanishi, o’quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o’z-o’zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o’z vaqtida topish, o’z- o’ziga talabchan bo’lish, maqsadga intilish, mustaqil ishlash kabi xislatlarni namoyon bo’lishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Biz bilamizki boshlang’ich sinflarda texnologiya darslari amaliy tarzda o’tkaziladi va dars jarayonida o’quvchilar ham amaliy ham nazariy bilim, ko’nikma va malakalarni egallab boradilar. Boshlang’ich sinif texnologiya darslarining asosiy shakli bu – amaliy mashg’ulot hisoblanadi. Amaliy mashg’ulot deganda o’quvchilarning o’quv materialini faol ongli va mustahkam o’zlashtirish maqsadida mehnat o’qituvchisi rahbarligida amalga oshiriladigan ham jamoa, ham yakka tartibdagi ish turlarini o’z ichiga oladigan o’quv mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak. Texnologiya ta’limida amaliy

mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar har bir topshiriqni amalda bajaradilar, o'qituvchi ularga zarur vaqtda ko'rsatma beradi va nazorat qilib baholab boradi va jarayonda ishtirok etadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o'z ichiga oladi:

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.

2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to'liq tarzda oldingi amaliy ishlarga asoslanishi lozim.

3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak.<sup>88</sup>

Amaliy mashg'ulot jarayonida har bir topshiriq oddiydan murakkabga qarab Boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.

2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.

3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash

a) plastilin va loy ishi;

b) urug'lar bilan ishlash;

d) applikasiya va mozaika ishlari;

4. Loyihalash va modellashtirish;

a) badiiy qurish-yasash.

5. Qishloq xo'jalik mehnati.

Yuqorida keltirilgan ish turlari boshlang'ich sinflarning to'rttala bo'g'iniga ham tegishli bo'lib har bir sinf doirasida mavzulashtirilgan tartibda berilgan. Texnologiya darslarida o'quvchilarga mavzuni yoritib berish vaqtida o'qituvchi albatta texnologiya faniga oid atamalar va lug'atdan foydalanadi. O'quvchi bir darsda bitta yoki ikkita lug'atni yodlab olishi natijasida uning so'z boyligi ham oshib boradi, ushbu fanga oid tushunchalari kengayadi. Uchinchi sinf texnologiya darsligidagi atamalarni olib qaraydigan bo'lsak unda o'quvchilar tanishishlari kerak bo'lgan atamalar izohlari bilan keltirilgan.

**Robototexnika** – robotlarni qurish, ulardan foydalanish boshqarish, ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan mexanika, elektrotexnika, elektron muhandislik va informatika fanlarini birlashtiradigan soha.

Ushbu atamani o'quvchilarga tushintirish jarayonida robot turlari, qanday ishlarni bajarishi, ular inson mehnatini qisman yoki to'liq o'zlashtirib

<sup>88</sup> 1. X.Sanaqulov D.Xodiyeva, M.Satbayeva "MEHNAT VA UNI O'QITISH METODIKASI" Toshkent - 2015


olishi, ummuman olganda insonlarga yordamchi ekanligi hamda insonlarning qo'l mehnatini yengillashtirish uchun yaratilishi aytib o'tiladi.



**Konstruktor** – turli modellarni yig'ishga mo'ljallangan standart detallar to'plami.

Robototexnika asoslarni o'rganish uchun maxsus konstruktor detallar to'plami, elektromexanik va elektron qurilmalar kerak bo'ladi. Biz bunday detallarni kundalik hayotimizda ko'p uchratganmiz. ular odatda o'yin uchun ishlab chiqariladi. Konstruktor detallari yordamida o'quvchilar turli mexanizmlarni o'rganishlari mumkin. Konstruktor materiallari turli materiallardan tayyorlanishi mumkin. Masalan, plastik yoki metal buyumlardan. O'quvchilar uchun, plastikdan tayyorlangan detallarni yig'ish oson, ammo ular mustahkam bo'lmaydi. Plastikdan yasalgan konstruktor detallariga lego o'yinchoqlarini misol keltirishimiz mumkin.

**Lego** – Daniyadagi (Billund) Lego Group xususiy kompaniyasi ishlab chiqaradigan plastik mahsulot.



bahori” yoki “xalqlar bahori” nomi bilan mashhur Yevropa inqiloblari bilan bog‘lashga harakat qildi.<sup>95</sup> Xuddi birinchi to‘lqin singari ikkinchi to‘lqinga ham asosiy global va mintaqaviy hodisalar muvofiq keladi. Asosiy global hodisa ikkinchi jahon urushi hisoblansa, asosiy mintaqaviy hodisa arab dunyosining markazida Isroil davlatiga asos solinishi edi. Ushbu davrda Isroil davlatining “sionizm”iga qarshi o‘laroq “arabizm” shiori asosiy o‘rinni egalladi.

Arab isyonlarining ikkinchi to‘lqini va arabizm shiorini asosan Misrning sobiq Prezidenti Jamol Abdul Nosir nomi bilan bog‘lashadi. O‘z navbatida, arabizm g‘oyalarini keng yoyilishida Baas partiyasining ham o‘rni katta bo‘lgan. Ayrim nuqtayi nazaricha, ushbu davrda tashqi kuchlarning o‘z intervensiyasi va gegemonligi kuchaygani sari mintaqada arab millatchiligi ham kuchaya boshladi.<sup>96</sup>

Arab ommaviy chiqishlarining uchinchi to‘lqini 2010-yil 17-dekabrda Tunisda meva sotadigan savdogar Muhammad Buazzaziyning politsiya o‘zboshimchaligi va poraxo‘rligiga qarshi norozilik bildirib, Sidi-Buzid shahar maydonida namoyishkorona o‘z-o‘ziga o‘t qo‘yishi natijasida boshlandi. Tunis to‘ntarishi muvaffaqiyatli tugaganligi sababli, norozilik to‘lqinlari Misr, Liviya, Suriya, Iroq, Bahrayn, Yaman, Iordaniya, Marokash, Jazoir, Ummon, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Sudan, Mavritaniya va boshqa arab mamlakatlariga yoyilib ketdi. Arab dunyosidagi namoyishlarning asosiy shiori “Odamlar rejimni qulatilishni istashadi” (Ash-sha‘b yurid isqat an-nizam) bo‘ldi. Shu tariqa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklarning ketma-ket avj olishi “arab bahori” degan atamaning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.<sup>97</sup>

Umumiy ma’noda, “Arab bahori”ning o‘ziga xos xususiyati haqida ta’kidlaydigan bo‘lsak, ushbu hodisalar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasdan, balki tashqi kuchlar ta’siri orqali pinhona rejalashtirilgan ssenariylar mahsuli ekanligini ko‘rish mumkin. Shu sababli, yuqorida ta’kidlangan sabablar vositasida “arab bahori” atamasi ishlab chiqilganligini qayd etish mumkin.

“Arab bahori”ga o‘n bir yildan oshgan bo‘lsada hali hamon uning akssadosi ko‘pchilikni xushyorlikka chorlaydi. O‘sha 2010 yilning 17 dekabr sanasida ko‘chada savdo qiluvchi tojir Muxammad Buazizi Tunisning Sidi – Buzid shaxrida o‘z mahsulotlarini mahalliy xokimiyat tomonidan tortib olinishiga qarshi norozilik sifatida o‘zini yoqib yuborishi nafaqat Tunisda, balki butun arab dunyosida xech kim kutmagan olamshumul inqiloblar uchqunini avj oldiradi va xalq inqiloblarini keltirib chiqaradi. Bu qor uyumi bir yumalab ko‘plab mamalakatlarni qamrab oldi. Bong

<sup>95</sup> Jacques Benoist-Méchin. *Un Printemps Arabe (An Arab Spring)*, Paris: Albin Michel, 1959.

<sup>96</sup> Fadi Elhousseini. *Post Arab Spring Thoughts: The Middle East between external and internal mechanisms (Political Economic & Social Forces)*. Polish Academy of Sciences. November 2013. – P. 5.

<sup>97</sup> The Arab Spring. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab\\_Spring](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab_Spring)

urgan xalq tartibsiz inqilobdan umidlari katta edi, ammo keyingi rivojlanishlar ularning orzularini puchga chiqardi.

Agar “arab bahori” arafasidagi arab mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga e’tibor bilan qaraladigan bo‘lsa, quyidagi manzarani ko‘rish mumkin bo‘ladi:

Arab mamlakatlari aholisining yarmidan ko‘pini 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlarlar tashkil etgan; yoshlar va ayollar o‘rtasida dunyo miqyosidagi eng yuqori darajadagi(37%) ishsizlik mavjud edi; Misr, Tunis va Iordaniyadagi 30% oliy ma'lumotlilar ishsiz bo‘lgan; yoshlarning xar beshtasidan biri boshlang‘ich maktabni tugatmagan va 50 millionga yaqin katta yoshdagilar (aholining 1/8) savodsiz bo‘lgan, ularning 2/3 qismi ayollarni tashkil etgan.<sup>98</sup>

Shunga qaramay, mazkur tarixiy voqea butun mintaqaning qiyofasini o‘zgartirib yubordi: Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta’sir ko‘rsatgan, hattoki, mintaqa geosiyosiy xaritasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelgan muhim voqea “Arab bahori” hodisalari hisoblanadi. Ba’zi mutaxassislarining fikriga ko‘ra, “Arab bahori” – an’anaviy islom jamiyati sharoitiga moslashtirilgan o‘ziga xos rangli inqilobdir<sup>99</sup>. “Islomiy davlat” vujudga kelgan bo‘shliqdan unumli foydalanib, Suriya va Iroqning keng xududlarida “ xalifalik davlati”ni quradi, ma'lum vaqt o‘tganidan keyin dunyo mamlakatlarini dahshatga solgan bu davlat xam barham topadi. 2011 yildan buyon mintaqani larza solgan va “arab bahori” deb nomlangan bu siyosiy va jug‘rofiy zilzila turli xil natijalarni olib keldi. Tunis, Liviya, Misr, Yaman va Suriyadagi ommaviy namoyishlar umidsizlikka uchragan islohatlar yoki diktatorlik rejimlarining repressive javoblari bilan, balki qonli to‘qnashuvlar bilan hamohang bo‘ldi. Biroq inqilob ruhi xali o‘lmagan, buni sakkiz yildan so‘ng Sudan, Jazoir, Iroq va Liviyadagi xalq qo‘zg‘alonlarining ikkinchi to‘lqini ko‘rsatdi.<sup>100</sup>

Ilmiy doiralarda mamlakat yoki ma’lum mintaqa ichidagi ijtimoiy tartibsizlik, o‘zaro nizolar va boshqa turdagi ixtiloflarga umumiy nisbat berilib “xaos” atamasi ishlatiladi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda “boshqariladigan xaos”, ya’ni “boshqariladigan beqarorlik” tushunchasi keng ravishda qo‘llanilmoqda. Boshqariladigan xaos – umumiy ma’noda, tartibsizlikni keltirib chiqarish yoki tartibsizlik vujudga kelganda uni nazorat qilish va o‘z manfaatlari doirasiga moslashtirish texnologiyasi sifatida tushunilishi mumkin.<sup>101</sup>

<sup>98</sup> Крылов А.В., Федорченко А.В., Торин А.И. «Арабская весна»: итоги и перспективы» (круглый стол в МГИМО) // Вестник МГИМО-Университета. 2012, № 4 (25). СС. 296-299

<sup>99</sup> Манойло А.В. Специфика цветных революций “Арабской весны” // Тренды современного политического процесса, 2013. – С. 32.

<sup>100</sup> Арипов Шавкат “Араб бахори”нинг кутилган мевалари кутилган натижаларни бердимиз? // “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations”, 2021 – В.495

<sup>101</sup> Сундиев И. “Управляемый хаос” Социальные технологии в массовых беспорядках // Dictum et factum, 2014. – С. 95

“Arab bahori” ta'sir qilgan mamlakatlar orasida faqat Tunis xaosdan omon qoldi xolos. Biz Tunisdagi o'tish jarayonida rol o'ynagan omillarni ba'zilarini nomlashimiz mumkin: Birinchidan, Tunis armiyasi boshqa davlatlarning armiyalaridan befarqligi bilan va o'zining manfaatlarini jamiyat dushmanlari manfaatlari bilan solishtirmasligi bilan farq qiladi.

Ikkinchi omil – bu Tunis arab bahorining boshqa davlatlaridan farqli o'laroq, kuchli nodavlat tashkilotlarga ega ekanligi. 2013 yilda mamlakatdagi siyosiy qotilliklar sabab siyosiy qutblanish va yangi konstitutsiyani yaratish to'g'risida muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Mamlakatdagi yetakchi ishchi kasaba uyushmalari, ish beruvchi tashkilotlar, advokatlar hay'ati va yetakchi inson huquqlari tashkilotlari raqobatchi siyosiy qutblar o'rtasidagi muzokaralarni qayta boshlashda rol o'ynagan “Milliy muloqot kvarteti”ni tuzdilar.

Uchinchi muhim omil esa Tiklanish partiyasi (An-Nahda)ning roli edi. 2011 yilgacha An Nahda partiyasi taqiqlangan va uning rahbarlari surgunda bo'lganiga qaramay, u boshqa Islomiy harakatlardan farqli o'laroq muloqot o'rnatish va boshqa siyosiy harakatlar bilan birga harakat qilardi. Bu vaziyat Zin al-Abidina Ben Ali o'z kursisini tark etganda birinchi saylovlardan keyin An Nahda partiyasi bilan ikki dunyoviy partiya o'rtasida koalitsiya tuzishga yordam berdi. 2014 yilgi barcha umumiy saylovlardan so'ng, bu partiya mag'lubiyatga uchradi, lekin hukmron partiya bilan doimiy aloqada qoldi.<sup>102</sup>

Ben Ali Tunisni tark etgach, 2011-yil fevralida Misrda Husni Muborak iste'foga chiqdi, Liviyada Muammar Qaddafi o'ldirildi va 2012 yil fevralida Yaman prezidenti Ali Abdulla Solih mamlakatni tark etdi. Bir yil ichida to'rtta avtokrat hokimiyatdan chetlashtirildi. Liviyadan boshqa mamlakatlarda fuqarolar qarshiligi muvaffaqiyatli bo'lganiga shubha yo'q. Biroq keyingi voqealar bu g'alabalarga soya soldi.

Misrdagi harbiy to'ntarishdan keyin 2013 yil iyul oyida saylovlar orqali hokimiyatga kelgan “Musulmon birodarlar” hokimiyatdan ag'darilgan va bu harakatning minglab a'zolari qamoqqa yuborilgan yoki o'ldirilgan. Liviya va Yaman fuqarolar urushlarida qotib qolishgan. 2011-yilgacha sobiq prezident Muborak hokimiyatni o'z qo'lida ushlab turish uchun ataylab mamlakatdagi zaif institutsional tuzilmani afzal ko'rgan. Armiya yagona istisno bo'lib siyosiy tuzilmadan chiqib ketdi. Shunday qilib, Muborak ag'darilgach, armiya bo'sh joyni to'ldirishiga to'g'ri keldi. Yaman va Liviyada umumiy institutsionalizatsiya va armiya Misr bilan solishtirganda ancha zaif edi. Shunday qilib, avtokratlarning kuchi o'chirilgandan keyin armiya

<sup>102</sup> Нассасра Ю.Д.А. Геополитические последствия «арабской весны» для региона Ближнего Востока // International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol.11



Misrdagi kabi vazifani bajara olmadi va nufuzli makon ikkala mamlakatni ham fuqarolar urushiga tortdi.

Zamonaviy konfliktlarning Yaqin Sharqdagi oqibatlarini ko'p qirrali va ular gumanitar, iqtisodiy, siyosiy, geostrategik aspektlarni o'z ichiga oladi. "Suriyaning o'zida xuddi oynadagidek "arab bahori"ning salbiy va ijobiy tomonlari, ya'ni: aholining etnik bo'linishi o'z aksini topdi va konfessiyaviy mansubligi, mintaqadan tashqari kuchlarning aralashuvi, BMTning kuchsizligi, arab davlatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik, demokratik tuzilmalarning zaifligi, Isroilning tajovuzkorligi, Misr, Saudiya Arabistoni, Qatar, Eron, Turkiyaning gegemonlik intilishlari, transmilliy, mintaqaviy va mamlakat ichidagi terrorizmning kuchayishi, Katta Yaqin Sharqning qayta formatlanishi va h.k.", - deya qayd etadi V.S. Yagya<sup>103</sup>

NATOning "arab bahori" voqealarini tartibga solish bo'yicha yondashuvlarini amalga oshirishining asosiy oqibatlaridan biri bu Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy vaziyatda tub o'zgarishlarga olib kelgan "beqarorlik" eksporti edi. Butun Yaqin Sharqning geosiyosiy konfiguratsiyasi o'zgardi. Biz alohida davlatlarning hududiy faoliyatining diffuziyasini kuzatamiz (Iroq, Liviya, Suriya). Arab inqirozi davrida yangi etnik (Kurd) va hududiy ("Islomiy davlat") anklavlari paydo bo'ldi. Mojaroda tobora ko'proq mamlakatlar ishtirok etishdi. Arab inqirozining bu xalqarolashuvi, rossiyalik siyosatshunos D.Malysheva ta'kidlaganidek, quyidagi xavfli tendentsiyalarni o'z ichiga oladi: mintaqaviydan global miqyosga o'tishga qodir, "xalqaro va ichki oqibatlarini oldindan aytish qiyin"<sup>104</sup>

"Arab bahori"ning salbiy oqibati mintaqada davlatlarida radikal islomiylikning kuchayishi edi. Akademik E.M. Primakov ta'kidlaydiki, "so'ng "bahor"dan keyin sovuq davr keldi, islomiy kuchlar kuchaydi. Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika kelajagi endi faqat yetakchi jahon kuchlari siyosatiga bog'liq bo'lmasdan, balki islom siyosati lageridagi kuchlar muvozanatida hamdir".

Ko'pchilik tahlilchilar sodir bo'lgan voqealarning o'z-o'zidan, tartibsiz ro'y berganligi va ularni globallashuvning zamonaviy jarayonlari bilan bog'liqligiga va "arab bahori"ning kutilgan mevalari kutilgan natijani bermaganligini ishora qiladilar, ya'ni "arab bahori": birinchidan, ushbu mamlakatlardagi elitalarni tubdan o'zgartira olmadi, ikkinchidan, korrupsiya ustidan g'alaba qozana olmadi, uchinchidan, mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni yaxshilay olmadi va to'rtinchidan, mazkur mamlakatlarda erkinlik darajasini oshira olmadi.

<sup>103</sup> Ягья В.С. Международные аспекты арабского кризиса // Арабский кризис и международные последствия / Под общ. ред. А.М. Васильева. Отв. ред. А.Д. Саватеев, Л.М. Исаев. – М.: ЛЕНАНД, 2014. – С. 176-238.

<sup>104</sup> Малышева Д. Ближневосточная турбулентность // Мировая экономика и международные отношения. – 2015. – №10. – С. 113-118.

2019 yilda amerikalik yozuvchi Noa Feldman bu mavzudagi asarini “Arab qishi” deb nomladi, bu atama inqiloblarning militarizatsiyasi, diniy ekstremizmning kuchayishi, urushlar va mojarolarning boshlanishi munosabati bilan ba'zan u yerda, ba'zan bu yerda paydo bo'lgan. Bu kitob haqida o'z fikrini berar ekan, taniqli akademik M.Ignatiev, muallif bizning davrimizning eng muhim voqealaridan biri – “arab bahori” ning fojiali muvaffaqiyatsizligini yoritganligini ta'kidlaydi<sup>105</sup>

Darhaqiqat, Tunisni hisobga olmaganda, hech qanday demokratik islohatlar tuzumlar qulashi bilan bo'shliqni to'ldirmadi va aksincha, zo'rvonlik yanada kuchaydi.

## REFERENCES

1. Подгорнова Н. П. “Арабская весна” в странах Магриба. – М.: 2014. – Б. 4
2. Mehmet Sahin, ‘1950-1960 Arab Revolutions and the 2011 Arab Spring: Similarities and Differences’, in *New World Order, Arab Spring and Turkey*, B. Senem Cevik- Ersaydi and Bora Baskak (eds.), Ankara: Ankara University Center for the Study and Research for Political Psychology, 2012. – P. 3-5 .
3. Jacques Benoist-Méchin. *Un Printemps Arabe (An Arab Spring)*, Paris: Albin Michel, 1959.
4. Fadi Elhousseini. *Post Arab Spring Thoughts: The Middle East between external and internal mechanisms (Political Economic & Social Forces)*. Polish Academy of Sciences. November 2013. – P. 5.
5. The Arab Spring. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab\\_Spring](https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab_Spring)
6. Крылов А.В., Федорченко А.В., Торин А.И. «Арабская весна»: итоги и перспективы» (круглый стол в МГИМО) // Вестник МГИМО-Университета. 2012, № 4 (25). СС. 296-299
7. Манойло А.В. Специфика цветных революций “Арабской весны” // Тренды современного политического процесса, 2013. – С. 32.
8. Арипов Шавкат “Араб баҳори”нинг кутилган мевалари кутилган натижаларни бердимми? // “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations”, 2021 – В.495
9. Сундиев И. “Управляемый хаос” Социальные технологии в массовых беспорядках // *Dictum et factum*, 2014. – С. 95
10. Нассасра Ю.Д.А. Геополитические последствия «арабской весны» для региона Ближнего Востока // *International Journal of Humanities and Natural Sciences*, vol.11

<sup>105</sup> Долгов Б.В. Феномен «Арабской весны» 2011--2016 гг.: Причины, развитие, перспективы: Тунис, Египет, Ливия, Сирия, Алжир. URSS. 2021. 200 с. ISBN 978-5-9519-2263-2.

11. Ягья В.С. Международные аспекты арабского кризиса // Арабский кризис и международные последствия / Под общ. ред. А.М. Васильева. Отв. ред. А.Д. Саватеев, Л.М. Исаев. – М.: ЛЕНАНД, 2014. – С. 176-238.
12. Малышева Д. Ближневосточная турбулентность // Мировая экономика и международные отношения. – 2015. – №10. – С. 113-118.
13. Долгов Б.В. Феномен «Арабской весны» 2011--2016 гг.: Причины, развитие, перспективы: Тунис, Египет, Ливия, Сирия, Алжир. URSS. 2021. 200 с. ISBN 978-5-9519-2263-2.

**ПРОБЛЕМЫ ЖИЛИШНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ  
СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ  
ТОТАЛИТАРИЗМА  
(1965-1985гг.)**

**Насыров Рашод Адилевич**

Доктор исторических наук, профессор

**АННОТАЦИЯ**

*Развал СССР, суверенитет Узбекистана изменили все политическое пространство общества. Становление Республики Узбекистан проходило на фоне глубокого социального кризиса, резкого падения жизненного уровня людей. Ход исторического развития Узбекистана диктовало необходимость всестороннего изучения существовавшей в Узбекистане социальной политики, в результате которой социальная сфера сельской местности оказалась в плачевном состоянии.*

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, строительство, микрорайон, политическая структура, сырье.

**ANNOTATION**

*The collapse of the USSR, the sovereignty of Uzbekistan changed the entire political space of society. The formation of the Republic of Uzbekistan took place against the background of a deep social crisis, a sharp drop in the living standards of people. The course of the historical development of Uzbekistan dictated the need for a comprehensive study of the social policy that existed in Uzbekistan, as a result of which the social sphere of rural areas was in a deplorable state.*

**Key words:** agriculture, construction, microdistrict, political structure, raw materials.

**ВВЕДЕНИЕ**

Кризис социальной политики в сельской местности Узбекистана – это вполне закономерный результат функционирования административно-централистской системы, прочно утвердившейся в сельскохозяйственной сфере и абсолютно несовместимой с объективными особенностями и законами ее развития. В ее основе лежало прямое использование потенциала и ресурсов живой природы с ее естественными законами и условиями, плохо поддающимися партийно-государственному контролю и указаниям.

Естественное развитие социальной сферы села как системы жизнедеятельности сельчан, возможно, было лишь при условии, когда существующий общественный строй включает в себя сельскохозяйственную

сферу в специфических формах, соответствующих ее природе, т.е. приспособляться к ней. В Узбекистане произошло прямо противоположное. Была предпринята попытка изменить условия жизни сельчан по образу господствовавших представлений о характере и формах создаваемых социально-экономических отношений. Проводившаяся советским государством социальная политика на всех ее этапах, была политикой разрушения социальных отношений, политикой создания в сельской местности отношений полностью подчиненных административно-централистским структурам.

Специфический характер социальной политики в сельской местности воздействовало на все стороны жизнедеятельности и образ жизни связанных с ним людей, что нашло выражение в развитии особой среды жизнедеятельности, каковым является село. Произвольные преобразования на селе, его производственной и поселенческой структур по умозрительным представлениям и идеологическим образцам идеала жизни сельского населения, есть не что иное, как разрушение социальных отношений на селе.

Главным и важнейшим условием решения социальных проблем села являлось преобразование жилищно-коммунального хозяйства в сельской местности. Выбирая пути и формы улучшения жилищных условий сельского населения, необходимо было исходить из создания наиболее благоприятных предпосылок для реализации функций сельской семьи, всемерно используя в этих целях позитивные особенности сельских населенных пунктов.

Узбекистан являлся одной из самых густонаселенных республик бывшего СССР, с ежегодным приростом в среднем полмиллиона человек и естественно, что жилищная проблема стояла в республике очень остро. По обеспечению жильем, на одного жителя Узбекистан занимал одно из последних мест в бывшем союзе.

Долгие годы в жилищной политике социальная несправедливость проявлялась с особой остротой. Даже теоретически жилищная проблема на селе никак не разрабатывалась. На селе практически не осуществлялась помощь сельчанам в масштабах государственного строительства. Более того, создавались различные препоны индивидуальному строительству.

Специфической особенностью сельского жилищного фонда Узбекистана являлся чрезвычайно высокий удельный вес индивидуальных домов. К концу 1985г. жилищный фонд, находящийся в личной собственности сельчан



составлял 97,1 млн.кв. метров, против 19 млн.кв. метров государственно-обобщественного фонда.<sup>106</sup>

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Сельским населением за период с 1965-1985гг. было построено и введено в эксплуатацию более 36 млн.кв. метров жилья.<sup>107</sup> Эти цифры убедительно свидетельствуют о том, что сельским населением республики была проделана огромная работа без шума и фанфар, без победных рапортов, при минимальной поддержки областных и районных властей. Но вместо поддержки, в самый разгар индивидуального строительства они зачастую получали запрет. Командно-административная система, действуя в своих лучших традициях, используя волонтеризм, охлаждала энтузиазм сельского населения нормами. Одни о запрещениях ничего не знали, другим и в голову не могло прийти, что они не имеют право за свои деньги, в своем дворе, на благо своей семьи пристроить комнату или возвести домик. Так на селе появились самозастройщики.

Обобщественный жилищный фонд в сельской местности республики стал вводиться в эксплуатацию преимущественно в конце 60-х годов. За период 1971-1985гг. государственными и общественными организациями было построено и введено в эксплуатацию в сельской местности более 18 млн.кв. метров жилья<sup>108</sup> и государственный обобщественный жилищный фонд на селе составил 19 млн.кв. метров. Отсюда видно, что до 1 января 1971 года государственный жилой фонд в сельской местности составлял всего 1 млн.кв. метров. А если учесть, что на начало 1971 года сельское население Узбекистана составляло 7696 тысяч человек, то простой арифметический расчет показывает, что в эти годы на одного сельского жителя приходилось 0,13 кв.м. жилой площади государственного фонда.<sup>109</sup> Этот факт убедительно доказывает то, что советское государство не обращало никакого внимания социальным нуждам узбекского села.

Толчок бурному росту сельского жилищного строительства в Узбекистане дала программа широкомасштабных ирригационно-мелиоративных работ, в результате которой были освоены крупные массивы залежных земель. На этих землях создавались совхозы с жилыми поселками городского типа. Так, если в республике в 1965г. было 283 совхоза, то к концу 1985г. их стало 1088<sup>110</sup>, и в

<sup>106</sup> Народное хозяйство УзССР за 70 лет Советской власти. Статистический сборник. Ташкент, 1987. С.219.

<sup>107</sup> Докторская диссертация Р.А.Насырова «Социальное развитие села Узбекистана. Ташкент, 1994. С.196.

<sup>108</sup> Народное хозяйство УзССР за 70 лет Советской власти.... С.215.

<sup>109</sup> Докторская диссертация Р.А.Насырова.... С.197.

<sup>110</sup> Сельское хозяйство Узбекистана. Статистический сборник. Ташкент, 1986. С.5.

каждом из них имелись совхозные поселки, качество жилья которых отличалось крайне низким уровнем.

В результате поворота государственной политики в сторону сельского хозяйства село получило огромные капиталовложения, предназначенные для жилищного строительства, выделенные как государством, так и колхозами республики. массированные капиталовложения позволили государственным и колхозным строительным организациям развернуть широкий фронт работ по строительству жилья, что позволило значительно увеличить жилой фонд сельской местности Узбекистана. Так, только в 1973г. колхозами республики было построено свыше 19 тыс.кв. метров жилья, а государственными организациями более 520 тыс.кв. метров жилой площади<sup>111</sup>.

Но, несмотря на значительный рост, жилищная проблема в сельской местности Узбекистана стояла очень остро. В республике образовалась значительная диспропорция в освоение новых земель, производством сельскохозяйственной продукции с одной стороны, и жилищно-бытовым строительством с другой.

Несмотря на большую потребность в жилье, государственные планы жилищного строительства из года в год не выполнялись, а средства выделенные на эти цели, не осваивались. Так, только в 1974 году план капитального строительства жилья Министерством сельского хозяйства республики был выполнен лишь на 81%, остались неосвоенными около 11 млн.рублей.

Крайне неудовлетворительно выполнялся годовой план строительства жилья, который был выполнен всего лишь на 10% Джизакским областным сельскохозяйственным управлением. А по Кашкадарьинскому, Ташкентскому и Андижанскому областными сельскохозяйственными управлениями невыполнение составило соответственно – 40, 53, 57 процентов

Руководство Министерства сельского строительства Узбекистана не осуществляло должного контроля над деятельностью своих подразделений. Они были озабочены другими масштабными работами, чем строительство жилья, и не обеспечивали ресурсами подразделения, строившими социальные объекты. Обеспечение ресурсами этих объектов стало осуществляться на основе «остаточного» принципа ресурсообеспечения. В результате плановые задания из года в год срывались.

В результате систематического невыполнения планов строительства жилья, программа создания благоустроенных поселков явно провалилась, что привело

<sup>111</sup> ЦГА РУз. Ф.1963. Оп.8. Д.530. Л.27.

к ухудшению обеспечения сельских жителей жильем. Там же где поселки создавались, качество строительства отличалось крайне низким уровнем.

## REFERENCES

1. Adilovich, Nosirov Rashod. "THE STRATEGIC VALUE OF EDUCATION FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND TRAINING OF PROMISING PERSONNEL POTENTIAL." (2022): 183-186.
2. Nosirov R. THE PLACE AND ROLE OF THE MASTER AMIR TEMUR IN WORLD HISTORY //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 203-205.
3. Nosirov, R., & Mamajanova, G. (2022). International Ratings and Index Indicators of the Republic of Uzbekistan. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 86-88.
4. Носиров Р. А. ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ЭТНИК ШАКЛЛАНИШИ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 9. – С. 198-202.
5. Adilovich, Nosirov Rashod, and Yuldashev Bakhtiyar Ergashevich. "Structural and functional approaches to the development of the social sector: Reform and prospects." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 8.1 (2021): 1388-1396.
6. Nosirov R. A. EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE HISTORY OF CENTRAL ASIA //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 82-85.
7. Bakhtiyarovna, Y. M., Shukhratovna, S. I., Izatullaevna, I. I., Muydinjanovna, Y. D., Yurevna, F. L., & Mamadjanovna, K. M. (2022). INDEPENDENT EXTRACURRICULAR WORK OF STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE CONDITIONS OF A CREDIT MODULAR SYSTEM. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3302-3305.
8. Mamura Bakhtiyarovna Yuldosheva (2022). THE STYLISTIC SIGNIFICANCE OF TRANSLATING PORTRAITS UZBEK NOVELS INTO ENGLISH. Academic research in educational sciences, 3 (2), 224-228. doi: 10.24412/2181-1385-2022-2-224-228
9. Yuldasheva, M. B. (2020). HISTORY OF THE ENGLISH UZBEK TRANSLATION. Theoretical & Applied Science, (3), 11-14.
10. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. Экономика и социум, (3-1), 273-277.
11. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45770178>

12. Saydivaliyeva, B. S. (2021). ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SIGNIFICANT QUALITIES. *Экономика и социум*, (3-1), 273-277.
13. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
14. Mustaeva, G. S., Saidivalieva, B. S., & Ataeva, G. B. (2022, June). Features of professional vocabulary and its difference from terms. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 060017). AIP Publishing LLC.
15. Насиба Шарифовна Юнусова, & Муслимахон Яхяева (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННАЯ СРЕДА. *Academic research in educational sciences*, 3 (10), 372-376.
16. Н. Ш. Юнусова (2022). ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 339-341.
17. Юнусова Насиба Шарифовна, Назарова Нилуфар Жўраевна, & Жуманиязова Насиба Сапарбоевна (2022). ПЕДАГОГЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МИСОЛИДА). *Современное образование (Узбекистан)*, (6 (115)), 9-16. doi: 10.34920/SO/VOL\_2022\_ISSUE\_6\_2
18. Н. Ш. Юнусова, Жавлон Алимухаммедов, & Мухаммад Суяров (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ДИН ВА АХЛОҚ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 222-226.

## **KO'PIK BETON XOSSALARINI YAXSHILASH VA UNING QURILISH SOHASIDA QO'LLANILISHI**

**Nurmuxamedov Sanjarbek Ilxamovich**

Urganch davlat universiteti o'qituvchi-stajori

sanjarbek2021@bk.ru

**Atojonov Muhammad Hurmatovich,**

dj.muxammad@mail.ru

**Yuldashev Pirnazar Kamiljon o'g'li**

Urganch davlat universiteti magistrantlari

yuldashevpirnazar@gmail.ru

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarilishi jihatidan tobora keng ko'lam kasb etayotgan ko'pik beton va uning qurilish sohasida qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Issiqlik izolyatsion materiallarga bo'lgan ehtiyoj yil sayin oshib borayotgan bir paytda mahalliy va sanoat chiqindilari asosida yuqori samaradorlikka ega kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish ushbu dolzarb muammoni yechimlaridan biri bo'la oladi.*

**Kalit so'zlar:** *Energiya tejankorlik, yengil beton, issiqlik, g'ovaklik, struktura, namlik, zichlik, izolyatsiya.*

### **ABSTRACT**

*In this scientific article, today's building materials foam, which is becoming more and more widespread in terms of its production in the industry information on concrete and its use in the field of construction is provided. At a time when the need for heat-insulating materials is increasing every year, the production of high-efficiency composite materials based on local and industrial waste can be one of the solutions to this complex problem.*

**Key words:** *Energy saving, lightweight concrete, heat, porosity, structure, humidity, density, insulation.*

### **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrdagi PQ-3379 – sonli "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida bino va inshootlarni qurishda, rekonstruksiya qilishda energiya tejovchi materiallar va texnologiyalardan foydalanish ishlariga yetarlicha e'tibor berilmagani ta'kidlangan edi. Bugungi kunda mavjud bo'lgan issiqlik izolyatsion materiallarini yangilash va takomillashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi [1].




Hozirgi kunda zamonaviy konstruksiya va buyumlarni tayorlashda, asosan, yengil qurilish ashyolari keng ishlatilmoqda. Masalan, binoni qurishda og'ir beton o'rniga yengil issiqlik izolyatsiyalovchi betonlarni ishlatish binoning umumiy og'irligini 5 marta kamaytirishi mumkin, natijada bino uchun sarflanadigan umumiy mablag' ham iqtisod qilinadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Ko'pikbloklar butun dunyo bo'ylab qurilish uchun ishonchli hamda energiya samarador material sifatida tobora ommalashib bormoqda. Xususan, ular kam qavatli qurilishda ommalashgan. Bu yerda issiqlik uzatuvchi ko'pikbloklarni oson o'rnatish xususiyatlaridan boshlab, ularning texnologik yangiligiga, chidamligiga va qolgan qator omillar mavjudligi sabab ular tobora ommalashmoqda. Ularning xizmat muddati deyarli cheksizdir va qurilish jarayoni to'g'ri ketma-ketlikda bo'lgan bo'lsa, beton sifatli konstruksiyadan qurilgan bo'lsa u ko'p yillar davomida xizmat qilib beradi, bino oxir-oqibat mustahkam va ishonchli bo'ladi.

### **MUHOKAMA**

Ichki bozorda ko'pikbeton juda uzoq vaqt oldin paydo bo'lgan, ammo yevropada ko'pikbloklar o'n yildan ortiq vaqt davomida ishlatilgan bo'lsa ham hali ko'p iste'molchilar ko'pik betonni sifati haqida, ishonchliligi va ekologik toza material bo'lganidan habardor emas, balki hamma gap - ichki iste'molda yangi materiallarning noan'anaviyligidadir. Qurilishdagi ko'pikbloklar g'ishtni o'rnini muvaffaqiyatli egallaydi, ko'pincha undan mexanik va fizik xususiyatlari jihatidan ustun chiqadi. U kam qavatli uylar, yoki ko'p qavatli uylar uchun qurilish materiali sifatida o'zini yaxshi namoyon qiladi.



1-rasm. Ko'pik beton devor qalinligining umumiy ko'rinishi.

## NATIJALAR

Bir xil issiqlik o'tkazuvchanlik ko'rsatkichda turli xil materiallardan bo'lgan devorlar qalinligini taqqoslashda yacheykali betonlarni ishlab chiqarish uchun hozirgi vaqtda avtoklav jarayonisiz ishlab chiqariladigan ko'pikbetonlarga ko'proq ahamiyat berilmoqda, chunki ishlab chiqarishni tashkiliy afzalliklari mavjud: kam kapital harajatlar talab qilinishi, energiya samarador texnologiya va avtoklav jarayoni qo'llanilmasligi. Bundan tashqari, transport xarajatlarining kamligi gazobetonni ishlab chiqaruvchi katta quvvatli zavodlar ishlab chiqaradigan mahsulotlarni narxini va raqobatbardoshligini pasaytirishga olib keladi. Bu holat kam quvvatli zavodlarda va qurilish maydonchalarida avtoklavda qotmaydigan ko'pikbetonning ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan yanada samarador ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda ko'pikbetonlarning xossalarini me'yorlashtirish O'z DSt 712-96 (GOST 25485 – 89) "Yacheykali betonlar. Texnik shartlar" talablariga muvofiq amalga oshiriladi [2]. Mavjud bo'lgan standartlarni va texnik shartlarni, yacheykali betondan tayyorlangan mahsulotlarni loyihalash va texnologik hujjatlarni qayta ko'rib chiqishda, shuningdek, ularni ishlab chiqarishda ushbu standartning talablariga rioya qilinishi kerak.

Ko'pikbeton g'ovak betonlar sinfiga kiradi. Ko'pikbetonlar tarkibidagi g'ovaklarning o'rtacha o'lchamlari 0,6-0,8 mm dan 2-2,2 mm gacha bo'ladi. Issiqlik izolyatsion g'ovak betonlarda umumiy hajmiy g'ovaklik 75-90% ni, issiqlik izolyatsion konstruktiv betonlarda esa 40-60% ni tashkil qiladi.

Ko'pik beton mustahkamligi va g'ovakligi bir biriga o'zaro bog'liq hisoblanadi chunki g'ovaklik qancha ko'p bolsa mustahkamligi kam bo'ladi. Ko'pik betonda sement sarfi ko'payishi uning mustahkamligi va hajmiy massasi ortishiga olib keladi va g'ovakligi kamayadi shu bilan bir qatorda issiqlik o'tkazuvchanlik ham kamayib boradi [3].


### Ko'pikbetonning asosiy xossalari

1-jadval

O'rtacha zichlik bo'yicha markasi	Siqilishga bo'lgan mustahkamlik bo'yicha sinfi	Siqilishga bo'lgan mustahkamlik bo'yicha markasi	Sovuqqa chidamlilik bo'yicha markasi	Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, $Vt/m^{\circ}S$	Sorbtsion namlik, %
D100	B 0,5	M 5	me'yorlashtiri lmaydi	0,05	7
D200	B 0,75	M 7	me'yorlashtiri lmaydi	0,07	7
D300	B 1	M 10	me'yorlashtiri lmaydi	0,08	7

D400	B 1,5	M 15	me'yorlashtiri Imaydi	0,11	7
D500	B 1,7	M 20	me'yorlashtiri Imaydi	0,14	7
D600	B 2	M 25	F 50	0,14	7
D700	B 2,5	M 30	F 50	0,18	7
D800	B 2,5	M 35	F 75	0,22	7
D900	B 3,5	M 50	F 75	0,25	9
D1000	B 5	M 75	F 75	0,29	9
D1200	B 7,5	M 100	F 100	0,38	10
D1400	B 10	M 150	F 150	0,49	10
D1600	B 15	M 200	F 200	0,51	10
D1800	B 22,5	M 300	F 200	0,53	10

Ko'pikbetondagi ideal holda g'ovaklar shakli sferik emas, ko'p qirrali bo'lishi kerak. Buning sababi shundan iboratki, sharlardan tashkil topgan strukturaning hosil bo'lishida bir-biriga bog'liq bo'lgan g'ovaklar shakllanishi bilan material hajmida kichik hajmdagi sementning tengsiz taqsimlanishi mavjud. Materialning yuqori mustahkamliligini ta'minlaydigan g'ovaklar strukturasi kichikroq qalinligi bilan birga g'ovaklararo qismlar uchun juda foydali [4].



2-rasm. Ko'pik betonning g'ovaklari shakllari

**Ko'pik hosil qiluvchi moddalardan** "Penostrom" va "Morpen" ko'pik hosil qiluvchisini ishlatish mumkin.

- "Penostrom" sintetik ko'pik hosil qiluvchi modda past qatlamli turg'un ko'pikni hosil qilish, ko'pikbetonni ishlab chiqarish, shuningdek yengil devor va pardozlash materiallarini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan.

- "Morpen" past toksik, qiyin yonuvchi va GOST 12.1.007-76 talablari bo'yicha IV darajadagi zararli moddalarning ekologik jihatdan kamroq xavfli moddasi hisoblanadi. Ko'pik hosil qiluvchi modda ishlab chiqaruvchilarining asosiy texnik xususiyatlari pasport ma'lumotlari bo'yicha quyidagi jadvalda keltirilgan.

**"Penostrom" va "Morpen" ko'pik hosil qiluvchi moddalarining  
asosiy texnik xususiyatlari [5].**

2-jadval

№	Ko'rsatkich	Savdo belgisi	
		"Penostrom"	«Morpen»
1	Zichlik, 20 <sup>0</sup> C, g / sm <sup>3</sup> da	1.02 - 1.09	1,05 – 1,2
2	Vodorod ko'rsatkichi	7.5 - 10	7 – 10
3	20 <sup>0</sup> C xaroratdagi kinematik yopishqoqligi , m <sup>2</sup> / s	40·10 <sup>-4</sup> dan ortiq emas	2·10 <sup>-4</sup> dan ortiq emas
4	Ko'pikning ko'pligi	7 kam emas	6,5 kam emas
5	Ko'pikning chidamliligi, min	8	12

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, barcha turdagi ko'pik hosil qiluvchi moddalarning ko'rsatkichlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi, bu ko'pikbeton mahsulotlarining samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin. Bu faol moddaning turli xil kimyoviy xususiyatlariga, shuningdek, bu xususiyatlarni baholash usullariga bog'liq.

**XULOSA**

An'anaviy yo'l bilan qotish jarayonlarini tezlashtirish uchun ko'pikbetonga issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari qo'llaniladi. Lekin 300-400 kg /m<sup>3</sup> zichlikga ega bo'lgan issiqlik izolyatsiyalovchi ko'pikbeton, tashqaridan issiqlikka duch kelgan holda, yuqori harorat material xossalari o'zgarishiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Demak og'ir betonlar uchun qo'llaniladigan an'anaviy issiqlik ishlov berish jarayoni yengil betonlarda ayniqsa issiqlik izolyatsiyon ko'pikbeton uchun samarasiz deb topildi. Bundan tashqari, ko'pikbetonga issiqlik berish jarayonida, kengayuvchan gaz orqali uning g'ovaklari orasidagi panjaralari buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa uning fizik-mexanik xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, qotish jarayonini tezlashtiruvchi kimyoviy qo'shimchalar, gidratatsion qotish xususiyatiga ega materiallarning umrboqiyiligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, shu jumladan ko'pikbetonlarga ham.

**REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 noyabrdagi № PQ3379 – sonli "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'z DSt 712-96 (GOST 25485 – 89) "Yacheykali betonlar. Texnik shartlar"

3. N.A.Samig'ov "Building materials and products" textbook. Cho'lpon nomidagi nashriyot. Tashkent-2013.
4. A.I.Adilkhodjaev, F.F Karimova, U.J Turgunbaev Textbook "Building materials", Tashkent :. -2017.
5. Касаткин А.Г. Основные процессы и аппараты химической технологии / А.Г. Касаткин. - М.: Химия, 1973. - 752с.



## **SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGIGA BOQISH USULLARINING TA'SIRI**

**Ergashev Alisher Anvarjonovich**

**Iskandarov Hasan Qurbon o'g'li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada oziqlantirish usullari orqali sigirning sut mahsuldorligiga ta'siri bo'yicha tadqiqot o'tkazildi. Har qanday amaliy ishning samarasi uning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi yoki foydasizligida namoyon bo'ladi. Uning qanchalik foydali ekanligi rentabellik ko'rsatkichlarida aks etadi*

**Kalit so'zlar:** ratsion, suvli, ildiz, oqsil, uglevodlar, kazein, albumin, laktatsiya.

### **АННОТАЦИЯ**

*Было проведено исследование влияния методов кормления на удой коровьего молока. Эффект от любой практической работы проявляется в ее экономической целесообразности или бесполезности. Насколько это полезно, отражается в показателях рентабельности*

**Ключевые слова:** рацион, сочный, корнеплод, белок, углеводы, казеин, альбумин, лактация.

### **ABSTRACT**

*A study was conducted on the effect of feeding methods on cow milk yield. The effect of any practical work is manifested in its economic feasibility or uselessness. How useful it is reflected in the costeffectiveness indicators*

**Key words:** diet, juicy, root vegetable, protein, carbohydrates, casein, albumin, lactation.

### **KIRISH**

Respublikamizda iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida qariyb 25 yildan buyon barcha ichki imkoniyatlarni to'la ishga solib kelmoqda. Hozirgi kunda agrar sohaning muhim tarmog'i bo'lgan chorvachilikni rivojlantirishga hukumatimiz ham juda katta e'tibor bermoqda. Ichki iste'mol bozorida go'sht, sut, tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik ozuqa bazasini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida, chorvachilik mahsulotlari (sut, go'sht va tuxum) ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish, ularning sifatini yaxshilash, tannarxini arzonlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor

iqtisodiyoti sharoitida bozorni tannarxi arzon bo'lgan asosiy chorvachilik mahsulotlari bilan boyitish, bularning barchasi chorvadorlar va fermer xo'jaliklarining oldida turgan asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Chorvachilik mahsulotlarini ko'plab ishlab chiqarishga birgina hayvonlarning bosh sonini oshirish bilan emas, balki ularning haqiqiy mahsuldorligini ko'paytirish hisobiga erishish mumkin [1].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sigirlarning sut mahsuldorligi. Sut bezlarida ozuqalarning to'yimli moddalaridan sut hosil bo'ladi. Sut bezi laktatsiya davrida jadal su'ratda ishlaydi. Yelinda 1 kg sut hosil bo'lishi uchun sut bezidan 500-600 litrgacha qon oqib o'tadi. Sutning tarkibiy qismi ozuqaning to'yimli moddalaridan va qonning tarkibidan keskin farq qiladi.

Sigir sutida qon plazmasiga nisbatan qand moddasi 90 marta, yog' esa 18-20 marta ko'p bo'ladi. Ma'lumki, qandda kazein uchramaydi. Sigir suti kalsiy hamda fosfor moddalariga boy bo'ladi. Ozuqalarda sut qandi, sut yog'i, kazein va sut albumini ham bo'lmaydi. Bu esa ozuqalar to'yimli moddalarini qonga tushib, tubdan qayta ishlanishidan dalolat beradi.

Sut qandi qon plazmasida uchraydigan glyukozadan hosil bo'ladi. Sut oqsillari aminokislotalar, oqsillar va qonning polipeptidlaridan sintezlanadi. Sut yog'i asosan qon plazmasining neytral fosfatidlari va uchuvchi yog' kislotalaridan hosil bo'lai. Vitamin va mineral moddalar qonda sutga o'zgarmagan holda o'tadi [2].

Sut – bu sut emizuvchi hayvonlarning sut bezlari ishlab chiqaradigan mahsulot bo'lib, u birinchi navbatda yangi tug'ilgan buzoqlarga asosiy oziqa bo'lib hizmat qiladi. Uning tarkibida yosh organizmning normal o'sishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha oziqa modalari mavjud. Sut tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan yog', oqsil, uglevod, qand, vitaminlar, mineral moddalar va makro va mikroelementlar kabi barcha moddalar bo'ladi. 1 litr sutning quvvati taxminan 670 Kkal ga teng. Sut har xil ta'mli va yaxshi saqlanishi bilan farq qiladigan oziqa mahsulotlarni tayyorlash uchun qimmatbaho xom-ashyo bo'lib hizmat qiladi. Sut mahsulotlarining chiqindilari sut qandi, laktozalar, albumin, kazein va boshqa moddalar tayyorlash uchun foydalaniladi. Hayvonlarning tuqqanidan keyin dastlabki kunlari (7-10 kungacha) sut bezlari ajratadigan suti og'iz suti deyiladi. [2],[3].

Og'iz suti normal sutdan tashqi ko'rinishi, kimyoviy tarkibi va yangi tug'ilgan bolalari organizmiga fiziologik ta'sir qilishi bilan farq qiladi. Sigirlardan sog'ilgan og'iz suti tarkibida 26-33% quruq modda, shu jumladan ko'p miqdorda oqsil, albumin va globulin bo'ladi. Og'iz suti o'ziga xos xidli va tuzli, ta'mi bo'lgan

sarg'ish (ba'zan och qo'ng'ir rangda) quyuq, yopishqoq va yelimsimon suyuqlikdir. [4].

1-jadval

**Sigir suti va og'iz sutining kimyoviy tarkibi, %**

T/r	Tarkibiy qismi	Sut		Og'iz suti	
		O'rtacha	O'zgarish ehtimoli	Birinchi sog'ishda o'rtacha	O'zgarish ehtimoli
1.	Sut	87,5	83-89	73,72	66,41-76,10
2.	Yog'	3,8	3,0-5,0	6,25	5,10-6,50
3.	Oqsil	3,3	2,7-3,7	14,91	14,90-22,50
4.	Sut qandi	4,7	4,3-5,3	4,00	4,00-4,51
5.	Kul	0,7	0,6-0,8	1,12	1,01-1,30
<b>Jami quruq moddalar:</b>		<b>12,5</b>	<b>11-17</b>	<b>26-28</b>	<b>23,90-33,59</b>

Sermahsul qoramollarni maqsadga muvofiq oziqlantirishni tashkil etish hayvonlarni energiyaga va sutni hosil qilish hamda ularni qayta ishlab chiqarish funksiyalari va salomatligini normal saqlab turish uchun zarur bo'lgan to'yimli biologik aktiv moddalarga bo'lgan ehtiyojiga asoslangan bo'lishi zarur. Sigir laktatsiya davrida 4000-6000 kg sut berganda sut bilan 144-220 kg oqsil, 150-300 kg yog', 200-300 kg laktoza 6-9 kg kalsiy va 4,5-7,0 kg fosfor ajratib chiqaradi. Bu esa organizmda moddalar almashinuv jarayonlarini kuchayishiga olib keladi va hayvonlarni oziqalantirishni to'g'ri tashkil etishni talab qiladi. [4],[5].

Sigirlarni to'yimli moddalarga bo'lgan ehtiyoji ularning mahsulorlik darajasiga, fiziologik xolatiga, yoshiga va boshqa omillarga qarab o'zgaradi.

**Bu maxsus oziqlantirish sxemasi 4 qismdan iborat.**

1. Tug'riqxonada oziqlantirish (I-sex) -to'g'riqxonada sog'in sigirlarni oziqlantirishga alohida e'tibor beriladi. To'qqandan keyin 1-2 kun davomida 0,5 kg bug'doy kepagini 10 l suvga aralashtirilib atala qilib beriladi. Bunda qisman dukkakli va bashoqlilar paxoli beriladi. 3-4 kunlarida esa pichanlar miqdori oshirilib, 0,5 kg gacha kuchli ozuqalar beriladi. 5-6 kunlari ratsionga ildizmevali ozuqalardan qo'shilsa, 7 kuni silos ham qisman qo'shib bkriladi. 8-9 kunlari to'lliq ratsionga o'tkazilib, sigirning holati nazorat qilinadi va 10 kundan boshlab 2-sxemaga o'tkaziladi.

2. Sigirlarning sut berish qobiliyatini aniqlash (razdoy) va qochirish sexi (II-sex) deb yuritiladi. Bu sexda sog'in sigirlar 2-3 oy saqlanadi. Sigirlarning sut berish qobiliyati 1-2 oydan keyin aniqlanadi, uning uchun yelinlari iliq suv bilan

yuvilib (masaj) qo‘shimcha avans ozuqa beriladi. Balans ozuqa avval 2-3 kg ozuqa birligida, keyinchalik 1 kg ozuqa birligidan qo‘shimcha berib boriladi. Sigirlarning sut mahsuldorligi avvalgi xolati bilan bir xilda bulguncha avns ozuqa berilganda sut miqdori ko‘paymasa, ratsiondagi ozuqani kamaytirib ham ko‘paytirish mumkin. Bu usul bilan sigirlarga qolgan ozuqa berish kerakligi aniqlanadi va davolash muolajalari davom etkazilib, tuzalgandan keyin 3-sexga o‘tkaziladi. Agar sigir shu 2 oy davomida ko‘yga kelmagan bo‘lsa, veterinariya tadbircholarini qo‘llab to‘qqandan keyin 3 oygacha qochirishga harakat qilinmaydi.

**3.** Sut ishlab chiqarish sexi (III-sex) bunda sigirlar maxsus tuzilgan ratsion asosida oziqlantirilib, sigirlarning sut berishi nazorat qilinadi.

**4.** Qurg‘oqchilik davri sigirlar (IV-sex) buzoqlarning 7 oyligidan boshlab qurg‘oqchilik, ya‘ni sutdan chiqqan bug‘oz sigirlar guruhiga o‘tkazilib oziqlantirilishi ham alohida tashkil etiladi.

Sut bezlarida-yelinda sut hosil bo‘lishi murakkab sekretor jarayon hisoblanib, 1 kg sut hosil bo‘lishi uchun sut bezlaridan 500-600 litr qon aylanib o‘tadi. Sut bilan qonning tarkibidagi ozuqa moddalar bir-biridan tarkibi va miqdori jihatidan butunlay farq qiladi. Sigir sutining tarkibida qon plazmasiga qaraganda 90 barobar ko‘p qant, 18-20 barobar yog‘ va ko‘p miqdorda kalsiy va fosfor moddalari uchraydi. Bu xol qonning tarkibidagi moddalarning sut bezlarida butunlay qayta ishlanishi natijasida sut hosil bo‘lishidan darak beradi. Sigir sutining serqaymoq bo‘lishida ratsion tarkibidagi yog‘ning ahamiyati birinchi o‘rinda turadi. Ana shuni hisobga olib, sog‘in sigirlar ratsionida sut yog‘ining miqdori e‘tiborga olinadi. Sut tarkibidan ajralib chiqadigan yog‘ning qolgan 35-40% yuqorida eslatilgan protein va uglevodlarning parchalanishi oqibatida sut bezlarida hosil bo‘ladi. Sog‘in sigirlar ratsionida to‘yimli moddalarning yetarli bo‘lishiga e‘tibor beriladi. Sigirlar ratsionidagi har 1 kg ozuqa birligiga quyidagi miqdorda makroelementlar berish tavsiya etiladi. Osh tuzi 6,5-7,5 g, kalsiy 6,5-7,4 g, fosfor 4,5-5,5 g, magniy 2,4-1,5 g, kaliy 8,1-6,7 g va oltingugurt 2,8-2,1 g.

Naslchilik fermer xo‘jaligida sog‘in sigirlarni qish va yoz davrlarida oziqlantirish ratsionlari quyidagicha tuzilgan.

2-jadval

**Sog‘in sigirlarni qish davrida oziqlantirish ratsioni**

T/r	Yem-xashak turlari	Ozuqa tarkibida mavjud					
		miq-dor	ozuqa bir gi	hazmla- nuvchi oqs	kal-siy	fos-for	karo-ti
	O‘lchov birligi	kg	kg	g	g	g	mg
1.	Beda pichani	1,0	0,44	101	14	2,1	20

2.	Bug‘doy somoni	10,0	2,0	180	56	16	-
3.	Makkajo‘xori silosi	15,0	3,15	180	22,5	7,5	210
4.	Beda senaji	8,0	2,8	464	69	8,0	168
5.	Qizilcha	6,0	0,84	60	2,4	3,0	-
6.	Bug‘doy bardasi	10,0	0,6	230	26,3	4,8	-
7.	Paxta kunjara	2,0	2,3	662	5,6	3,2	-
8.	Bug‘doy kepagi	1,0	0,71	126	1,8	10,1	4
9.	Osh tuzi	0,50	-	-	-	-	-
	<b>Jami:</b>	<b>53,0</b>	<b>12,84</b>	<b>2003</b>	<b>198</b>	<b>55</b>	<b>402</b>

Ushbu jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, sog‘in sigirlar uchun bir kunlik jami ozuqa sarfi 53,0 kg bo‘lib, unda dag‘al ozuqalar miqdori 21% ni, shirali ozuqalar miqdori 73% ni va konsentrat (kuchli) ozuqalar miqdori esa 6% ni tashkil etadi. Ratsionning umumiy to‘yimliliği 12,84 ozuqa birligiga teng bo‘lib, beda pichani 1 kilogramm berilgani xolda to‘yimliliği 0,44 ozuqa birligiga teng bo‘lgan. Bug‘doy somoni bug‘doy bardasi bilan aralashtirilib berilganda, miqdori 20,0 kg bo‘lgan bo‘lsa, to‘yimliliği 2,6 kg ozuqa birligini tashkil etgan. Qoramollarga bir kunda 15,0 kg makkajo‘xori silosi, 8,0 kg beda senaji va 6,0 kg qizilcha beriladi va ularning to‘yimliliği tegishlicha 3,15; 2,8 va 0,84 ozuqa birligini tashkil etadi. Xo‘jalikda qoramollarni ozuqlantirishda kuchli ozuqalardan paxta kunjara (2,0 kg, to‘yimliliği 2,3 kg ozuqa birligi) va bug‘doy kepagi (1,0 kg, to‘yimliliği 0,71 kg ozuqa birligi) dan foydalanib kelingan. Ratsiondagi barcha ozuqalar tarkibidagi hazmlanuvchi protein 2003 g, kalsiy 198 g, fosfor 55 g va karotin 402 mg ni tashkil etgan. Xo‘jalikdagi sog‘in sigirlar uchun yozgi ozuqlantirish ratsioni quyidagicha tuzilgan.

3-jadval

### Sog‘in sigirlarni yoz davrida oziqlantirish ratsioni

T/r	Yem-xashak turlari	Ozuqa tarkibida mavjud					
		miq-dori	ozuqa birli-gi	hazm-lanuvchi oqsil	kal-siy	fos-for	karo-tin
O‘lchov birligi		kg	kg	g	g	g	mg
1.	Ko‘k beda	40	6,8	1600	188	28	560
2.	Bug‘doy somoni	10	2,0	180	56	16	-
3.	Bug‘doy bardasi	10	0,6	230	26,3	4,8	-



4.	Paxta kunjara	2	2,3	662	5,6	3,2	-
5.	Bug‘doy kepagi	1	0,71	126	1,8	10,1	4
6.	Osh tuzi	0,50	-	-	-	-	-
	<b>Jami:</b>	<b>63</b>	<b>12,41</b>	<b>2798</b>	<b>278</b>	<b>62,1</b>	<b>564</b>

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, sog‘in sigirlar uchun bir kunlik jami ozuqa sarfi 63,0 kg bo‘lib, unda dag‘al ozuqalar miqdori 16% ni, shirali ozuqalar miqdori 63% ni va konsentrat (kuchli) ozuqalar miqdori esa 6% ni tashkil etgan. Ratsionning umumiy to‘yimlilik 12,41 kg ozuqa birligiga teng bo‘lib, ko‘k beda 40,0 kg berilgani xolda to‘yimlilik 6,8 kg ozuqa birligiga teng bo‘lgan. Bug‘doy somoni bug‘doy bardasi bilan aralastirilib berilganda, miqdori 20,0 kilogramm bo‘lgan bo‘lsa, to‘yimlilik 2,6 kg ozuqa birligini tashkil etgan. Xo‘jalikda yoz davrida ham qoramollarni oziqlantirishda kuchli ozuqalardan paxta kunjara (2 kg, to‘yimlilik 2,3 kg ozuqa birligi) va bug‘doy kepagi (1,0 kg, to‘yimlilik 0,71 kg ozuqa birligi) dan foydalanib kelingan. Ratsiondagi barcha ozuqalar tarkibidagi hazmlanuvchi protein 2798 g, kalsiy 178 g, fosfor 62,1 g va karotin 564 mg ni tashkil etgan. Xo‘jalikda urchitilayotgan qoramollarning yillik oziqaga bo‘lgan talabi quyidagi jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan.

4-jadval

**Naslchilik fermer xo‘jaligidagi qoramollarni  
yillik oziqaga bo‘lgan talabi**

T/r	Yem-xashak turlari	Boqiladigan hayvonlar soni	Boqish davri	Kunlik ozuqa sarfi	Jami ozuqa sarfi	Ozuqa tarkibida mavjud	
						Ozuqa birligi	Hazmlanuvchi oqsil
O‘lchov birligi		bosh	kun	kg	s	kg	kg
1.	Yog‘li sut	35	365	5	639	4345,2	42174
2.	Ko‘k beda	325	155	78	53235	958230	207616,5
3.	Makkajo‘xori silosi	325	155	25	12594	251880	17631,6
4.	Beda senaji	285	155	20	10075	352625	71532,5
5.	Qizilcha	285	155	12	5301	53010	9541,8
6.	Beda pichani	285	155	10	4418	1944	44180
7.	Bug‘doy somoni	325	365	55	65244	13048,8	32622

8.	Paxta sheluxasi	40	365	6	876	19272	1401,6
9.	Bug‘doy bardasi	325	365	60	71175	427050	163702,5
10.	Paxta kunjarasi	325	365	8	9490	1043900	302731
11.	Bug‘doy kepagi	325	365	10	11863	842273	149473,8
12.	Omixta yem	35	365	4	511	49056	5621
	<b>Jami:</b>					<b>4016634</b>	<b>1048228,3</b>

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yil davomida buzoqlar uchun ichiriladigan yog‘li sut miqdori har bir boshga 5,0 kg dan hisoblanganda 639 s sut talab qilinadi. Dag‘al ozuqalardan beda pichani har bir boshga 10,0 kg dan sarflanganda jami 4418 s, bug‘doy somoni o‘rtacha 55,0 kg dan sarflansa, jami 65244 s, paxta sheluxasi 6,0 kg dan jami 876 s dag‘al ozuqalar talab qilinadi. Shirali ozuqalardan makkajo‘xori silosi har bir boshga 25,0 kg dan sarflansa, jami 12594 s, beda senaji 20,0 kg dan jami 10075 s, qizilcha 12,0 kg dan jami 5301 s, bug‘doy bardasi 60,0 kg dan jami 71175 s, jami shirali ozuqalardan 99145 s talab qilinadi.

Shuningdek konsentrat (kuchli) ozuqalardan paxta kunjarasi har bir boshga 8,0 kg dan hisoblaganda jami 9490 s, bug‘doy kepagi 10 kg dan jami 11863 s va buzoqlar uchun omixta yem 4,0 kg dan jami 511 s, jami kuchli ozuqalardan 21864 s talab qilinadi. Yoz mavsumida ozuqlantirish uchun xo‘jalikda ko‘k bedadan foydalaniladi, bu ozuqa har bir bosh hayvonga o‘rtacha 78,0 kg dan sarflansa, jami mavsum davomiga 53235 s talab qilinadi. Fermer xo‘jaligining yillik ozuqaga bo‘lgan talabi 245421 s ni tashkil etadi. Jami ozuqaning umumiy to‘yimlilik 4016634 kg ozuqa birligiga teng bo‘lib, undagi jami hazmlanuvchi protein miqdori 1048228,3 kg ni tashkil qiladi.

## **XULOSA**

Sigirlarning sut mahsuldorligiga boqish usullarining ta’sirini o‘rganish mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-kuzatuv ishlari natijasiga ko‘ra quyidagilarni hulosa qilish mumkin:

Sigirlarni qo‘shimcha oziqlar kiritilib, to‘yimlilik oshirilgan ozuqa ratsioni asosida oziqlantirish, sigirlarni to‘g‘ri asrash va parvarish qilish (bog‘lamasdan boqish) hisobiga ularning sut mahsuldorligi va kunlik sog‘ib olingan sut miqdori rejalashtirilgan ratsion asosida boqilgan sigirlarning sut mahsuldorligi oddiyroq usullarda boqishga nisbatan yuqori bo‘ladi.

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoevning “Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5017-son Qarori Toshkent sh., 2021 yil 3 mart,
2. U.N.Nosirov. “Qoramolchilik” Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2001, 384b.
3. Н.И. Владимиров, Л.Н. Черемнякова, В.Г. Лунисын, А.П. Косарев, А.С. Попеляев, «Кормление сельскохозяйственных животных» *Учебное пособие*, Барнаул Издательство АГАУ,2008
4. R. Hamroqulov “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini ozuqlantirish” Darslik 2011 y.Toshkent.
5. A.P.Kalashnikov “Chorvachilikda oziq normalari va ratsionlari” O‘quv qo‘llanma Toshkent “Mehnat” 1985 y

**УДК: 37.015.3**

## **СПОРТ МУСОБАҚАЛАРИДА СПОРТЧИЛАРНИНГ МАҚСАДГА ЭРИШИШ МОТИВЛАРИ ВА ФАОЛЛИГИ**

**Авазов Шукрулло Ибатович**

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси

[Avazov2020@mail.ru](mailto:Avazov2020@mail.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада спортчиларда мақсадга эришиш мотивлари ва ўзаро муносабат мотивларини тўғри шакллантириш йўллари ва омиллари келтириб ўтилган. Шунингдек, спортчи фаолиятида мотивациянинг ўрни ва аҳамияти борасидаги назарий қарашлар илмий жиҳатдан талқин этилган ва спортчининг маишулот, мусобақалар жараёнида хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш қоидалари ҳам баён этилган.*

***Калит сўзлар:** Спорт, спортчи, спорт фаолияти, мусобақа, мотив, мотивация, интилиш, мураббий фаолияти, иродавий чидамлилиқ, саломатлик, фаолият, галаба, толиқиш, ишонч, фаоллик.*

### **ABSTRACT**

*In this article, the ways and factors of correct formation of goals and motives of interaction in athletes are mentioned. Also, the theoretical views on the role and importance of motivation in the athlete's activity are scientifically interpreted, and the rules for the athlete's compliance with safety rules during training and competitions are also described.*

***Keywords:** Sport, athlete, sports activity, competition, motive, motivation, aspiration, coach's activity, willpower, health, activity, victory, exhaustion, confidence, activity.*

### **КИРИШ**

Ҳар қандай таълим-тарбия жараёнининг муваффақияти, тарбияланувчилар томонидан ўзининг бу ишга қанчалик онгли ва фаол муносабатда бўлишларига ҳам боғлиқдир. Соғломлаштириш тренировкалари ўзининг мазмун моҳияти билан жисмоний маданият таркибида восита тарзида муносиб ўринга эга бўлиб, жамият аъзоларининг организмини кундалиқ ҳаётини фаолиятга тайёрлаш, шу фаолият учун зарурий биологик қувватни юзага келтириш ва улардан ақлий, жисмоний меҳнат жараёнида фойдаланишни назарда тутати. Шу боисдан бугунги кунда болалар орасидан спортга бўлган муносабат, қизиқиш, ғалабага

эришиш йўлидаги асосий эътибор болаларда спортга бўлган қизиқишни ошириш ва мотивацияни шакллантириш энг муҳим муаммолардан биридир.

Жисмоний тарбия жараёни вазифаларини тўғри тушуниш, уларни қизиқиш билан фаол бажариш тарбиянинг боришини тезлаштиради, ҳосил қилинган билим, малака ва кўникмаларни чуқур такомиллаштириш ва улардан ҳаётда ижодий равишда фойдаланишга имкон беради. Бу қоида ва талаблар асосида ҳар бир спортчи машғулотларга тинимсиз тайёргарлик кўриши ва жисмоний машқларни онгли ҳамда мустақил яхши бажара боришида хавфсизлик қоидаларига ҳам амал қилишини тақозо этади. Жисмоний тарбия жараёнида бериладиган вазифалар маълум жисмоний машқлар тарзида бажарилади. Мураббий бажариш учун машқ бериш билан бирга, шуғулланувчиларга нимани бажариш ва қандай бажариш кераклиги билан бир қаторда шу машқни бажаришда хавфсизлик қоидаларига риоя қилиш керак эканлигини ҳам тушунтириши зарур [1].

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Жисмоний машғулотларга фаол қатнашиш ёки мусобақаларда ғалабага эришиш йўлида аввало ҳар бир мураббий ёш спортчиларда мақсадга эришиш мотивлари ва ўзаро муносабат мотивларини тўғри шакллантириш лозим. Спортнинг олға қараб ривожланишида мотивация катта роль ўйнайди. Мотивация нафақат спортчи шахсининг соҳасига бўлган қизиқишини оширишидангина иборат бўлмай, балки унинг олдида қўйган мақсадига етакловчи асосий восита ҳисобланади. Мотивациянинг яна бир муҳим хусусияти, унинг тўғридан-тўғри спорт натижасига таъсир кўрсатишидир. Кучли рақобат шароитида бор кучини сарф қиладиган ва охир-оқибат олдида қўйган мақсадига эришишни фақатгина аниқ мотивга ва намоён бўладиган мотивацияга эга бўлган спортчидан кутиш мумкин. Аввало мураббий фаолиятидаги энг аҳамиятли жиҳатлардан бири спортчининг мотивацияси хусусиятларини билмасдан туриб, уни юқори натижаларга эришиб бўлмаслигини англаши лозим. Шундай экан, замонавий спортда спортчида юқори спорт натижаларига эришиш мотивациясини шакллантириш жуда ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқотчилар томонидан бу борадаги изланишлар ва кузатишлар шуни кўрсатадики, спортчи фаолиятининг муваффақияти кўпроқ спортга бўлган истакнинг характери, яъни инсонни у ёки бу ҳаракатни бажаришига нима тurtки бериши билан аниқланади. Шунга асосланиб инсоннинг маълум бир режа асосида ҳаракат қилиши ёки фаолият кўрсатмаслик ҳолатини мотив деб атасак тўғри бўлади. Шу кунгача инсоннинг ҳаётий фаоллиги асосида ётувчи,



уни кўзғатувчи кучни ҳодиса сифатида илмий таҳлил этиш ва интуитив фикрлашга кўплаб ҳаракатлар бўлган. Масалан, А.Эйнштейн 1918 йилда ўзининг “Илмий тадқиқот мотивлари” номли илмий мақоласида одамларни илм билан шуғулланишларига нима туртки беришини аниқлашга ҳаракат қилган [2].

Инсон мотивларни тушуниб етмаслиги мумкин, шунинг учун субъектив баҳо беришда (кўпроқ шу асосда хулоса чиқарилади) кўшимча омил ҳам мотив деб қабул қилинади, бунга ҳиссиётни мисол қилиб олиш мумкин. Масалан, спортчи машғулотга боришни хоҳламаяпти, биз эса бу вазиятда “уни хоҳиши йўқ” деб айтамыз ва хоҳишни мотив тушунчаси билан тенглаштирамыз. Аслини олганда эса, хоҳиш - бу кўшимча омил бўлиб, ўша вазиятнинг субъектив кечинмасининг акс этиш ҳолатидир. Спортчининг машғулотга бормаганлик сабаби унинг чарчаганлиги, мураббий билан муносабатидаги салбий ҳолат ёки бошқа бир қизиқарлироқ машғулот билан боғлиқ бўлиши ҳам мумкин. Шу боисдан спорт мураббийлари ёш спортчиларда спортга бўлган қизиқиш ва мотивни шакллантириш йўллари топиши, креативликка ёндошиши ҳамда ўзаро самимий муносабатда бўлиши орқали спортчининг ўзаро коммуникатив муносабатларга тўғри киришиш мотивини ҳосил қилиш билангина ёш спортчиларда ғалабага бўлган ишончни ошириш мумкин. Шу сабабли шахснинг жамиятда одамлар орасида хулқи ва ўзини тутиш сабабларини ўрганиш тарбиявий аҳамиятга эга бўлиб, масалани ёритишнинг икки жиҳати фарқланади.

1. Ички сабаблар, яъни хатти - ҳаракат эгасининг субъектив психологик хусусиятлари назарда тутилади (мотивлар, эҳтиёжлар, мақсадлар, мўлжаллар, истаклар, қизиқшлар ва бошқалар).

2. Ташқи сабаблар - фаолиятнинг ташқи шарт - шароитлари ва ҳолатлари бўлиб, булар асосан аниқ ҳолатларнинг келиб чиқишига сабаб бўладиган ташқи стимуллардир.

Мақсад ва вазифаларни қанчалик тушуниб олиш шуғулланувчиларнинг ёш имкониятларига ва тайёргарлик даражасига боғлиқлиги ўз-ўзидан равшандир. Жисмоний тарбия жараёнида таълим бериш ҳаракат кўникмалари, малакаларини ҳосил қилиш, такомиллаштиришга қаратилган бўлади. Шу билан бирга, шуғулланувчиларни жисмоний ривожланишига таъсир кўрсатилади. Жисмоний тарбия жараёнида мураббий-ўқитувчи аввало болаларда спортга бўлган қизиқишни уйғотиши ва соғлом бўлиш инсон учун энг катта неъмат эканлигини улар қалбига сингдириши зарур. Чунки ҳар бир шахс бирор соҳага, касбга қизиқиб, онгли тарзда, унинг барча сир-асрорларини эгаллаш учун

астойдил ҳаракат қилсагина унда соҳага оид бўлган турли мотивацион ҳаракат ва ўзгаришлар пайдо бўлади. Шундай соҳалардан бири бу спорт фаолиятидир. Бунда асосан шахсда, яъни ёш спортчиларда икки асосий мотивни вужудга келтириши мумкин.

1. Соғлом бўлиш.
2. Машҳурликка эришиш.

Айнан бу ҳар иккала мотив ҳам ижтимоий жараёнлар ўзгариши ёки спортчи турмуш тарзини маълум даражада ўзгариши билан ўз қиёфасини ўзгартиши мумкин. Шундай муаммо спортчиларда кузатилса Е.П.Ильин назарияси бўйича спортчини ҳаракатга ундовчи асосий куч унинг фаолияти мақсадини аниқловчи, унга эришиш йўллари кўрсатувчи восита деб юритилиган [3]. Бундан кўриниб турибдики спортчида дастлаб натижага эришиш мотиви шаклланади, кейинчалик эса ўзаро комуникатив муносабатдаги рақибларга бўлган муносабат мотивларини келтириш мумкин. Чунки спортчининг даслаб натижага эришиш йўлида тўғридан тўғри рақиб билан муносабатлар ҳам таркиб топди. Айнан мана шу ғалаба ёки мағлубият ҳам рақибга бўлган муносабат ёки рақибнинг акс муносабатига боғлиқ ҳисобланади. Мисол тариқасида кўл жанги спорти билан шуғулланувчи спортчилар мисолида оладиган бўлсак бунда мусобақа олди таёргарлиги унда спортчининг ўзаро мусобақадан олдинги рақибига бўлган муносабатини дастлабки қадам дейишимиз мумкин.

Мотивация ҳолати доимо маълум ҳиссий маънога эга бўлади. Субъектнинг эҳтиёжи, унинг имкониятлари ўзининг маълум бир фаолияти талабларига мос келса, унда шу фаолият предметини эгаллаш туйғуси намоён бўлади. Спортда бу ҳолат спортчининг маълум спорт натижасига ёки ғалабага эришишини англаб етишида кўринади. Шу билан биргаликда фаолият алоҳида ҳаракатлардан ташкил топади. Масалан, боксчининг фаолияти ўзида ҳужум ва ҳимоя ҳаракатларини, мусобақа жанги каби бошқа ҳаракатларни амалга оширишида унинг мотиви асосий вазифани бажаради. Мотив ва мотивация субъект ва объектнинг алоқаси асосида юзага чиқади, лекин бу алоқалар жуда қисқа йўналишга эга бўлиши мумкин. Демак, мотив - бу шахснинг ички ҳолати бўлиб, керакли пайтда унинг ҳаракатларини кераклича йўналтиради ва кучлантиради [4].

## **ХУЛОСА**

Хулоса сифатида шунини айтиш жоизки, бугунги кунда спорт соҳаси, тизими ва фаолияти кўплаб мамлакатлар ҳаётида катта ўрин эгаллайди. Уларга кўплаб турли ёшдаги спорт билан шуғулланувчи одамлар жалб этилган. Спорт

гурухлари бошқа гурухлар каби шахс-жамият тизимида оралиқ бир қисимни ташкил этади. Уларнинг динамикаси қонуниятлари жамиятнинг синфли тузилиши ва ундаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар билан белгиланади. Шу боисдан барча тизимда мотивацион муносабат тушунчаси доимий алоқадорлиги жиҳатдан спорт соҳасида ҳам муҳим аҳамият касб этади. Чунки спортчи эришаётган натижаларни келгусида ҳам унга ижтимоий жараёнларда фақат тўғри фикр уйғонишига хизмат қилади.

### **REFERENCES**

1. Иброҳимов Ў., Машарипов Й. Спортчиларни жисмоний ва руҳий жиҳатдан чиниқтиришда спорт фаолиятининг аҳамияти. Болалар ва ёшлар ўртасида жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. - Термиз: 2003, 100-101- бетлар.
2. Абдурасулов Р.А. Мотивы учащихся-спортсменов в спортивной деятельности. Юбилейная международная научно-практическая кон-ференция. Сборник материалов. Самара. 2008. -С.226-229.
3. Е.П.Ильин Психология спорта \\\ Москва Санкт-петербург\\ 2009.
4. Абдурасулов Р.А. Ўқувчи спортчиларнинг индивидуал ва шахсий хусусиятлари. //Мақтаб ва ҳаёт. 2003.

## **YOSHLARDA KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Abdiyeva Dilfuza Kurbanovna,**

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish davom etmoqda. Bozor munosabatlarining rivojlanishi jamiyatning barcha sohalari uchun malakali va tajribali mutaxassis kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni oshib borishiga sabab bo'ladi. Bugungi ta'lim amaliyotida qo'llanayotgan mavjud usullar, vositalar bizga ko'zlangan natijalarni to'liq ta'minladi deyishga hali erta deb hisoblaymiz. Maqolada shular xususida muxtasar fikrlar bayon qilingaan.*

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, kasbiy bilim, mehnat bozori, ilm-fan, motivatsiya, intellektual rivojlanish, kasbiy ko'nikma, amaliy faoliyat.

### **ABSTRACT**

*The reform of the education system continues in our republic. The development of market relations causes an increase in the social need for qualified. and experienced specialist personnel for all areas of society. We believe that it is still too early to say that the existing methods and tools used in today's educational practice have fully provided us with the intended results. The article presents brief thoughts about them.*

**Keywords:** profession, professional knowledge, labor market, science, motivation, intellectual development, professional skills, practical activity.

### **KIRISH**

O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, so'ngi yillarda har bir soha rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladigan ilm-fan va ta'limga ham katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek ta'lim sifatini oshirish esa yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir. Shunday ekan, farzandlarimizni bilim olishi, kasb-hunar egallashi, o'zini- o'zi rivojlantirishlari uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar davlatimiz tomonidan yaratib berilmoqda.

Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Yoshlarni hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari va ularni ish bilan ta'minlash doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ta'limining asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq shuningdek, yoshlarning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo'yuvchi bozor

iqtisodiyotiga o'tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bunda albatta yoshlarning o'ziga xos xususiyatlarini, qobiliyati, qiziqishlarini hisobga olish hozirgi davrda juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu ularda kasbga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirish imkonini beradi. Yoshlarida kasbiy bilim olishga motivatsiyani shakllantirish esa uning kelgusidagi kasbiy faoliyati haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ta'limining asosiy vazifasi mehnat bozorining uzluksiz ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlariga muvofiq shuningdek, yoshlarning aniq kasbiy malaka darajasiga yuqori talablar qo'yuvchi bozor iqtisodiyotiga o'tilishini hisobga olib, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Bu borada ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan va adabiyotlarda manbaalar keltirilgan. Jumladan, Karimova V.M., Akramova F.A., G.O. Ochilovalar tomonidan tayyorlangan "Pedagogika-Psixologiya" o'quv qo'llanmasi, G.O. Ochilovning "Pedagogik mahorat" darsligi, Xo'jaev L., Xakimova M., M. Xoshimovalar hammuallifligida tayyorlangan "Pedagogika" fanidan darsliklari kabi manbaalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida hosil qilingan fikr-mulohazalarimiz maqolani shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yoshlarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirilishi – bu uning yetuk mutaxassis sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi maqsadga yo'naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi va quyidagi tashkil etuvchilardan iboratdir:

- shaxsiy sifatlarni kamol toptirish;
- intellektual rivojlanish;
- kasbiy rivojlanish;
- jismoniy komillik.

Xususan, mutaxassis o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun qator zarur sifatlarga ega bo'lishi kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy masalalarni yechishga ichki motivatsiya;
- kasbiy masalalarni yechish jarayonida yuqori natijalarga erishishga intilish;
- kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmunini tushunish va metodik asoslarini bilish.

Yoshlarimizning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish usullaridan biri bu amaliy hamda ularning o'z ustilarida mustaqil ishlashlari hisoblanadi.



Amaliy mashgʻulotlar hamda mustaqil izlanishlari yoshlarning oʻz ustilarida ishlash jarayonida quyidagi maqsadlarga erishishlarini nazarda tutiladi;

- olingan nazariy bilimlarni amaliy qoʻllash va kasbiy koʻnikmalarni rivojlantirish;

- insonlar bilan aloqalar oʻrnatish, rivojlantirish, ish yuzasidan muloqot qilish, guruh yoki jamoada hamkorlikda ishlash, axborot almashish tajribasini egallash.

Kasbiy koʻnikma bu nafaqat jismoniy balki aqliy harakatlarga ham tayyorgarlik, maʼlum vazifalarini bajara olish, ularni hal qilishning eng qulay usullarini tanlay olish, zarur harakatlarni rejalashtirish va bajara olish qobiliyati hamdir. Kasbiy koʻnikmaning aqliy jihatlarini jismoniy jihatlar kabi mukammal shakllantirib borish talab etiladi. Yuqori kasbiy koʻnikmani egallashga bosqichma-bosqich erishiladi. Taʼlim jarayonida talabalar dastlab sodda boshlangʻich koʻnikmalarni egallaydi, mehnat harakatlarini nomukammal, sekin bajaradi, har bir harakatni ongli ravishda kuzatib, nazorat qilib boradi. Yoshlarda kasbiy koʻnikma va malaklarni amalga oshirishda ular tegishli boʻlgan mehnat faoliyati bilan bogʻliq holda turli darajadagi murakkablikka ega boʻlgan mehnat usuli va jarayonini oʻrganib boradilar. Bunda koʻpchilik holatlarda mehnat usulini qoʻllash koʻnikmasi toʻla avtomatlashishi va malakaga aylanishi mumkin.

## **XULOSA**

Shunday qilib, koʻnikma va malaka ijtimoiy-tarixiy tushuncha boʻlib, muayyan vositalarni qoʻllagan holda, maʼlum sharoitlarda va aniq tezlikda rivojlanadi. Talabalar uchun ijtimoiy amaliy faoliyat taqozo etuvchi, maqsadga muvofiq harakatlar tizimi sifatida mavjud boʻladi.

## **ADABIYOTLAR ROʻYXATI (REFERENCES)**

1. Karimova V.M., Akramova F.A., Ochilova G.O. “Pedagogika-Psixologiya” -T.: 2012. -380 bet.
2. Ochilova G.O. “Pedagogik mahorat”, 2012. -420 bet.
3. Xoʻjaev L., Hakimova M., Xoshimova M. Pedagogika. Darslik. -T.: TDIU, 2007.-183 bet.
4. Gʻoziev E.G “Psixologiya” 1-2 tom. 2009. - 380 bet.
5. Амиров, Н. И., & Раджабова, М. З. К. (2020). Коммуникативная культура преподавателя и студентов в учебном процессе. *Вестник науки и образования*, (5-2 (83)), 28-31.
6. Amirov, N. I. (2021). PEDAGOG KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINING TALABALAR OʻZLASHTIRISH FAOLIYATIGA BOGʻLIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1583-1589.

## **O'QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI, TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Ikromova Ominaxon Elmurod qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

[zizbekikromov8@gmail.com](mailto:zizbekikromov8@gmail.com)

**Isheryakova Joanna Rinatovna**

Buxoro davlat universiteti

Xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

[Juanna2567@gmail.com](mailto:Juanna2567@gmail.com)

**Abdullajonova Muslimaxon Alisher qizi**

Andijon davlat universiteti Mexanika va matematik modellashtirish

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

[muslimaabdullayeva806@gmail.com](mailto:muslimaabdullayeva806@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada bolalarda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va ularga kerakli bilim ko'nikmalarni yetkazib berish yo'llari haqida ma'lumotlar yoritilgan. O'qish darslari orqali bolalarning fikrlash usullarini yuksaltirish haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *DTS, analetik, sentetik bosqichlar, tez o'qish, ongli o'qish, innotatsiya.*

### **ABSTRACT**

*In this article, information about the educational and educational importance of reading lessons for children and ways to provide them with the necessary knowledge and skills is covered. Information is provided on how to improve children's thinking through reading lessons.*

**Key words:** *DTS, analytical, synthetic stages, fast reading, conscious reading, annotation.*

### **KIRISH**

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari

bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalarida hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinclilik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy ommabop asarlar kiritiladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Vatandarparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, 2-sinf „O'qish kitobi" dagi „Ona yurtim-oltin beshigim" bo'limiga kiritilgan, „O'zbekistonim" {H. Imonberdiyev), „Istiqloq" (J.Jabborov), „O'lka" (E.Vohidov), „Yur tog'larga" (U.Nosir), 3-sinfda „Ona bitta, Vatan yagona" bo'limidagi „Vatan haqida she'r" (A.Avloniy), „O'zbekim" (E.Vohidov), „Vatan mo'tabardir" (X.Davron), „Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi" (T.Malik), 4-sinfda „O'zbekiston — Vatanim manim" bo'limidagi „Serquyosh o'lka" (Z.Diyor), „Iqbol buyuksan" (A.Oripov), „Toshkentnoma" (M.Shayxzoda), „Xarira" (N.Norqobil) kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmoshini, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga

oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsada, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqlol bilan bog'liq H. Imonberdiyevning, "O'zbekistonim", J. Jabborovning „Istiqlol11(2-sinf), A. Rustamovning „Bayroq nima?“, A. Obidjonning "O'ktam" (3-sinf), S. Barnoyevning „Mangulikka tatigulik kun“, E. Malikovning „Assalom, Neksiya!“ (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi. Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatga bo'lishga o'rgatadi. Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. Umuman, „O'qish kitobi" darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim -tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. Amaldagi „O'qish kitobi" darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan „Ajdodlarimiz — faxrimiz", „It ~ aql chirog'i“, „Zumrad bahor“, „Kumush qish“ kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi. Uzlüksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili" o'quv

dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat: 1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatleri: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish. 2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxonidan chuqur m ulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish. 3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish. 4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga m uhabbat ruhida tarbiyalash. 5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish. 6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish. 7. Elementar adabiy tasavurlarini shakllantirish. Shuni unutmash kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

### O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O'qish malakasining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi ongli o'qish hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi, to'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. **Analitik bosqich** savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in -harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. **O'quvchilar sintetik bosqichga** 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi. O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin. **To'g'ri o'qish.** To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushuniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay,



boshqa tovushni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar „Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir“, — deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: „To'g'ri o'qish — bu materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir“. Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushunish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatoga yo'l qo'yadilar:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

3. So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

4. Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

5. To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

6. Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar. **Tez o'qish.** Tez o'qis me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borishi lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish tez o'qish deyiladi. O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20—25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20—25 so'z); o'quv yili oxirida 25—30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30—35 so'z; 2-yarim yilligida 40—50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60—70 so'z; 2-yarim yilligida 70—80 so'z; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110—130 so'z, ovozli o'qishda 90—100 so'z deb belgilangan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori

ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda bir daqiqada 170—180 ta so'z o'qiydigan o'quvchilar ham bor. **Ongli o'qish.** Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida ikki ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlaridan biri ma'nosida qo'llanadi. **Intonatsiya (ohang).** Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-balandligining yig'indisidir. Maktabda o'qishning bu uch turi almashtirib turiladi. 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o'qishdan ichda o'qishga o'tilsa, 3-4-sinflarda ichda o'qishdan ovozli o'qishga o'tiladi. 3-4-sinflarda o'qish turlaridan foydalanishda chegara qo'yilmaydi. Boshlang'ich sinflarda o'qishning hamma turiga bir xil talab qo'yiladi, ya'ni o'qish to'g'ri bo'lishi, tez, ongli va ifodali bo'lishi zarur.

## **XULOSA**

Bugungi kunda yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirish maqsadida bir qator qo'lamli ishlar amalga oshirilmoqda, shu bilan birga, shuni ta'qidlash lozimki, O'zbekistonda har yili yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli va kitobdga bo'lgan mehrlarini yanada uyg'otish maqsadida Respublika bo'ylab turli xil tanlovlar o'tkazilmoqda, shulardan biri "Yosh kitobxon" tanlovidir. Bu tanlov orqali bir qator yoshlar 50, 60 dan ziyod kitoblarni o'qib Spark va bir qator qimmatbaxo sovg'alarni qo'lga kiritishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek "Kitob o'qi Spark yutib ol, ota-onangni xursand qil", bu degani qancha kitob o'qisak, bizning bilimimiz, dunyo qarashimiz va tassavurimiz kengayadi.

## **REFERENCES**

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi41, 1992.
2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. — T.: 2003.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi", 1992.
4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 1999.
5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari (1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „O'qituvchi", 1997.

6. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi", 2000.
7. B. Ma'qulova, D. Nasriddinova. Kitobim — oftobim (1-sinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi" NMIU , 2008.
8. Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N . Bikboyeva. — T.: 1994.
9. J. G ' . Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: „O'qituvchi", 2004.
10. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o'rgatish. - T.: „O'qituvchi", 1960.
11. K. Qosimova. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. — T.: 1964.
12. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne'matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). — T.: Cho'lpon, 2005. 13. K. Qosimova, A. Ne'matova. 2-sinfda ona tili darslari. — T.: Cho'lpon, 2004.

## **ЭР ВА ХОТИННИНГ УМУМИЙ МОЛ-МУЛКИНИ БЎЛИШ МУАММОЛАРИ**

**Шарахметова Умида Шаакбаровна,**  
Тошкент давлат юридик университети  
Фуқаролик ҳуқуқи кафедраси профессори,  
юридик фанлар номзоди  
E-mail: [Sharaxmetova74@list.ru](mailto:Sharaxmetova74@list.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Сўнгги йилларда илмий доираларда ва қонунчилик даражасида мулкрий муносабатлар, шу жумладан эр-хотиннинг мулкни тақсимлашдан келиб чиқадиган муносабатлар соҳасидаги қонунчиликни ислоҳ қилиш масалалари тобора кўпроқ кўтарилмоқда. Эр хотиннинг мулкрий муносабатлари фуқаролик ва оилавий қонун ҳужжатлари билан тартибга солинади. Оила кодексининг "эр ва хотиннинг умумий мулки" тушунчаларини қайта кўриб чиқиш, хусусан, аниқлаштиришни, шахсий ва умумий мажбуриятларни фарқлаш мезонларини ишлаб чиқишни талаб қилади. Мақолада эр-хотиннинг мулкни тақсимлаш тамойиллари таҳлил қилинади. Эр ва хотиннинг мулки тушунчасини кенгайтириш, унга иқтисодий аҳамиятга эга виртуал объектларни киритиш зарурлиги ҳақида айтилади. Эр-хотиннинг қарзларини тақсимлаш, умумий мулкни тақсимлашда эр-хотиннинг ҳуқуқларини суиистеъмол қилиш муаммоси кўриб чиқилади. Никоҳ даврида орттирилган мол-мулкни бўлиш тўғрисидаги низоларни ҳал этишда юзага келадиган масалалар, бу борадаги суд амалиёти ўрганилган.*

**Калит сўзлар:** *эр-хотин, эр-хотиннинг умумий мулки, мулкни тақсимлаш, қарзлар, эр-хотиннинг шахсий мулки, умумий мулкдаги улушлар, ҳуқуқни суиистеъмол қилиш.*

## **PROBLEMS OF DIVISION OF COMMON JOINT PROPERTY OF SPOUSES**

### **ANNOTATION**

*In recent years, in the scientific community and at the legislative level, issues of reforming legislation in the field of property relations, including those arising from the division of property of spouses, have been increasingly raised. The property relations of the spouses are regulated by civil and family legislation, the norms of the latter do not meet modern conditions, they are in conflict with the norms of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan.. And if the latter is constantly being reformed,*

then family legislation in the area under study does not develop, questions arise in the understanding and application of these norms.

*The Family Code requires revision, in particular, the clarification of the concept of “common property of the spouses”, the development of criteria for distinguishing between personal and general obligations. The article analyzes the principles of the division of property of spouses. It is said about the need to expand the concept of property of the spouses, to include in it virtual objects that have economic value. The problem of division of spouses' debts, abuse of the rights of spouses in the division of common property is considered. The issues that arise in resolving disputes about the division of property acquired during the marriage, judicial practice in this area are investigated. Various points of view, judicial practice on the issue under study are analyzed.*

**Keywords:** spouses, common property of spouses, division of property, debts, personal property of spouses, shares in common property, abuse of right.

## **КИРИШ**

Эр-хотиннинг ўртасидаги энг кенг тарқалган низолар умумий биргаликдаги мулкни бўлишдир. Бунда уларнинг умумий мулк режими бекор бўлади, эр-хотинларнинг ҳар бири ушбу мулкнинг бир қисмига эгалик ҳуқуқини олади. Айрим ҳолларда мулкнинг айрим турларини умумий биргаликдаги мулдан улушли мулкка ўтказиш сифатида; эр-хотиннинг (собиқ эр-хотинларнинг) ҳар бирига маълум бир мол-мулкни ёки унинг бир қисмини натура шаклида ёки улушларда тенг бўлмаган тақдирда ёки товон тўлаш билан тақсимланади. Умумий биргаликдаги мулкни тақсимлаш билан боғлиқ масалалар фуқаролик, фуқаролик процессуал ва оила ҳуқуқи нормалари билан тартибга солинади. Аммо оила қонунчилигида ушбу масалаларни ҳал этишда айрим нормаларни такомиллаштириш зарурати юзага келмоқда.

## **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Кўчмас мулкни бўлиш пайтида энг кўп низолар юзага келади, чунки у энг юқори қийматга эга ва ундан улуш ёки қисмни ажратиш кўпинча мумкин эмас ёки жуда қийин. Мулкни бўлиш никоҳ пайтида, никоҳни бекор қилиш билан бир вақтда ёки ажрашгандан кейин амалга ошириш мумкин. Кейинги ҳолатда, яъни никоҳдан ажратилгандан сўнг 3 йиллик даъво муддати амал қилишини унутмаслик лозим. Оила кодексининг 27- моддасининг 9-қисмида никоҳдан ажралган эр ва хотиннинг умумий мол-мулкни бўлиш тўғрисидаги талабларига нисбатан уч йиллик даъво муддати қўлланилади. Оила кодекси 27-моддасининг 9- қисмида никоҳдан ажратилган эр-хотиннинг биргаликдаги умумий мулкни бўлиш учун белгиланган уч йиллик даъво муддатининг



ўтишини никоҳ тугатилган вақтдан (яъни, ФХДЁ органларида никоҳдан ажратиш қайд этилган ёки суднинг ҳал қилув қарори қонуний кучга кирган кундан) эмас, балки шахс ўз ҳуқуқи бузилганлигини билган ёки билиши лозим бўлган кундан бошлаб ҳисоблаш лозим (ФК 154-моддаси биринчи қисми).<sup>112</sup>

Мол-мулк эр-хотиннинг келишувига биноан бўлиниши мумкин. У ёзма шаклда ва нотариал тасдиқланган бўлиши керак. Бундай келишув шартлари амалдаги қонунчилик талабларига жавоб бериши, учинчи шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини бузмаслиги керак. Акс ҳолда, бундай келишув ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин. Масалан, Фуқаролик ишлар бўйича Миробод туманлараро судининг собиқ эр- хотинлар Ф.С. ва Ф.А.лар ўртасида никоҳ даврида орттирилган мол-мулкни бўлиш тўғрисида тузилган келишув битимини тасдиқлаш тўғрисидаги ажримини бекор қилди. Биринчи инстанция суди томонидан тасдиқланган келишувга биноан, фуқаро Ф.С.нинг кредиторлари ҳуқуқлари бузилган, яъни қарзлари тўланиши лозим бўлган хатланган мол-мулк Ф.А.нинг мулкига ўтказилган. Ўзбекистон Республикасининг 29.08.2001 йилдаги 258-II-сонли “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги Қонунининг<sup>113</sup> 52-моддасига биноан Ф.С.нинг мулкида қолган турар-жой ундирув қаратилиши мумкин бўлмаган мол-мулк бўлиб ҳисобланади. Ф.С.нинг ҳисобида унинг У.га бўлган қарзлари бўйича ундириш мумкин бўлган бошқа мол-мулк иш материаллари билан тасдиқланмаган. Шунингдек, суд келишувнинг шартлари оила ҳуқуқи нормаларига, яъни Оила кодексининг 23, 27 -моддасининг 3 қисми ва 28-моддаларига мос келмаслигини ҳисобга олмади. Ушбу келишувнинг шартларига кўра, эр-хотиннинг умумий мулки бўлиб, никоҳ бекор қилингандан кейин жавобгар томонидан сотиб олинган квартира умумий мол мулк доирасига киритилиши, шунингдек, никоҳ пайтида сотилган квартирадандан даъвогар томонидан олинган пул маблағлари киритилган. Бундан ташқари, келишувда эр-хотиннинг низоли мол-мулкни сотиб олиш билан боғлиқ бўлган умумий қарзлари ҳисобга олинмаган ва улуш қийматидан ошиб кетганлиги учун пул компенсацияси миқдори масаласи ҳал этилмаган. Эр ва хотиннинг умумий мол-мулкидаги улушлари тенглигидан чекинишга ҳақли эканлик масаласига ҳаволалар келтирилмаган.

<sup>112</sup> “Судлар томонидан никоҳдан ажралишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг Олий суди пленумининг қарори, 6 сон., 20.07.2011 й.

<sup>113</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги 258-II-сонли Қонуни 29.08.2001 й.

Суд муҳокамаси давомида келишув битими ҳам тузилиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси “Медиация тўғрисида”<sup>114</sup> ги Қонуниинг 15-моддасининг 2 қисмига биноан, медиация суддан ташқари тартибда, низони суд тартибда кўриш жараёнида, суд хужжатини қабул қилиш учун суд алоҳида хонага (маслаҳатхонага) киргунига қадар, шунингдек суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этиш жараёнида қўлланилиши мумкин. Агар тарафлар судгача бўлган жараёнда медиатив келишувга эришсалар, медиатив келишув Ўзбекистон Республикаси “Нотариат тўғрисида”<sup>115</sup> ги Қонунининг 61-моддасига кўра, нотариус тарафлар ўртасида тузилган медиатив келишувни тасдиқлайди. Агар келишувга эришилмаса, низо ҳал қилиш учун судга юборилади. Даъво эр-хотиндан бири, кредитор, суд ижрочиси томонидан берилиши мумкин. Кредитор фуқаронинг умумий мулкдаги улушини ундириш учун ажратиш тўғрисида талаб қўйишга ҳақли. “Суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этиш тўғрисида” ги Қонунининг 47-моддасининг охири бандида қарздор бошқа шахслар билан умумий мулк ҳуқуқи асосида тегишли мол-мулкка эга бўлган ҳолларда ундирв унинг қонунчиликка мувофиқ аниқланадиган улушига қаратилади.

Шунингдек, агар эр ёки хотин соғлиги, ёши, муомалага лаёқатсиз деб топилганлиги ва бошқа узрли сабабларга кўра ўзи судга мурожаат қила олмаса) прокурор; меросхўр (умумий биргаликдаги мулкдаги улушини ажратиш, кейин эса меросни бўлиш тўғрисида талаб билан мурожаат қилиш ҳуқуқи эга). Даъво аризаси жавобгарнинг яшаш жойи (худудий юрисдикция) бўйича берилади. Аммо умумий мулкни бўлиш тўғрисидаги даъвода кўчмас мулкни бўлиш тўғрисидаги даъво мавжуд бўлса, у ушбу мулк жойлашган жойда кўриб чиқилади (ФКнинг 246-моддаси).

Эр хотиннинг умумий биргаликдаги мулки Оила кодексининг 27-моддасига биноан бўлинади. Оила кодексининг 23-моддасида мустаҳкамланган эр хотининг умумий биргаликдаги мулки жумласига: эр ва хотиннинг никоҳ давомида орттирган мол-мулклари жумласига (эр ва хотиннинг умумий мол-мулкига) эр ва хотин ҳар бирининг меҳнат фаолиятидан, тадбиркорлик фаолиятидан ва интеллектуал фаолият натижаларидан орттирган даромадлари, улар томонидан олинган пенсиялар, нафақалар, шунингдек махсус мақсадга мўлжалланмаган бошқа пул тўловлари (моддий ёрдам суммаси, майиб бўлиш ёки саломатлигига бошқача зарар етказиш оқибатида меҳнат қобилятини йўқотганлик муносабати билан етказилган зарарни қоплаш тарзида тўланган

<sup>114</sup> Ўзбекистон Республикаси “Медиация тўғрисида” ги Қонуни 2019 й

<sup>115</sup> Ўзбекистон Республикаси “Нотариат тўғрисида” ги Қонуни 1996 й.

суммалар ва бошқалар) киради. Эр ва хотиннинг умумий даромадлари ҳисобига олинган кўчар ва кўчмас ашёлар, қимматли қоғозлари, пайлари, омонатлари, кредит муассасаларига ёки бошқа тижорат ташкилотларига киритилган капиталдаги улушлари ҳамда эр ва хотиннинг никоҳ давомида орттирган бошқа ҳар қандай мол-мулклари, улар эр ёки хотиндан бирининг номига расмийлаштирилган ёхуд пул маблағлари кимнинг номига ёки эр ва хотиннинг қайси бири томонидан киритилган бўлишидан қатъи назар, улар ҳам эр ва хотиннинг умумий мол-мулки ҳисобланади.

Ушбу юқорида келтирилган рўйхат очик бўлиб, эр ва хотиннинг никоҳ давомида орттирган бошқа ҳар қандай мол-мулклари умумий биргаликдаги мулк доирасига кириши келтирилган. Демак, эр-хотин ҳар қандай мулкка эгалик қилишлари мумкин, қонун ҳужжатларига мувофиқ фуқароларга тегишли бўлмаган мулкнинг айрим турлари бундан мустасно. Мулкнинг миқдори ва қиймати чекланмайди, бундай чекловлар қонун билан белгиланган ҳоллар бундан мустасно (ФКнинг 207-моддасининг 2 қисми).

Бугунги кунда долзарб ҳисобланадиган виртуал мулк масаласи адабиётларда муҳокама қилинади. Хусусан, Я.А. Перепелкина виртуал объектларнинг мулкӣ муомалада бўлишини норматив ҳуқуқӣ тартибга солишда бўшлиқ мавжудлиги ҳақида фикр билдиради<sup>116</sup>. Бу фойдаланувчининг ўйин атрибутига эгалик қилиш ёки уни сотишдан фойда олиш манфаатини бузиш учун асос яратади. Фойдаланувчининг манфаатларини бузиш ўйинни ишлаб чиқувчининг ҳаракатлари (аккаунтни блоклаш, фойдаланувчи ҳисобидан ўйин атрибутларини ўчириш, ўйин мулкнинг график ва функционал хусусиятларини ўзгартириш) ёки учинчи шахсларнинг ҳаракатлари (аккаунтни бузиб кириш натижасида ўйин атрибутини ўғирлаш) билан боғлиқ бўлиши мумкин.

М.А. Рожкова виртуал мулкни "иқтисодий қийматга эга бўлган, фойдали аммо фақат виртуал маконда ишлатилиши мумкин бўлган номоддий объектлар", фойдали токенлар, криптовалюта, домен номлари, стикерлар, ижтимоий тармоқ аккаунтлари, шунингдек, ўйин мулки деб атаиди; электрон почта манзили ва виртуал хоналар" деб атаиди<sup>117</sup>.

Белоруссия Республикасида суд виртуал ўйин иштирокчиси аккаунтини ажралиш жараёнидаги бўлиниш шарти билан эр хотиннинг умумий

<sup>116</sup> Перепелкина Я.А. Виртуальное игровое имущество: перспективы правового регулирования // Журнал Суда по интеллектуальным правам. 2020. № 29. С. 45-60

<sup>117</sup> Рожкова М.А. Цифровые активы и виртуальное имущество: как соотносится виртуальное с цифровым [Электронный ресурс] // Закон.ру. 2018. 13 июня.

биргаликдаги мулки доирасига киритди, чунки "қиймат" белгиси виртуал мулкни киритиш имконини беради<sup>118</sup>.

Бугунги кунда эр-хотинларнинг умумий мулки алоҳида ҳуқуқ объектлари мажмуи сифатида қаралади. Шу сабабли, ушбу тушунчага аниқлик киритиш, уни эр хотиннинг мулки, мулкӣ ҳуқуқлари ва умумий қарзларини ўз ичига олган яхлит мулкӣ комплекс сифатида кўриб чиқиш таклиф этилади.

Мулкни никоҳда биргаликда сотиб олинган деб тан олиш учун ушбу мулкни эр-хотиндан бирининг номига расмийлаштирилишининг ўзи етарли эмас. Мулкни умумий мулк деб эътироф этишининг зарурий шартининг биргаликдаги маблағлар ҳисобидан олинганлигидир.

Агар эр-хотинлар келишувга эриша олмасалар, мулкни тақсимлаш бўйича низо судда ҳал қилинади. Ушбу ишларни кўриб чиқишда суд оилавий муносабатларни ва оилавий хўжаликни юритишни амалда тугатиш вақтини белгилайди, чунки эр-хотинларнинг мулки режими айнан шундан ўзгаради. Бўлиниши керак бўлган мол-мулк таркибига эр ва хотиннинг ишни кўриб чиқиш пайтида мавжуд бўлган ёки учинчи шахсларда бўлган умумий мулки киради. Мулкни тақсимлашда эр-хотинларнинг умумий қарзлари ва оила манфаатларидан келиб чиқадиган мажбуриятлар бўйича даъво қилиш ҳуқуқи ҳам ҳисобга олинади (ЎЗР Оила кодекси 28-моддаси).

Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 28- моддасининг 3-қисмига биноан, эр-хотиннинг умумий мулкни тақсимлаш бўйича умумий қарзлари эр-хотинлар ўртасида уларга берилган улушларга мутаносиб равишда тақсимланади. Умумий ва шахсий мажбуриятларни фарқлашда қийинчиликлар пайдо бўлиши мумкин. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг "Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида" Қарори<sup>119</sup> 20 бандининг 3 қисмида мулкни бўлишда, шунингдек эр-хотиннинг умумий қарзлари (ОК 28-моддаси учинчи қисми) ва оила манфаатлари йўлида вужудга келган мажбуриятлар бўйича талаб қилиш ҳуқуқи инобатга олинади. Бироқ судлар шуни назарда тутишлари лозимки, тўйни, шунингдек никоҳ маросимлари билан боғлиқ бошқа тадбирларни ўтказиш бўйича қарзлар ва бошқа харажатлар инобатга олинмайди (ОК 44-моддаси). Шу билан бирга, ушбу ҳолатларни исботлаш юки қарзни тақсимлашни талаб қилувчи томон зиммасига тушади.

Н.М. Ершова шу муносабат билан "шахсий қарзлар эр ёки хотиннинг никоҳдан олдин ёки ҳеч бўлмаганда никоҳ пайтида пайдо бўлган, лекин унинг

<sup>118</sup> [http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/80197/1/Kovaleva\\_I.N.\\_98\\_99.pdf](http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/80197/1/Kovaleva_I.N._98_99.pdf).

<sup>119</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг "Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида" Қарори 20.07.2011 йилдаги 06-сон.

шахсий мулки билан боғлиқ бўлган деб ҳисобланиши керак"лигини таъкидлайди<sup>120</sup>. Л.М.. Пчелинцеванинг фикрига кўра, эр-хотинларнинг шахсий қарзлари- никоҳ қайд этилгунга қадар мустақил равишда пайдо бўлганларни ўз ичига олиши керак: - никоҳ қайд этилгандан сўнг эса, фақат эр ёки хотиннинг соф шахсий эҳтиёжларини қондириш учун; - эр-хотинлардан бирига никоҳ пайтида мерос бўлиб қолган мол-мулкни оғирлаштирадиган қарзлар натижасида (васият қилувчининг қарзи); - эр ёки хотин томонидан бошқа шахсларга етказилган зарар натижасида; - эр ёки хотин болаларга (бошқа никоҳдан) ёки оила аъзоларига нисбатан таъминот мажбуриятларини бажармаганлиги сабабли; - қарздорнинг шахси билан чамбарчас боғлиқ бўлган мажбуриятларни келтириб чиқарадиган бошқа асослардан келиб чиқиш лозимлигини таъкидлайди<sup>121</sup>.

Агар эр-хотинлардан бири қарз шартномасини тузса ёки қарзнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ бошқа битим тузса, бундай қарз фақат Оила кодексининг 28-моддаси 3-бандидан келиб чиқадиган ҳолатлар мавжуд бўлса, исботлаш мажбурияти мавжуд бўлса, умумий деб эътироф этилиши мумкин. . Ушбу тоифадаги ҳолларда юридик аҳамиятга эга бўлган ҳолатлар аниқланиши керак: - қарзни умумий деб тан олишни даъво қилган эр ёки хотин томонидан қарз маблағларини олиш мақсади; - мажбурият ҳар иккала эр-хотиннинг ёки эр-хотинлардан бирининг ташаббуси билан, лекин оила манфаатларидан келиб чиққан ҳолда вужудга келганми; - эр-хотинлардан бири олган пул оила эҳтиёжларига сарфланганлигини аниқлаш. Агар ушбу ҳолатлар исботланмаса, умумий қарз деб эътироф этиш тўғрисидаги даъво қаноатлантирилмайди.

Оила кодексининг 25- моддасида эр ва хотиннинг никоҳга қадар ўзига тегишли бўлган мол-мулки, шунингдек улардан ҳар бирининг никоҳ давомида ҳады, мерос тариқасида ёки бошқа бепул битимлар асосида олган мол-мулки улардан ҳар бирининг ўз мулки ҳисобланади.

Айнан ушбу моддада келтирилган эр ва хотиннинг никоҳга қадар ўзига тегишли бўлган мол-мулки, шунингдек улардан ҳар бирининг никоҳ давомида ҳады, мерос тариқасида ёки бошқа бепул битимлар асосида олган мол-мулки масалалари амалиётда айрим муаммоларни келтириб чиқармоқда. Ушбу қайд этилган мол мулк "чегара" режими деб аталадиган мулкнинг пайдо бўлишига олиб келади, яъни, унга нисбатан эгалик ҳуқуқи тўғрисида аниқ хулоса чиқариш мумкин бўлмаган мулк деб аташ мумкин. Чунки унинг ҳуқуқий

<sup>120</sup> Ершова, Н.М. Проблемы гражданско-правового регулирования личных и имущественных отношений в сфере семьи: Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. Москва, 1979. 20 с

<sup>121</sup> Семейное право : учебник и практикум для вузов / Л. М. Пчелинцева [и др.] Издательство Юрайт, 2023. — 330 с ;



режимни белгилашда эр ва хотининг ҳар бирининг ўз мулкни (Оила кодексининг 25- моддаси), қонун чиқарувчи текин битимлар орқали олинган мол-мулкни эслатиб ўтади, лекин иккинчисини сотиш ёки бошқа бегоналаштириш йўли билан сотиб олинган мулкнинг тақдири ҳақида ҳеч нарса айтмайди.

Эр ёки хотиннинг шахсий мулкни сотишдан олинган пул эвазига никоҳ пайтида мулк (масалан, турар-жой) олиниши одатда учрайди. Бир томондан, мулк никоҳдан олдин эр ёки хотиннинг бирига тегишли бўлганлиги ва унинг шахсий мулки бўлганлиги сабабли, уни сотишдан олинган даромад ушбу эр ёки хотиннинг шахсий мулки ҳисобланади. Бошқа томондан, мулк биргаликда сотиб олинган (никоҳ даврида) деб ҳисобланган маблағлар ҳисобига киради. Шундай қилиб, "чегара" режими остида эр ёки хотиндан бирига шахсий мулк ҳуқуқига эга бўлган мулкни сотиш йўли билан олинган мулк киради. Фикримизча ушбу бўшлиқни эр ёки хотин томонидан ўз шахсий мулки ҳисобига сотиб олинган мол-мулк бўйича низоларни ҳал қилишда умумий ёндашувни ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Хусусан Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида” Қарорига эр ва хотиннинг никоҳга қадар ўзига тегишли бўлган мол-мулки, шунингдек улардан ҳар бирининг никоҳ давомида ҳадя, мерос тариқасида ёки бошқа бепул битимлар асосида олган мол-мулкни тасарруф этиш натижасида олинган маблағ ва мол мулк унинг ўз мулки эканлигини киритиш лозим.

Шу билан бирга, амалдаги қонунчиликда ушбу масалани тартибга солишнинг йўқлиги Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан тушунтиришлар бериш билан эмас, балки Ўзбекистон Республикаси Оила кодексига қўшимчалар киритиш орқали тўлдирилиши керак бўлган бўшлиқ эканлиги аниқ ва Оила кодексининг 25- моддасига тегишли қонидани киритиш керак деб ҳисоблаймиз.

## **REFERENCES**

1. Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. Адолат ., Т.2022 й
2. Ўзбекистон Республикасининг “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги 258-II-сонли Қонуни 29.08.2001 й.
3. Ўзбекистон Республикаси “Медиация тўғрисида” ги Қонуни 2019 й
4. Ўзбекистон Республикаси “Нотариат тўғрисида” ги Қонуни 1996 й.

5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг “Судлар томонидан никоҳдан ажратишга оид ишлар бўйича қонунчиликни қўллаш амалиёти тўғрисида” Қарори 20.07.2011 йилдаги 06-сон.
6. Ершова, Н.М. Проблемы гражданско-правового регулирования личных и имущественных отношений в сфере семьи: Автореф. дис. ... докт. юрид. наук. Москва, 1979. 20 с
7. Семейное право : учебник и практикум для вузов / Л. М. Пчелинцева [и др.] Издательство Юрайт, 2023. — 330 с ;
8. Эгамбердиев Э. Х. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЕЙНОГО ПРАВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН //ХАБАРШЫСЫ. – 2017. – С. 119.
9. Бурханова Л. М., Эгамбердиев Э. Х. СЕМЕЙНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК СПОСОБ РАЗРЕШЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ //Материалы VII Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы социально-трудовых отношений», посвященной 60-летию основания Института социально-экономических исследований ДФИЦ РАН. – 2019. – С. 121-123.
10. Эгамбердиев Э. Х. РАСТОРЖЕНИЕ БРАКА В СИСТЕМЕ ОСНОВАНИЙ ПРЕКРАЩЕНИЯ БРАКА //Лебедева Надежда Анатольевна–доктор философии в области. – 2019. – С. 34
11. Перепелкина Я.А. Виртуальное игровое имущество: перспективы правового регулирования // Журнал Суда по интеллектуальным правам. 2020. № 29. С. 45-60
12. Рожкова М.А. Цифровые активы и виртуальное имущество: как соотносится виртуальное с цифровым [Электронный ресурс] // Закон.ру. 2018. 13 июня.
13. [http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/80197/1/Kovaleva\\_I.N.\\_98\\_99.pdf](http://edoc.bseu.by:8080/bitstream/edoc/80197/1/Kovaleva_I.N._98_99.pdf)

## **O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

**Abdurazzoqov Shahzod Otabekovich**

Toshkent moliya instituti magistranti

[shahzodbekofficial99@gmail.com](mailto:shahzodbekofficial99@gmail.com)

**Abdurazzoqova Gulhayo**

Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlan-tirish, milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, hayot sug'urtasi xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish kunning eng dolzarb masalasi bo'lgan bir paytda hayot sug'urtasining rivojlanishiga bir qancha omillarning salbiy ta'siri mamlakatimizdagi real voqelikni va unga xos xususiyatlarni hamda ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda hayotni sug'urtalash sohasida innavatsion mexanizmni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan tegishli ishlarni amalga oshirish yo'llari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** sug'urta kompaniyalari, hayotni sug'urtalash dasturlari, aholini ijtimoiy himoya qilish, yalpi ichki mahsulot, hayot sug'urtasi, bonuslar, manfaatlarini sug'urta qilish.*

*“Men sug'urta to'lovlari tufayli xonavayron bo'lgan oilalarni bilmayman, lekin to'lovlar qilinmaganligi sababli xonavayron bo'lgan oilalarni bilaman.”*

**Uinston Cherchil**

### **KIRISH**

Milliy sug'urta bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlarini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish kunning eng dolzarb masalasi bo'lgan bir paytda hayot sug'urtasining rivojlanishiga bir qancha omillarning salbiy ta'siri mamlakatimizdagi real voqelikni va unga xos xususiyatlarni hamda ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda hayotni sug'urtalash sohasida innavatsion mexanizmni ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan tegishli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada esa, hayot sug'urtasining har bir potensial sug'urtalanuvchilarini ushbu faoliyat turiga jalb etuvchanligini yanada oshirish orqali uning uzoq muddatli progressiv rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

Hayot sug'urtasi nima degan savolga esa aslida quyidagicha javob berish mumkin: “hayot sug'urtasi” – sug'urta sohalaridan biri bo'lib, hayotni sug'urta qilish

(jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish), bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Sug'urta kompaniyasi sug'urta tovonini to'laydi, qachonki: agar sug'urtalangan shaxs ma'lum bir yoshga to'lganda, shuningdek baxtsiz hodisada vafot etgan taqdirda yoki sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa holatlar yuz bergan taqdirda. Odatda, o'lim holatlarida to'lov sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari yoki sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan benefitsiar tomonidan qabul qilinadi. Bundan tashqari bank ham olishi mumkin, agar mashina yoki uy-joy garovga qo'yilgan bo'lsa (qarz oluvchining sug'urtasi).

Aslida hayot sug'urtasi qanday ishlaydi degan savolga quyidagicha misol va javob keltirish mumkin: mijoz hayot sug'urtasi shartnomasini (klassik turdagi) tuzadi va har oy, har chorakda yoki har yili sug'urta mukofotlarini to'lab boradi. Agar sug'urta hodisasi shartnoma muddati davomida ro'y bersa, masalan, omon qolish yoki o'lim yuz berganda, kompaniya kompensatsiya to'laydi. Qoida tariqasida, kompensatsiya miqdori amalda to'langan badallar miqdoridan bir necha barobar yuqori bo'ladi. Masalan, sug'urta muddati 13 oy bo'lgan, har oyda 1000000 so'mlik to'lov bilan shartnoma tuzilgan: sug'urtalangan shaxs omon qolganda: 13 000 000 so'm, shuningdek 4% dan 7% gacha bonus oladi, agar halokatli oqibatlarga olib kelganda: uning merosxo'rlari yoki benefitsiar 13 000 000 so'm oladi.

Hayotni sug'urtalashning boshqa turlari ham bor, masalan, hayotda maxsus muhim voqealar uchun mablag' to'plash, masalan, nikoh, bolaning tug'ilishi yoki ko'pchilik farzandlarning balog'at yoshiga qadar tejash va hokazo. Bundan tashqari, hayotni sug'urtalash bo'yicha yuqori daromadli mahsulotlar mavjud, bu yerda katta bonus bilan samarali tejashdan tashqari, siz 13-oydan boshlab oylik annuitetlarni (oylik to'lovlar) ham olishingiz mumkin. Annuitet oylik to'lovning 100% ni tashkil qilishi mumkin va to'lovlar plastik kartangizga o'tkaziladi. Shuni yodda tutish kerakki, davlatimiz hayotni sug'urtalash sohasini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini joriy etgan, bu esa sug'urta himoyasining zarur miqdori va amal qilish muddatidan tashqari, daromad solig'ini 12% ortiqcha tejashga imkon beradi. Kompaniyadan tanlangan dasturga qarab 4% dan 7% gacha bo'lgan bonuslar ham mavjud. (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining<sup>122</sup> 378 -modda, 15-bandiga ko'ra

<sup>122</sup> O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2019 yildagi PF-5837-son

shaxsiy daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar: *“Jismoniy shaxslarning ish haqi va uzoq muddatli hayot sug'urtasi uchun ajratilgan boshqa daromadlari soliqqa tortilmaydi.”* Shuningdek, 369 -modda: (Umumiy daromadga kiritilmagan daromadlar bandiga asosan) 4) fuqarolar sug'urta kompensatsiyasi shaklida olgan summalar; (ya'ni, sug'urta da'vosi to'liq daromadga kiritilmagan va daromad solig'iga tortilmaydi)). Lekin, O'zbekistonning hayotni sug'urtalash tizimining hozirgi holati ko'p jihatdan sug'urta davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosati vositasi sifatida talab qilinmaganligi bilan bog'liq. Sug'urtaning tabiatiga mos keladigan, korxonalar va fuqarolarning hayotini uzoq muddatli sug'urta qilishga rag'batlantiruvchi soliq rejimi yuqori darajada shakllantirilmagan.

Hayotni sug'urtalashning ichki bozorining rivojlanishiga asosan fuqarolarning moliya institutlariga, xususan, sug'urta kompaniyalariga ishonchsizligi to'sqinlik qilmoqda. Uzoq muddatli hayot sug'urtasini rivojlantirishga sharoit yaratish uchun O'zbekiston ijtimoiy, pensiya va tibbiy sohalarni isloh qilishi kerak.

Biroq, sug'urta mukofotlari tushumlarining bunday tez o'sishiga qaramay, o'zbekistonliklarning deyarli 12-15 foizi qashshoqlik chegarasidan past ekanligini va 4-5 milliondan ortiq fuqarolarning daromadlari yashash minimumidan past ekanligini unutmaslik kerak. Faqat hayotni sug'urtalashni keng rivojlantirish haqiqatan ham davlat ijtimoiy himoyasini aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam berishga yo'naltirish imkonini beradi, aholining badavlat qatlamlari sug'urta xizmatlarini xarid qilish orqali o'zlariga g'amxo'rlik qiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, hayot sug'urtasini ayniqsa uzoq muddatli hayot sug'urtasini (ham ish beruvchi, ham xodimlar hisobidan) keng rivojlantirish kerak.

O'tgan davr mobaynida, ya'ni 2021-yil uchun davlat dasturida hayot sug'urtasi tarmog'ida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining foyda soliq yukini ikki baravarga kamaytirish belgilangan edi. 2021-yil uchun «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» davlat dasturi onlayn muhokamaga qo'yildi. Dasturning moliya tizimini isloh qilishga oid bandida hayot sug'urta tarmog'ini va shaxsiy sug'urta tizimini rivojlantirish masalalariga ham urg'u berilgan. Hujjatda mazkur sug'urta turlarini ommalashtirish, yangi sug'urta inflatsiya omillarini hisobga olish bo'yicha bir necha vazifalar belgilangan. Xususan:

- O'zbekiston Respublikasida hayot sug'urta tarmog'ini hamda shaxsiy sug'urtani 2024-yilgacha rivojlantirish;
- yangi va zamonaviy sotish instrumentlarini joriy etish yo'li orqali sug'urta mahsulotlarini sotish kanallarini kengaytirish;
- muhim sug'urta mahsulotlarini eng qulay to'lov usullarida amalga oshirilishi;



▪ hayot sugʻurtasi tarmogʻida faoliyat yuritayotgan sugʻurta tashkilotlarining foyda soliq yukini ikki baravarga kamaytirish nazarda tutilgan edi.

Keyinchalik, sugʻurta bozorini raqamlashtirish va hayot sugʻurtasi sohasini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Qaroriga koʻra<sup>123</sup>, 2022-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvarga qadar hayot sugʻurtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sugʻurta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda soligʻi boʻyicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga kamaytirilishi taʼminlandi. Bundan tashqari, 2022-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchi tomonidan oʻz xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sugʻurta qilish va tibbiy sugʻurta turlari boʻyicha tuzilgan sugʻurta shartnomalari asosida Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi boʻlgan yuridik shaxslarga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida eʼtirof eʼtilmasligi (hisoblanmasligi) ham taʼminlandi.

Yuqorida keltirib oʻtilgan fikrlarni inobatga olgan holda, milliy va xorijiy tajribalar asosida mamlakatimiz hayot sugʻurtasi xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari baho berish, hayot sugʻurtasi sohasining rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillarni va ularning taʼsir darjasini aniqlash, hayot sugʻurtasini rivojlantirish bilan bogʻliq fundamental muammolarni topish hamda ularni hal etishga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kun tartibidagi eng dolzarb masala ekanligi shubhasizdir. Umuman olganda mamlakatimizda hayot sugʻurtasi xizmatlari bozorining oxirgi yillarda oʻsish darajasini koʻrish mumkin, ammo, hayot sugʻurtasi mukofotlari oʻtgan yildagiga qaraganda 2 barobar oshgan boʻlsada, umumiy natija YaIMdagi ulushi 0,1% ekanligi mavjud imkoniyatlardan hamon yetarlicha foydalanilmaganligini bildiradi.

Demak, mamlakatimizda hayot sugʻurtasining rivojlanishiga taʼsir etayotgan bir qator muammolar mavjud boʻlib, fikrimcha, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: makro va mikro darajadagi muammolar. Makro darajadagi muammolar sirasiga mamlakatdagi makroiqtisodiy holatning barqarorligi bilan bogʻliq boʻlgan quyidagi koʻrsatkichlarni kiritish mumkin:

- inflatsiya darajasining yuqori ekanligi;
- milliy valyutaning hamisha barqaror emasligi;
- hayot sugʻurtasi kompaniyalari uchun sugʻurta zaxiralarini ishonchli joylashtirish imkoniyatlaring va jozibador investitsiya instrumenlarining kamligi, fond bozorining sust rivojlanganligi. Hayot sugʻurtasining jamgʻarish va omonat

<sup>123</sup> “Sugʻurta bozorini raqamlashtirish va hayot sugʻurtasi sohasini rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

funksiyalari bajarilishi uchun investitsiyalar bozori rivojlangan bo'lishi zarur, ammo, mamlakatimizda ushbu holatni yetarlicha deb bo'lmaydi;

- aholining nobarqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan tashvishlanishi. Hayot sug'urtasi, birinchi navbatda, barqaror sharoitlardagina samarali ishlaydigan soha hisoblanadi;

- aholining real daromadlari kamligi yoki to'lov qobiliyatining pastligi. Hayot sug'urtasini keng joriy etilishiga ko'pchilik aholining kam daromadligi to'siq boladi. Aholi daromadining asosiy qismi birinchi darajali ehtiyojlar uchun sarflanadi va jamg'arish uchun kam mablag' qoladi.

- hayot sug'urtasiga oid taqdim etilgan soliq imtiyozlari ta'srichanligining yetarli emasligi. Soliq imtiyozlari jismoniy shaxslarning faqatgina hayot sug'urtasiga yo'naltirilgan ish haqi ko'rinishidagi iqtisodiyotni kengaytiradi daromadlariga tegishli bo'lib, soliq stavkasi pasayganda uning ta'siri ham pasayadi. Ushbu imtiyozlarni jismoniy shaxslarning daromad solig'iga tortiladigan barcha daromadlariga nisbatan joriy etilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Misol uchun, jismoniy shaxslarning ijara shartnomasi bo'yicha oladigan daromadlari ham 12 foiz soliqqa tortiladi. Odatda, soliqdan qochish maqsadida jismoniy shaxslar ushbu daromadlarini kam qilib ko'rsatadilar yoki umuman ijara shartnomasi tuzmaydi. Bu esa, xufiyona iqtisodiyotni kengaytiradi.

Hal etilishi to'liq yoki qisman sug'urtalovchilarning o'z zimmlarida bo'lgan, hayot sug'urtasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi mikro darajadagi muammolar toifasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hayot sug'urtasi uzoq muddatli xarakterga ega bo'lganligi, ya'ni polislarning amal qilish davri odatda 5-20 yil. Siyosiy va iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida, inflatsiya yuqori bo'lganda uzoq muddatli qo'yilmalar aholida qiziqish uyg'otmaydi;

- hayot sug'urtasi asosan aholining o'rta qatlami uchun xizmat qiladi. Bunda aholi xarajatlaridan daromadlari yuqori bo'lishi va ular ushbu mablag'larni kelajak avlodiga meros qoldirishni yoki investitsiya uchun foydalanib, qo'shimcha daromad olish maqsadini ko'zlashi nazarda tutilgan. Ammo hozirgi kunda O'zbekistonda hayotni investitsion sug'urta qilish uchun keng sug'urta (mahsulotlari) bazasi mavjud emas;

- aholining hayot sug'urtasi bo'yicha madaniyatining pastligi. Hozirgi kunda aholi o'rtasida hayot sug'urtasi haqidagi tasavvur, ong, sug'urta madaniyati, sug'urta haqidagi tushunchalar unchalik darajada shakllanmaganligi hech birimizga sir emas. Bu esa, sug'urta sohasidagi eng katta muammodir. Uning asosiy sababi, hayot sug'urtasi bo'yicha malakali sug'urta agenlarining kamligi va hayot sug'urtasi mohiyatini yoritib beruvchi manbalarning yo'qligidir. Aholi orasida sug'urta

madaniyatini shakllantirishning eng maqbul yo'llaridan biri malakali, professional sug'urta agentlarini tayyorlashdir. Shu orqali, ularga hayot sug'urtasining afzalliklari haqida ma'lumot berish, reklamalarni rivojlantirish lozim.

- aholining hayot sug'urtasiga yoki sug'urta kompaniyalariga nisbatan ishonchining pastligi. Hayot sug'urtasining asosida sug'urta mukofotlarini investitsiya qilish yotganligi sababli, sug'urta kompaniyalarining barqarorligi va moliyaviy holatiga jiddiy talablar qo'yiladi. Umumiy nobarqarorlik va moliyaviy krizis sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatda sug'urtalovchilar uzoq muddatli istiqbolga kafolat bera olmaydilar. Fikrimcha, bunday sharoitda, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlash tizimini joriy etish sug'urtalanuvchilar (naf oluvchilar) mulkiy manfaatlarining himoyasini yanada kuchaytiradi, aholining hayot sug'urtasiga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi. Shu sababli, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasini tashkil etishni taklif beramanva bu o'z navbatida, sug'urta bozorini barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratadi deb hisoblayman;

- aholining o'z jamg'armalarini sug'urtada jamg'arishga moyillik darajasining pastligi. Aholi moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchining pastligi sababli, iste'molidan ortgan mablag'larini eng maqbul yo'l sifatida, pullarini AQSH dollariga aylantirib uylarida saqlaydilar. Chunki bu valyutaning yil sayin qadri ko'tariladi,shu sababli uni mahalliy iqtisodiyotga ham investitsiya qilmaydilar;

- milliy sug'urta bozorida hayot sug'urtasini amalga oshiruvchi kompaniyalarning kamligi. Qolaversa, hayot sug'urtasi kompaniyalarining barchasi umumiy sug'urta kompaniyalarining ta'sisshiligida ma'suliyati cheklangan jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan. Demak hayot sug'urtasi tarmog'i umumiy sug'urta tarmog'ining ta'siri ostida qolgan. Shu sababdan, hayot sug'urtasi kompaniyalari sonini ko'paytirish va ularni aksionerlik jamiyati shaklida tashkil etishni taklif qilaman.

- qonunchilik bazasining sekin rivojlanishi, qonunchilikdagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi. Bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan birinchi darajali vazifa hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlash to'g'risidagi nizom, hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi va to'lov qobiliyati to'g'risidagi alohida nizomlarni ishlab chiqishdir. Shuningdek, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunga uzoq muddatli hayot sug'urtasiga oid tegishli moddalar kiritilishi lozim.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanish darajasini tavsiflovchi tashqi qulay ko'rsatkichlarga qaramay, rejalashtirilgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga

o'tish, afsuski, ijtimoiy muammolarni hal qilishda sug'urta rolini oshirishni anglatmadi. Buni umumiy sug'urta mukofotining YaIMga nisbati pastligi ham tasdiqlaydi. Hozirgi kunda hayot sug'urtasi mukofotlarining YaIMdagi ulushi – 0,1% bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2-10 % ni tashkil etadi. Shu bilan birga, yig'ilgan sug'urta mukofotlari miqdori o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda mavjud bo'lmagan majburiy tibbiy sug'urta bo'yicha olingan summalarni o'z ichiga olishini yodda tutish kerak. Shunga ko'ra, raqamlarni 100% solishtirish mumkin emas. Mening fikrimcha, hayot sug'urtasi rivojlanishning dastlabki bosqichida turibgina qolmay, bir qator asosiy muammolarga ega bo'lib, ularning yechimi mutasaddi organlar tomonidan puxta o'ylangan tizimli chora-tadbirlarni qabul qilishga bog'liq. Shu bilan birga, davlat tomonidan bozorga haqiqatda moliyaviy, intellektual va boshqa investitsiyalarni amalga oshirishning hojati yo'q, bir qator qonunchilik va ma'muriy harakatlarni amalga oshirish kifoya. Buning uchun ham huquqiy, ham iqtisodiy jihatdan qulay shart-sharoitlar yaratish kerak. Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi zarur xulosaga kelish mumkin:

- O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning turli sohalarida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni optimallashtirish, ularni O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning asosiy va o'rta muddatli vazifalarini hal qilishga yo'naltirish;

- O'zbekistonda uzoq muddatli sug'urta bozorini yanada rivojlantirish va sug'urta faoliyatini davlat nazorati tizimini takomillashtirish uchun zarur shart bo'lgan sug'urta faoliyatining qonunchilik bazasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal qilish;

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- hayot sug'urtasi tarmog'i va shaxsiy sug'urta turlarini tartibga solishga oid ilg'or xorij tajribalarini inobatga olib, milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish;

- hayotni sug'urta qilish tarmog'idagi sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, investitsiya instrumentlari tarkibini va turlarini kengaytirish;

- hayot sug'urtasi kompaniyalarining tijorat banklari bilan hamkorlikda hayot sug'urtasi mahsulotlarini aholi orasida keng targ'ib etish mexanizmlarini joriy etish;

- iste'molchilarga hayot sug'urtasi mahsulotlarining keng ko'lamini tatbiq etish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda sug'urta xizmatlarining elektron turlarini faol joriy etish;

- hayot sug'urtasi kompaniyalarining biznes jarayonlarini, shuningdek, investitsion faoliyati, sug'urta zaxiralarini shakllantirish va sug'urta hodisalarini

ko'rib chiqish jarayonlarini avtomatlashtiruvchi yagona dasturiy ta'minotni yaratish va amaliyotga joriy etish;

- hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi hayot sug'urtasi kompaniyalarining iste'molchilar oldidagi majburiyatlarini samarali himoya qilish tizimini yaratish

- aholining turmush darajasini yanada oshirish maqsadida, inflatsiya omillaridan himoya qiladigan uzoq muddatli pensiya sug'urtasini rivojlantirish;

- fuqarolarning pensiya ta'minoti darajasini oshirish, ixtiyoriy pensiya sug'urtasi hamda uzoq muddatli (besh yil va undan ortiq) sug'urta turlari mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida ushbu sug'urta turlari orqali to'langan sug'urta mukofotlarini xorijiy valyutaga konvertatsiya qilishga imtiyoz yaratish;

- aholining hayotni uzoq muddatli sug'urta qilishga va ixtiyoriy pensiya sug'urtasiga bo'lgan ishonchini oshirish hamda ularning sug'urta to'lovlari kafolatlash maqsadida "Hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi"ni tashkil qilish, uni molyalashtirish manbalariniva jamg'arma mablag'laridan foydalanish maqsadlarini belgilash lozim. Sababi shuki, hayotni sug'urtalash bozorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash samarali rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan hayotni sug'urtalash xizmatlari sug'urta sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tomonidan tartibga solishda ustuvor vazifa hisoblanadi. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sug'urta bozorini tartibga solish vakolatiga ega davlat organlari tomonidan sug'urtalanganlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ishlab chiqilgan kafolat uchun turli usullar qo'llaniladi. Mamlakatlar tajribasida qo'llaniladigan shunday usullardan biri, sug'urtalovchilarni to'lovga layoqatsiz (bankrotlik) holatida sug'urta qilish to'lovlarni kafolatlovchi tizim yaratishdan iborat. Bugun O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlar kafolat mexanizmi mavjud emas. Shu bilan birga, sug'urta hayotni sug'urtalash xizmatlarining to'lov kafolati tizimini tashkil etish bozor va aholi hayotini sug'urtalashni jadal rivojlantirish uchun sharoit yaratadi ishonchni oshiradi. Shu munosabat bilan hayotni sug'urtalashning hozirgi holatida to'lov kafolati tizimiga bo'lgan ehtiyoj va istiqbollarni baholash orqali ularni tashkil etishning maqsadga muvofiqligini tahlil qilish milliy sug'urta bozorni yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash muhim yo'nalish hisoblanadi. Sug'urtaning ixtiyoriy turlari, jumladan, hayotni sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni kafolatlash tizimi mavjud emas, bu esa aholining sug'urta muassasasiga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi va mamlakatimizda sug'urta rivojiga to'sqinlik qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda Moliya vazirligi vakolatli organ sifatida hayotni sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni kafolatlash tizimini yaratish



vazifasini qo'yadi. Mening fikrimga ko'ra, sug'urtalanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning eng samarali mexanizmi sifatida O'zbekistonda hayot sug'urtasi to'lovlarini kafolatlash fondini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu, birinchi navbatda, hayotni sug'urtalash sug'urtalovchi va sug'urtalangan o'rtasidagi uzoq muddatli moliyaviy munosabatlarni o'z ichiga olganligi bilan bog'liq, shuning uchun sug'urtalangan shaxs sug'urtalovchining kelajakda to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishiga ishonch hosil qilishi shartligi tushuntiriladi.

▪ aholini sug'urta sohasidagi bilimi va madaniyatini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali hayot sug'urtasi tarmog'i hamda shaxsiy sug'urta turlarini targ'ibot va tashviqot qilish ishlarini ommaviylashtirish, hayot sug'urtasi turlari bo'yicha reklamalarni ijtimoiy reklama toifasiga tenglashtirishdan iborat.

Hayot sug'urtasini rivojlantirish yuzasidan yana bir muhim taklif sifatida, sug'urta klassifikatorining hayotni sug'urta qilish tarmog'iga *“majburiyatlarni ta'minlash uchun hayotni sug'urtalash”*, *“uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urtasi”*, *“kapitalni qaytarish bilan hayotni sug'urtalash”* klasslarini qo'shishni taklif qilaman. Bu o'z navbatida, milliy sug'urta bozorida hayot sug'urtasining innovatsion mahsulotlarini rivojlantirish, hayot sug'urtasi xizmatlarining hajmi va turlarini kengaytirish, hayot sug'urtasining iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlardagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5265-qarori
3. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 19 martdagi “Korona virusga qarshi choralar va global inqiroz huquqlarini nazorat qilish tarmoqlariga salbiyni yumshatish birinchi navbatdagi choratadbirlar”gi PF-5969-sonli farmoni
4. N.Jumaev. “O'zbekistonning reytinglardagi o'rni nima uchun kerak?” ,“xalq so'zi” gazetasi.
5. Каракулова И. «Фонди гарантирования выплат за договорами страхования жизни»: зарубежный доход // Экономика 133/2012. п. 48
6. Averchenko O.D. The guarantee scheme of mutual exchange in the strakovo sectori bankovskoy sphere // Financial Journal. No. 4 2016. p. 110
7. Полчанов А.Ю. Проблемы и перспективы инвестиционного анализа страховых компаний в Украине // Финансы и кредит. № 16 (592) 2014. с. 54

8. Черняховский В. Международный опыт защиты страхователей путем создания общих гарантийных фондов // Финансовые услуги. № 4 (100) 2013. с. 9
9. Финогенова Ю.Ю. Схема гарантирования как инструмент защиты прав страхователей жизни и здоровья в Германии и США // Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) № 3 (12), 2015. с. 98
10. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION, AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 51-54).

## **ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ ҚАРАШЛАР ЭВОЛЮЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

**Маликов Бехзоджон Қуролович**

Тошкент давлат транспорт университети

“Ҳалқаро оммавий ҳуқуқ” кафедраси катта ўқитувчиси

[bexzod.malikov.1983@mail.ru](mailto:bexzod.malikov.1983@mail.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Мазкур мақолада давлат хизматлари тўғрисидаги қараишлар эволюциясининг назарий асослари ёртилган. Шу билан бирга, давлат хизматларидан фойдаланиш ҳолатлари ва қонунлар таҳлил қилинган. Шунингдек давлат хизматлари тўғрисидаги олимларнинг илмий назарий қараишлари ёртилган. Давлатнинг фаолият кўрсатиши, давлат аппарати ва давлат хизматининг ҳолати. Бундан ташқари, давлат хизматлари тўғрисидаги қараишлар эволюциясининг назарий асослари бўйича таклифлар берилган.*

**Калит сўзлар:** *давлат хизматлари, давлатнинг вазифалари, Давлатнинг фаолият кўрсатиши, давлат хизматчилари корпуси, бошқаруви органлари.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье исследуются теоретические основы эволюции взглядов на государственные услуги. Однако анализируются случаи использования госуслуг и законов. Подразумеваются и научно-теоретические взгляды ученых на общественные услуги. Функционирование государства, состояние государственного аппарата и государственной службы. Кроме того, делаются предложения относительно теоретических основ эволюции взглядов на общественные услуги.*

**Ключевые слова:** *государственные услуги, функции государства, функционирование государства, корпус государственных служащих, органы управления.*

### **ANNOTATION**

*This article explores the theoretical foundations of the evolution of views on public services. However, cases of use of public services and laws were analyzed. The scientific theoretical views of scientists on public services are also eroded. The functioning of the state, the state of the state apparatus and the state service. In addition, suggestions are made on the theoretical foundations of the evolution of views on public services.*

**Keywords:** *public services, functions of the state, functioning of the state, corps of civil servants, governing bodies.*

## **КИРИШ**

Ўзбекистон Республикасининг Давлат мустақиллигига эришиши билан суверен ҳуқуқий демократик давлатни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган давлат хизматини ташкил этиш эҳтиёжи юзага келди. Бундай шароитда биринчи галдаги вазифа, албатта, юқори малакали кадрларни тайёрлаш, давлат хизматини замонавий билим ва малакаларга эга бўлган кадрлар билан таъминлаш ҳисобланади. Мамлакатимизда сўнгги йилларда аҳолига давлат хизматлари кўрсатиш тизими изчил ва тизимли ислоҳ қилинмоқда ҳамда такомиллаштирилмоқда. Ҳар бир туманда (шаҳарда) Давлат хизматлари марказлари ташкил этилди ва 2019 йил давомида улар томонидан 13 млн.га яқин хизматлар кўрсатилди [1].

Республикаимизда иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштириш шароитида иқтисодий ўсиш, макроиқтисодий ва Давлат хизматларини барқарорликка эришиш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев: «Ҳаммамиз яхши тушунамиз, ҳар қандай ислоҳот ва ўзгаришни барқарор иқтисодиётсиз амалга ошириб бўлмайди. Биз ўтган йил давомида бу борада кенг кўламли ишларни бошладик. Лекин миллий иқтисодиётимизни мустаҳкамлаш, юртимизни ривожланган давлатлар қаторига олиб чиқиш учун олдимизда ҳали кўплаб вазифалар турибди» [2] деб таъкидладилар. Бу эса, ўз навбатида Давлат хизмат субъектлари фаолиятини ривожлантириш, самарадорлигини оширишни тақозо этади. Бугунги кунда айрим ҳудудларда кўрсатилаётган давлат хизматлари сони 130 тага етди, мижозлар сони эса кунига 300 дан 1,5 минггача одамни ташкил этмоқда. Шу билан бирга, давлат хизматларидан фойдаланиш учун мурожаат этувчи аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг сони доимий равишда ўсиб бориши мазкур соҳани такомиллаштириш бўйича кўшимча чоралар кўрилишини талаб этмоқда.

Аҳолига қулай шарт-шароитлар яратиш ҳамда давлат хизматлари кўрсатиш тизимига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш давом эттирилишини таъминлаш мақсадида:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 декабрдаги «Аҳолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5278-сон Фармонига мувофиқ жисмоний ва юридик шахсларга давлат хизматлари кўрсатиш соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириш фармони қабул қилинди. Бу эса мамлакатимизда Давлат хизматларини ўрнини янада оширди [3].

Ўзбекистон Республикасида давлат хизматини ислоҳ этиш қонунларга қатъий риоя этадиган, инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликлари устунлигини тан олган ҳолда оммавий (жамият, фуқаро) манфаатларни кўзлаб давлатнинг вазифалари ва функцияларини амалга оширадиган, юқори малакали профессионал давлат хизматчилари корпусини шакллантиришни назарда тутди. Давлат махсус ташкил этилган аппаратсиз мавжуд бўлиши мумкин эмас. Давлат аппарати эса, давлат хизмати тизимига муҳтож бўлади. Шу сабабли давлат аппаратида олиб бориладиган ислоҳотлар, биринчи навбатда, давлат хизматининг тўғри ташкил этилиши ва самарали амалга оширилишини назарда тутди. Давлатнинг фаолият кўрсатиши, давлат аппарати ва давлат хизматининг ҳолати мамлакат аҳолисида унга нисбатан тасаввурларни пайдо қилади. Давлат номидан ҳаракат қилаётган хизматчига қараб давлатга ёки давлат аппаратига баҳо берилади. Шу сабабли, ҳар бир давлатда давлат хизматининг қандай шакллангани жуда муҳим аҳамиятга эгадир [4].

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларини юқори малакали кадрлар билан таъминлаш, улар билан доимий ишлаш, малакасини ошириб бориш, самарали давлат хизматчилари захирасини шакллантириш масалалари ҳар қандай давлат олдида турган биринчи галдаги вазифалардан ҳисобланади. Давлат хизматининг тўғри ташкил этилиши давлатда қабул қилинадиган қонун ҳужжатларига ҳам боғлиқдир. Давлат-хизмат муносабатларининг қанчалик ҳуқуқий тартибга солинганлик даражаси унинг ривожланиш тенденцияларини белгилаб беради. Давлатда мавжуд қонунчилик давлат хизматининг мазмуни ҳамда амалдаги ҳолатини кўрсатади. Давлат хизмати тизимида қонун ҳужжатлари қанчалик мукамал ишлаб чиқилганлиги ва уни амалга ошириш механизмнинг тўғри йўлга қўйилганлиги муҳим аҳамият касб этади.

### **МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ**

Ҳуқуқшунос олим Д.Н.Бахрахнинг фикрича: «Инсонларнинг, шунингдек, давлат ва жамиятнинг мақсадга мувофиқ фаолият йўналишларидан бири – бу хизматдир. Бу тушунча турли маъноларда: инсоннинг фаолият тури, ижтимоий-ҳуқуқий институт, давлат органларининг махсус тизими маъносида ишлатилиши мумкин. Хизмат – бошқарувдан, давлат фаолиятини амалга оширишдан, бошқарувни таъминлашдан, аҳолига ижтимоий-маданий хизмат кўрсатишдан иборат» [5]. Хизматчи ўз фаолиятини амалга ошириш жараёнида ўзига хос муносабатларга киришади. Бу муносабатларнинг мазмунини хизмат тури ҳамда хизмат олиб борилаётган ташкилотнинг хусусиятлари белгилаб беради. Хизмат муносабатлари давлат-хизмат муносабатларига ёки жамоат бирлашмаларида ва бошқа нодавлат, хусусий, тижорат ташкилотларида амалга



ошириладиган хизмат муносабатларига бўлиниши мумкин. Хизматчиларнинг қандай лавозим эгаллаши ва қайси ташкилотда ўз мажбурият ва вазифаларини бажаришига қараб, уларни қуйидагиларга бўлиш мумкин.

Ҳуқуқшунос олим Ю.М.Козлов, барча хизматлар ичида давлат хизматининг тутган ўрнига тўхталиб, уни давлат органларида амалга ошириладиган ҳамда ишчиларининг меҳнатидан мазмуни ва шакли жиҳатидан фарқ қиладиган ҳар қандай фаолият сифатида таърифлайди [6]. Давлат хизматида бундай ёндашиш меҳнат фаолиятининг икки шаклига асосланади:

**биринчидан**, бевосита моддий бойликларни, товарларни яратиш (ишларни бажариш);

**иккинчидан**, бошқарувни, раҳбарликни, контрол ва назоратни амалга ошириш .

*Mazkur maqolada Sharq va G'arb xalqlari mifologiyasi, folklori va badiiy adabiyotida qushlar obraziga murojaat qilinib, o'zbek, rus va fransuz asarlaridagi badiiy jarayonga qiyosiy e'tibor berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pragmalingvistika, ornitologiya, Sharq va G'arb mumtoz adabiyoti, qush obrazi.*

## **PRAGMATICS OF THE WORLD OF BIRDS IN EASTERN AND WESTERN WORKS**

### **ABSTRACT**

*This article refers to the image of birds in the mythology, folklore and fiction of Eastern and Western peoples, and gives comparative attention to the artistic process in Uzbek, Russian and French works.*

**Key words:** *pragmalinguistics, ornithology, Eastern and Western classical literature, image of a bird.*

## **ПРАГМАТИКА МИРА ПТИЦ В ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье речь идет об образе птиц в мифологии, фольклоре и художественной литературе народов Востока и Запада, уделено сравнительное внимание художественному процессу в узбекских, русских и французских произведениях.*

**Ключевые слова:** *прагмалингвистика, орнитология, восточная и западная классическая литература, образ птицы.*

### **KIRISH**

Pragmalingvistikani matnsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday badiiy matnda bir-birini taqazo etadigan izohtalab, mulohazalarga asos bo'ladigan detallar, badiiy kolorit va tasviriy bo'yoqdor unsurlar uchrab tuiradi.<sup>128</sup> Biz qushlar umurtqali hayvonlar sinfiga mansubligini, Trias davrida yashagan sudralib yuruvchilarning

<sup>128</sup> Bobokalonov R.R .

psevdozuxlar turkumidan kelib chiqqanligini, ularning ayrim morfologik belgilari va fiziologik xususiyatlariga ko‘ra o‘xshashligini, arxeologik qazilma qoldiqlari tarkibida ularning skeletlari topilayotganligini, tanalari g‘ayrioddiy pat bilan qoplanganligini, patlarida issiqlikni saqlash bilan bir qatorda havo qarshiligini kamaytirib, havoda ko‘tarilish imkoniyatiga ega ekanligini va hokazo kabilarni turli fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilayotganini bilamiz.<sup>129</sup> Biroq qushlarning qachondan buyon adabiy obrazga ko‘chganligi, har bir obrazning nutqi va leksikasi xususiyatlarini qiyosiy lingvistika nuqtai nazaridan hali o‘ganmaganmiz. Shu sababli qush va qushsimon jonivorlarda pragmatik diskurs muammolari haqida to‘xtalishni maqsad qilib qo‘ydik.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Odatda qushlarni o‘rganadigan fan mavjudligini ham e‘tibordan chetga qoldirish mumkin emas. Bu fan ornitologiya deb yuritiladi. Ornitologiya (qadimgi yunoncha ornis [ornis], “qush” va lós [logos], “bilim” so‘zlaridan) — zoologiyaning qushlarni o‘rganadigan bo‘limi ham qushlar olamini bevosita o‘rganadi. Darhaqiqat, qushlarni kuzatish va ma‘lumot to‘plash har doim qulay usul bo‘lib, hech qanday uskunani talab qilmaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda professional ornitologlar ham juda kam va shuning uchun ba‘zan juda keng bo‘lgan havaskor kuzatuvchilar tarmoqlariga tayanadilar. Zamonaviy ornitologiya turli xil amaliyotlarni, ya‘ni zavqlanish uchun oddiy kuzatishdan tortib, ko‘proq yoki kamroq ma‘rifatli havaskor ornitologlar (qushlar ishqivozlari) tomonidan sevimli mashg‘ulot sifatida shug‘ullanadigan, yuqori darajadagi ilmiy tadqiqotlarga bo‘lgan turli xil amaliyotlarni birlashtiradi. Barcha holatlarda ornitologni faqat atrof-muhit bilan aloqada bo‘lgan yovvoyi qushlar, uni yoki o‘rganilayotgan mavzuni bezovta qilmasdan qiziqtiradi. Shunday qilib, qushlar turli fanlar ob‘yektida turlicha talqin qilinadi.

Sharq va G‘arb mumtoz adabiyotida ham qushlar timsoli va ular bilan bog‘liq leksemalar muayyan darajada sintez qilingan. Jumladan, qushlar haqidagi sarguzasht asarlarda qushlar olami jahon xalqlari mifologiyasidan tortib hozirgi adabiyot holatigacha ko‘plab katta ahamiyatga ega bo‘lib, voqealar jarayonida to‘satdan paydo bo‘luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o‘zgartiruvchi element sifatida talqin etiladi. Ular, asosan ilohiyot bilan insonlarning o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida e‘tirof etilgan.

**Sharq adabiyotida qushlar talqini.** Dunyo adabiyotida faqat ramziylik kasb etgan asarlar talaygina. Masalan, Hind eposi “Panchatantra”, “Kalila va Dimna”, arab xalqlarda “Ming bir kecha”, o‘zbek adabiyotida “Zarbulmasal” kabi asarlarni

<sup>129</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qushlar>

aytishimiz mumkin. Mazkur asarlarda hayvonlar va qushlar vositasida insonlarga xos xususiyatlar ifodalanadi.

Turkiy adabiyotda ramziy timsollar orasida qush obrazi alohida o‘ringa ega. Bu borada alohida tadqiqotlar ham olib borilgan. A. Irisov, U. Sulstonov, Z. Mamadaliyeva, Sh. Hasanovalarning ishlari shular jumlasidandir.

Qushlar vositasida yozilgan asarlar ham talaygina. Alisher Navoiyning “Lison ut–tayr” asarning vujudga kelishiga Fariduddin Attorning “Mantiq ut–tayr”, Abu Ali ibn Sinoning “Risolat ut–tayr”, Shahobiddin Suhravardiyning “Risolayi musammo ba safari Semurg’”, Abu Hamid Muhammad G‘azzoliyning “Risolat ut–tayr” asarlari va xalq og‘zaki ijodining ta’siri katta bo‘lganini aytish muhimdir. Chunki bu sohada e’ng avvalo Abu Ali ibn Sino ko’zga ko’rinadigan asar yozgan.

Ibn Sinoning “Risolatut–tayr” asari ikki xil nom: “Risolatut–tayr” (Qush risolasi) va “Kitobush – shabaka vat–tayr” (Tuzoq va qush kitobi) nomlari bilan yuritilgan. Albatta yuqorida nomlari sanab o‘tilgan allomalarimizning dostonlari vujudga kelishida Ibn Sinoning mazkur risolasi bir turtki bo‘libgina qolmay, Ibn Sinodan so‘ng qush tili vositasida yaratilgan barcha asarlar maydonga kelishida sabab bo‘lgan deyish mumkin. Shu jihatdan mazkur risola sharq adabiyotida keng tarqalgan qushlar haqidagi traditsion asarlarning kelib chiqishida muhim rol o‘ynagan manba sifatida alohida diqqatga sazovordir. Buxoro muhandislik texnologiya instituti professori Navro‘zova G. N. o‘z maqolasida: “Tasavvufda ruh obrazi qushlar timsolida berilgan. Bunday nodir asarni birinchi bo‘lib yozgan mutafakkir-Abu Ali Ibn Sinodir.”-deb bunga alohida e’tibor qaratadi.<sup>3</sup>

Ibn Sino “Risolatut-tayr” qissasida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ilhomlanib, insonlarning ruhlarini qushlar shaklida tasvirlaydi. Bu tasvirlash uning tibbiyotdagi bilimlariga ham asoslangan bo‘lishi mumkin. Chunki zamonaviy tibbiyot ham inson ruhining o‘limdan keyin qush misoli parvoz qilishini isbotladi. Abu Homid G‘azzoliy ham Ibn Sino qissasining syujeti asosida asar yaratgan, va qushlarni umumiy ma’nodagi inson ruhi emas, balki tasavvuf yo‘lidagi soliklarning Robbisini izlayotgan qalblari timsolida tasvirlaydi. Shu taxlit tasavvuf adabiyotida qush timsoli tangrisini izlayotgan solikning qalbi (ruhi) misolida qabul qilindi. Qarshi davlat universiteti dotsenti Qahhorova Sh. A. bu borada shunday fikr bildiradi: “Tasavvuf ta’limotida ilohiy ishq solik ma’naviy kamolotining eng yuqori bosqichi fano uchun dominant vazifasini o‘taydi. Ishq oshiqni baqo olamiga olib boruvchi olov, Ishq solik shavqu zavqi, mushohada-mukoshifasini tezlastiruvchi kuch. Qalbda ishq olovi qanchalik kuchli bo‘lsa, solik haqqa yetishmoq pog‘onalaridan shuncha oson ko‘tarila boradi.”<sup>4</sup>

Zamonlar osha adabiyotda qushlar obrazi reallashib bordi. Ibn Sino davridan Bahovuddin Naqshband davrigacha O'rta Osiyoda din va tasaffuf, hadis va fiqh ilmlari rivojining cho'qqiga chiqqan davri edi. X-XV asrlarda qush obrazi tasavvufda solik ruhini ifodalashi zamon ruhiyati bilan bog'liqdir. Shu o'rinda aytish lozimki, "Qush tili" tipidagi dostonlar mualliflari o'zi ko'zlangan asosiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda, Qur'on suralaridan oyatlar, hadislar keltirish, ibratomuz hikmatli so'zlar, matal, masallar, allegorik didaktik hikoyalar vositasda diniy–axloqiy tarbiya berishga harakat qilishgan. Shu bois asarlar tarkibiga kirgan deyarli barcha hikoyalar ham aynan shu maqsadga, ya'ni insonni Haq visoliga yetaklovchi kamolot bosqichlarini egallash orqali erishishi mumkinligiga qaratilgan. Keyinchalik afsonaviy qushlar o'rniga real qushlar qo'llanila boshlangan. Qush tili an'anasi hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

XVIII asrda yashagan Mavlono Xoja Qozi Payvandi Rizoyning "Qush tili" asari ta'sir doirasida yaratilgan Nishotiyning "Qushlar munozarasi", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari, XX asrga kelib Omon Matjonning "Qush tili" dostonining yaratilishi uchun zamin bo'lganligi ma'lum.

Omon Matjonning "Qush tili" dostonidan ko'zlangan asosiy maqsad ustozlar an'analarni davom ettirgan holda, har bir o'quvchi e'tiborini allegorik didaktik hikoyalar orqali insonlarni iymon – e'tiqodli bo'lishga, xalqni ozod va erkin bo'lishga chorlashdan iboratdir. Jizzax davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi Sh. S. Ahmedova bu borada shunday fikr bildiradi: "Hech bir xalq adabiyoti o'zaro ta'sir, adabiy aloqalar jarayonidan mustasno holda rivojlangan emas. Shu o'rinda hech ikkilanmay aytish mumkinki, Omon Matjonning "Qush tili" dostoni ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Hech kinga sir emaski, qushlar timsoli asosida ijtimoiy–falsafiy va tasavvufiy ma'nolarni ilgari surish Sharq adabiyotida o'ziga xos an'ana tarzida rivojlanib kelgan. Bu fikrimizning dalili sifatida Qur'on suralaridan oyatlar va juda ko'p hadislar keltirilganligi, ibratomuz hikmatli so'zlar, matal va masallarni o'z ichiga olganligini aytishimiz mumkin."<sup>130</sup>

Demak, aytish mumkinki, "Qush tili" turkumida yaratilgan asarlarning asosiy manbai qadimiy ildizga ega. Ular o'zining badiiy syujet darajasi shaklini olishga qadar uzoq va muayyan bosqichni bosib o'tib sayqallanib kelgan.

### **G'arb adabiyotida qush obrazini gavdalanishi.**

Qush obrazi fransuz adabiyotida haqiqatan ham muhim ramz bo'lib, turli davrlarda qushlarning ramziy ishlatilishi juda qiziq. Bu obraz XII asrda yozilgan Mari de Fransning ikki she'ridan boshlab, XX asrda ijod qilgan Jak Prevertning butun bir ertaklar majmuasida qush obrazi badiiy koloriti mujassamdir. Mari de Frans qush

<sup>130</sup> Ahmedova Sh.S "Omon Matjonning "Qush tili" dostoni genezisi", So'z san'ati xalqaro jurnali, 3 jild, 2 son,

timsolida sevgi va umidsizlikning boshlanishi va oxirini ifodalash uchun ishlatgan bo'lsa, Prever qush obrazi misolida inson o'z hayotining bir xilligidan o'zini chalg'itishini, tabiat qo'ynida erkin parvoz etadigan qush kabi juda ahamiyatli ekanini isbotlaydi.

Rus adabiyotida qushlar osmon bolalari, tabiat kuchlarini ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonlar osha ilohiy qiyofaga ega bo'lgan xayoliy qushlar haqiqiyatlari bilan almashtiriladi. Masalan, XVIII asr rus adabiyotiga shiddat bilan Yevropa adabiyoti harakati ta'sir etdi. Adabiy asarlarda erkinlikni tarannum qilish uchun qushlar va jonivorlarning turli xil tasvirlarini ifodalay boshlashdi. Asr boshida qushlar asosan tabiatni, asr o'rtasida his-tuyg'ularni, asrning oxirida hayvonlar va qushlar misolida odamlarning xatti-harakatlari tobora ko'proq tanqidgq olindi. Bunga Krilov masallarini ,isol qilish mumkin. Maksim Gorkiy qush obraziga murojaat qildi. Ayni shu asrda qush obrazi tasviri keng quloq yozdi. Maksim Gorkiyning "Lochin haqidagi qo'shig'I" birinchi marta 1899 yilda nashr etildi. Ushbu kitob dunyoning ko'plab tillariga, jumladan, eng kam uchraydigan tillarga ham tarjima qilingan. Qahramonning hayot, o'lim va baxt haqidagi falsafiy mulohazalari millionlab o'quvchilar qalbini larzaga solgan.

Asarning asosiy voqealari Qrimda, qariya cho'pon aytgan ertak harakati baland tog'larda sodir bo'ladi. Hikoyada Rahim ismli Qrimlik cho'pon o'zining yaqin do'stiga Lochin qushi haqida qo'shiq kuylab beradi. Yaralangan Lochin, uchish quvonchini his qilmoqchi bo'lib, har safar dara chetidan sakrab, toshlarga urilib tirik qoladi va oxiri dara tubida halok bo'ladi. Bu yerda Lochin - dovyurak, jasur, erkinlikni sevuvchi, ona tuprog'iga va barqarorlikka sodiq odamlarni ramziy ifodasi qilib g'ayratlantirilgan. Uning "Chumchuqcha" hikoyasida esa ota-onaga itoat qilish, ularga ishonish, ularning mehr va g'amxo'rlikini qadrlash, ulardan o'rnak olish, yaxshi maslahatlarga amal qilish, xatolarini tan olish va tuzatish minnatdorlik, kamtarinlik, ehtiyotkorlik, e'tiborli bo'lish, izlanuvchanlik, fidoyi bo'lish, hayot uchun kurashish ulug'langan.

Hikoyada bir juft chumchuq palapon ochib, ismini Pudik qo'yadi. Chumchuqcha juda baquvvat va qiziquvchan, bir joyda o'tira olmaydi. U hammom ustiga uya qurgan. Ota-ona chumchuqlar qurtlarni va boshqa oziq-ovqatlarni yig'ib, bolasiga olib kelishadi. Palapon olamni ko'rish uchun onasini gapiga quloq solmay, inidan chiqib erga tushadi. U hali kichkina, o'zini himoya qila olmaydi: xavf va tahdidga uchraydi. Uni darrov hovli mushugi payqab qolib, Pudikni ushlab olmoqchi bo'ladi. Biroq shu payt onasi kelib, uni butun vujudi bilan himoya qiladi. Vaqti kelib, Pudik uchib ketishga muvaffaq bo'ladi, biroq onasi dumsiz bo'lib qoldi. Bu yerda qushlar orqali har bir oiladagi vaziyat soddalik bilan, juda yorqin ifodalab berilgan.



O'zDJTU magistranti Toirov R.A. o'z maqolasida qush obrazi haqida shunday fikr bildiradi: "G'arb adabiyoti va mifologiyasida yer va osmon uzra parvoz etuvchi qushlar, ko'pincha xudolar xabarchisi sifatida tasvirlangan. Masalan, kabutarlar yunon mifologiyasida Astarte qushi, Afrodita, Venera, Muqaddas Ruh kabi mifologik obrazlarning shakllanishiga sababchi hamda vafot etgan kishilarning ruhi, o'lganlarning timsoli sifatida aks ettirilgan. Irland mifologiyasida Odin obrazi qarg'a timsolida gavalantirilgan bo'lsa, turnalar Germes, Merkuriyning muqaddas qushi, Kelt mifologiyasida Oy qushi, burgutlar Zevs va Yupiter avlodlari sifatida talqin qilingan."<sup>131</sup>

Pingvirlarning adabiyotga kirib kelishida birinchi marta Anatol Frans mohirona xizmat ko'rsatgan. Uning pingvinlar timsoliga murojaat qilishiga 1497 yilda Hindistonga sayohati davomida portugaliyalik Vasko da Gamaning pingvinlar kashfiyoti haqidagi hujjatlar sabab bo'lgan. Unda Afrikaning janubiy qirg'oqlarida ko'rgan pingvinlar tasvirlangan edi va bu "Pingvinlar oroli" asarining paydo bo'lishiga zamin bo'ldi. Bu haqda Anatol Frans asar muqaddimasida shunday deydi: "Fransuzlar pingvirlarni altsid oilasiga tegishli arktika qushlari deb atashadi. Antarktika dengizi qirg'og'idagi sfenitsidlar oilasini esa manshotlar deb ataymiz. Biz bunday nomlashni, masalan, janob J. Lekuentni "Belgica" sayohati esdaliklarida uchratishimiz mumkin. "Gerlah bo'g'ozida yashovchi qushlardan,-deb yozadi u, manshotlar katta qiziqish uyg'otadi. Ularni ba'zan yanglish tarzda janubiy pingvinlar deb atashadi.

Kattalar adabiyotida Yevropada bir necha bor nashr etilgan Andrey Kurkovning "Пикник на льду", Xeyzel Preyorning "Pingvinlar Veronikani qanday qutqarishdi?" asarlarini misol keltirishimiz mumkin. Bu ikkala asarda ham bizga tanish bo'lib, doimo hayotimizda duch keladigan muammolar yoritib berilgan.

## **XULOSA**

Xulosa shuki, asrlar davomida ijodkorlar tomonidan qushlarning ramziy sarguzashtlari asosida yozilgan allegorik-falsafiy asarlarning yaratilishdan maqsad nima bo'lgan degan savol tug'ilishi tabiiy. Bizningcha, bu asarlarining yaratilishidan maqsad qiziqarli va ibratomuz hikoyalar orqali insonlarni diniy-axloqiy va tasavvufiy-g'oyaviy ruhda tarbiyalashga qaratilganligidadir.

## **REFERENCES**

1. Abu Ali Ibn Sino. Qush hikoyati. Arab tilidan A. Irisov tarjimai. Sharq yulduzi. 2015.

---

<sup>131</sup> Toirov R.A. "Ingliz va o'zbek tillarida qush nomlarining leksik-semantik xususiyatlari", Tafakkur manzili, may 2022.

2. Ahmedova Sh.S “Omon Matjonning “Qush tili” dostoni genezisi”, So’z san’ati, xalqaro jurnali, 3 jild, 2 son, Toshkent 2020
3. F. Attor “Mantiqut-tayr” (nasriy bayon), Toshkent 1997.
4. A. France « L’il des Pingouins », 1908, Ebook: Free eLibrary “Original”.
5. Navro’zova G.N. “Abu Ali Ibn Sino qush haqidagi risolasiining mohiyati va tasavvufiy g’oyalarning rivojiga ta’siri”
6. Qahhorova, S. A. (2021). “MANTIQ UT-TAYR” VA “LISON UT-TAYR” DOSTONLARIDA ISHQ TALQINI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1146-1151.
7. Toirov R.A. “Ingliz va o’zbek tillarida qush nomlarining leksik-semantik xususiyatlari”, Tafakkur manzili, may 2022.

## **AMIR TEMURNING HINDISTONGA YURISHI**

### **Bebitov Maqsud Abdirasulovich**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

o'qituvchisi (Denov O'zbekiston)

Tel: 998977863300

e-mail: [m.bebitov@dtpi.uz](mailto:m.bebitov@dtpi.uz)

### **Abdullayeva Mushtariy G'ofurjon qizi**

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Talabasi (Denov O'zbekiston)

**e-mail:** [m.abdullayeva@dtpi.uz](mailto:m.abdullayeva@dtpi.uz)

### **ANNOTATSIYA**

*Amir Temur 1398-yil mart oyida Hindistonga jihod qilishini e'lon qilib, harakatga tushdi. Kobul viloyatini egallagandan so'ng Panjob va Sind daryolaridan o'tib, Hindistonning mashhur Batnir qal'asini egallab, Dehliga yetib boradi. 1398-yil dekabrda kelib, u Hindiston shimolidagi musulmonlardan boshqa fath qilib butunlay egallab oldi. Buddistlar va hindular yashagan joylarni vayron qilib, 1399-yil 29-aprelda ko'plab fillar va o'ljalilar bilan o'z mamlakatining poytaxti Samarqandga qaytib keladi. Shu tariqa Amir Temur Hindiston yurishida ko'zlagan g'alabaga erisha olgan bo'sada uning vafotidan so'ng Hindiston diyori ko'p o'tmasdan Temuriylar davlati tasiridan chiqdi. Biroq keyinchalik o'rta osiyolik turkiy hukmdorlar Hindistonga kelib, o'rnashib olishga muvaffaq bo'ldilar. Shunday qilib, Hindiston shimolida asrlar davomida musulmon-turk hukmronligi davom etdi va Amir Temur bu hukimronlikni boshlagan shaxs sifatida tarixga kirdi.*

**Kalit so'zlar.** *Hindiston, Batnir, Dehli, G'azna, Amir Temur, Panipat, Seyid Hizixon, Sulton Maxmut, Malluxon, Panjob.*

### **ABSTRACT**

*In March 1398, Amir Temur declared his jihad against India and took action. After conquering the Kabul region, he passed through the Punjab and Sind rivers, occupied the famous Batnir fort of India and reached Delhi. By December 1398, he had conquered all the rest of the Muslim north of India. Having destroyed the places where Buddhists and Hindus lived, he returned to Samarkand, the capital of his country, on April 29, 1399, with many elephants and booty. In this way, Amir Temur was able to achieve the desired victory in the Indian campaign, but soon after his death, the land of India left the empire of the Timurids. However, later Turkic rulers from Central Asia came to India and managed to settle. Thus, Muslim-Turkish rule*

*continued for centuries in the north of India, and Amir Temur went down in history as the person who started this rule*

**Keywords.** *India, Batnir, Delhi, Ghazna, Amir Temur, Panipat, Syed Hizi Khan, Sultan Mahmut, Mallukhon, Punjab.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В марте 1398 года Амир Темур объявил джихад Индии и начал действовать. После завоевания района Кабула он прошел через реки Пенджаб и Синд, занял знаменитый форт Батнир в Индии и достиг Дели. К декабрю 1398 года он завоевал весь остальной мусульманский север Индии. Разрушив места, где жили буддисты и индусы, он вернулся в Самарканд, столицу своей страны, 29 апреля 1399 года со множеством слонов и добычей. Таким образом Амир Темур смог добиться желанной победы в Индийском походе, но вскоре после его смерти земли Индии отошли империи Тимуридов. Однако позже в Индию пришли тюркские правители из Средней Азии и успели обосноваться. Таким образом, на севере Индии веками продолжалось мусульманско-турецкое правление, и Амир Темур вошел в историю как человек, начавший это правление.*

**Ключевые слова.** *Индия, Батнир, Дели, Газна, Амир Темур, Панипат, Сайед Хизи Хан, Султан Махмут, Маллукхон, Пенджаб.*

### **KIRISH**

Miloddan avvalgi 7000-yillarga borib taqaladigan qadimiy tarixi va boy madaniy merosi bilan Hindiston asrlar davomida qudratli qabilalar va qahramon sarkardalar uchun harzamon bu hududlarga hukimronlik qilish muhim maqsadga aylangan. Hindistonni o'z hokimiyati ostida ko'rishni maqsadi qilgan sarkardalardan biri bu buyuk Iskandar Zulqarnayn edi. Miloddan avvalgi 327-yil bahorida u o'z qo'shini bilan Hindistonga bostirib kirdi. Iskandarning maqsadi Hind dengizi sohiliga chiqish edi. O'n to'qqiz oy davom etgan bosqinchilik yurishi uning qo'shini ko'p talafot ko'rishni tufayli nihoyasiga yetdi. Iskandarning Hindistonga istelosidan so'ng tashkil topgan Mauriya<sup>1</sup> imperiyasi Hindistonni uzoq vaqt bosqinchilardan himoya qilgan bo'lsa-da, uzoq vaqt hokimiyatni o'z qo'lida saqlab qola olmadi.

Eramizning 50- yillarida Hindistonga Kushonlar kirib kela boshladi va bu hududlarni o'z nazoratiga olib milodiy 300- yillarga qadar hukimronlik qildilar.

Keyingi davrlarda Hindistonga O'rta Osiyoda kuchayib borayotgan turkiy qavimlar bu boy geografiyada istilolar uyushtira boshladilar. G'aznaviyalar davlati sultonlaridan biri Mahmut G'znaviy o'zining birinchi hind yutishini milodiy 1001 yilda qilgan. Jami o'n oltita yurish natijasida u Hindistondagi hukimronligini

kuchaytirdi. Gʻaznaviylar tomonidan uyushtirilgan bu harakatlardan soʻng XII asrda Hindiston uchun olib borilgan janglar muhim voqealarga sabab boʻldi. 1151-yilda Gur davlati hukmdorlari tomonidan Gʻaznaviylarga tegishli barcha saroy va masjidlar vayron qilingan. 1175 yilda esa Guru davlati hukimdori Muizziddin Muhammad Lahorga chekingan soʻnggi gʻaznaviy qoʻshinlarini magʻlubiyatga uchtatdi. Shu tariqa Guru davlati hukimdori Muizziddin Muhammad Hindistonning katta qismini oʻz nazoratiga oldi. Sharqiy va Shimoliy Hindistonning katta qismini bosib olish. U davlatda birlikni taminlash maqsadda taxminan 35-yil kurashdi ammo 1205 yilda Hind daryosi yaqinida oʻldirilgach Gur davlati uzoq yashamadi.

Guru davlatining parchalanishi bilan Hindistonning siyosiy tarqoqligi birinchi Dehli sultonligi davrining Kutbiddin Aybek va Shamsiddin Eltutmush tomonidan qayta tiklandi. Taxminan 80 yil davom etgan bu davr 1286 yilda Dehli sultoni Balabanning vafoti bilan yakun topdi.

Keyingi turkiy xonadon vakillarining Hindistonda 1320-1338 yillarda hukmronlik qilgan siyosiy hokimiyati Tugʻluqlar sulolasi qoʻliga oʻtgan. Keyingi davri 1398-1399 yillar oraligʻida davom etgan Sohibqiron Amir Temurning Hindiston yurishlari bilan davom etdi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Tarixiy haqiqatni tiklash jarayonida zamonaviy yondashuvni talab qiladigan dolzarb muammolar mavjud boʻlib, ular qatoriga, davlatchiligimiz tarixida chuqur iz qoldirgan tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa chet el manbalarga asoslangan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borish jahon standartlariga mos hisoblanadi. Mazkur ilmiy maqolada tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillari kabi tarixiy metodlardan foydalangan holda, Sohibqiron Amir Temurning koʻp qirrali shaxsiyatini ochib berishda muxim sanalga manʼbalar asosida soʻz yuritiladi. Ziyodulla Muqimov “Amir Temur tuzuklari” Samarqand 2008-yil. Abdulaxad Muhammadjonov, “Temur va Temuriylar saltanati” Toshkent, 1994-yil. Forschadan Alixon Sogʻuniy va Habibulla Karomatov “Temur tuzuklari” Toshkent 1991-yil. Hamdam Sodiqov, “Amir Temur hayoti gʻaroyibotlari”, Toshkent 2007-yil. Marsel Brion, “Menkim Sohibqiron Jahongir Temur” Toshkent 2016-yil. Nizomuddin Shomiy, Zafarnama, tarjimon Nejati Lugal, Turk tarix jamiyati nashyoti, Anqara 1987-yil. Hamidulla Dadaboyev Amir Temurning harbiy mahorati Toshkent 1996. “Temur tuzuklari”, forschadan Alixon Sogʻuniy va Habibullo Karomatov tarjimasini Toshkent 1991. Ibn Arabshoh, “Ajoyib al-maʼqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari)”, Toshkent 1992. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, Toshkent 1997. Mixail Ivanin “Ikki buyuk



sarkarda” Toshkent 1994. Bu asarlar Amir Temur va Temuriylar davlati tarixini o‘rganishda muxim man‘ba va adabiyotlar bo‘lib xisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma‘lumki, 1392 yilda Sind daryosigacha bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur davlati hududiga tobey qilinib bu yerlar Amirzoda Jahangir o‘g‘li Pir Muhammadga berilgan va shahzoda boshqaruvni ta‘minlash uchun bu hududga yuborilgan. Besh yillik yurishdan qaytgan Sohibqiron Amir Temur Xo‘tan va Xitoy hududiga harbiy yurushga tayyorlayotgan edi. Hatto nabirasi Muhammad Sultonni ham chegaraga jo‘natib, tayyorgarlik ko‘rishni buyurdi. Biroq Sohibqiron Amir Temur birdan fikridan qaytdi va Hindistonga yurishga qaror qildi.

Sohibqiron Amir Temurning Hindistonga yurishigacha Tug‘luqlar sulolasining Dehli sultonligi so‘nggi o‘n yil ichida siyosiy inqirozlar sabab taxti egaligi yetti marta o‘zgargan<sup>3</sup>. Balki shuning uchun ham Amir Temur o‘zining avvaldan rejalashtirgan Xitoyga harbiy yurish yo‘nalishini o‘zgartirib, Hindistonning ichki notinchliklaridan foydalanmoqchi bo‘lgandir. Bundan tashqari, yana bir ehtimol, u Hindistondan oladigan o‘ljalar bilan amalga oshirishni rejalashtirgan harbiy yurishlari uchun moliyaviy manbalarni ta‘minlashni o‘ylagan bo‘lishi mumkin edi<sup>4</sup>.

Nihoyat Amir Temur 1398 yil mart oyida kofirlar bilan jehod qilishini e‘lon qilib, harbiy safarga chiqdi. Old qo‘shin qo‘mondoni sifatida yuborgan nabirasi Pir Muhammad may oyida Multanga kirdi. U oktyabr oyida Hind daryosini kesib o‘tdi. Yo‘lida Kobul viloyatini qo‘lga kiritgach, Panjob va Sind daryolaridan o‘tib, Hindistonning mashhur Batnir qal‘asini atroflarini zabt etadi. Amir Temur Ajvadan hududini egallab, uni o‘z idorasiga olgach, Xalis Kuteli qal‘asini ham egallab, Batnir qal‘asiga tomon yurdi. Taxminan ikki kunlik yo‘ldan so‘ng ikki mingga yaqin otliq qo‘shini bilan Batnir qal‘asiga yetib keldi. Bu qal‘a geosiyosiy jihatdan Hindistondagi eng muhim va qudratli qal‘alardan biri edi. Amir Temur qo‘shinini o‘z zamonasi uchun mukammal bir holatda tuzgan bo‘lib qo‘shinning o‘ng qanotida amir Sulaymonshoh, Shayx Nuriddin, Oллоhdod, so‘l qanotda esa Xalil Sulton Bahodir, Shayx Muhammad, Igu Temur va boshqa amirlar boshqaruvida edi. Avval ular Bend shahrini egallab olishdi ammo ichki qal‘ani o‘sha kuni zapt eta olmadi. Qal‘a mudofa qo‘shinlarining qarshilik ko‘rsatishi bilan Amir Temur o‘z qo‘shiniga o‘z tomondan yerga chuqur handaq qazishni buyurdi. Temurning harbiy qudrati va aql-zakovatiga endi qarshilik ko‘rsata olmasligini anglagan Batnir qal‘asi rojasi Dulchin o‘g‘li bilan birga taslim bo‘lib, Amir Temurga sovg‘a salomlar, jumladan, qimmatbaho otlar jo‘natadi. Bu Amir Temurning Batnir qal‘asini zabt etganidan dalolat edi. Amir Temur hukmronligini qabul qilishni istamagan xalqning bir qismi va ularning boshidagi qo‘zg‘olonchi askarlar o‘z rojasining taslim bo‘lishini qabul qilmay,

qarshilik ko'rsatsalar ham, Amir Temur buyrug'i bilan o'rnatilgan manjaniqlar qal'a devorlarini teshik ochib ichkariga kirdilar raqiblar esa taslim bo'lishga majbur bo'ldi. Har ikki tomondan juda ko'p askarlar va tinch aholi halok bo'ldi. Oxir-oqibat Temur qo'shini g'alaba qozonib, so'nggi manzilga yaniy Dehliga yo'l oladi. Avvaliga o'z yo'lida Kanatayi Havzi Abga yetib kelgan Amir Temur va qo'shini, so'ngra Firuzayi Bandagan, Fatxobod, Rajappur, Ahruniy va Asandiy qal'alarini egallab, asta-sekin Dehliga yaqinlashdi<sup>5</sup>.

Dehlidan 7 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan Loni qal'asini egallab, uni o'zlarining qarorgohiga aylantirdilar (1398 yil 10 dekabr). 1398-yil avgust oyida Hindiston yurishi chog'ida uning qo'shini Andiravga kelganida, butparastlar va sehir qiluvchilarning zulmidan va ta'qibidan shikoyat qilgan odamlar Amir Temur huzuriga kelib: "Biz musulmonmiz, bu yerdagi kofirlar, bizdan o'lpon va soliq olishadi bermasak, erkaklarimizni o'ldiradilar, ayollarimiz va bolalarimizni asirga oladilar<sup>6</sup>". Shundan so'ng musulmonlarning imdodiga ijobat qilgan Sohibqiron Amir Temur harakatga tushdi va butparast hindular panoh topgan qal'ani uch kun davomida qamal qildilar<sup>7</sup>.

Nizomiddin Shomiyning quyidagi jumllarida Temurning 1398-yilda Hindistonga qilgan yurishi zamirida jehod haqidagi fikr yotadi: "Amir Temurga Hindistonning Dehli, Kanbayt va boshqa ba'zi hududlarida islom tarqalib, tangalarga tavhid kalimalari yozilgan bo'lsa-da, bu hududlarda haligacha musulmon bo'lmaganlar yashab kelayotgani haqida xabar keldi. Mintaqada hukmronlik qilayotgan musulmon rahbarlar faqat bu g'ayri musulmonlardan soliq yig'ish bilan kifoyalanib, ularni islomga davat qilmasligi aqli va mantig'iga sig'masdi. Shu boisdan bu mamlakatlarni kofirlardan tozalashga qaror qilib, Hindistonga yurish qildi". Amir Temur Hindistonga yurishi chog'ida Suvalek yon bag'irlarida ko'p musulmon bo'lmaganlar to'planganidan xabar topgach, qo'shinga zudlik bilan u yerga borishni buyuradi. Hatto Mirzo Halil Sulton, Shayx Nuriddin, Sulaymonshoh kabi ba'zi amirlar: "Ular(kofir)ni, biz o'zimiz jazolaymiz, siz oliy hazrat qarorgohda qolib, dam olganingiz ma'qul", deganlarida ham Amir Temur shaxsan o'z askarlari bilan janga kirishadi. Butparastlar va majusiylarni qattiq jazolantirdi<sup>8</sup>.

Amir Temur 1398-yil 17 dekabrda Sulton Mahmudshoh va uning vaziri boshchiligidagi dushman qo'shini bilan Panipat va Dehli o'rtasidagi Jamna qirg'og'ida urushga kiradi. Hindlarning jangovar fillariga Amir Temurning otliq qo'shinlari aytilish mumkin bo'lsa o'z zamoninig tanklariga qarshi o'rtada tengsiz bir jangga kirdi. Ammo Amir Temur qo'shinni shunday tartibga solib qo'yдилarki, bunchalik ulkan va tartibli qo'shinni dunyoning ko'zi ko'rib qulog'i eshitmagan edi. Qarshi tomonda Malikzoda Sulton Mahmut, Malluxon va hind qo'shini

qo'mondonlari, o'n ming otlig, yigirma ming piyoda, bir yuz yigirma jangchi fil bilan turardi. Hindlar to'fonli dengiz va qora bulut kabi tish tirnog'igacha qurollar bilan paydo bo'ldilar, bezatilgan fillarga taxt o'rnatgan, momaqaldiraq va olov sochayotgan singari ko'rinar edi. Filning ustida bir nechta o'q otuvchi jangchilar o'tqazilgan edi. Amir Temur qo'shini ko'p jang chizig'ini yorib o'tib, ko'p xavf-xatarlardan omon o'tib, ko'p janglarni boshdan kechirgan bo'lsa-da, bu safar tog'dek fillarni ko'rib, aqllari larzaga keldi. Otlar fillardan juda hayiqardi. Bu orada Amir Temur saroy ayonlaridan Nasriddin O'marga joy nomozini hozirlashini buyurdi. Otdan tushib, ming tazarru va duolar ila ikki rakat namoz o'qib, tangridan fath va g'alaba so'radi. Amir namozni tugatib, salom berib, duo qildi. Ikkala qo'shin ham tog'dek bir birlariga qarshi, bu harakatdan yer ularning og'irligiga ko'tara olmas bo'ldi. Maydon muhorabasining harorati yuksa edi. Bir tomondan na filning tishidan, na yo'lbarsning panjasidan, na timsohning og'zidan qo'rqqan jangchilar qilich va nayzalari bilan filni va uning ustidagi jangchilarga hujim qilardi. Ammo Amir Temurning qo'shini fillarning hujumiga qarshi muvaffaqiyat qozana olmayotgan edi. Qo'shini mag'lub bo'lish arafasida turgan bir vaziyatda Amir Temur tezda o'z dahosini ko'rsatib tuyakashlarni tuyalari bilan bir saf tutishini buyurdi, tuyalar orasini uzun temir zanjirlar bilan tuyalar bir biri bilan tutashtirildi. Zanjirlarga o'tkir sixli to'g'nog'ichlar taqildi va tuyalar ustiga yonishi mumkin bo'lgan narsalar qo'yildi. Har tuyakashning qo'liga esa bittadan mash'ala beridi. Ularnig ortidan kamonchilar va nayzali suvoriy qoshinini saf torttirdi. Mash'ala tutgan tuyakashlarga tuyalar ustidagi yonadigan narsalarni yondirib to'g'ri fillar tomon harakatlanishini buyurdi. Tuyalar ustida yo'ng'in bilab bir olov chambaragi kabi fillar tomon jon holatda yura boshladi bu esa fillarni qo'rqitib ortga yurishiga va hind qo'shiniga katta talafat berib saflarini tamoman buzib yubordi. Shund Amir Temur kamonchilarga o'q otishni buyurdi ortidan nayzali suvoriylarga ishora qildi. Bu dahosi bilan Sohibqiron Amir Temur jang taqdirini ikki soat ichida o'z foydasiga halqildi<sup>8</sup>. Nihoyat, Sulton Mahmud va Malluxon oz sonli askarlari bilan jang maydonini tashlab qochib ketishdi. Amir Temur Dehlida o'n besh kun bo'ldi. U Hindiston sultonlari taxtiga o'tirdi. Ketishdan oldin u Multan va Panjobni boshqarishni Seyid Hizixon ismli musulmon hindga topshirdi uo'n uch yil Dehli sultoni bo'lib xizmat qildi. 1398-yil dekabrda Temur Shimoliy Hindistonni butunlay egallab olishga muvaffaq bo'ldi. Buddistlar va hindular yashagan joylar vayron qilindi, u ko'plab fillar va o'ljalar, mohir usta va ilm ahli bilan 1399-yil 29-aprelda o'z mamlakatining poytaxti Samarqandga qaytib keladi. Amir Temurning vafotidan so'ng Hindistonda uzoq vaqt markaziy hokimiyat qurilmadi va yana viloyatlar parchalangan holda boshqaruvni davom ettirdi. Manbalarda aytilishicha, Sohibqiron Amir Temur o'limi vaqtida musulmonga

yarashir va munosib tarzda vafot etgani aytiladi. O‘lim arafasida chodiridan tashqarida quron tilovat qilayotgan Mavlono Haybatullohni ichkariga chaqirib, to‘shagida Qur‘on o‘qib, kalimai tavhid takror qilishni so‘radi. O‘zi ham Mavlono Haybatullohdan keyin kalimai tavhidni bir necha marta takrorlab, vafot etdi.

### **XULOSA**

Hukmdor sifatida butun umrini islom diniga xizmat qilish uchun o‘tkazgan, davlatini boshqarish chog‘ida islom dini amrlaridan aslo chetga chiqmagan Sohibqiron Amir Temur, u yurishlarini yo kofirlarga qarshi jihad qilish maqsadida yoki musulmon xalqiga zulm qilgan musulmon hukmdorlarga qarshi uyushtirardi<sup>10</sup>. Amir Temur islomiy tamoyillarga asoslangan, butun xalqi musulmon bo‘lgan jahon davlatini barpo qilmoqchi edi. U davlati sarhadlarini kengaytirish, islom dinini kengroq geografiyalarga yoyish uchun kurashgan sarkarda-davlat arbobi edi. Shu maqsadda u yuzlab harbiy yurushlar uyushtirdi.

Ma‘lumki, uning asosiy maqsadi hind diyorida islom dinini hukmron qilib, bu geografiyada siyosiy va harbiy hukmronlikni o‘rnatish edi. Dehlini ishg‘ol qilgandan so‘ng u yerga Said Hizixon isimli musulmon kishini hukmdor atadi.

### **REFERENCES**

1. Hadicha Derya Jan, "Maurya imperatori Chandragupta davridagi boshqaruv", Anqara universiteti DTCF Tarix jurnali, 50 (1), 2011- yil, 50 bet.
2. Hermann Kulke va Dietmar Rothermund, "Hindiston tarixi", tarjimon, Mufit Gunay, Anqara: Imge Kitabevi, 2001-yil, 240-245 bet.
3. Bayur Yusel Hikmet, "Hindiston tarixi", Anqara: Turk Tarix Jamiyati nashryoti, 1987 y. I jild 331bet.
4. Aka Ismoil, "Temur va uning davlati", Anqara: Turk Tarix Jamiyati nashrlari, 2000 yil, 22 bet.
5. Nizomiddin Shomiy, "Zafername", tarjimon, Necati Lugal, Anqara: Turk Tarix Jamiyati nashryoti, 1987 yil, 220-223 bert.
6. Yuksel Musa Shomil, "Temuriylar davrida din-davlat munosabatlari", Anqara, turk tarix jamiyati nashryotii, 2009 yil 63 bet.
7. Yuksel Musa Shomil, "Temuriylar davrida din-davlat munosabatlari", Anqara: Turk Tarix Jamiyati nashryotii, 2009 yil 61-62 bet.
8. Yuksel Muso Shomil, "Aab manbalarida Temur", Bilig nashryoti, 31 son, 2004 yil, 91-92 bet.
9. Yuksel Musa Shomil, "Temuriylar davrida din-davlat munosabatlari", Anqara: Turk Tarix Jamiyati nashryotii, 2009 yil 29 bet.

10. Yuksel Musa Shomil, “Aab manbalarida Temur va din”, Tarixiy tadqiqotlar jurnali, 23 (1) son, 2008 yil, 240 bet.
11. Marajabov, B. N. M. O. G. (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARINING HAJ ZIYORATI TARIXIGA NAZAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 862-868.
12. Bebitov, M. A. (2021). TURKIYA ANTAKIYADAGI O’ZBEKLAR TAKIYASI TARIXI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1233-1241.
13. Bebitov, M., & Qalandarova, M. (2022). QADIMGI TURK (KO’KTURK) XALQLARDA BOSHQARUV TAFAKKURINING ASOSIY TAMOYILLARI VA QONUNLARI. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(12), 328–333.
14. Bebitov, M. A., & Mardonov, M. I. O. G. L. (2022). QORAXONIYLAR DAVLATIDA TA’LIM FAOLIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 487-491.



## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ БОЕВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ВИНТОВКИ М-16 И АВТОМАТА АК-74**

**Ниёзов С.У.**

Подполковник старший преподаватель кафедры  
“Вооружения и стрельбы” ЧВТКИУ

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье вкратце рассматривается сравнительный анализ боевых возможностей штурмовой винтовки М-16 и автомата АК-74 с учетом требований современности.*

**Ключевые слова:** *Вооруженные силы, спасение человеческой жизни, боевые возможности, автомат АК-74, штурмовая винтовка М-16, патрон.*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada hozirgi zamon talablariga ko'ra AK-74 avtomati va M-16 vintovkalarining jangovar imkoniyatlari bo'yicha zarur bo'lgan individual va umumiy taqqoslash haqida qisqacha ma'lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qurolli kuchlar, inson hayotini qutqarish, jangovar imkoniyatlar, AK-74 avtomati, M-16 vintovkasi, o'q-dorisi.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

Спасение человеческой жизни в боевых условиях высоко приоритетно! Для боевых машин необходимы общие решения, а для стрелкового оружия необходим их индивидуальный и общий сравнительный анализ их боевых возможностей. Поэтому, уважаемый читатель, вместе с Вами проведем сравнительный анализ боевых возможностей штурмовой винтовки М-16 и автомата АК-74 с учетом требований современности.

Главная тенденция мирового рынка автоматического стрелкового оружия предопределяется конкурентной борьбой винтовкой М16. Оба оружия находятся на вооружении десятков армий мира. Мы рассмотрим их преимущества и слабые стороны. Сравнение характеристик автомата АК-74 и винтовки М16 был актуален и велся на протяжении долгих лет: «Что лучше АК 74 или винтовка М16?» Споры об этом - не утихают уже полвека. Автомат АК 74 прост и надежен, а винтовка М16 точна и высокотехнологична.

Мы выяснили, что по совокупности факторов русский автомат опережает американскую винтовку. Так, кстати, думает и весь мир. Автомат Калашникова через год отпразднует 76-летие. Он создавался в годы Великой Отечественной и был принят на вооружение в 1947 году. Первым калибром АК стал патрон 7,62 миллиметра. Это было чрезвычайно мощное оружие - с 300 метров

автоматная пуля пробивала кирпичную кладку и могла убить прятавшегося за ней бойца. Однако мощная отдача и большой вес движущихся частей снижали кучность и точность стрельбы.

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

В 1974 году АК получил новый 5,45-миллиметровый патрон, дульный компенсатор, а затем и переработанную схему автоматической перезарядки, что в совокупности улучшило кучность в два раза. Недостатком автомата называли также его полностью стальную конструкцию - большая масса не позволяла навесить на него гранатомет или оптический прицел. Штатный прицел АК -74 открытый секторный, - считался слишком простым, а примыкание магазина требовало, по мнению некоторых экспертов, чрезмерных усилий. Но отсутствие пластика в несущих деталях сделало автомат нечувствительным к ударам, увеличило его ресурс и ремонтпригодность. Механический прицел не закрывает обзор стрелку и позволяет моментально переносить огонь на другую дистанцию. Магазин АК примыкается не так естественно, как в М-16А2 или НК G33, но зато он примыкается всегда, даже когда солдат с оружием в руках прополз по грязи 500 метров, а потом залег в канаве на рисовом поле, заполненном, как и положено этим полям, водой - заметил ветеран американских ВДВ Дэн Шэни.

Для примыкания магазина АК не требуется каких-то усилий или навыков. Исключительная надежность и простота конструкции, не требующие от стрелка специальной подготовки - главные достоинства автомата Калашникова, снискавшие ему мировую славу. На долю АК приходится 20 % всего имеющегося на планете стрелкового оружия. По всему миру выпущено более 80 миллионов автоматов, Калашников стоит на вооружении 50 иностранных армий и украшает гербы и флаги нескольких государств.

Длинное пехотное ружье автоматическая винтовка М16 на 15 лет моложе, произведена в количестве 10 миллионов штук и стоит на вооружении 27 стран.

Она изначально разрабатывалась под патрон 5,56 миллиметра. Автоматика перезарядки здесь более хитрая: узкая трубка отводит пороховые газы прямо к затвору, из-за чего подвижный узел получился компактным и при стрельбе очередями М16 успевает кучно положить первые несколько пуль, прежде чем ствол смещается в сторону.

В силу особенностей конструкции М16 очень чувствительна к песку и грязи. Американским солдатам во Вьетнаме было рекомендовано чистить оружие 3-5 раз в день, а его разборку производить только в закрытом помещении, не только вследствие опасности попадания инородных предметов в

ствольную коробку, но также из-за обилия мелких деталей. Попавшая в ствол М-16 вода не всегда вытряхивается одним движением из-за его малого диаметра, большой длины и своеобразного типа нарезов. В результате ствол выходит из строя после нескольких выстрелов и требует замены. Любопытно, что АК-74 при почти таком же калибре этого недостатка лишён начисто.

Ствольная коробка винтовки сделана из алюминиевого сплава и трескается не только при падении на землю, но и от ударов о корпус бронетехники, поручни трапов и другие твердые предметы.

Еще один существенный недостаток винтовки - ее габариты, заставившие увеличить высоту американских бронетранспортеров. Длинный ствол М16 отражает концепцию "Длинного пехотного ружья", занимавшую умы американских командиров со Второй мировой войны: он увеличивает дальность стрельбы и повышает ее точность на больших дистанциях. Однако конфликты новейшего времени показали, что реальная дистанция огневых контактов не превышает 300 метров.

Кучность боя изначально не была сильной стороной АК. Уже во время войсковых испытаний его опытных экземпляров было отмечено, что при наибольшей из представленных на конкурс систем надежности, требуемой условиями кучности конструкция Калашникова не обеспечивала (как и все представленные конструкции в той или иной мере). Таким образом, по этому параметру даже по меркам середины 1940-х годов АК явно не был выдающимся образцом.

Тем не менее, надежность эксплуатационных характеристик: безотказность, настрел до получения отказов, гарантированный ресурс, действительный ресурс, ресурс отдельных деталей и узлов, сохраняемость, механическая прочность и т.п., были признаны в то время первостепенной, а доводку кучности до требуемых параметров было решено отложить на будущее. Дальность прямого выстрела по грудной фигуре - 350 м. АК позволяет поражать одной пулей следующие цели (для лучших стрелков, лежа с упора, одиночным огнем): головная фигура - 100 м; поясная фигура и бегущая фигура - 300 м; Для поражения цели типа «бегущая фигура» на расстоянии 800 м в тех же условиях требуется при стрельбе одиночным огнем - 4 патрона, при стрельбе короткими очередями - 9 патронов.

М16 изначально не предназначались для интенсивной стрельбы. В основу поставлен принцип высокоточного оружия с небольшим настрелом до проведения чистки. Прицельная дальность составляет 450 метров для М16А1 и 800 метров для М16А2. Они имеют эффективную дальность стрельбы 500

метров по одиночным целям и 600 метров – по групповым. Отвод пороховых газов ведется прямо в ствольную коробку, поэтому М16 весьма требовательны к качеству патронов и стреляют из них только патронами определенных производителей. После каждой стрельбы требуется чистка механизма, а полная их разборка возможна только в специально оборудованной мастерской. Ремонт М16 можно производить только в сертифицированной оружейной мастерской.


Современным локальным войнам свойственна тенденция к увеличению их продолжительности. В силу этого интенсивность боевых действий приобретает, как правило, неравномерный и циклический характер.

Другая характерная черта современных войн – ведение сражений, боевых действий и боев по отдельным направлениям, наличие больших промежутков в оперативном построении, очевидно, что автономность применения группировок войск обуславливает соответствующие требования к организации обеспечения войск. В связи с развитием средств вооружений огневое противостояние сторон может выходить за пределы действия группировок войск и охватывать всю территорию воюющих стран. Отсюда вытекает другая важнейшая особенность современных операций – их ненормативный пространственный размах.

Оба образца относятся к одному классу оружия и сравнивать их можно, но с учетом отдельных моментов, ну и, естественно, при условии одинакового состояния оружия и с теми патронами, которые используются там, где оружие применяется.

А началось все с того, что во время войны во Вьетнаме, советским хирургам, работавшим в Ханое, начали поступать на операционные столы раненные солдаты и партизаны, с очень необычным характером ранений.

Раны нанесенные пулями из новой американской штурмовой винтовки были действительно страшные, а с учетом того что в джунглях с подобными ранениями долго не выживают – процент смертности среди раненных которых не донесли до полевых госпиталей был очень высоким.



Раневой канал пули калибра 5,56 мм. Длина шейки минимальна, составляет 2-3 см.

Применение армией США в ходе войны во Вьетнаме новой малокалиберной винтовки M16A1 и принятого к ней в 1963 г. патрона M193 калибра 5,56 мм выявило, что малокалиберные пули массой всего 3,56 г приводили к ранениям, по тяжести сравнимыми с действиями запрещённых в ООН разрывных пуль и пуль типа «дум-дум». Это послужило основанием, поднять этот вопрос на Совете Безопасности ООН советским представителем и сравнивать ранения от пуль винтовки M16A1 с поражающим действием разрывных боеприпасов. Тогда представители СССР и стран СЭВ потребовали у США немедленно прекратить их использование, что США сделало с определенным облегчением почему?

Дело в том, что уже тогда выяснилась еще одна мало приятная особенность боеприпасов типа M193 калибра 5,56 мм. Помимо технического несовершенства конструкции M-16, делающей эту штурмовую винтовку мало живучей и неремонтоспособной в полевых условиях, было еще кое что. «Недокрученность нарезов» за счет чего, по сути и достигался эффект опрокидывания (нестабильности) пули при попадании в цель и ее хаотический излет, сделали стрельбу из M-16 в условиях джунглей Вьетнама практически бесполезной.



